

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 2, 2024

[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)



<https://buxdu.uz>



*The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency*

\*\*\*

*According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.*

\*\*\*

*Address:*

*200117, Buxoro city,  
K.Murtazoyev street, 11  
Bukhara State University  
Editorial and publishing  
Department  
Phone: +998 (94) 837-18-38*

**The journal is published 4 times a year**

*Website: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*

*Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011 - yil 25-fevral № 05-45-soni guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.*

\*\*\*

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi 2013-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

\*\*\*

*Tahririyat manzili:*

*200117, Buxoro shahri,  
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy  
Buxoro davlat universiteti  
"Tahririyat-nashriyot" bo'limi  
Tel: +998 (94) 837-18-38*

**Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.**

*Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*

*Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.*

\*\*\*

*Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.*

\*\*\*

*Адрес:*

*город Бухара 200117,  
улица М.Икбала, 11  
Бухарский государственный  
университет  
Редакционный отдел  
тел: +998 (94) 837-18-38*

**Журнал выходит 4 раза в год.**

*Website:  
[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)*



# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

2-sin 2024-yil. \* Выпуск 2. 2024 год.

## TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

### BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: BAROTOV SH. R.

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии психологических наук  
**MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ**

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SHOUMAROV G'.B.

Psixologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston  
Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi  
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOROBENYIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor  
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor  
JUMAYEV R.G'.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
NISHONOV A.Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor

BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor  
BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent  
AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent  
ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.  
OSTONOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

RUSTAMOV Sh.Sh.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

TILAVOV M.H.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., professor

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. – filologiya fanlari doktori, professor  
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

### TEXNIK MUHARRIRLAR – TEX.

#### РЕДАКТОРЫ:

Shirinova M.Sh., filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)



# PSYCHOLOGY

## SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 2: 2024

### EDITORIAL BOARD:

#### EDITOR-IN-CHIEF: BAROTOV SH. R.

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

EXECUTIVE SECRETARY: Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,  
The rector of Bukhara State University  
SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor, Full  
member of the Academy of Sciences of the  
Republic of Uzbekistan

UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor  
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KOROBENNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor  
SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor  
BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor  
KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor  
JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor  
JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent  
NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor  
NAZAROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor  
IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor  
BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor  
RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor  
BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent  
AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent  
ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent  
OSTONOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent  
RUSTAMOV Sh.Sh.

PhD of Psychology, Docent  
TILAVOV M.H.

PhD of Psychology

#### EDITORS:

Usmanova M.N. – Candidate of Psychology,  
Professor

Mukhtorov E.M. – Candidate of Psychology,  
Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences  
(PhD), Docent

Abuzalova M.K. – Doctor of Philological  
Sciences, Professor

Sobirova D.A. Doctor of Psychology,  
Professor

#### TECHNICAL EDITORS:

Shirinova M.Sh., Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences  
(PhD)



*Miralimov Mirjamol Yuldashevich,  
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

## **VOYAGA YETMAGANLARDA JINOYAT MOTIVLARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar hamda o’smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishida salbiy omillardan himoya qiluvchi zamonaviy psixologik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari voyaga yetmagan o’smirlarda jinoyat motivlarini shakllanishiga doir o’zbek va xorij olimlari olib brogan nazariy hamda amaliy faoliyat natijalari o’rganilgan. Shuningdek, o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining tub sababları va mohiyatini aniqlashga yo’naltirilgan ijtimoiy-psixologik so’rovnama ishlab chiqilgan va natijalar tahlili olib borilgan.

**Kalit so’zlar:** xulq-atvor, voyaga yetmagan shaxslar, zamonaviy-psixologik mexanizmlar, jinoi xulq motivatsiyasi, psixokorreksion tarbiya, huquqiy ong, individuallik, demografik guruhlar.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ**

**Аннотация.** В данной статье разработаны психологические факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, а также современные психологические механизмы защиты от негативных факторов формирования преступных мотивов в поведении подростков. Кроме того, изучены результаты теоретической и практической деятельности узбекских и зарубежных учёных по формированию преступных мотивов у несовершеннолетних подростков. Также разработана социально-психологическая анкета, направленная на выявление коренных причин и сущности формирования преступных мотивов у подростков, проведён анализ результатов.

**Ключевые слова:** поведение, несовершеннолетние личности, современные психологические механизмы, мотивация преступного поведения, психокоррекционное воспитание, правосознание, индивидуальность, демографические группы.

## **PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN MINORS**

**Abstract.** This article develops psychological factors that influence the formation of criminal motives in minors, as well as modern psychological mechanisms that protect against negative factors in the formation of criminal motives in adolescent behavior. In addition, the results of theoretical and practical activities brogan conducted by uzbek and foreign scientists on the formation of criminal motives in underage adolescents have been studied. Also, a socio-psychological questionnaire was developed, aimed at determining the root causes and essence of the formation of criminal motives in adolescents, and an analysis of the results was carried out.

**Keywords:** behavior, minor persons, modern psychological mechanisms, motivation of criminal behavior, psychocorrectional upbringing, legal consciousness, individuality, demographic groups.

**Kirish.** Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab ularga oqilona yechim topish va natijalarini to‘g’ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o’rganishga yo’naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan “Bolalar huquqi to‘g’risidagi Deklaratsiya”da bolalarga jismoniy va ma’naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi”, “gunoh qilgan bola to‘g’ri yo‘lga solinishi”, “og‘ir damlarda bola mehr ko‘rib voyaga yetishi va himoya qilinishi” ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida “bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqyapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo‘layotgani, o‘qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o’smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘layapti? Ba’zi yoshlarimiz

uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsada, haqiqat” degan edilar. Shuningdek, jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlarida “profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha ishlovchi mas’ul xodimlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ishslash bo‘yicha axborotnomalar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish” kabi vazifalar belgilanib, bu borada o‘smirlarda huquqbazarlik va jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasining samarali metodikalarini aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, hamda barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan va jinoyat motivlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

**Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili.** Voyaga yetmagan o‘smirlar xulqi og‘ishganligi muammosi bo‘yicha turli soha vakillari, jumladan, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myashev, I.P.Pavlov, QQPlatonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar o‘z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma’lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotovlar, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘smirlar xulqi og‘ishganligining ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma’lum darajada e’tibor qaratilgan. Shunday bo‘lsa-da, maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘ziga xos qiyosiy tipik xarakterga ega bo‘lgan xulq og‘ishganligi ko‘rsatgichlarini tadqiq qilish masalasi alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida ko‘rib chiqilgan.

Bu muammolar yechimiga ilmiy psixologik nuqtayi nazardan yondashsak, axir, har qanday xattiharakat (va hatto harakatsizlik) deyarli har doim o‘z motiviga ega. Unda motivatsiya nima? Bu savolga ilmiy va asosli javob topish uchun jahon psixologiya fanida motiv va motivatsiya muammolari qanday tadqiq etilganligini tizimli o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Motiv va motivatsiyaga doir nazariyalarni o‘rganar ekanmiz, bu tushunchaning aniq mazmuniy mohiyatini yoritish zarurati yuzaga keladi.

Chet el psixologiyasida motivlar va motivatsiyani o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib ular jahon psixologiyasiga qo‘shilgan katta hissadir.

G‘arb psixologiyasida motivatsiya muammolari dastlab Spinoza, Gobbs, Dekart asarlarida o‘z ifodasini topganligini ko‘ramiz. Ushbu masalalar bilan assosionistik, introspektiv, bixevoirizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz kabi psixologiya maktablarining namoyandalari keng ko‘lamda shug‘ullanganlar (U.Djeyms, E.Tolmen, K.Xall, K.Levin, 3.Freyd va boshqalar).

Aslida, psixologiyada motiv (nemischa-“motive”, fransuzcha-“motif”, lotincha-“movere” so‘zidan kelib chiqadi) - harakat qilaman degan ma’noni anglatadi. Zamonaviy psixologiyada motivatsiya atamasi subyektni faollikka undovchi yoki faolligini ta’minlovchi kuch sifatida ishlatiladi. Motivatsiya ehtiyoj va instinktlarga, ehtiros va hissiyotlarga, munosabat va ideallarga mazmun bag‘ishlaydi.

Motivatsiyaning bir necha ta’rifi mayjud:

Motivatsiya-bu harakat qilishga undovchi kuch;

Motivatsiya - har qanday faoliyat orqali insonning ehtiyojlarini qondirish qobiliyati;

Motivatsiya - bu insonning xatti-harakatini boshqaradigan va uning faoliyatini tashkiliy yo‘nalganligini, barqarorligini belgilaydigan dinamik psixofiziologik jarayon.

Motiv bu g‘oyaviy-ma’naviy yoki moddiy obyektga yo‘nalgan harakatlar bo‘lib, uning muvaffaqiyati faoliyatning barqaror maqsadi va mazmundorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtida motivatsiya konsepsiyasiga munosabat turli olimlar tomonidan turlicha farqlanadi. Kimdir motivatsiyani inson faoliyatini yuzaga keltirgan jarayonlarning to‘plami deb mulohaza qiladigan bo‘lsa, boshqalari motivatsiyani maqsadga erishishga yo‘nalgan harakatlarning bir qismi deb baholaydi.

Ba’zi nazariy tahlillarda motiv tez-tez ehtiyoj yoki maqsad bilan aralashib ketganligini kuzatamiz, ammo ehtiyoj bu noqulaylikni bartaraf etishga qaratilgan anglangan kechinmadir. Motiv - maqsadni belgilashning ongli jarayonidir. Misol uchun, ochlik ehtiyojni yuzaga keltiradi, ovqatlanish xohishi bu motivdir. Odamning qo‘li yetadigan, foydalanishga mo‘ljallangan mavjud oziq-ovqat esa maqsad hisoblanadi.

Motivatsiya yoki motiv o‘zining xilma-xilligi bilan farqlanuvchi murakkab psixologik hodisa hisoblanadi.

Motivatsiya nazariyasini o‘rganish va insonning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularning mazmuni va uning motivatsiya bilan qanday bog‘liqligini aniqlash hamda ular odamni muayyan faoliyatga nimaga undashi

kerakligini tushunish mazkur muammoni ilmiy asoslash va yechimini topishga yordam beradi. Ushbu ehtiyojlarni o'rganish uch asosiy yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi:

- motivatsiyaning tayanch (muhim) nazariyalari;
- motivatsiyaning protsessual nazariyalari;
- insonlarning o'ziga xos qiyofasini o'rganishga asoslangan motivatsiya nazariyalari.

Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

G.Ollport inson motivatsiyasi mohiyatini ochishda shaxsning shakllanishi va ijtimoiy mohiyatiga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etish g'oyasini ilgari suradi. Uning o'zini-o'zi namoyon qilish nazariyasida shaxs motivatsiya subyekti tariqasida tahlil qilinadi. O'zining shaxs konsepsiyasida shaxsni "ochiq tizim" sifatida talqin qilib, motivni quyvi (biologik ehtiyoj) va yuqori (ma'naviy rivojlanish) darajalarga ajratadi. Ollport motiv shaxsda o'zak ekanligini ta'kidlaydi, lekin ma'naviy motivlarni ijtimoiy - tarixiy sharoitlar bilan uzviy aloqasi mavjudligini biroz diqqat-e'tibordan chetda qoldiradi.

Nil Miller o'z tadqiqotlarida motivatsiya muammosiga alohida e'tibor bilan qarab, maqsadga subyekt qanchalik yaqinlashsa, unga erishishga yo'nalganlik shunchalik kuchayadi: stimullarga subyekt qanchalik yaqinlashsa, unga ziyon keltirishdan chekinish, diskomfort hissa shunchalik ortadi. Noxush holatlardan chekinishning ifodalanganligi ehtiyojning kuchiga bog'liqidir. Uning fikricha, motivatsiya nazariyasi quyidagi ko'rinishga ega: ehtiyoj - kodlashish - mustahkamlanish. Ehtiyoj faollikni keltirib chiqaradi, agarda javob mustahkamlanmasa, u holda uni chiqarib tashlash tendensiysi hukm suradi. Mabodo javob mustahkamlansa, puxtalashtirilsa, javob bilan kod o'rtasida aloqa va mazmun-mohiyat tezroq vujudga keladi. Nazariyaning negizida ehtiyoj tizimi - kod - javob - mustahkamlash yotadi.

Amerikalik psixologlar Leyman Porter va Edvard Loulerlarning motivatsiya to'g'risidagi kompleks nazariyasi Broomning kutish nazariyasi va Adamsning adolat nazariyasi elementlarini o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. Ushbu modelda beshta parametr mavjud: sarflangan kuch, aql idrok, olingan natijalar, mukofot va qoniqish darajasi. Ushbu nazariyaga ko'ra, natijalar insonning yo'nalgan xatti harakatlariga, qobiliyatlar va insoniylik xususiyatlariga, shuningdek, uning o'z o'rnnini (mavqeini) aniqlashga bog'liqidir. Ish kuchi darajasi mukofotning qiyamatini va amalga oshirilgan harakatlar muayyan mukofotni olib keladigan ishonch darajasini belgilaydi. Bu yerda ham inson o'z ehtiyojlarini muayyan natijaga erishish uchun mukofot bilan qondiradi.

Agar Porter-Louler nazariyasining barcha tarkibiy qismlari batafsil o'rganib chiqilsa va tahlil qilinsa, unda yanada yuqori darajada motivatsiya mexanizmini tushinish imkoniyati yuz beradi. Biror kishining sarflagan sayi-harakatlari unga yutuqqa erishishning qanchalik qimmatli bo'lishiga va insonning munosabatlariga bo'lgan ishonchiga bog'liq. Biror kishining muayyan natijalarga erishishi, unda qoniqish va o'z-o'zini hurmat qilishini ta'minlaydi.

Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab - oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan moddiy tizimning oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqi) yo'nalishga qaratish inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, reguliyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalarini hamda radio, televideniye va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

**Muhokama va natijalar tahlili.** Avvalo shuni aytish kerakki, biz o'rganayotgan muammo doirasida ayrim olimlar tomonidan ko'pgina metodikalar milliy-madaniy muhitda qo'llanilgan bo'lsa-da, lekin ular foydalangan metodlar psixologik tadqiqotlar uchun yetarlicha axborot bera olmagani.

O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostik va psixokorreksion qonuniyatlarini chuqurroq, obyektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. O'smirlarni o'zini tutishi, odamlarga, voqeahodisalarga, narsalarga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi va tarbiyalanganlik darajasini o'rganishga yo'nalgan kuzatish, taqqoslash, suhbat, ular faoliyati natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanish mumkin. IPS (ijtimoiy psixologik so'rovnomasi) tuzish va o'smirlarning motiv va motivatsiyasi, xususan, ularda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-biologik, moddiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari omillar va qonuniyatlar o'rganish mumkin.

Dastlab, biz o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS)ni tayyorladik va undan foydalandik (mualliflar: prof A.Nazarov va tadqiqotchi M. Miralimov). O’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega. «Quyida sizga berilayotgan savollarga o‘ylab, o‘zingiz aynan to‘g‘ri deb bilgan sabab va omillarga tayanib aniq javob berishingizni (munosabat bildirishingizni) so‘raymiz. Javoblariningiz hayotiy va real voqelikka asoslanib, ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi».

Tadqiqot uchun o‘rganilayotgan (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7- jadvallardagi) o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim sabablar, omillar va manbalarni aniqlash uchun o’smirlar va ularning tarbiyasi uchun mas’ul kishilar tomonidan omillarning ahamiyatiga qarab tanlanishi aytildi. Ular tomonidan tanlanganlik darajasi (o‘rni) 1-o‘rin (maksimal) dan 5-o‘rin (minimal)gacha belgilandi. Tadqiqot o‘tkazilgandan so‘ng yoshlarda uchrab qolayotgan jinoiy xatti-harakatlar manbalarini aniqlash uchun yoki belgilarning ahamiyat darajasi (o‘rni)ni aniqlash va shunga nisbatan foiz imkoniyatini chiqarish maqsadida biz quyidagi tahlil (formula)dan foydalandik. 1-darajali deb tanlangan belgilar 5 imkoniyatga, 2-darajalilar 4 imkoniyatga, 3-darajalilar 3 imkoniyatga, 4-darajalilar 2 imkoniyatga, 5-darajalilar 1 imkoniyatga ega ekanligini belgiladik.

### 1-jadval.

#### O‘smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari n=150

№	M A N B A L A R	Tanlov natijalari	
		O‘rin	Foiz
1.	O‘smirlardagi mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi ta’sirida	1	87,8
2.	Hayotiy zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy narsalarga o‘zi xohlaganidek erishish maqsadida	2	80,9
3.	Tengdoshlari va jamoa orasida o‘z mavqeyini saqlash va barqarorlashtirish maqsadida	3	70,5
4.	O‘zini namoyon qilish, o‘z ta’sirini o‘tkazish va o‘zini tan oldirish uchun	4	72,6
5.	«Kuchhlilik»ni qo‘lga kiritish, boshqarishga erishish, o‘z mavqeyini orttirish hamda boshqalarga ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida	5	63,3

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS) o’smirlar xulq-atvorini aniqlash va atroficha o‘rganishga yo‘naltirilgan savollardan tarkib topgan bo‘lib (1-jadval), ularning hayoti va faoliyatida ko‘proq qaysi motivlar (xususan jinoyat motivlari) yetakchilik qilishi aniqlandi. So‘rovnoma shunday tuzilganki, uni tashkil etgan savollar yordamida inson mohiyatini, uni shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyotini ta’minlaydigan tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik omillarning ta’sir doirasini, ular o‘rtasidagi qonuniyatlarning mushtarakligini, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning ahamiyatini baholash o‘rganildi.

Natjalarni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan o’smirlarning xulq-atvorida jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan motivlardan quyidagilar boshqa omillarga nisbatan ustunlik qilayotganligi aniqlandi. Mazkur jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o’smirlarda jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari, manbalari va yo‘nalganligini aniqlashga doir yaqqol tasavvurga ega bo‘lishimiz uchun zarur edi.

Biz o‘rgangan respondentlar tomonidan o’smirlar (11-15yosh) xulq-atvorida yuzaga keladigan jinoyat motivlarining sabablari (manbalari) ulardagi mavjud ehtiyojlarning o‘z vaqtida qondirilmay qolayotganligining ta’siri natijasi (1-o‘rin 87,8%), sifatida baholandi. Bunda, birinchi navbatda o’smirning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, o‘qituvchilar va boshqa bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun mas’ul kishilar o’smirlarda kechadigan jismoniy-biologik, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik qonuniyatlarni bilishlari, shunga amal qilib yoshlar tarbiyasida doimiy nazoratda bo‘lishlari, tarbiyada o‘zgarishlar yoki yutuqlar bo‘lganda muntazam kuzatish orqali ularni qayd qilib borishlari, o’smirning keyingi bosqich tarbiyaviy taraqqiyotini ta’minalash va to‘g‘ri yo‘nalish olishi uchun kundalik zarur tarbiyaviy shart-sharoitlarni maslahatli va kengashilgan holda tashkil qilib takomillashtirib borishlari lozim bo‘ladi.

Ana shunday tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy bosqichlarda (oilada, mакtabda va mahalla-guzarda) o’smirlardagi mavjud ehtiyojlarni qondirilmay qolishi yoki bu ehtiyojlarga e’tiborsizlik, loqaydlik, o‘zi bo‘larchilikka qoldirish ular tarbiyasida qator muammolar shakllanishiga, eng muhim o’smirlar xulq-atvorida ulardagi mavjud qondirilishi zarur bo‘lgan ehtiyojlarni “O‘smirlarga xos vaziyatdan chiqish” yoki muammoni yechish maqsadida noqonuniy yo‘llar bilan, jamiyatda odamlar orasida, xususan o’smirlar o‘rtasida amal qilib turgan qadriyatlar, urf-odatlar va me’yorlarga (xalq psixologiyasiga) amal qilmay, jinoiy

xatti-harakatlarga tayanib, ulardan foydalangan holda amalga oshiriladi (erishiladi). Bunday holatda maqsadga osonlikcha erishish yoki noqonuniy xatti-harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga asos bo’ladi. O’smirlarda bunday chora va usullarning yuzaga kelishi, takrorlanishi natijasida sterotiplashishi (barqaror sifat va xususiyatlarga aylanishi) o’smirlar uchun hayotiy zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy narsalarga o’zi xohlaganidek erishish maqsadini motivatsion tizimini shakllantiradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga ko’ra, respondentlarning (2-o’rin, 80,9%) o’smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining muhim sabablaridan yana biri o’smirlar kundalik hayoti va faoliyati uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy narsalarga o’zi xoxlaganidek erishish yo’llarini o’zi belgilashidir.

O’smirlik yoshida ko’zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o’zini-o’zi anglashga bo’lgan e’tiborlarining kuchayishidir. Bu o’rinda o’smir o’zida mavjud bo’lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlarga o’rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanib ko’radi. O’zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. O’smirlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o’z mavqeyini saqlash va barqarorlashtirish choralarini ko’rishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizda o’rganilgan o’smirlarga xos ana shunday xususiyatlar ham ular xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishiga muhim sabab sifatida ta’sir qilishi aniqlandi (3-o’rin 70,5%). O’smirlarda xulq-atvor rivojlanishining bunday tus olishi, motivatsion yo’nalganlik o’z tengdoshlari va jamoa orasida “o’zini namoyon qilish, ularga o’z ta’sirini o’tkazish va o’zini tan oldirish” munosabat tizimini shakllantirib boradi. O’rganilgan respondentlar tomonidan o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishi uchun ana shunday xususiyatlarning mavjudligi (4-o’rin 72,6%) eng muhim sabablar sifatida e’tirof etilgan.

O’smir xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining yuqori bosqichi sifatida yuzaga keladigan “Kuchlilikni qo’lga kiritish, boshqarishga erishish, o’z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta’sir doirasini kengaytirish”ga intilish (5-o’rin 63,3%) jinoiy xatti-harakatlarga tayyorgarlik, yo’nalganlik, natijalarga erishishni ta’minalash bosqichini ham ifodalaydi. Bu holatlar aynan shunday o’smirlar yashayotgan oilalarda ota-onalarning munosabatlaridagi beqarorlik, tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarash oqibatida tarbiyaning yaxshi kechmayotganligi, oilaning moddiy va ma’naviy taqsimotidagi kamchiliklar, uzilishlar eng muhimi, oilaviy tarbiyada loqaydlik, beparvolik, o’zi bo’larchilikka qoldirish, e’tiborsizlik holatlarining hukm surishi natijasidir.

Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko’ra 1-jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o’smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari va yo’nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo’lishimiz uchun zarur edi. Biz shunga tayanib, o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlashga harakat qildik. O’zbek milliy-madaniy muhitida shakllanayotgan o’smir yoshlar, ularning ota-onalari, o’qituvchilar, tarbiya uchun mas’ul huquq-tartibot organlari va jamoatchilik bilan o’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

**Xulosa.** O’smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi muammosini tadqiq qilishda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo’llashga mo’ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari, motivatsion yo’nalganligi, hissiy-irodaviy holatlari va individual-tipologik imkoniyatlarini hamda ularning aqliy, axloqiy-ma’naviy, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi va dunyoqarashini o’rganishga yo’nalgan ijtimoiy psixologik so’rovnomalardan foydalanildi. Metodologik pozitsiyalarini birlashtirish esa bugungi kun o’smirlarining xulq-atvori, motivatsion yo’nalganligi, tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaning istiqbolli andozalarini izchilroq o’rganish imkoniyatini yaratdi.

### Adabiyotlar:

1. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.
2. Rasulova F.F. O’smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo’lishining psixologik xususiyatlari // Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2018, - 49 b.
3. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: ЧеRo, Издательство МГУ, 1997. - 344 с.
4. Макшанов С. И. Профессиональный тренинг // Психология профессиональной подготовки. - СПб.: Речь, 1993.- 154 с.

5. Miralimov M.Y. Voyaga yetmagan shaxslarda jinoyat motivlari shakllanishining psixologik xususiyatlari //Yosh avlodning psixologik salomatligi – davlat siyosatining ustuvor vazifasi ” mavzusida ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: 2023 13- noyabr. B 237-240.



*Abdug‘aniyeva Diyora Abdurashid qizi,*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Din psixologiyasi ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti*

*abduganiyevadiyora2@gmail.com*

## **DESTRUKTIV EMOTSİONAL HOLATDAGI SHAXSLARDA SHAXS XUSUSİYATLARINING O‘ZİGA XOSLIGI**

**Annotatsiya.** Shaxs faoliyati va xatti-harakati har doim unda konstruktiv yoki destruktiv emotsiyalar va his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Voqelikka munosabat miyada aks etadi va zavq yoki qoniqmaslik, xursandchilik, qayg‘ u sifatida boshdan kechiriladi. Shaxsda emotsiyaning asosiy vazifasi shundaki, biz emotsiyalar tufayli bir-birimizni yaxshiroq tushunamiz, nutqdan foydalanmay turib ham bir-birimizning holatlarimizni baholay olamiz va birgalikdagи faoliyat va muloqotga yaxshiroq moslasha olamiz. Destruktiv emotsiyonal holat – bu qiyin hayotiy vaziyatni individual idrok etish, shaxsiy moslashish jarayonining mutanosib kelmasligi natijasida yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirishning buzilishi tajribasidir. Ushbu maqolada destruktiv emotsiyonal holatdagi shaxslarda shaxs xususiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, destruktiv emotsiyonal holatlar, xavotirlanish, vaziyatdan xavotirlanish, shaxs dan xavotirlanish, talaba, shaxs xususiyatlari, shaxs profili.

### **ЛИЧНОСТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛИЦ В ДЕСТРУКТИВНОМ ЭМОЦИОНАЛЬНОМ СОСТОЯНИИ**

**Аннотация.** Деятельность и поведение человека всегда вызывает возникновение конструктивных или деструктивных эмоций и чувств. Отношение к действительности отражается в мозге и переживается как удовольствие или неудовлетворение, радость, печаль. Основная функция эмоций в человеке состоит в том, что благодаря эмоциям мы лучше понимаем друг друга, можем оценивать ситуации друг друга даже без использования речи, лучше адаптируемся к совместной деятельности и общению. Деструктивное эмоциональное состояние – индивидуальное восприятие трудной жизненной ситуации, переживание нарушения удовлетворения потребностей, возникающее вследствие разбалансировки процесса личностной адаптации. В данной статье описаны специфические особенности личности людей, находящихся в деструктивном эмоциональном состоянии.

**Ключевые слова:** личность, деструктивные эмоциональные состояния, тревожность, ситуативная тревожность, личностная тревожность, студент, личностные характеристики, профиль личности.

### **PERSONALITY CHARACTERISTICS OF PERSONS IN A DESTRUCTIVE EMOTIONAL STATE**

**Abstract.** Human activity and behaviour always cause the emergence of constructive or destructive emotions and feelings. The attitude to reality is reflected in the brain and experienced as pleasure or dissatisfaction, joy, sadness. The main function of emotions in a human being is that due to emotions we understand each other better, can evaluate each other's situations even without using speech, we adapt better to joint activity and communication. Destructive emotional state is an individual perception of a difficult life situation, the experience of violation of needs satisfaction, arising due to imbalance in the process of personal adaptation. This article describes specific features of personality of people in destructive emotional state.

**Keywords:** personality, destructive emotional states, anxiety, situational anxiety, personality anxiety, student, personality characteristics, personality profile.

**Kirish.** Shaxs faoliyati va xatti-harakati har doim unda konstruktiv yoki destruktiv emotsiyalar va his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Voqelikka munosabat miyada aks etadi va zavq yoki

qoniqmaslik, xursandchilik, qayg‘u sifatida boshdan kechiriladi. Emotsiyalar organizmning funksional holatini va shaxs faoliyatini tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Psixologiyada bir qator kuchli, chuqur emotsiyal holatlarga oid tavsif va tadqiqotlar mavjud: qayg‘u, affekt, umidsizlik, tashvish, tajovuz, qo‘rquv, vahima, apatiya va boshqalar. Bu emotsiyal holatlar ko‘pincha shaxs ongingin faoliyatiga va muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qiladi, shuning uchun ular destruktiv emotsiyal holatlar sifatida tasniflanadi.


Destruktiv emotsiyal holat – bu qiyin hayotiy vaziyatni individual idrok etish, shaxsiy moslashish jarayonining mutanosib kelmasligi natijasida yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirishning buzilishi tajribasidir. Destruktiv emotsiyal holatlar nevrotik, psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga, shuningdek, shaxs xususiyatlarida ham ma’lum bir o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin [1].

**Asosiy qism.** Tadqiqot mazmuniga ko‘ra destruktiv emotsiyal holatlar yuqori darajada uchrovchi respondentlar sifatida talabalar tanlab olindi.

Destruktiv emotsiyal holatlar orasida talabalarda eng ko‘p uchrovchi emotsiyal holatlardan biri bu – xavotirlanish hissidir. Xavotirlanish – bu shaxsnинг nisbatan kichik sabablarga ko‘ra ko‘pincha qattiq tashvishlanishga moyilligida namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatdir. Ba’zi hollarda tashvish shaxs muammolarining subyektiv ko‘rinishidir. Zamonaviy tadqiqotlar ma’lum bir tashqi vaziyat bilan bog‘liq vaziyatli va barqaror shaxs xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsli tashvish o‘rtasidagi farqni aniqlashga qaratiladi.

Talabalarning ta’lim faoliyatidagi muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganadigan turli xil tadqiqotlar mavjud. Shuni hisobga olish kerakki, bu alomatlar erta bosqichda aniqlanganda, bu depressiya va xavotirlanish kabi destruktiv emotsiyal holatlarning oldini olish va tashxis qo‘yish imkonini beradi.

Aynan yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni hisobga oлган holda biz tadqiqotimizning amaliy qismida respondentlarning ayni vaqtidagi psixologik holatini va ulardagи emotsiyal holat shaxs xususiyatlari bilan qay darajada aloqador ekanligini aniqladik. Bunda xavotirlanish darajasini baholashga qaratilgan Spilberger-Xanin [2] metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalar qayta ishlangach respondentlar shkalalar ko‘rsatkichlari bo‘yicha norma, subklinik va klinik darajadagi guruhlarga ajratildi. Shularni inobatga olib, oliy ta’lim muassasasi talabalarining shaxs xususiyatlarini tahlil qilishni R.B. Kettelning “Kattalar shaxsini o‘rganish 16 PF (A variant)” metodikasi [3] orqali amalga oshirdik. Tadqiqot natijalari bizga xavotirlanish mavjud bo‘lgan shaxslarda qanday shaxs xususiyatlari ustun bo‘lishini aniqlashga yordam berdi. Bunda quyidagi holatni ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. “Spilberger-Xanin” metodikasidagi “Vaziyatdan xavotirlanish shkalasi” va “Kettel” metodikasi shkalalari o‘rtasidagi bog‘liqlik (OTMlar misolida)**

Tadqiqotimizning amaliy qismini olib borish davomida biz tomonimizdan shaxsdagi xavotirlanish darjasini va uning shaxs xususiyatlari bilan aloqadorligini aniqlash maqsadida “Spilberger-Xanin” metodikasidan ham foydalanildi.

Juda xavotirli deb tasniflangan odamlar, odatda, turli vaziyatlarda o‘zlarining hurmati va hayotiga tahdidni sezadilar va juda aniq tashvish holati bilan javob berishadi. Agar psixologik test subyektdagi shaxsiy tashvishning yuqori ko‘rsatkichini ifodalasa, bu uning turli vaziyatlarda, ayniqsa, uning malakasi va obro‘sini baholash bilan bog‘liq bo‘lsa, tashvish holatiga ega deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladi.


Xavotirlanish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda ishonch va muvaffaqiyat hissini paydo qilish kerak. Ular asosiy e’tiborni maqsadlarni belgilashda tashqi talabchanlik, qat’iylik va yuqori muhimlikdan faoliyatni mazmunli tushunishga va kichik vazifalarni aniq rejalashtirishga o’tkazishlari lozim.

Past darajada xavotirlanish mavjud shaxslar uchun, aksincha, faollikni uyg‘otish, faoliyatning motivatsion tarkibiy qismlarini ta’kidlash, qiziqish uyg‘otish, muayyan muammolarni hal qilishda mas’uliyat tuyg‘usini ta’kidlash kerak.

“Vaziyatdan xavotirlanish shkalasi”ni tahlil qilar ekanmiz, birinchi oliv o‘quv yurti misolida quyidagi holatlarni ko‘rismiz mumkin. Ya’ni ushbu shkala normada bo‘lganlar uchun I (yuqori darajada ta’sirchanlik), N (yuqori darajada murosakorlik) va F3 (past darajadagi sezgirlik) faktor xususiyatlari, subklinik va klinik darajadagilar uchun esa B (intellekt) faktor xususiyatlari xosligini ko‘rsatdi.

Ikkinci oliygoh talabalari natijalari esa “Vaziyatdan xavotirlanish” norma, subklinik va klinik darajadagilar uchun B (intellekt) faktor, subklinik va klinik darajadagilar uchun esa Q3 (yuqori darajada o‘zini-o‘zi nazorat qilish) faktor xususiyati xosligini ko‘rsatdi.

Reaktiv (vaziyatdan) xavotirlanish holati stressli vaziyatga tushganda yuzaga keladi va subyektiv noqulaylik, zo‘riqish, tashvish va vegetativ qo‘zg‘alish bilan tavsiflanadi. Tabiiyki, bu holat vaqt ichida beqarorlik va stressli vaziyat ta’sirining kuchiga qarab o‘zgaruvchan intensivlik bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, ushbu kichik shkala bo‘yicha yakuniy ko‘rsatkichning qiymati nafaqat subyektning haqiqiy tashvish darajasini baholashga, balki uning stressli vaziyat ta’siri ostida yoki yo‘qligini va unga bu ta’sirning intensivligi qanday ekanligini aniqlashga imkon beradi (1-rasm).



**2-rasm. “Spilberger-Xanin” metodikasidagi “Shaxsdan xavotirlanish shkalasi” va “Kettel” metodikasi shkalalari o‘rtasidagi bog‘liqlik (OTMlar misolida)**

Ushbu metodikaning “Shaxsdan xavotirlanish shkalasi” natijalari tahliliga ko‘ra esa birinchi oliv o‘quv yurti talabalarida bu shkala subklinik va klinik darajada mavjud va ular uchun B (intellekt) faktor xususiyatlari xos. Ikkinci oliygoh talabalarida esa bu shkala faqat norma darajada namoyon bo‘ldi va ular uchun Q3 (yuqori darajada o‘zini-o‘zi nazorat qilish) faktor xususiyati xosligi aniqlandi.

Shaxsdan xavotirlanish – bu keng ko‘lamli vaziyatlarda tahdidni idrok etish tendensiyasini belgilaydigan xususiyatdir. Yuqori darajada shaxsdan xavotirlanish mavjud bo‘lganda bu kabi mavzudagi har bir vaziyat subyektga stressli ta’sir ko‘rsatadi va uni aniq tashvishga soladi. Juda yuqori shaxsdan xavotirlanish nevrotik to‘qnashuvlar, hissiy va nevrotik buzilishlar va psixosomatik kasalliklar bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin (2-rasm).

Tadqiqotning keyingi bosqichida xavotirlanish mavjud bo‘lgan shaxslar ajratib olindi va ularda o‘tkazilgan eksperiment natijalari asosida shaxs profilining jinslararo shakllantirilgan tahlili quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (1-jadval):

A faktor muloqotga moyillik shkalasi bo‘yicha ( $U=1677,500$ ,  $p\geq 0,569$ ) ikkala jins vakillari o‘rtasida farq kuzatilmadi. Bu olingan natija respondentlar faoliyatlarini davomida va o‘zlari a’zo bo‘lgan kichik guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga moyilliklari, yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda jamoada ishlashga muvaffaqiyat garovi sifatida qarashlari, shuningdek, bu davrda shaxslararo munosabatga kirishish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishga professional taraqqiyotga ta’sir etuvchi omil sifatida qaralishi bilan izohlanishi mumkin.

B faktor intellekt shkalasi bo‘yicha ( $U=725,500$ ,  $p\geq 0,000$ ) sinaluvchilarimiz orasida farq aniqlandi. Unga ko‘ra tafakkur operativligi va tezkorligi, yuqori umumiy madaniyat darajasi, abstraktsiyalar bilan

ishlash qobiliyati, rivojlangan analitiklik, intellektual manfaatlar, yangilikka, erkin fikrlashga bo‘lgan intilish, dunyoqarash kengligi kabi sifatlar qizlarda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu xususiyat qizlarda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishiga albatta, bugungi kunda ayollar uchun ilm-fan sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar, gender tengligi masalasiga tobora jiddiy e’tibor qaratilayotgani kabi omillar ta’sir etgan. Chunki qulay sharoit har bir xususiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

**1-jadval.**

**“Kattalar shaxsini o‘rganish 16 PF (A variant)” (R.B.Kettel) metodikasining Mann-Uittni  
mezoni bo‘yicha tahlili (n=127)**  
**(Jins tafovutlari asosida)**

№	Shkalalar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
		Yigit (n=85)	Qiz (n=42)	U	p
A	Muloqotga moyillik	65,26	61,44	1677,500	0,569
B	Intellekt	51,54	89,23	725,500	<b>0,000***</b>
C	Emotsional beqarorlik-barqarorlik	55,42	81,37	1055,500	<b>0,000***</b>
E	Retsessivlik- dominantlik	56,59	78,99	1155,500	<b>0,001***</b>
F	Yuqori-quyi mulohazakorlik	58,75	74,63	1338,500	<b>0,017*</b>
G	Quyi-yuqori me’yoriy xulq-atvor	56,59	78,99	1155,500	<b>0,001***</b>
H	Qo‘rroqlik-jasurlik	58,61	74,90	1327,000	<b>0,016*</b>
I	Quyi-yuqori ta’sirchanlik	63,49	65,04	1741,500	0,820
L	Ishonuvchanlik-shubhalanuvchanlik	58,63	74,87	1328,500	<b>0,017*</b>
M	Realistik-xayolparastlik	70,64	50,56	1220,500	<b>0,003**</b>
N	Sharottakilik-murosakorlik	59,68	72,75	1417,500	0,057
O	Xotirjamlik-bezovtalik	67,29	57,33	1505,000	0,140
Q1	Konservativizm-radikalizm	62,26	67,52	1637,000	0,441
Q2	Konformlik-nonkonformlik	63,87	64,26	1774,000	0,953
Q3	Quyi-yuqori o‘zini nazorat qilish	58,39	75,35	1308,500	<b>0,013*</b>
Q4	Shijoatsizlik-emotsionallik	73,79	44,19	953,000	<b>0,000***</b>
F1	Xavotirlanish	57,84	76,48	1261,000	<b>0,005**</b>
F2	Introversiya-ekstraversiya	71,49	48,83	1148,000	<b>0,001***</b>
F3	Sezgirlik	58,22	75,69	1294,000	<b>0,010**</b>
F4	Konformlik	67,65	56,61	1474,500	0,101

Izoh: \*- p<0,05 (95%), \*\*- p<0,01 (99%), \*\*\*- p<0,001 (99.9%).

C faktor emotsional beqarorlik-barqarorlik shkalasi bo‘yicha ( $U=1055,500$ ,  $p\geq 0,000$ ) ham farq aniqlandi. Bu ko‘rsatkich qizlarda yuqori bo‘lishini ularning psixologik xususiyatlari ya’ni ularning emotsiyalarga berilishga moyilliklari bilan izohlash o‘rinli. Shu sabab o‘quv faoliyati davomida ularga qo‘yilayotgan talab va kutilmalarning yuqori darajada ekanligi ham ma’lum ma’noda emotsional bezovtalikning oshishiga olib kelishini inobatga olish lozim.

E faktor retsessivlik-dominantlik shkalasi bo‘yicha ( $U=1155,500$ ,  $p\geq 0,001$ ) farqlar ham kuzatildi. Bugungi kunda tobora avj olib borayotgan egosentrik qarashlar va gender tengligi masalasi qizlarda ham dominant bo‘lish istagining o‘sishiga turki bo‘lmoqda. Natijada ular yigitlardan farqli ochiqchasiga hokimiyatga bo‘lgan xohishlarini namoyon qilmoqdalar. Ularda jamoatchilik yoki boshqa birovning fikriga tayanmasdan mustaqil fikrlashga intilish, birovning hokimiyatini tan olishni inkor etish kabi sifatlar yuqori bo‘lishi tabiiy. Chunki ular ijtimoiy hayotda ham ma’lum darajada o‘z sotsial maqomlariga egalar.

F faktor yuqori-quyi mulohazakorlik shkalasi bo‘yicha ( $U=1338,500$ ,  $p\geq 0,017$ ) ham farqlar aniqlandi. Mazkur shkala bo‘yicha yigitlarga yuqori mulohazakorlik, qizlarga esa quyi mulohazakorlik xos. Mazkur jihatni qizlar o‘z his-tuyg‘ularini jilovlashga odatlanmaganliklari, impulsiv, harakatchan, ba’zi vaziyatlarda beparvo, e’tiborsiz va haddan tashqari ehtiyyotkorlikka moyil bo‘lishlari, kayfiyatning o‘zgaruvchanligi sababli pessimist bo‘lib, ko‘pincha kelajakda nima bo‘lishidan xavotirda ekanliklari bilan izohlash joiz.

G faktor quyi-yuqori me’yoriy xulq-atvor shkalasi bo‘yicha ( $U=1155,500$ ,  $p\geq 0,001$ ) farqlar kuzatildi. Unga ko‘ra qizlarda mas’uliyat, intizom, o‘z va’dasini bajarishga harakat qilish, ijtimoiy me’yor va qoidalarga amal qilishga intilishlar yigitlarga qaraganda yuqori daraja ekanligini ko‘rsatdi. Kundalik

hayotdan ham bizga ma'lumki, qizlarda, umuman ayollarda tartib qoidalarga rioya qilish erkaklarga nisbatan yuqori.

H faktor qo'rroqlik-jasurlik shkalasi bo'yicha ( $U=1327,000$ ,  $p\geq 0,016$ ) farqlar aniqlandi. Qizlar jasorat, qat'iyat, tashabbuskorlik, maqsadlarga erishishda faollik sifatlari yuqori ekanligiga ko'ra yigitlardan ajralib turadi. Ular xavf-xatarni o'z zimmalariga oladilar, agar muammoni hal qilishda yordam berish imkoniyati mavjud bo'lsa, favqulodda qarorlar qabul qiladilar. Xuddi shu jasorat ijtimoiy aloqaga ham tegishli, ular begonalar bilan muloqot qilishdan tortinmaydilar. Ayollar emotsiyalarga berilganliklari sababli ularga spontan xatti-harakatlarni oshirish xususiyatlari xos.

I faktor quyi-yuqori ta'sirchanlik shkalasi bo'yicha ( $U=1741,500$ ,  $p\geq 0,820$ ) farqlar kuzatilmadi. Buni ikkala guruh sinaluvchilari ham ta'sirchan, badiiy, hissiy (va ularning his-tuyg'ulari spektri juda keng), yaxshi rivojlangan tasavvurga va go'zallik tuyg'usiga ega ekanliklari bilan izohlash mumkin. Bu ularning gender xususiyatlari va yosh davrlariga ham xos bo'lishi mumkin. Chunki sinlauvchilar yetuk yosh davridagi respondentlardan tashkil topgan.

L faktor ishonuvchanlik-shubhalanuvchanlik shkalasi bo'yicha ( $U=1328,500$ ,  $p\geq 0,017$ ) farqli ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi. Bizga ma'lumki, qizlarni har bir masalaning asos, dalillarini keltirmay turib biron narsaga ishontirish qiyin. Ular har bir narsani real baholashga harakat qiladilar. Ma'lumotlar yetishmasligi esa turli stereotiplarni yaratish, shubhalanuvchanlik, aslida mavjud bo'lman hodisalarini o'ylab chiqarishga olib kelishi mumkin. Shu sabab ham egiluvchanlik xususiyati yuqoriligi xos bo'lgan ushbu jins vakillarida yigitlarga nisbatan L faktor yuqori ekanligi aniqlandi.

M faktor realistik-xayolparastlik shkalasi bo'yicha ( $U=1220,500$ ,  $p\leq 0,003$ ) sinaluvchilarimiz orasida farq aniqlandi. Gender rollar mavqeい masalasida bugungi kunda kechayotgan tendensiya hozirda shakllanib borayotgan shaxs xususiyatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayabdi, albatta. Bunga ko'ra yigitlar ko'pincha o'z manzillarida xayolparast, yaxshi rivojlangan tasavvurga ega, ko'pincha san'atga qiziqadigan, har doim ham ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunmaydigan va ko'pincha o'zlariga, o'z g'oyalariga singib ketadigan xususiyatga ega bo'lgan bir paytlarida, qizlarda mavjud vaziyatni real baholagan holda oqilona, aniq, real (mavhum emas) vazifalarga o'z e'tiborini qaratish sifatlari oshmoqda.

N faktor sharttakilik-murosakorlik shkalasi bo'yicha ( $U=1417,500$ ,  $p\geq 0,057$ ) ham ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Ikkala guruh vakillari ham diplomatik kategoriya moyil bo'lib, ular jamiyatda o'zlarini qanday tutishni va har xil turdag'i suhbatdoshlar bilan umumiy tilni qanday topishni biladilar. Shuningdek, ular vaziyatni tahlil va guruhning harakatlarini nazorat qila olishadi. Chunki ikkala guruh respondentlari ham kelajak faoliyatlarida jamoa bilan ishlaydilar. Shu sabab bu kasbiy kompetentlik ham bu xususiyatni ulardan talab etadi.

O faktor xotirjamlik-bezovtalik shkalasi bo'yicha ( $U=1505,000$ ,  $p\geq 0,140$ ) ahamiyatli farqlar ko'zga tashlanmadni. Ikkala jins vakillarida ham o'quv faoliyati to'g'risida qayg'urish (imtiyon, davomat, diplom himoyasi kabi), hodisalarini shubhali idrok etish, ma'lum bir diniy amallarni mukammal bajara olmaslikda o'zini aybdor his qilish, o'zini past baholashga moyillik kabi holatlar kuzatilishi respondentlarda O shkala normal darajada ekanligini ko'rsatadi.

Q1 faktor konservativm-radikalizm shkalasi bo'yicha sinaluvchilarimizda ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=1637,000$ ,  $p\leq 0,441$ ). Respondentlarning yosh, faoliyat xususiyatlarga ko'ra ularning ayni vaqtagi yuqori qadriyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi: erkin fikrlash, tajriba o'tkazish, intellektual qiziqishlarning mavjudligi, rivojlangan analitik fikrlash, o'zgarishlarga, yangi g'oyalarga moyillik, hokimiyatga ishonchszlik, nimagadir ishoniishni rad etish, tahliliy, nazariy faoliyatga e'tibor berish.

Q2 faktor konformlik-nonkonformlik shkalasi bo'yicha ( $U=1774,000$ ,  $p\geq 0,953$ ) ham ahamiyatli farqlar aniqlanmadni. Bu holatni yigitlar ham, qizlar ham o'z tendoshlari, guruhdoshlari, bir jinsda bo'lgan do'stlari bilan minosabatda konformlikka xos sifatlardan keng foydalanishi bilan izohlashimiz mumkin.

Q3 faktor quyi-yuqori o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha ( $U=1308,500$ ,  $p\geq 0,013$ ) ham farqlar kuzatildi. Yigitlarda o'zini nazorat qilish yuqori. Bu sinaluvchilarda ularning irodali, maqsadli va boshlagan ishni oxiriga yetkazish holatlari yuqori ekanligidan dalolat beradi. Mazkur shkala o'z his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati bilan izohlanishi mumkin. Qizlarga esa o'z xohish-istaklariga ergashish, kayfiyatga bog'liqlik, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik xos.

Q4 faktor shijoatsizlik-emotsionallik shkalasi bo'yicha ham farqlar aniqlandi ( $U=953,000$ ,  $p\geq 0,000$ ). Yigitlar xotirjamlik, faollik, energiya va yuqori darajadagi motivatsiya bilan ajralib turadi. Qizlarda esa ba'zi hollarda asabiyashish, tajovuzkorlik va haddan tashqari asabiyashish namoyon bo'ladi, bu holatlar to'plangan ortiqcha energiya va kuchlanishning ta'siri oqibatida sodir bo'ladi.

F1 faktor xavotirlanish shkalasi bo'yicha sinaluvchilarimizda farqlar kuzatildi ( $U=1261,000$ ,  $p\leq 0,005$ ). Yigitlar bor narsadan qoniqish hosil qiladi va o'zi uchun muhim bo'lgan narsaga erisha oladi. Biroq, juda past ball qiyin vaziyatlarda motivatsiya yetishmasligini ko'rsatishi mumkin. Qizlar esa odatiy ma'noda

yuqori darajadagixavotirga ega bo‘ladilar. Xavotirlanish nevrotik darajada bo‘lishi shart emas, chunki u vaziyatga bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Juda yuqori darajadagi xavotir shaxs taraqqiyotiga to‘sinqilik qiladi va jismoniy kasalliklarga ham olib kelishi mumkin.

F2 faktor introversiya-ekstraversiya shkalasi bo‘yicha ( $U=1148,000$ ,  $p\geq 0,001$ ) ahamiyatli farqlar aniqlandi. Bu ko‘rsatkich qizlarda yuqori ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ijtimoiy aloqa, to‘sinqiliksiz, muvaffaqiyatli shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish va saqlay bilish ular uchun xosdir. Ushbu turdag'i temperamentni talab qiladigan vaziyatlarda bu juda qulay sifat bo‘lishi mumkin. Bu xususiyat har doim faoliyatda, masalan, tadqiqotlarda qulay prognoz sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

F3 faktor sezgirlik shkalasi bo‘yicha ( $U=1294,000$ ,  $p\geq 0,010$ ) ham farqlar kuzatildi. Bunda yigitlarda quyi sezgirlik ya‘ni muvozanatlilik, qizlarda esa yuqori sezgirlik aniqlandi. Unga shunday xulosaga kelish mumkin. Kam qiymat quyidagilar bilan tavsiflanadi: har bir narsada namoyon bo‘ladigan hissiylik bilan bog‘liq qiyinchiliklarni boshdan kechirish tendensiyasi. Bu odamlar ochiqchasiga norozi va xafa bo‘lishlari mumkin. Biroq, ularda hayotning nyuans holatlariga nisbatan sezgirlik mavjud. Agar bunday shaxsda muammo paydo bo‘lsa, unda harakat qilishdan oldin uni hal qilish uchun ko‘p o‘ylashi kerak.

Yuqori qiymat quyidagilar bilan tavsiflanadi: tashabbuskor, qat’iyatli va moslashuvchan shaxs. Bu odam hayotning nyuanslarini e’tiborsiz qoldirishga moyil bo‘lib, u xatti-harakatlarini juda aniq va ravshan bo‘lishga yo‘naltiradi. Agar qiyinchiliklar yuzaga kelsa, ular yetarli darajada o‘ylamasdan tezkor harakat qilishga sabab bo‘ladi. Bizga ma’lumkmi, emotsiya va intuitsiyalariga tayanib ish ko‘rish qizlar uchun xos xususiyatdir.

F4 faktor konformlik shkalasi bo‘yicha ham farqlar aniqlandi ( $U=1474,500$ ,  $p\geq 0,101$ ). Unga ko‘ra ikkala guruh respondentlari ham o‘zlarida guruhgaga bog‘liqlik, boshqa odamlarning qo‘llab-quvvatlashiga muhtojlik va o‘z xatti-harakatlarini shunday qo‘llab-quvvatlovchi odamlarga yo‘naltiradigan shaxsga xos bo‘lgan sifatlarni namoyon qiladilar.

**Xulosa.** “Destruktiv emotsiional holatdagi shaxslar shaxs xususiyatlarining o‘ziga xosligi” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiylar xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra birinchi oliy ta’lim muassasasi talabalari emotsiional holati ikkinchi oliy ta’lim muassasasi talabalariga nisbatan barqaror. Biroq ularda shaxsdan xavotirlanish darajasi ikkinchi oliygoh talabalari natijasiga qaraganda yuqoriligi aniqlandi.

Destruktiv emotsiional holatlar mavjud shaxslar shaxs xususiyatlari profilini shakllantirishda olingan natijalar jinslararo tahlil qilinganda, ularda birlamchi faktorlardan F (Vazminlik) va ikkilamchi faktorlardan Q3 (Yuqori o‘zini nazorat qilish) shkalalari ko‘rsatkichlari yuqoriligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Biroq, ushbu ko‘rsatkichlar belgilangan norma darajasida emas.

Talaba yigitlardan farqli ravishda talaba qizlar shaxs profilini yaratish davomida ularga xos bo‘lgan shaxs xususiyatlarini aniq ajralib turganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, M (Realistik) faktori. Respondentlarga operativlik, fikrlashning harakatchanligi, yuqori umumiylar madaniyat darajasi, bilimdonlik xos. Bunday shaxs o‘ziga xos tasavvurga, yangilikni qabul qilishda tanqidiy va konservativ qarashlarga ega, aniq amaliy maqsadlarga yo‘nalgen. Shaxslararo munosabatlarda esa ehtiyojkorlik, shaxslarga nisbatan xushyorlikni mavjud.

### **Adabiyotlar:**

1. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека / Ф.Б. Березин. – Л.: Наука, 1988. – 270 с.
2. Расулов А.И. Психодиагностический тест как метод изучения личности // Сфера знаний: процессы развития современной научной мысли. - 2018. - С. 95-100.
3. Расулов А.И. Талабалар тадқиқотчилик қобилияти мезонлари ва диагностикаси //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. NUU Conference 1. - С. 369-374.

*Abdullayeva Zuxro Ismoilovna,  
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi*

## IQTIDORLI BOLALAR QOBILIYATI VA MULOQOTI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtidorli bolalar qobiliyati va muloqotining ijobjiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan. Iqtidorlilik muammosining tarixiy o'rganilishi, jamiyat taraqqiyotida iqtidorlilarining o'rni haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, iqtidorli bolalarga ta'lim tarbiya berishda o'qituvchining shaxsi o'qitishning yetakchi omili ekanligi, iqtidorlilik insonning muayyan faoliyat sohalarida alohida muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradigan qobiliyatlarini rivojlantirishning yuqori darajasi sifatida tavsiflanishi yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtidor, muloqot, ta'lim, tarbiya, o'quvchi, o'quvchilar jamoasi, kommunikativ qobiliyat.

## СПОСОБНОСТИ И ОБЩЕНИЕ ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ

**Аннотация.** В данной статье анализируются положительные и отрицательные стороны способностей и общения одарённых детей. Представлено историческое исследование проблемы таланта, сведения о роли талантливых людей в развитии общества. Кроме того, были высказаны мнения относительно того, что личность педагога является ведущим фактором в обучении одарённых детей, а талант характеризуется как высокий уровень развития способностей, позволяющих человеку достигать особых успехов в определённых сферах деятельности.

**Ключевые слова:** одарённость, общение, образование, воспитание, студент, студенческий коллектив, коммуникативные способности.

## ABILITY AND COMMUNICATION OF GIFTED CHILDREN

**Abstract.** This article analyzes the positive and negative aspects of the abilities and communication of gifted children. A historical study of the problem of talent, information about the role of talented people in the development of society is presented. In addition, opinions were expressed that the personality of the teacher is the leading factor in teaching gifted children, and talent is characterized as a high level of development of abilities that allows a person to achieve special success in certain areas of activity.

**Keywords:** giftedness, communication, education, upbringing, student, student group, communication skills.

**Kirish.** Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi, unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining maqsadi ham aynan inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to'liq javob beradigan kishi turli davrlarda qar xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg'un rivojlangan shaxs” atamalari ham qo'llanilgan. Bularning barchasi turli davrlarda shaxsning kamoloti, uning iqtidori asosiy e'tibortalab masalalardan bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. “Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyat a'zolari chuqur anglab olishi lozim. Turli sohalarda qiladigan ishlari, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat — barchasi unga sharoit va muqit yaratishga qaratilmog'i lozim” deb ta'kidladi Sh.Mirziyoyev.

Darhaqiqat, inson dunyoga kelgandan boshlab o'zida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi va bu shunchaki ruhiy-fiziologik instinkt bo'lmay, olamni tushunishga, hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan zarurat, yashash uchun kurashish natijasi hisoblanadi. Bilimga bo'lgan intilish, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, faollik, xozirjavoblik kabi sifatlar ma'naviy kamolot sari etaklaydi. Insoniyatning ma'naviy kamoloti o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilaydi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi albatta yoshlarning qobiliyatları va aqliy saviyalariga bog'liq bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ilg'or ziyorolar, fan va texnika sirlarini chuqur biladigan va ishlab chiqarishga joriy eta oladigan keng bilimli, tadbirkor, mulkdorlar, mohir tashkilotchilar qo'lida bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarining qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirish eng muhim masalalardandir.


Iste'dodli va qobiliyati yoshlar, ularning ta'limi va tarbiyasini tashkil etish barcha zamonlarda dolzab masalalardan bo'lib kelgan. Tarixda o'tgan buyuk allomalarimizdan o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschisi Al-Xorazmiy, Sharq "Aristotel" unvoniga sazovor bo'lgan. Abu Ali Ibn Sino, yirik olim Abu Rayxon Beruniy, o'rta asr astronomiyasining asoschisi al-Farg'oniy, hadis sharifning buyuk allomalari Imomlar Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso at-Termizi, Xoja Ahmad Yassaviy, mutafakkirlar Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin ad-Davoniy (IX – XII asrlar), Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur (XIV – XV asrlar) singari buyuk aql-ziyo egalarining nomlari jahonda mashhur, chunki ular jahon sivilizatsiyasiga, jahon fani va madaniyatiga katta hissa qo'shgan buyuk zotlardir.

Mutafakkirlar dunyoviy va diniy bilim asoslarini mukammal egallabgina qolmay, balki o'z sohalari bo'yicha yangicha qarashlarni yaratgan allomalar bo'lib, bilimga axloqni, iymonni, adolatlilikni, insonparvarlikni, vatanparvarlikni qo'shib olib borgan edilarki, ularning bu qadriyatlari mustaqil O'zbekiston uchun g'oyat zarurdir. Allomalar o'z asarlarida qobiliyatli va iste'dodli yoshlarga ta'lim-tarbiya berish borasida bir qancha ibratlari fikrlarni bildirish bilan birga o'zlar ham juda katta iste'dod egalari bo'lganlar.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Iqtidor tushunchasi juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, ilmiy termin sifatida emas, balkim xalq tilida bilimdon, bilag'on, tashabbuskor va tashkilotchilarga nisbatan qo'llaniladi. Shu o'rinda aytib o'tilishi lozimki, iqtidor, qobiliyat va iste'dod bir-biriga yaqin, lekin mazmun-mohiyati bilan farq qiladigan tushunchalar hisoblanadi. Ya'ni qobiliyat va iste'dod tushunchalari ilmiy iboralar qatoriga kirib, psixologiyaning asosiy kategoriyalaridandir. O'z ma'nosini bilan bu so'zlar inson imkoniyatlarining ijtimoiy muhitda keng va muvaffaqiyatlari tafbiqini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi ma'lum bir sohada o'ta muvaffaqiyatlari, ilg'or, zukko bo'lib, uning tabiatida o'ziga xos imkoniyatlar majmuasi mavjud bo'ladi. Iqtidor so'zi esa o'zbek tilida qadimdan keng ma'noda ishlatalib kelingan ibora bo'lib, bugungi kunda salohiyatlari, ilg'or, faol, harakatchan kishilarga nisbatan aytildi.

Iqtidorli bolalar ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda birinchi navbatda quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat berish tavsiya qilinadi: iqtidorli bolalarni saralashda ilmiy asosga ega bo'lgan psixologik o'lchov metodikalarini joriy qilish va shu asosda mifik xitosligiga mos keladigan bolalarni to'g'ri saralash; maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, salohiyati baland, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirgan pedagoglar jamoasini shakllantirish. Keng aqliy imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar ta'limini tashkillashtirish uchun fan yoki soha doirasida ularning talab darajalariga mos keladigan, kengaytirilgan va boyitilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot ishimizda qo'llanilgan "Torrens aylanachalari" nomli metodika natijasiga ko'ra iqtidorli bolalarning ijodiy qobiliyatlari oddiy bolalardan farq qiladi. "Torrens aylanachalari" metodikasida tajriba materiali sifatida 20 ta aylanacha keltirilgan blankdan foydalilanadi (1-rasm). Sinaluvchilarga quyidagicha ko'rsatma beriladi: "Hurmatli o'quvchi sizga taqdim etilgan blankdagi aylanachalardan foydalananib imkon qadar ko'proq narsalar yasang (rasmini chizing). Agar yanada ko'proq narsalarni chizmoqchi bo'lsangiz o'zingiz qo'shimcha aylanacha qo'shishingiz mumkin." O'quvchilarga maxsus blank va qalam tarqatiladi.



**1-rasm. Torrens aylanachalari**  
**"Torrens aylanachalari" metodikasi natijalari**

<b>Iqtidorli o'quvchilar N=60</b>			<b>Oddiy o'quvchilar N=60</b>		
To'liq foydalangan	Qisman foydalangan	Qo'shimcha qo'shgan	To'liq foydalangan	Qisman foydalangan	Qo'shimcha qo'shgan
15	7	38	14	36	10
<b>25%</b>	<b>11,6%</b>	<b>63,4%</b>	<b>23,3%</b>	<b>60%</b>	<b>16,7%</b>

1-jadval ma'lumotlari ham iqtidorli o'quvchilarda ijodiy qobiliyatning yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Yuqori intellekt va ijodiy qobiliyatli bolalarni tegishli tarzda rivojlantirishda maktabdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar ko'lamini kengaytirish kerak. Chunki darsli doirasida

chegaralangan mashg'ulotlar iqtidorli o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarini to'liq qondira olmaydi. Bunday bolalar ko'proq darsdan tashqari mashg'ulotlarda yaxshi rivojlanadilar.

Iqtidorli bolalarga ta'lif tarbiya berishda o'qituvchining shaxsi o'qitishning yetakchi omili hisoblanadi. Shu sababli ham bola shaxsini rivojlantiradigan yuqori malakali, ilg'or o'qituvchi shaxsi shakllangan bo'lishi kerak. Buning uchun matabda psixologik xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilishi, jumladan, iqtidorli o'quvchilarga ta'lif-tarbiya beradigan o'qituvchilar bilan muntazam ravishda treninglar, davra suhbatlari o'tkazib turish va ularning savodxonligini, kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida ilg'or o'qituvchilarni shu maktabga jalg qilib, o'quv-metodik seminarlar tashkil qilinishi zarur.

Iqtidorli bolalarda boshqa bolalarda bo'lgani kabi qobiliyati va muloqot xususiyatlarida muammolar uchraydi. Birinchi navbatda, ayrim iqtidorli o'quvchilar o'zlarining qobiliyatlarini namoyon etishga qiynaladilar. Shuning uchun matabda o'quvchilarning iqtidorlarini namoyon etuvchi muhit yaratilishi lozim.

Ayniqsa iqtidorli bolalarning muloqoti xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat, iqtidorlilik insonning muayyan faoliyat sohalarida alohida muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradigan qobiliyatlarini rivojlantirishning yuqori darajasi sifatida tavsiflanishi sababli, boshqa jihatlar teng bo'lsa, u yoki bu darajada iqtidorli bolalar o'rtacha rivojlanish darajasiga ega tengdoshlariga qaraganda yuqori natijalarga erishadi.

Iqtidorli bolalarning hayotda duch keladigan muammolarini tizimlashtirib, ikkita asosiy holatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular birinchidan, muloqot bilan bog'liq muammolari bo'lsa, ikkinchisi o'rganishdagi qiyinchiliklar hamda eng ko'p uchraydigan muammo - bu kommunikativ muammolari hisoblanadi. Ko'pgina hollarda, bu muammolar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning darajasi bilan bog'liq bo'lib, ularning ijtimoiy moslashuvi uchun hissiy sohaning rivojlanishi katta ahamiyatga ega.

Aslida ham ko'pincha shax rivojlanishi sohalaridan biri boshqasidan ko'ra ko'proq yuksaladi va bu farq iqtidorli bolalar haqida gap ketganda anchagina seziladi. Iqtidorli bolalarning xususiyatlaridan biri ularning rivojlanishining notejisligi hisoblanib, agar bola yuqori iqtidorli bo'lsa va u yoki bu sohada yorqin, ajoyib natijalarni ko'rsatsa, boshqa aqliy fazilatlarning rivojlanishi sekinlashishi mumkin. Shuningdek, aqliy rivojlanishi juda yuqori bo'lgan bola hissiy va muloqot sohasida muammolarga duch kelishi mumkin.

Ammo har bir iqtidorli bolaning ushbu sohalarini rivojlanishida muammolari bor deb bo'lmaydi, aksincha barchasi iste'dodning turiga va uning namoyon bo'lish darajasiga bog'liq bo'ladi. Xususan, ijodiy iqtidorli bolalar hissiy jihatdan juda yaxshi rivojlangan, ular his-tuyg'ularning eng kichik namoyonlarini kuzatib boradilar - qanday qilib o'zlarini va ularning atrofidagi odamlar - va ularga juda sezgir munosabatda bo'lishadi. Kuchli yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli bolalar muloqot qobiliyatlarini ajoyib tarzda rivojlanirdilar.

Ta'kidlash joizki, hissiy sohadagi iqtidorli bolalar ayniqsa yuqori sezuvchanlik bilan ajralib turadi va ular o'z atrofidagi dunyonı iqtidori unchalik yuqori bo'lmagan tengdoshlariga qaraganda ancha yaxshi idrok etadilar. Bunday bolalar uchun ba'zida suhbatdoshning intonatsiyasi yoki uning pozitsiyasidagi eng ahamiyatsiz o'zgarishlar ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, boshqalar e'tibor bermaydigan eng kichik qo'pollik, xushmuomalalik yoki ahmoqona hazil iqtidorli bola tomonidan ba'zan haqorat sifatida qabul qilinadi. Bunday bola atrofdagilarning kayfiyatining biroz yomonlashishini bu odamning noroziligining namoyon bo'lishi deb qabul qilishi va o'zini aybdor deb hisoblashi mumkin.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Iqtidorlilik insonning muayyan faoliyat sohalarida alohida muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradigan qibiliyatlarini rivojlantirishning yuqori darajasi sifatida tavsiflanishi sababli, boshqa jihatlar teng bo'lsa, u yoki bu darajada iqtidorli bolalar o'rtacha rivojlanish darajasiga ega tengdoshlariga qaraganda yuqori natijalarga erishadi. Olib borgan tadqiqot ishimizda iqtidorli o'quvchilarning "Torrens aylanachalari" metodikasi bo'yicha natijalarida o'z aksini topdi. Jumladan, oddiy o'quvchilarda aylanachalardan foydalanib qo'shimcha kiritish 16,7% ni tashkil etgan bo'lsa, iqtidorli o'quvchilar guruhida bu ko'rsatkich 63,4% ni tashkil etdi.

#### 1 jadval.

#### "Torrens aylanachalari" metodikasi natijalari

Iqtidorli o'quvchilar N=60			Oddiy o'quvchilar N=60		
To'liq foydalangan	Qisman foydalangan	Qo'shimcha qo'shgan	To'liq foydalangan	Qisman foydalangan	Qo'shimcha qo'shgan
15	7	38	14	36	10
<b>25%</b>	<b>11,6%</b>	<b>63,4%</b>	<b>23,3%</b>	<b>60%</b>	<b>16,7%</b>

1-jadval ma'lumotlari ham iqtidorli o'quvchilarda ijodiy qobiliyatning yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Intellekt va ijodiy qobiliyatli yuqori bolalarni rivojlantirishda matabdan tashqari olib

boriladigan mashg’ulotlar ko’lamini kengaytirish lozim bo’ladi. Chunki dars jadvali doirasida chegaralangan mashg’ulotlar iqtidorli o’quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarini to’liq qondira olmaydi. Bunday bolalar ko’proq darsdan tashqari mashg’ulotlarda yaxshi rivojlanadilar.

Iqtidorli bolalarning hayotda duch keladigan muammolarini tizimlashtirib, ikkita asosiy holatni ajratib ko’rsatish mumkin. Bular birinchidan, muloqot bilan bog’liq muammolari bo’lsa, ikkinchisi o’rganishdagi qiyinchiliklar hamda eng ko’p uchraydigan muammo - bu kommunikativ muammolari hisoblanadi. Ko’pgina hollarda, bu muammolar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning darajasi bilan bog’liq bo’lib, ularning ijtimoiy moslashuvi uchun hissiy sohaning rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Aslida ham ko’pincha shaxs rivojlanishi sohalaridan biri boshqasidan ko’ra ko’proq yuksaladi va bu farq iqtidorli bolalar haqida gap ketganda anchagina seziladi. Iqtidorli bolalarning xususiyatlaridan biri ular rivojlanishining notejisligi hisoblanib, agar bola yuqori iqtidorli bo’lsa va u yoki bu sohada yorqin natijalarni ko’rsatsa, boshqa aqliy fazilatlarning rivojlanishi sekinlashishi mumkin. Shuningdek, aqliy rivojlanishi juda yuqori bo’lgan bola hissiy va muloqot sohasida muammolarga duch kelishi mumkin.

Ammo, har bir iqtidorli bolaning ushbu sohalarni rivojlanishida muammolari bor deb bo’lmaydi, aksincha barchasi iste’dodning turiga va uning namoyon bo’lish darajasiga bog’liq bo’ladi. Xususan, ijodiy iqtidorli bolalar hissiy jihatdan juda yaxshi rivojlangan, ular his-tuyg’ularning eng kichik tomonlarini ham kuzatib boradilar. O’zлari va atrofidagi odamlar ularga juda sezgir munosabatda bo’lishadi. Kuchli yetakchilik qobiliyatiga ega bo’lgan iqtidorli bolalar muloqot qobiliyatlarini yuqori rivojlanitira oladilar.

Ta’kidlash joizki, hissiy sohadagi iqtidorli bolalar ayniqsa yuqori sezuvchanlik bilan ajralib turadi va ular o’z atrofidagi dunyoni iqtidori unchalik yuqori bo’lмаган tengdoshlariga qaraganda ancha yaxshi idrok etadilar. Bunday bolalar uchun ba’zida suhbatdoshning intonatsiyasi yoki uning pozitsiyasidagi eng ahamiyatsiz o’zgarishlar ham katta ahamiyatga ega bo’ladi. Ya’ni, boshqalar e’tibor bermaydigan eng kichik qo’pollik, xushmuomalalik yoki ahmoqona hazil iqtidorli bola tomonidan ba’zan haqorat sifatida qabul qilinadi. Bunday bola atrofdagilarning kayfiyatining biroz yomonlashishini bu odamning noroziligining namoyon bo’lishi deb qabul qilishi va o’zini aybdor deb hisoblashi mumkin.

**Xulosa.** Yuqoridagilarning barchasini hisobga olganda, zamonaviy matabning muammolaridan biri iqtidorli bolalar va ularning sinfdoshlari o’rtasida sog’lom, uyg’un munosabatlarning yo’qligidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun pedagogik jarayonning barcha ishtiroychilar - ota-onalar, o’qituvchilar, matab psixologlarining birgalikdagi yordami zarur. Iqtidorli bolalarning jamiyatga va uning atrofidagi dunyoga munosabati bolalik davrida shakllanganligi sababli, jamoada iqtidorli bolalarni tezda aniqlash, ularga tengdoshlari va kattalar bilan uyg’un shaxslararo munosabatlarni o’rnatishda qo’llab-quvvatlash va yordam berish, konstruktiv muloqotga o’rgatish juda muhimdir. ko’nikmalar, har bir bolaga individual yondashuvdan foydalanish muhimdir.

Tuqoridagilardan kelib chiqib, iqtidorli bolalar qobiliyati va muloqotini rivojlanish uchun pedagog va amaliyotchi psixologlar hamda ota-onalarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- iqtidorli bolalarga ta’lim tarbiya berishda o’qituvchining shaxsi o’qitishning yetakchi omili ekanligini hisobga olish va ularni o’qitishga yuqori malakали, ilg’or o’qituvchilarni jalb etish;
- maktablarda psixologik xizmat to’g’ri yo’lga qo’yish, jumladan, iqtidorli o’quvchilarga ta’lim-tarbiya beradigan o’qituvchilar bilan muntazam ravishda treninglar, davra suhbatlari o’tkazib turish va ularning savodxonligini, kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida ilg’or o’qituvchilarni jalb qilib, o’quv-metodik seminarlar tashkil qilinish;
- iqtidorli bolalarda boshqa bolalarda bo’lgani kabi qobiliyati va muloqot xususiyatlarida muammolar uchrashini, ayrim iqtidorli o’quvchilar o’zlarining qobiliyatlarini namoyon etishga qiyinalishlarini hisobga olib, maktabda o’quvchilarning iqtidorlarini namoyon etuvchi muhit yaratilishi lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. Лейтес Н.С. Взрастная одаренность и индивидуальные различия. - М.: Воронеж, 1997. – 56 с.
2. Что такое одаренность: выявление и развитие одаренных детей: классические тексты / под. ред. А. М., Матюшкина, А. А. Матюшкина. М., 2008.
3. Психодиагностика / Нишонова З.Т., Курбонова З., Абдиев С., Ш.Тўлаганова. - Т.: 2008. - 331 б.
4. Шарафутдинова Х.Г. Таълим жараёнида ақлий қобилият психокоррекцияси // Мактаб ва хаёт. - Тошкент, 2008. - № 2. - Б. 19-21.
5. Щербинина О. С. Проблема социального развития одаренных детей // Вестник КГУ им. Н. В. Некрасова. 2013. № 5. С. 180-183.

Alimova Nargiza Usmanovna,  
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

## OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI ASOSIDA BOLALARDA FAROVONLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ota-onalardan farzand munosabatlari asosida bolalar farovonlik tuyg'usini shakllantirish xususiyatlari, dunyoda globallashuv tufayli stress, tashvish va salbiy his-tuyg'ular ortib borishi, yosh avlodning ichki dunyolarini o'zgartirishga va hayotning kichik quvonchlaridan zavqlanishni o'rganishiga yordam beradigan pozitivlikka talab ortayotganligi yoritilgan. Ota-onalar bilan o'tkazilgan “Farzandingizni bilasizmi?” nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnomaga keltirilgan va so'rovnomaga berilgan javoblar asosida insonning o'z hayotidan mammunligi, qanoatlanib yashashi unda faravonlik tuyg'usining shakllanganligiga bog'liq bo'lishi haqida xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** ota-onalardan farzand, bola, ta'lim, munosabat, optimizm, pessimizm, qoniqish, ijobiylik.

## ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА БЛАГОПОЛУЧИЯ У ДЕТЕЙ НА ОСНОВЕ РОДИТЕЛЬСКО-ДЕТСКИХ ОТНОШЕНИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности формирования чувства благополучия у детей на основе детско-родительских отношений. Подчёркивается, что в мире в связи с глобализацией растёт стресс, тревога и негативные эмоции, растёт спрос на позитив, который помогает молодому поколению изменить свой внутренний мир и научиться наслаждаться маленькими радостями жизни. Проведён социально-психологический опрос под названием «Знаете ли вы своего ребёнка?» и на основании ответов, данных на анкету, сделан вывод, что удовлетворённость человека своей жизнью и удовлетворённость жизнью зависит от формирования чувства благополучия.

**Ключевые слова:** родитель, ребёнок, воспитание, отношения, оптимизм, пессимизм, удовлетворение, позитивность.

## FORMATION OF A SENSE OF WELL-BEING IN CHILDREN BASED ON PARENT- CHILDREN RELATIONSHIPS

**Abstract.** This article deals with the peculiarities of formation of children's sense of well-being on the basis of child-parent relations. It is emphasised that in the world due to globalisation stress, anxiety and negative emotions are growing, and there is a growing demand for positivity, which helps the young generation to change their inner world and learn to enjoy the small joys of life. A socio-psychological survey entitled «Do you know your child?» was conducted and on the basis of the answers given to the questionnaire it was concluded that a person's satisfaction with his/her life and contentment with life depends on the formation of a sense of well-being.

**Keywords:** parent, child, upbringing, relationships, optimism, pessimism, satisfaction, positivity.

**Kirish.** Dunyo miqyosidagi globallashuv tufayli kishilar hayoti ko'pincha stress, tashvish va salbiy his-tuyg'ularga to'la bo'lib, ichki dunyolarini o'zgartirishga va hayotning kichik quvonchlaridan zavqlanishni o'rganishiga yordam beradigan pozitivlikka talab ortmoqda. Ayniqsa, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishini belgilovchi, shaxsiyatining shakllanishini, uning xarakter xususiyatlarini jumladan, xavotir, tashvish, tajovuzkorlik, tobelik va atrofdagi odamlar bilan muloqot qilishning turli strategiyalarini belgilaydigan mikro muhit sifatida ota-onalardan farzand munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Har bir shaxsning yuksak kamolotga erishishi, uning o'zligini anglashi, “men”ligini qaror toptirish, chinakam insoniylik bilan yashashi uchun ham oiladagi sog'lom psixologik munosabatlarning hukm surishi zarurat hisoblanadi va u bolani ota-onasi va jamiyat kutayotgan darajada yuksaltirishga imkon beradi. Aksincha, bola ana shunday imkoniyat hamda boyliklardan mahrum bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, ota-onalardan farzand munosabatlari asosida bolalarda yuksak ma'naviyat va boshqa zarur fazilatlarni shakllantirish mumkin [3].

Har qanday jamiyatning gullab yashnashi va ravnaqi jamiyat a'zolarining, xususan yosh avlodning hayotga munosabati, ehtiyojlarining qondirilganligini his etishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, bunday psixologik holat hammada ham bir xil namoyon bo'lmaydi. Jumladan, shunday insonlar mavjudki, hayotida

barcha imkoniyatlarga erishgan, tinch va osuda hayotda yashayotgan bo'lsa-da o'zidan va hayotidan norozilik hissi shakllangan bo'ladi. Bularning barchasi oilada ota-onva farzand munosabatlarining xarakteriga bog'liq holda rivojlanadi.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Ilmiy tadqiqotlar natijasi kishining hayoti davomida farog'atga erishsishi mushkulroq ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, ko'pchilik pulim ko'proq bo'lganida o'zimni baxtliroq his qillardim deb o'ylashadi. Shunday bo'lishi ham mumkin, ammo kuzatishlar boylik bilan bog'liq baxt faqat vaqtincha bo'lib, istiqbolda boylikning o'sishi baxtga unchalik katta ta'sir ko'rsatmasligini ko'rsatadi. Psixologik tahlillarga ko'ra shaxsning yuksalishi uchun eng muhim komponentlardan biri kishininng o'zidan, hayotidan, munosabatlarida qoniqishidir. O'z-o'zini hurmat qilish - sotsiologiya va psixologiyada kishining o'z qadr-qimmatini subyektiv hissiy baholashni hamda shaxs sifatida o'ziga bo'lgan munosabatini aks ettiradi [2].

Psixologiyaning bir qator mashhur yo'naliislarning namoyondalari fikricha, shaxsni rivojlantirishda asosiy e'tibor o'z-o'zini hurmat qilishni oshirish, o'zini o'zi qadrlash zarurati insonning butun hayoti davomida asosiy element ekanligini anglashga o'rgatishga qaratilgan. O'z-o'zini hurmat qilishni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi - shaxsning o'ziga xosligi va "Men" qiyofasi hisoblanadi. "O'z-o'zini hurmat qilish" so'zi kundalik nutqda va qisman ilmiy adabiyotlarda ham o'z-o'zidan qanoatlanishni, hamda o'zini o'zi qabul qilishni va onglilikni anglatadi. O'z-o'zini hurmat qilish subyektning o'ziga nisbatan boshdan kechiradigan va unga mumkin bo'lgan reaksiyalarni boshqarishga yordam beradigan barcha munosabatlar va his-tuyg'ular uchun javobgardir. O'z-o'zini hurmat qilish manbai rivojlanishning dastlabki bosqichlarida qo'yiladi va bu onaning yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning bolaga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

O'z-o'zini hurmat qilish jarayonining natijasi shaxsning xatti-harakatlarida, qobiliyatları va xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Psixologik testlar va o'z-o'zini hurmat qilish shkalalari shaxsning o'ziga nisbatan ijobjiy munosabatining ko'proq yoki kamroq barqarorlik darajasini o'lchash va aniqlashda qo'llaniladi.

Gumanistik Psixologiya asoschilaridan K.Rodgers bo'yicha o'zini qadrlashning uchta muhim sharti bo'lib, ular - o'z-o'zini adekvat baholash; - o'zini shartsiz qabul qilish; - o'ziga xato qilishga ruxsat berishdan iborat. Ota-onaning farzandga nisbatan ishonchsizligi, undan ko'ngli to'lmasligi kabilalar oilaviy tarbiyada ko'p uchraydigan holat bo'lib, aynan shu kabi munosabatlar ta'sirida bolalarda o'zini noadekvat baholash natijasida avvalo o'zidan ko'ngli to'lmaslik, xato qilib qo'ymaslik fonida layoqatsizlik, kamharakatlik kabilalar shakllanadi. Bu esa o'z nabaqidan bolalarda nafaqat o'zidan, balki boshqalardan, munosabatlardan, jamiyatdan norozilik kuchayadi. Buning ta'sirida shakllangan kompleks insonda faravonlik hissini tuyishga xalaqit beradi. Natijada bola hayotga, kelajakka, orzu-umidlarining ro'yobga chiqishiga munosabatlariga ko'ra quyidagi uch toifadagi xususiyatlari bo'lib shakllanadi: 1.Optimist. 2.Pessimist. 3.Realist.

Optimizm - insonning voqealarni ijobjiy natijasiga umid qilishi va yorqin kelajakka ishonish istagi hisoblanadi. Inson mavjudligining noyob hodisasi sifatida optimizm uzoq vaqt olimlar tomonidan o'rganilgan. Optimizm haqida ilk ilmiy, tadqiqotlarning ildizlari asrlarga borib taqaladi. Optimizm inson dunyoqarashi o'rtasidagi bog'liqlikni topishga urinish bilan bog'liq. Optimizm dunyoqarashning qadriyat tomonini aks ettiradi, chunki uning talqini birinchi navbatda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

I.I.Mechnikovning "Optimizm etyudlari" nomli kitobida optimizm va pessimizm o'rtasidagi yaqin munosabatni, ularning o'zaro ta'sirini va o'zaro qayta aloqa imkoniyatini ko'rib chiqib, bu hayot haqiqatiga ko'proq mos kelishini e'tirof etadi. Faylasuflar uchun qoniqarsiz bo'lgan optimizm va pessimizmnning mutlaqlashuvni meliorizmning (lot. melyur — yaxshiroq) paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu atamaning paydo bo'lishi XIX asrda ingliz yozuvchisi J.Eliot va fransuz faylasufi J.Selli nomlari bilan bog'liq. Meliorizm - dunyoda yovuzlikning muqarrarligini tan olish bilan birga, dunyoni inson sa'y-harakatlari, individual takomillashtirish, ma'rifat orqali yaxshilash mumkinligiga ishontiruvchi qarashdir.

Psixologlar - yuqori baxt darajasi va o'z hayotidan mammunlik ko'pincha quyidagilarga bog'liq bo'ladi:


1. Yuksak ma'naviyatli,
2. Yuksak e'tiqodli,
3. Mafkuraviy immuniteti mustahkam,
4. O'z kasbining ustasi,
5. Kasbidan, daromadidan, mehnat sharoitidan, mehnat qilish bilan dam olishi muvozanatidan qoniqishi yuqori bo'lgan shaxslarga xosdir [1].

Psixologik farovonlik – shaxsdagi jismoniy, psixologik, madaniy, ijtimoiy va ma'naviy omillarning murakkab o'zaro bog'liqligini ifodalovchi va uning o'zini o'zi anglash nuqtayi nazaridan idrok etishi hamda o'zini baholashini aks ettiruvchi holati, potentsial imkoniyatlarning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Har bir

kishining farovonlikka munosabati turlicha bo'lib, kishilar uni ko'proq o'zlarini ayni vaqtda bezovta qilayotgan muammolar bilan bog'laydi. Shu tufayli aksariyat hollarda kishida farovonlik bo'yicha o'zini baholash darajasi ko'pincha past bo'ladi.

Psixologik manbalarda farovonlikning mohiyati - qadriyatlar, muvaffaqiyat, yutuq, o'sish, yuksalish, odamlar bilan yaxshi munosabatlari – ya'ni kishi hayotini farovon deb hisoblashi mumkin bo'lgan hamma narsalar bo'lishi mumkinligi qayd etiladi. Agar ota-onalar o'z farzandlarini baxtli, kelajagi porloq bo'lib, avvalo o'ziga, oilasiga, yaqinlari va jamiyatga foydasi regadigan bo'lib voyaga yetishini istasalar, demak yoshligidan ularda faravonlik tuyg'usi shakllanishiga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Bolalar asosan oila muhitining tarbiyaviy ta'siri tufayli o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lib o'sadi. Jumladan, optimist yoki pessimistik qarashga ega boladi. Optimizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikkita tushunchaga asoslanadi. Birinchisi, umid qilish tendensiyasi bo'lib, orzu qilingan narsaning bajarilishini kutish paytida paydo bo'ladigan va uni amalga oshirish imkoniyatini kutadigan ijobiliy rangli tuyg'u. Ikkinchisi, optimizmiga xos "barchasi mumkin bo'lgan eng yaxshi dunyoda" yashashimizga ishonish tendensiyasi.

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** Insoniy munosabatlari haqida tushunchaga ega bo'lgan har bir ota-onan farzandining hayotga munosabatlari shakllanishiga ham e'tiborli bo'ladi. Jumladan, farzandi optimistik yoki pessimistik xususiyatlari bo'lib shakllanayotganligini kuzatish orqali eng yaxshi, ya'ni optimizm va pessimizmning ham ijobiliy jihatlarini o'zida namoyon eta oladigan, muvaffaqiyatga intilib, unga erishgan vaqtida ijobiliylikni his etadigan qilib tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.



**1-rasm. Optimizm va pessimism munosabati**

Tadqiqot ishimizda ota-onalarning farzandlarida dunyoqarash hamda farovonlikning shakllanishiga ta'sirini o'rGANISH maqsadida "Farzandingizni bilasizmi?" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnomani o'tkazdik. So'rovnama 10 ta savoldan iborat bo'lib, bolalarning ertangi kundagi faravonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi omillar kiritilgan. So'rovnama 154 nafar ota-onalarda o'tkazildi.(1.jadval) So'rovnama tarkibiga kiritilgan har bir savol oilada farzandlarda farovonlik va emotsiyal ko'tarinkilik tuyg'usi shakllanishiga bevosita dahldor bo'lib, olingen natijalar so'rovnomaga kiritilgan alohida savollar bo'yicha tahlil qilinganda har bir holatda ota-onalarning farzandlar emotsiyal shakllanishiga nisbatan mas'uliyatli munosabatlari yuqori darajada baholash mumkin bo'lganlar 27,7% ni; tashkil etdi, mas'uliyatli munosabatlari o'rtada darajada baholash mumkin bo'lganlar 38,3% ni; mas'uliyatli munosabatlari past darajada baholash mumkin bo'lganlar esa, 34% ni tashkil etdi.

1-jadval.

## “Farzandingizni bilasizmi?” ijtimoiy-psixologik so’rovnama natijalari (N=154)

№	Faravonlikni tarbiyalash omillari	“Ha”	“Ba’zida”	Bular haqida o’ylab ko’rmaganman
1	Siz farzandingiz nimalardan quvonishini bilasizmi?	23%	44%	33%
2	O’g’lingiz (qizingiz) och qolganini aytganda u yoqtiradigan taom tayyorlab berasizmi?	42%	39%	19%
3	Farzandingizning do’stlari quvnoq bolalar bo’lganmi?	21%	32%	47%
4	Agar farzandingiz nimadandir xafa bo’lsa uni ko’nglini ko’tarishga harakat qilasizmi?	30%	42%	38%
5	Farzandingiz nimagadir erishgan vaqtida quvonchini ochiqcha ifoda etadimi?	28%	35%	37%
6	Agar farzandingizning kayfiyati buzilsa, bunday holat uzoq davom etadimi?	34%	46%	20%
7	Oilangiz yutuqqa erishgan vaqtida buni oila davrasida nishonlaysizmi?	19%	33%	58%
8	Farzandingizni ko’p shikoyat qilmaslikka o’rgatganmisiz?	23%	41%	36%
9	Farzandingiz o’tmishdagi noxushliklar va kelajak haqidagi ishonchhsizlikdan ximoyalanganmi?	35%	40%	25%
10	Farzandingizda ijobiy emotsiyalarni shakllantirishga harakat qilasizmi?	22%	31%	47%

**Xulosa.** Zamonaviy jamiyatda farzandlar ta’lim-tarbiyasida asosiy e’tibor intellektual rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, hayotga oqilona munosabatda bo’lish madaniyati sun’iy ravishda singdirilmoqda ammo, bolalarning hissiy rivojlanishiga yetarlicha e’tibor qaratmasdan, birinchi o’ringa ta’limni qo’ymoqdalar. Taniqli pedagog K.D.Ushinskiy, hissiyotlarning ijtimoiy ma’nosini ta’kidlab, “...ongni tarbiyalash haqida qayg’uradigan jamiyat katta xatoga yo’l qo’yadi, chunki insonning insoniyligi aql yoki ongga qaraganda ko’proq uning o’zini qanday his qilishiga bog’liqdir.” –deydi.[5] Olib borgan tadqiqotimizdan shu narsa ma’lum bo’ldiki, ota-onalarga farzand munosabatlari asosida bolalarda faravonlik tuyg’usini shakllantirish dolzarb bo’lib, bu jarayonga barcha ota-onalar ham jiddiy yondoshmaydilar. Vaholangki, insonning o’z hayotidan mammunligi, qanoatlanib yashashi unda faravonlik tuyg’usining shakllanganligiga bog’liq bo’ladi. Bugungi kunda ota-onalarda farzandlarida faravonlik tuyg’usini shakllantirish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishda pedagoglar, psixologlarning rolini oshirishga ahamiyat qaratish zarurati tug’ilmoqda.

**Adabiyotlar:**

- Психология семейных отношений с основами семейного консультирования. /Под редакцией Силяевой Е.Г. М., 2004. с. 46
- Шапиро А.З. Психолого-гуманистические проблемы позитивности-негативности внутрисемейных отношений. // Вопросы психологии. 1994. №4. с. 45-46
- Turakulova, A. S., Khabiev, T. R., & Sharafutdinova, K. G. Fathers Matter: Peculiarities of Parenting Adolescents in Complete and Incomplete Families in Tashkent (Uzbekistan).
- Каримова В., Мирахмедова М., Хонкулова Н. Ота-оналар университети – оила мустаҳкамлиги омили (социологик тадқиқотлар талқинида). Илмий-оммабоп монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2008.
- Ушинский К. Д. Собр. соч. в 11 томах / К. Д. Ушинский. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1950.
- Фрайфельд И.В. Проблема формирования эмоционального благополучия у детей дошкольного возраста. // журнал «Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения». Уральский государственный педагогический университет, г. Екатеринбург. 2008.

*Ataboyev Navro’zbek Ilhombek o’g’li,*  
*Toshkent Amaliy fanlar universiteti psixologiya kafedrasi o’qituvchisi*  
*navruz9610@gmail.com*

## YOLG’IZLIKNING SHAXS SHAKLLANISHIGA BO’LGAN TA’SIRI

**Annotatsiya.** Inson shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo’lgan omillardan biri bu, albatta, jamiyatdir. Aynan jamiyat va undagi boshqa insonlar bilan bo’ladigan munosabatlar uning biz yuqorida qayd qilgan tushunchaga yaqinlashtiradi. Ammo shu bilan birga inson tabiatida jamiyatdan chetlanishga bo’lgan ehtiyoj ham mavjudligini inkor eta olmaymiz. Xo’sh, barcha ehtiyojlarini bevosita jamiyat orqali qondiruvchi inson nega ayni paytda o’sha jamiyatdan chetlanishga urinadi.

**Kalit so’zlar:** shaxs, jamiyat shaxslararo munosabatlar, introvert, ekstravert.

### ВЛИЯНИЕ ОДИНОЧЕСТВА НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ

**Аннотация.** Одним из факторов, необходимых для формирования человека как личности, является, конечно, общество. Именно отношения с обществом и другими людьми в нём приближают его к упомянутому выше понятию. Но в то же время мы не можем отрицать, что в природе человека есть и стремление уйти от общества. Так почему же человек, удовлетворяющий все свои потребности непосредственно через общество, пытается в то же время выйти из этого общества?

**Ключевые слова:** человек, общество, межличностные отношения, интроверт, экстраверт.

### INFLUENCE OF LONELINESS ON PERSONAL FORMATION

**Abstract.** One of the factors necessary for the formation of a person as a person is, of course, society. It is the relationship with society and other people in it that brings it closer to the concept we mentioned above. But at the same time, we cannot deny that there is also a desire to withdraw from society in human nature. So, why does a person who satisfies all his needs directly through society try to withdraw from that society at the same time?

**Keywords:** person, society, interpersonal relations, introvert, extravert.

*Odamlar qayoqda odamlar?*

*- deb tag’in so’radi nihoyat Kichkina shahzoda*  
*– Sahroda, har qalay o’zingni yolg’iz sezarkansan kishi.*  
*– Odamlar orasida ham o’zingni yolg’iz*  
*sezaverasan, - deb qo’ydi ilon.*

*Antuan de Sent Ekzyuperi “Kichkina shahzoda”*

**Kirish.** Keling mavzuyimiz mohiyatiga chuqurroq kirib borish maqsadida dastavval shaxs, jamiyat va shaxslararo munosabatlar borasida psixologik adabiyotlarda keltirilgan izohlarga to’xtalib o’tamiz. Xususan, F.I.Haydarov, N.I.Xalilova muallifligidagi umumiy psixologiya darsligida shaxs tushunchasiga quyidagicha ta’rif keltiriladi: “**Шахс** mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsnинг asosiy tavsifi hisoblanadi.” Ya’ni shaxs tushunchasining muhim ko’rsatkichlaridan biri uning jamiyatning bir bo’lagi sifatida o’zida ijtimoiy muhit omillarini aks ettirishi anglashiladi.

Shaxslararo munosabatlar ham insonning shaxs o’larоq shakllanishida ro’l o’ynovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. E.P. Ilin o’zining “Muloqot psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar” kitobida quyidagi ta’rifni keltirib o’tadi: “shaxslararo munosabatlar - bu shaxslar o’rtasida rivojlanadigan munosabatlar. Ular ko’pincha hissiy tajribalar bilan birga keladi, ular insonning ichki dunyosini ifodalaydi [4]. Albatta bu tushunchalar borasidagi bildirilgan fikr mulohazalar shu bilangina cheklanib qolmaydi, va har bir keltirilgan fikrlar qaysidir ma’noda biri birini to’ldirib bir biriga o’xshashligi binobarida biz ulardan ayrimlari bilangina cheklanishga harakat qildik. Yuqorida keltirilgan fiklardan anglashiladiki inson jamiyatda shaxs o’larоq shakllnishida jamiyat va unda kechadigan jarayonlarning o’rni beqiyosdir. Va bizni qizitirayotgan jihatlardan biri shuki, ijtimoiy mavjudot o’larоq inson nimaga yolg’izlikka intiladi va uning rivojlanishi, ruhiyatiga yolg’izlikka intilish va shu muhitda qolish qanchalik ijobiy yoki salbiy ta’sir etadi.

Yolg'izlikning ilmiy nazariyasini yaratishning qiyinligi shundaki, bir tomondan, bu global, muhim, ijtimoiy jihatdan aniqlangan, aniq mezonlarga ega bo'limgan hodisa ekanligidadir, boshqa tomondan odamga eng ko'p ta'sir qiladigan, insonning o'z o'zini anglash va tushunishga turki bo'ladigan holatdir (aks ettirish, yaqinlik, subyektivlik va boshqalar).

**Asosiy qism.** Jismoniy jihatdan yolg'iz qolish va inson o'zini yolg'iz his qilishi bu boshqa boshqa tushunchalar hisoblanadi. Izolyatsiya insonning jismoniy tanasi bilan bog'liq, ya'ni odamning fazoviy va vaqtinchalik ijtimoiy muhitdan uzilishi bilan bog'liq bo'lib tashqi ta'sir natijasidir ichki aqliy emas. V. Sadler va T. Jons: "Jismoniyi izolyatsiyani anglash uchun insonga ko'zlarga ega bo'lishning o'zi kifoya, lekin yolg'izlikni bilish uchun uni boshdan kechirishingiz kerak." Yolg'izlikning obyekti - bu insonning o'zi. Siz boshqa odamlardan ajralgan bo'lishingiz mumkin, lekin yolg'iz bo'lmasligingiz mumkin. Va aksincha inson yolg'iz bo'lish uchun jamiyatdan ajralishi shart emas. Yolg'izlik, obyektiv izolyatsiyadan farqli o'laroq, "Men" va "Ular" o'rtasidagi munosabatlarning nomutanosibligini aks ettiradi, dunyo bilan, o'zi bilan kelishmovchilik, azob-uqubatlar, inqirozlar va boshqalarni shaxs bevosita idrok etadi.. Izolyatsiya yolg'izlik bilan birga bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin, ammo bu tushunchalarni biz bir biriga o'xshash deya olmaymiz. Izolyatsiyasiz misol tariqasida qamoqdagi insonni aytishimiz mumkin.

Ko'pgina tadqiqotchilar yolg'izlikni ruhiy hodisa sifatida ko'rib, uning farqlarini "yolg'izlik" va "izolyatsiya" kabi tushunchalar bilan ta'kidlab, yolg'izlikning ma'lum bir o'ziga xos ichki kontekstga ega ekanligiga ishonishadi.

Yolg'iz turmush tarziga keladigan bo'lsak, shuni takidlash joizki, u izolyatsiya tushunchasidan bir muncha farq qiladi, chunki yolg'iz turmush tarzini tanlagan odam o'zi xohlagan kishi bilan istalgan vaqtida muloqot qilish imkoniyatini saqlab qoladi. Va u o'zini yolg'iz deb alamli idrok etishdan, ya'ni yolg'izlikning o'zidan, bu dunyoga kelganda yolg'izlik, ketish paytida yolg'izlik hissini o'ziga singdiradigan qarashlardan xoli ushbu hayot tarziga ijobiy munosabatning mavjudligi bilan farq qiladi.

Yolg'izlik fenomenini tahlil qilishda tadqiqotchilar uchta yaqin, ammo bir xil bo'limgan tushunchalar bilan izohlashadi:

- 1) yolg'izlik, bu shaxsning subyektiv ravishda boshdan kechiradigan psixologik holati;
- 2) ongli tanlov natijasida yolg'iz hayot tarzi;
- 3) asosan shaxsning irodasiga bog'liq bo'limgan obyektiv sabablarga ko'ra aloqalarni qisqartirish yoki to'liq to'xtatish sifatida izolyatsiya.

Yolg'izlik - bu shaxs ongida yuzaga keladigan va u o'zgartira olmaydigan salbiy psicho-emotsional holat ko'rinishida boshdan kechiradigan subyektiv hodisa.

Yolg'izlik hodisasining kontseptual mazmunini turlicha talqin qilish tufayli yolg'izlik turlarini aniqlashda sezilarli kelishmovchiliklar yuzaga keldi.

I.Yalom yolg'izlikni shaxsning psixofizik holatini aks ettiruvchi, unga yangi aloqalar va munosabatlar o'rnatishni qiyinlashtiradigan, ruhiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra yuzaga keladigan subyektiv ruhiy holat sifatida ta'riflab, yolg'izlikning uch turini belgilaydi: intrapersonal (o'zidan izolyatsiya), shaxslararo (boshqalardan izolyatsiya), ekzistensial (hayotdan izolyatsiya). Mustakas - ikkita asosiy - subyektiv o'lchov (ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi) va nevrotik o'lchov (qo'rquv va xavotirning kuchayishi). Vayss yolg'izlikning ikki shakliga ega - hissiy izolyatsiya va ijtimoiy izolyatsiya. V.Sadler yolg'izlikni voqelik bilan munosabatlar (jumladan, shaxslararo munosabatlar va ekzistensial xarakterdagi kechinmalar) va shaxsning ichki dunyosi o'rtasidagi bo'linish sifatida talqin qilib, to'rt o'lchovli modelni taklif qiladi, u ma'lum bir narsani ifodalovchi to'rt turdag'i tajribaga asoslanadi. shaxsning ichki dunyosidagi munosabatlarning buzilishi turlari: shaxslararo, ijtimoiy, madaniy, kosmik. Shu bilan birga, u "yolg'izlik" va "yolg'iz turmush tarzi" tushunchalarini bir xil sifatida ishlatib, yolg'iz turmush tarzi - bu shaxsning o'zi tomonidan xarakterologik xususiyatlar va ruhiy salomatlik asosida tanlagan va ichki xohish-istik bilan belgilanadigan jismoniy holat ekanligini ta'kidlaydi. o'zining ichki dunyosi va mustaqilligini begonalar, shu jumladan, yaqin qarindoshlar tomonidan bostirib kirishdan himoya qilish istagi tufayli o'zini boshqalardan ajratib turadi.

Jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lum qilishicha covid pandemiyasi davrida insonlarning yolg'izlanish darajasi nisbatan yuqorilagan bo'lib dunyo miqiyosida har to'rtta katta insonning bittasi ijtimoiy izolyatsiyani boshidan kechiradi va o'smirlarning 5-15 % yolg'izklini boshidan kechiradi. Xususan yolg'izlikning inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'siri yuqorligi va bu hali ham tan olinmagan yoingki e'tibor qartilmagan jihat sifatida keltirilib o'tiladi. Unga ko'ra yolg'izlikdagi insonning hayotiga bo'lgan salbiy ta'sir nafaqat unga balki uning atrofidagilarga, jamiyatga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Ko'pincha bunday insonlarning baxtli, farvon hayot kechirishi ko'p jihatdan ularni o'rab turgan muhit bilan belgilanishi takidlanadi.

Bundan anglashiladiki, ularning hayotga bo’lgan qarashlari va ruhiy holatlari asosan o’zgalarning ta’siri ostida o’zgarib borishi yuqori. O’zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligining 2023-yil sentabr oyidagi ma’lumotlariga ko’ra, mamlakatimizda o’zgalarning parvarishiga muhtoj bo’lgan yolg’iz keksalarning soni 18417 nafarni tashkil etgan. Shulardan 4861 nafari umuman yakka-yolg’iz keksalar bo’libg ularning farzand yoki boshqa qarindoshlari yo’q va o’zgalar parvarishiga muhtojdirlar.

Umuman inson qachon yolg’izlik hissini sezadi degan savola psixologik adabiyotlarda turlicha izohlar keltriladi. Kimdandir ayrilish, yaqin insonini yo’qotish, uzoqlashish unda yolg’izlik hissini boshidan kechirishiga turtki bo’ladi. Bu paytda inson Egosi onasini yo’qotgan chaqoloq, himoyasz, nochor holatiga qaytadi. Freyd nigohida qo’rquv bu yolg’izlik hissining asosiy sababchilaridan biri sifatida ko’rsatiladi. V.Frankl esa yolg’izlik bu inson hayotini ma’nosи va qadriyatlarini yo’qotganda duch keladigan holat deb ta’kidlaydi.

Adabiyotlarda yolg’izlik tushunchasiga turli-tuman ta’riflar keltirilgan bo’lib psixolog, sotsiolog olimlar bu tushunchaning ham turlicha tasniflarga va turlarga ajratishgan. Xususan, L.Semyonova insonlarda yolg’izlikning namoyon bo’lishini beshta turga ajratib ko’rsatadi.

1. O’z-o’zini tasdiqlashga bo’lgan kuchli ehtiyoj. Bunda inson shaxsiy yutuqlari borasida haddan ortiq qayg’urishi misolida namoyon bo’ladi.

2. Xatti-harakatlarning bir xilligi. Inson o’zi tanlagan yo’l tomonidan cheklangan bo’lib, bu uning boshqa insonlar bilan munosabatga kirishishiga to’sqinlik qiladi.

3. O’z hissiyotlariga e’tibor qaratish. Hayotiy jarayonlar va inson ichki holati unga o’ziga xos, noyob tarzda ko’rinadi. Shubha va tashvishlarni kutish bilan tavsiflanadi.

4. G’ayrioddiy harakatlar. Dunyonı nostandard idrok etish va o’zgalar bilan hisoblashmasik.

5. O’z-o’ziga bo’lgan bahoning pastligi.

O’zini yolg’iz his etish yoki yolg’izlikdagi insonning nima sabab ayni holatda ekanligi borasidagi fikrlar shular bilangina cheklanib qolmaydi, albatta. Nima bo’lganda insonda mavjud boshqa ehtiyojlar singari yolg’izlikka bo’lgan ehtiyoj ham mavjudligi va bu ehtiyoj boshqa ehtiyojlar singari unga ham salbiy ham ijobjiy ta’sirga ega ekanligini takidlab o’tish o’rinli albatta. Insonning yolg’izlikka bo’lgan talabini uning nerv-fiziologik jihatdan tuzilishiga bog’lashga qaratilgan qarashlar ham mavjud. Bunga Karl Gustav Yungning inson yo’nalganligining tashqi yoki ichki olamga qaratilganligiga ko’ra odamlarni introvert yoki ekstrovert (ambivert) tiplarga ajratishini va buni bevosita inson nerv tizimiga bog’liq hodisa sifatida izohlaydi.

Korchagin o’zining yolg’izlik psixologiyasi kitobida Q.Boumenning quyidagi fikrlarini keltirib o’tadi. Unga ko’ra insonda yolg’izlikning vujudga kelishi jamiyatni unga bo’lgan ta’siri natijasidir. Shu bilan birga insonni yolg’izlikka bo’lgan intilishi unda boshqa extiyjlarning bo’lishi qanchalik tabiiy bo’lsa bu ham shunday ko’rinishdaki ehtiyojlardan biridir. Va bu tasirlar quyidagilardan iboratdir.

1. Boshlang’ich guruhdagi aloqalarning zaiflashishi. Asosiy guruh - bu oila yoki uning o’rnini bosadigan boshqa guruh. O’tgan asrlarga nisbatan solishtiradigan bo’lsak avlodlar o’rtasidagi uzulishlar, aloqalarning yaqqol susayganligini ko’rishimiz mumkin. Buning sabablari sifatida juda ko’p omillarni keltirib o’tish mumkin. Masalan, hayot tarzining keskin o’zgarishiga katta avlodlarning munosabati va buni qabul qila olmaslikdir. Shuningdek ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy ideallar va axloqiy me’yorlardagi o’zgarishlarning mavjudligi. Hatto Keyingi avlodlar ham bu masalada ko’pincha bir-birlarini tushunmasligi va qabul qilmaslik holatlari uchrab turadi. Albatta, avlodlar o’rtasidagi psixologik tafovutning kengayishi ulardan o’zaro munosabatlarining ham zaiflashuviga olib keladi.

2. Oilaning harakatchanligining oshishi. Bu yerda muammo nafaqat urbanizatsiya balki – ommaviy ravishda shaharlarning o’sishi va natijada aholi migratsiyasi. Masalaning psixologik tomoni shundaki umumiy sonning o’sishi ajralishlarningko’payishi va oqibatda ikkinchi va hatto uchinchi nikohlar. Gender munosabatlarda oilaviy qarashlarning keskin o’xgarishga uchrashi. Yani oilada har doim ham erkak ta’mintonchi ayol esa uy yumushlarini bajaruvchi sifatida emas. Bu funksiyalarning ( nafaqat bu vazifalar) o’zgarishi o’zaro bir birini tushumaydigan shaxslarning ajralishiga olib keladi. Shunga ko’ra o’z oilasidan norozi bo’lgan oilalarning buzilishi va insonlarning yolg’iz qolish holatlari.

3. Ijtimoiy harakatchanlikning ortishi. Katta ijtimoiy siyosiz davrdagi o’zgarishlar, ishsizlik holatlari insonlarning jamiyatda moddiy nuqtayi nazardan nimagadir erishish uchun kuchli harakat qilishga undaydi. Bu esa shaxslarning davlatga va o’zaro munosabatlarga bo’lgan ishonchszlikka olib keladi.

Haqiqiy yolg’izlik, birinchi navbatda, o’lim, tug’ilish, barqaror an’analarning qulashi, hayotiy fojealar va boshqalar kabi hayotiy vaziyatlar bilan yuzlanish oqibatida kelib chiqadi. Bu paytda har qanday tashqi qo’llab-quvvatlash shaklidan qat’i nazar bu holat, tashvishning faqat bir kishi tomonidan tushin yetilishga olib keladi. Yolg’izlik tushunchasiga biologic nuqtayi nazardan bo’lgan qarashlarga

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki yolg'zilik har doim ham bitta insonning ichki motivlari ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lган holatmas balki bunga jamiyatning ham kuchli ta'siri mavjud.

Bir necha yil oldin Yevropada o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda keksa respondentlar, quyidagi ikkita savolga javob berishdi: oilangiz bilan qanchalik tez-tez muloqot qilasiz? O'zingizni yolg'iz his qilyapsizmi va qay darajada? Ushbu savollarga berilgan javoblarga ko'ra, ikkita davlat boshqa davlatlarda ajralib turdi - Daniya va Italiya. Ma'lum bo'lishicha, barcha keksa yevropaliklar orasida daniyaliklar o'z qarindoshlari bilan eng kam muloqot qilishadi, lekin o'zlarini eng kam yolg'iz his qilishadi. Keksa italiyaliklar, aksincha, o'z qarindoshlari bilan boshqalarga qaraganda tez-tez muloqot qilishadi, lekin boshqalarga qaraganda ko'proq yolg'izlik tuyg'usini boshdan kechirishadi.

Biroq yolg'izlikning uzoq davom etishi, insonning o'ziga bo'lган munosabatining salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bazia hollarda insonning jamiyatdan chetlanishiga bo'lган sabab jamiyatdan emas balki shaxs o'z-o'zidan qidirishi va uning o'ziga bo'lган munosbat va bahosidan kelib chiqishi mumkin.

**O'z-o'zini hurmat qilish.** O'z-o'zini hurmat qilish insonning bir qator jihatlarini aks ettiradi va uning boshqa insonlar bilan bo'ladian munosabatlarigayam o'z ta'sirini o'tqizadi. Xususan, hissiy va mazmunli bo'lган o'z-o'zini munosabat, o'z kuchiga, qobiliyatiga, energiyasiga bo'lган ishonchni qay darajaligi, mustaqillik, o'z imkoniyatlarini baholash o'z hayotini boshqarish, o'z-o'zini tushunish. O'ziga bo'lган hurmat va ishonchning yetarlicha baholanmasligi oxir-oqibat jamiyatda boshqa insonlar bilan qoniqarli munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslikka olib keladi. Bu ham insonning yolg'izlikda qolishiga sabab bo'lувчи omillardan bir hisoblanadi.

**Boshqa odamlardan kutilgan munosabat.** Boshqa insonlardan antipatik munosabatni kutish munosabat o'rnatishga yoingki uni qanday tarzda olib borishga ta'sir (salbiy ta'sir) qiluvchi omillardan yana biri hisoblanadi. Bu shaxsning o'zini yetarlicha ifoda etishiga to'sqinlik qiladi bu esa uni boshqa insonlar bilan normal munosabatlarni o'rnatishiga ham salbiy ta'sirini o'tqizadi. Bu holda munosabatlar nisbatan yuzaki va ishonchsiz bo'ladi, bu esa o'z navbatida odamlardan begonalashish tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin.

**Shaxsiy manfaat. Insonning** o'ziga bo'lган qiziqishining yuqoriliga. Jamiyatning boshqa a'zolari bilan munosabat o'rnatishga bo'lган qiziqishning susayishi bilan ifodalanadi. Bu esa unda shaxslararo munosabatlardagi passivlikning kuzatilishiga olib keladi. Buning natijasi o'laroq shaxs yolg'izlik holatida o'zini ko'rishi mumkin.

Demakki yolg'izlik tushunchasi insonda tashqi va ichki motivlar sabab yuzaga kelishi va hodisa insonga ham ijobjiy ham salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin degan to'htam eng o'rinnisi deb aytishimiz mumkin.

Mamlakatimizda bu boradagi yaqin orada o'rganilgan ishlardan Yuldasheva Mahliyo Baxtiyarovananing yolg'izlik hissining talabalar misolida o'rganishga qaratilgan ilmiy ishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra turli bosqichda tahsil olayotgan o'quvchilarda yolg'izlik hissiga bo'lган munosabat turlicha bo'lib uchinchi bosqich talabalari bu tushunchaga ( 70 %) nisbatan ijobjiy munosabatda ekanligi birinchi bosqich o'quvchilari esa nisbatan salbiy munosabatda ( 82 %) ekanligi anglashilgan. Natijalar suhbat usuli yordamida aniqlanganligi va yuqori boqichga o'tgandan keyin talabalarda masuliyat hissining oshishi ularda yolg'izlik hissiga nisbatan munosabatning o'zgarishiga sabab bo'lishi aytildi.

**Xulosa** o'laroq shuni aytishimiz mumkinki, yolg'izlik bu inson o'z xohish-istaklari natijasida yoinki turli hayotiy vaziyatlar sabab ( tashqi va ichki motivlar) inson hayotida yuz berishi mumkin bo'lган holat. Va ayni holat insonning yosh, jins xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hammaga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Agar inson ongli tarzda yolg'izlikka intilib yashayotgan bo'lsa, albatta, bunda unga ma'lum bir motivlar sabab bo'lishi ( maqsadlar, introsiya, jamiyatdan olingan travmalar va.h.k.) va bu holat unda o'z maqsad yoki ko'zlangan natijaga erishgunga qadar davom etadi deyishimiz mumkin. Bu mavzu yuzasidan mamlakatimizda qilingan ishlarga afsuski biz ko'plab misollar keltira olmaymiz. G'arb psixologiyasida ( nafaqat psixologiya balki tibbiyot, sotsiologiya) yolg'izlik psixologiyasi anchayin chuqur va keng tadqiq qilingan mavzulardan bo'lib uning inson hayotidagi ahamiyati va ta'sirini ham yuqori baholashadi. Mamlakatimizda ham bu mavzularning chuqur o'rganilishi buning ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolarning ham biroz bo'lsa-da oldi olinishiga turtki bo'ladi deb o'ylaymiz.

### Adabiyotlar:

1. Карл Густав Юнг “Психологические типы” М.: «Университетская книга», ООО «Фирма «Издательство ACT», 1998. - 720 с.

2. Корчагина С.Г. Психология одиночества: учебное пособие. Московский психолого-социальный институт, 2008 © Дизайн и верстка ООО «Багира-2», 2008
3. Заворотных Евгения Nikolaevna Социально-психологические особенности одиночества как субъективного переживания, - автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук, - Санкт-Петербург 2009.
4. Ильин Е.П. Психология общения и межличностных отношений. — СПб.: Питер, 2009. — 576 с.: (Серия «Мастера психологии»).
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiyy psixologiya (darslik). – Toshkent, 2009.
6. Yuldasheva M.B. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy psixologik determinantlari. PhD Avtoreferati. – Toshkent-2022.
7. Колесникова Г.И. “Феномен одиночества: понятие, классификация, экзистенциальный смысл”
8. Корепанова Е.Г., Любякин А.А. “Исследование взаимосвязи одиночества и самоотношения в пожилом возрасте”



**Baratova Dilafro'z Olimjanovna,**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti pedagogika va o‘qitish metodikasi  
kafedrasи o‘qituvchisi (NTM)

## NOTO‘LIQ OILANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada noto‘liq oila masalasiga bag‘ishlangan ishlarning ilmiy tahlili va muallifning shaxsiy ilmiy qarashlari asosida noto‘liq oilaning kelib chiqish omil va sabablar, turlari, bola shaxsi shakllanishiga ta’siri ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga noto‘liq oilalarga xos psixologik iqlim, uni yuzaga keltiruvchi sabablar xususida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** noto‘liq oila, shaxsni shakllantirish, noto‘liq oila turlari, oilaga psixologik-pedagogik yordam, oila funksiyalari.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕПОЛНОЙ СЕМЬИ

**Аннотация.** В статье на основе научного анализа работ, посвященных различным аспектам неполной семьи и личной позиции автора в качестве социально-педагогической проблемы изложены факторы, причины, виды неполных семей и их влияние на формирование личности ребенка. При этом обсуждается психологический климат, характерный для неблагополучных семей, и причины его создания.

**Ключевые слова:** неполная семья, формирование личности, виды неполных семей, психолого-педагогическая помощь, функции семьи.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF SINGLE-PARENT FAMILIES

**Abstract.** In the article, on the basis of scientific analysis of works devoted to various aspects of single-parent families and the author's personal position as a socio-pedagogical problem, the factors, causes, types of single-parent families and their influence on the formation of a child's personality are outlined. At the same time, the psychological climate characteristic of dysfunctional families and the reasons for its creation are discussed.

**Keywords:** incomplete family, personality development, types of incomplete families, psychoeducational support, family function.

**Kirish.** Mustaqillik davrida O‘zbekistonda xalq hayotida misli ko‘rilmagan ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu bilan birga so‘nggi o‘n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarplashdi. Shulardan biri – oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishidir. Noto‘liq oilalar sonining ortib borishi va ulardagи bolalarning otasiz o‘sishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda o‘z ifodasini topadigan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Masalan, MDH davlatlarida so‘nggi yillarning o‘zida Y.A.Lapshina tadqiqotiga binoan, 1 million bola ota yoki onasiz qolgan, oiladagi ajralishlar esa Rossiya davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 57 foizni tashkil qilgan. Noto‘liq oila va undagi bola tarbiyasi Rossiyada ijtimoiy muammo sifatida V.V.Bodrova, Y.G.Nikolayeva, A.Y.Gross, T.A.Gurko, O.G.Yusupova, YE.I.Kalabixina, A.Demidov, I.F.Dementyeva, V.Titarenko, G.A.Kantemirova, YE.A.Lapshina, T.V.Andreyeva, M.Y.Baskakova, L.G.Lunyakova, S.Yaroshenko, S.Ayvezova, L.N.Ovcharova, L.M.Prokofyeva, Z.A.Xatnina va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Yuqorida qayd qilingan olimlarning barchasi o‘z ishlarida bir umumiyl xulosani ifodalaydilar. Ularning fikricha, noto‘liq oilada qanday yaxshi sharoit yaratilmasin, unda komil shaxsni shakllantirib bo‘lmaydi G.A.Kantemirovaning dissertatsiya tadqiqotida keltirilishicha, 2008 yil Alaniyaning rasmiy ma’lumotiga ko‘ra voyaga yetmagan vaqtincha jamiyatdan «izolyatsiya» qilingan (maxsus muassasalarda utilayotgan) yoshlarning 39,2 foizi va deviant xulqi sababli ichki organlar ro‘yxatiga olingan voyaga yetmagan bolalarning 36,8 foizi noto‘liq oilalardan bo‘lgan. Y.G.Nikolayevaning dissertatsiya tadqiqoti natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalardagi 92 foiz ayollar farzandlarining otasidan olayotgan moddiy yordamini yetarli emas, deb biladilar. Ayollarning 61 foizi oilada ota – erkak kishining yo‘qligi bola shaxsiga salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatdi, 69 foiz ayollar noto‘liq oila ham moddiy, ham ma’naviy qiyinchiliklarni boshdan kechirishini qayd etdi. Noto‘liq oilada o‘smirlarni tarbiyalashni ijtimoiy psixologik shart-sharoitlar masalasi S.V.Zelenchukovaning dissertatsiya

ishida tadqiq etilgan. Izlanish obyekti sifatida Germaniya va Rossiyadagi noto‘liq oilada voyaga yetayotgan o‘smirlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 27 foiz rossiyalik o‘smirlar o‘zini tarbiyalayotgan ota yoki onalaridan, qarindosh yoki yaqin odamlaridan 25 foizi namuna oladilar. Hech kimdan namuna olmaydigan o‘smirlar 19 foizni tashkil qildi. O‘smirlarning 15 foizi faqat o‘zlarini namuna sifatida ko‘radilar. Germaniyalik o‘smirlarning 33 foizi uchun ota-onalari namuna vazifasini o‘taydilar, 17 foizi uchun namuna mashhur shaxslardir. Aka va opalari 14 foiz o‘smirlar uchun namuna bo‘lsalar, qarindoshlari namuna sifatida 10 foizni tashkil qildilar. Noto‘liq nemis oilalarda voyaga yetayotgan 17 foiz o‘smirlar hech kimni namuna sifatida ko‘rmaydilar. Shaxsan o‘zlarini namuna sifatida ko‘radiganlar 4 foizni tashkil qildi. Bola shaxsining noto‘liq oilada shakllanish masalalari YE.V.Nedelinaning dissertatsiya tadqiqotida atroficha o‘rganilgan. Noto‘liq oila masalasini ilmiy tadqiq etgan ishlar (Lapshina Y.A., Kantemirova G.A., Nikolayeva Y.G., Zelenchukova S.V., Nedelina Y.V.) tahlillari va bizning shaxsiy ilmiy kuzatuvlarimizga ko‘ra, muammoning dolzarbliqi quyidagilar bilan belgilanadi:

**Asosiy qism.** Birinchidan, jamiyatda noto‘liq oilalar sonining ortib borishi oila institutiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, uning mustahkamligini zaiflashdirib boradi.

Ikkinchidan, noto‘liq oilalar sonining ortishi yoshlarda oila haqidagi tasavvurlarining to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Qizlarning ma’lum qismi noto‘liq oilani o‘zlar uchun andoza sifatida oladilar. Bu esa noto‘liq oilalar sonining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlardan komil shaxs shakllantirishda qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

To‘rtinchidan, yosh oilalar, aksariyat holda ayollar va bolalarni iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushiradi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan yoshlarda jinoyatchilik, shu jumladan, ularning og‘ir turlarining o‘sishiga shart-sharoit yaratadi.

Oltinchidan, ota-onalarga eng muhim vazifalari – tarbiya funksiyalarini to‘laqonli ado etishlariga yetarli imkon bermaydi.

Yettingchidan, ayollarning ma’lum qismida jinsiy-tanosil kasalliklarining ko‘payishi, reproduktiv organlarida onkologik xastaliklar sonining oshishiga olib kelishi mumkin.

Sakkizinchidan, jamiyatda poliandriya va poligeniya, ya’ni ko‘p erlik hamda ko‘p xotinlik holatlarining o‘sishiga olib keladi.

To‘qqizinchidan, mahalliy millatlar, jumladan, o‘zbeklardagi o‘ta muhim, qimmatli etnopsixologik xislatlardan biri bo‘lgan ota-onsa hurmati, oiladagi mavqeい, ota-onalik va farzandlik burchlarining shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi.

O‘ninchidan, avlodlar orasidagi hissiy emotsiyonal yaqinlik, ota-onsa va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

O‘n birinchidan, ota modeli, namunasining yo‘qligi o‘g‘il bolalar shaxsining erkak, oila boshlig‘i, ota sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi, ularda ayolsifat xarakterning paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Qizlarda ota yo‘qligi ota mavqeい, hurmati, er-xotin munosabatlarini ko‘rmasligi, voyaga yetib shaxsiy oilaviy hayot qurganda er-xotin munosabatlarini talab darajasida olib borishiga salbiy ta’sir qiladi.

Noto‘liq oilalar sonini ortib borishi va ulardagi bolalarni otasiz o‘sishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda o‘z ifodasini topadigan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Noto‘liq oilada bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy, huquqiy va boshqa muammolar kuzatiladi. Noto‘liq oiladagi bola shaxsini shakllantirishdagagi muammolarni quyidagi chizma asosida yoritish mumkin .

### 1-jadval.

#### Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishida mavjud muammolarni bartaraf etishning ijtimoiy psixologik mezonlari

Mezonlar	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va ularning ko‘rsatkichlari
Onaning ma’lumot darajasini ko‘tarish, oila funksiyalarini to‘laqonli bajarilishi “	Ota-onalar universiteti” qoshida, ta’lim muassasalarida noto‘liq oiladagi onalar uchun psixolog va pedagoglar tomonidan seminar-treninglar tashkil etish, oila funksiyalari haqida ma’lumotlar berish, ularni amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish
Onaning mustaqil ta’lim olishi, mustaqil	Noto‘liq oiladagi ona doimiy ravishda zamonaliviy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni

rivojlanishi	o‘qish, rivoyat va Hadislarni farzandi bilan birgalikda tahlil qilish, onlayn va offlayn kurslarda tahsil olish
Bolaning ijtimoiylashuvini o‘rganish	Ona, ota, yaqin qarindoshlar, amaliyotchi psixologlar bilan birgalikda pedagogik, psixologik metodikalar yordamida bolaning ma’naviy-axloqiy xulqini o‘rganish hamda xulqidagi salbiy xislatlar va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish
Bolaning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish	Noto‘liq oiladagi bolalarni sport, musiqa, san’at yoki o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib qo‘sishcha ta’limga jalb etish va qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadbirlar o‘tkazish
Bolaning xayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish	“Muammoli vaziyat”, “Keys stadi” metodlari orqali bolada hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarni yechishda ko‘nikmalarini shakllantirish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish
Ona va bolaning o‘zaro munosabatidagi muammolarni bartaraf etish	Oila, ta’lim muassasa va mahalla hamkoriligidagi psixologik, pedagogik metodika, test, korreksion mashg‘ulotlar orqali bolaning onaga, otaga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, tahlil qilish, tavsiyalar berish

Yuqorida chizma asosida keltirilgan noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishidagi muammolar 4 turga ajratildi: pedagogik, psixologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy. Noto‘liq oiladagi pedagogik muammo bu – bola tarbiyasidir. Bola shaxsi shakllanishidagi muammolarda odob-axloqi, xulq-atvor normalari, ma’naviyati, madaniyati, oiladagi urf-odat va an’analarga ota yoki ona tomonidan e’tiborsizligi natijasida namoyon bo‘ladi. Ota yoki ona tomonidan bola tarbiyasiga bee’tiborligi yoki tarbiya jarayonidagi “ikkilanish”, ya’ni bolani to‘g‘ri yo‘l, usul bilan tarbiya qilayotganligidan shubxalanish bolaning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida pedagogik to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Psixologik muammolarda birinchi o‘rinda onaning ma’lumot darajasi pastligi, ona tomonidan oilaviy vazifalarni to‘liq bajarilmasligi hamda onani “Mustaqil ta’lim” bilan shug‘ullanmasligi, ya’ni ma’lumot darajasidan kelib chiqib, bola tarbiyasida o‘z bilimini: diniy, dunyoviy, ilmiy, pedagoik va psixologik bilimlarini egallamasligi natijasida oilada turli pedagogik muammolarga duch keladi. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishida mavjud muammolarni bartaraf etishda oilada onaning ma’lumot darajasini oshirish, mustaqil ta’lim olishni motivatsiya berish, bolaning ijtimoiylashuvi, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish hamda ona va bola o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik texnologiyani takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy psixologik muammolardan kelib chiqib, noto‘liq oilada bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik modeldan foydalandik. Model asosida tajriba-sinov ishlarining maqsadini noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolaning ijtimoiy-pedagogik muammolarini bartaraf etish deb belgiladik. Noto‘liq oilalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida “ReneJilya metodikasi”, Rassel va Fergyussonlar tomonidan ishlab chiqilgan “Yolg‘izlikni subyektiv his qilish” metodikasi, TMAT (tarbiyadagi muammoni aniqlovchi test) metodikalari asosida ota-onalar bilan maqsadli seminarlar o‘tkazish, maktab va mahallalarda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish, psixologik suhbat, test, seminar, metodikalarni o‘tkazish, “Muammoli vaziyat” metodi orqali hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalarni bo‘sh vaqtini to‘g‘ri va samarali tashkil etishni o‘z ichiga qamrab olgan. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllantirishni quyidagi komponentlar asosida aniqladik: profilaktik, korreksion va rivojlantiruvchi. Profilaktik komponentlarda ma’lumotlarni yig‘ish va prognoz, ya’ni bashorat qilish. Korreksion komponentlarda ta’lim-tarbiyani yo‘naltirilganligi, ya’ni muloqotga kiruvchanlik, dominantlik, ijtimoiylashuvi, erkin fikrni bayon eta olishi. Rivojlantiruvchi komponentlar esa, ta’limtarbiyaning rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi, bolalarda motivatsiyani shakllantirish orqali o‘z oldiga qo‘ygan

maqsadiga erishish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish, “Men konsepsiyasini” yanada rivojlantirishlar va albatta, bolalarga yordam ko‘rsatishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Belgilangan komponentlar amalgam oshirishda noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishidagi pedagogik, psixologik, ijtimoiy jarayonni muvofiqlashtirish orqali noto‘liq oila bola shaxsidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni oldini olish va bartaraf etishga erishiladi. Shu o‘rinda, noto‘liq oiladagi onaning ma’lumot saviyasini ko‘tarish, bolaning “Men konsepsiysi”ni shakllantirish, ona va bola o‘rtasida nizolarni bartaraf etish maqsadida bir nechta treninglarni tavsya etamiz. Keng tarqalgan va samarali ijtimoiy pedagogik texnologiyalardan biri trening hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogik trening jamoaviy ish olib borishning faol metodlariga asoslangan pedagogik ta’sirdir. Shuningdek, tashkillashtirilgan muloqotning maxsus turi bo‘lib, bu jarayonida shaxs rivojlanishi, kommunikativ malakalar paydo bo‘lishi, psixologik yordam ko‘rsatish masalalari hal qilinishi kuzatiladi. Bizning tadqiqot natijalarimizga ko‘ra Toshkent shahar, Qashqadaryo hamda Buxoro viloyatlarida 2020-2023-yillar mobaynida o‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashgan noto‘liq oilalarning 98 nafari ajrashgan, 25 nafari beva hamda 3 nafar nikohsiz farzandli bo‘lgan (yolg‘iz ona)lar respondent sifatida ishtirot etgan. Ajrashgan onalarning 77 nafari o‘rtta ta’lim ma’lumotli, (tugallanmagan o‘rtta ta’lim, o‘rtta maxsus, kasbhunar va boshq.), 21 nafari oliy ma’lumotga ega. Shu o‘rinda bevalarning 19 nafari o‘rtta ma’lumotli, 6 nafari oliy ma’lumotga ega ayollardir. Har bir oilaning, jumladan noto‘liq oilaning eng muhim bo‘lgan asosiy vazifasi – tarbiya funksiyasidir. Tadqiqotimizda noto‘liq oilalardagi onalardan olingan natijalarga ko‘ra oiladagi farzandlarning axloqida, xulq-atvorida tarbiyaviy muammolar mavjudligi 47 nafar respondent e’tirof etgan. Yuqoridagi oilalarda tarbiyaviy muammolarning ba’zida uchrab turishini 39 nafar onalar ta’kidlagan. Jami 86 nafar noto‘liq oilalarni tashkil qiladi. Ushbu tarbiyaviy muammolar 21 nafar noto‘liq oilalarda kamdan-kam uchrasada, ularni mavjudligini o‘z oilalarida inkor etganlar 19 nafardan iborat bo‘ldi. 1 Otalik belgilanmagan. Har bir oilaning psixologik iqlimi, oila a’zolari orasidagi munosabatlarni sog‘lom bo‘lishi, oilada nizolarni kelib chiqishi, nizolar asosida bolalarni yoki ba’zan kattalarni ham depressiya holatiga tushishi, shu asosida ba’zi hollarda o‘z joniga qasd qilish hollarini ham kuzatilishi, nosog‘lom psixologik iqlimda bolalarni o‘z-o‘ziga baho berishining pasayishi, uning shaxsida turli negativ komplekslarni paydo bo‘lishi va yuqoridagilarini barchasi oilada katta ijtimoiy-pedagogik muammolarni yuzaga keltirishi sababli biz o‘z tadqiqotimizda “Rene-Jilya metodikasi”ni qo‘llashni lozim topdik. Chunki ushbu metodika pedagoglar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan keng qo‘llangan bo‘lib, oiladagi munosabatlar haqida yetarli ma’lumot beradi. Ushbu metodika, ishonchlilik va validlilik talablariga javob beradi. Noto‘liq oilalarda o‘rganilgan bolalar soni 126 nafrani tashkil qilib, 98 nafar ajrashgan ona tarbiyasidagi bolalar hamda 25 nafar beva ona tarbiyasidagi bolalar respondent sifatida 123 nafari qatnashdi. Noto‘liq oilalardagi bola shaxsini oiladagi munosabatlarni aniqlash bo‘yicha “ReneJilya metodikasi”da noto‘liq oilalardagi shaxslararo munosabatlar o‘rganilganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi: 1. Noto‘liq oilalardagi bolalarda, ayniqsa bir farzandli oilalarda kommunikativ, yetakchilik xislatlari kam ifodalangan. Chunki oilada aka-uka, opasingillarning yo‘qligi kommunikativ xislatlarni yetarli shakllanishiga imkon bermagan. Noto‘liq oilada 2-3 nafar farzand bo‘lsa, yuqoridagi xususiyat ya’ni, kommunikativ, yetakchilik xislatlarini kam ifodalanganligi deyarlik uchramaydi. Noto‘liq oiladagi bolalarda onasiga hissiy va mehr jihatdan yaqinligi ifodalandi (92%), ammo bu yaqinlik bolani yoshiga bog‘liqligi, yosh psixologiyasidagi maktabgacha va boshlang‘ich sinf yosh davri bilan cheklanmasdan o‘smyrilik davrida ham kuchli (86%) ifodalanishi kuzatildi. Bu yosh davr psixologiyasidagi ayrim xususiyatlarni o‘zga davrlarda ham kuchli ifodalanishi, bizning fikrimizcha ota-onalar muloqotining “tanqisligi” bilan tushuntiriladi. Shu bilan birga onaga hissiy emotsiyonal yaqinlik noto‘liq oilani kelib chiqish sabablari bilan bog‘liqligi aniqlandi. Ajralish asosida yuzaga kelgan oilaga nisbatan bevalik sababli noto‘liq oilalarda farzand va ona bilan hissiy-emotsional yaqinlik kuchliroq (98%) ifodalanishi kuzatildi. Ajralgan ota-onalar tomonidan bola uchun kurash bo‘lgan oilalarda bolani ona bilan hissiyemotsional yaqinligi zaifroq (75%) ekanligi aniqlandi. Bu, bizning fikrimizcha, bola uchun kurash davrida otaga qarshi ishlatalgan uslublar, gaplar, ota haqidagi turli salbiy tasavvurlar va stress holatlari ona obrazini bola tasavvurida qisman emotsiyonal qadrsizlanishiga olib kelish natijasida deb, taxmin qilinadi. Bizning tadqiqotimizda aksariyat onalar o‘z farzandlarini axloq-odob jihatlarida kamchiliklarni ko‘ra bilmaydilar. Ya’ni o‘z farzandlarini ideallashtirish, yaxshi ko‘rsatish, kamchiliklari yo‘q sifatida ma’lumot berish holati kuzatildi. Shu sababli biz tomonidan “Noto‘liq oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik test” nomli maxsus ijtimoiy-pedagogik test ishlab chiqildi. Metodikaning maqsadi: to‘liq, noto‘liq va boshqa turdagи oilalarda bola tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarni aniqlashdan iborat. Ushbu test metodikasi vositasida oilani o‘rganish quyidagi vazifalarni ko‘zlaydi:

1. Oilada bola tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni aniqlash.
2. Bola tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ifodalish saviyasini aniqlash.
3. Oilada bola tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarni ona tomonidan idrok etilishi hamda o‘qituvchi tomonidan idrok etilishi, ular idroki orasidagi tafovutni aniqlash.

4. Tarbiya jarayonini samarali bo‘lishishga erishish har bir bolani tarbiyasidagi muammolar holatini, darajasini aniqlashdan iborat. Test natijalari asosida tarbiyaviy tadbirlar mazmunini mavzu rejasini korreksion tarbiyaviy dasturni tuzish, tarbiyaviy ishlarni, ayniqsa, aniq shaxs bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishni samaradorligini oshirish imkonini beradi. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Noto‘liq oilalarning aksariyatida ona bolasini (yoki bolalari)ni otasiz tarbiyalayotgan bo‘lib, asosiy faoliyatini ishlab chiqarish, ya’ni, mehnat qilish bilan bandligi sababli, bolalarni tarbiyalashga yetarli vaqt ajrata olinmaydi. Oilaning noto‘liqligi unda o‘savotgan bolani ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir qiladi.

2. Noto‘liq oilalarning aksariyati moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirish sababli bola tarbiyasida qo‘srimcha ta’lim, turli sport, san’at va boshqa sohalar bilan shug‘ullantirishga yetarli imkon topa olmaydilar. Bu esa bola shaxsida bo‘lgan tug‘ma layoqatini erta aniqlash, uni o‘stirish va qobiliyatga aylantirishga yetarli imkon bermaydi.

3. Noto‘liq oilada bola shaxsini shakllantirishda eng katta muammolardan biri bu psixologik va pedagogik muammolardir. Uning kelib chiqishiga sabab oilaning yoshligi, onaning tarbiyachi sifatida tajribasi yo‘qligi, psixologik va pedagogik bilimlarni sayozligi, asosiy vaqtini oila budgetini ta’minlashga sarflash natijasida bolasi bilan muloqotda bo‘lish, uni tarbiyalashga vaqt va tajribasini yetarli emasligi, pedagogik, psixologik maslaxatlarga muxtojligidir.

4. Noto‘liq oilalardagi o‘g‘il va qizlar orasida tarbiyasidagi salbiy jihatlarini ifodalanishi orasida yetarli farq bo‘lib, ularning bir qismi yosh xususiyati, qolgan qismi noto‘liq oilaning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bilan belgilangan. Shu bilan birga “Noto‘liq oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiypedagogik test” natjalarga ko‘ra genderga xos hususiyatlar aniqlangan. Bularga yolg‘onni ko‘p ishlatish odati, dugonalarini dugonalariga rashk qilish, arzimas narsaga xafa bo‘lish, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, kek saqlash kabilar kiradi. Yuqoridagilar oila turi (noto‘liqligi), ijtimoiy-iqtisodiy holati, yosh davri hamda xotin-qizlarga xos xususiyatlar tomonidan belgilangan. Noto‘liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda bizning fikrimizcha quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Noto‘liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Mahalla psixologlari tomonidan pedagogik-psixologik trening, psixologik monitoring, pedagogik-psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (otaonalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa formasida bo‘lishi mumkin. Bunda xar bir noto‘liq oilani o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olish zarur.

2. Noto‘liq oilada o‘sgan va o‘z sohasida taniqli bo‘lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o‘quvchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib shunday muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto‘liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Noto‘liq oiladagi bolalarni tug‘ma layoqatini va qiziqishini hisobga olib sport, musiqa, tasviriy san’at va boshqalarga jalb qilish lozim.

4. Noto‘liq oilalar bilan mahalla hamda maktab psixologi muntazam ishlashi va psixologo-pedagogik monitoringini olib borishi lozim.

5. Noto‘liq oiladagi bolalarni ta’til davrida dam olishini tashkil etish, qo‘srimcha ta’lim olishda mahalla, ta’lim muassasa, NNT va boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yordam berish kerak.

Yuqoridagilarning barchasi yoshlarni zamon ruhida, umummilliy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazishimizda qator murakkab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bizning fikrimizcha, noto‘liq oilalar sonining kun sayin ortib borishi sabablarini quyidagilar tashkil qiladi. Buning eng asosiy sabablaridan biri – yoshlarimiz oilaviy xhyot haqida to‘laqonli va psixologik pedagogik jihatdan to‘g‘ri savodli tasavvurga ega emasligi. Aksariyat yoshlar oilaviy hayotni «asal oyi» kabi tasavvur qiladilar, vaholanki oilaviy hayot har bir yosh uchun katta taqdir sinovidir. Har bir oila «Oilaviy hayot chidaganga chiqarilgan» tamoyili bilan yoshlarni turli iqtisodiy, axloqiy, individual-psixologik, shu jumladan, sabr-chidamlilik sinovidan o‘tkazadi. Afsuski, yosh oilalarning ma’lum bir qismi bu sinovlarga bardosh berolmay, noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishiga olib keladi. Noto‘liq oilalar ko‘payishiga olib keluvchi muhim sabablardan navbatdagisi oila masalalarida shaxs xulqi ustidan ijtimoiy nazoratning susayishi, «Odamlar nima deydi?» mazmunidagi an’anaviy savol ta’sir kuchining keskin zaiflashib ketganligi. Albatta, demokratik jamiyat qurayotganda shaxs erkinligini ta’minlashimiz, fuqaroning shaxsiy hayotiga qo‘pol ravishda aralashmasligimiz darkor. Shu bilan birga, biz yoshlarning oilaviy hayotida uchrashi muqarrar bo‘lgan sinov va muammolarga oldindan tayyorlab, uni oila to‘liqligi, oila a’zolar salomatligiga salbiy ta’sir

etmagan holda hal qilish, sinovlardan yosh oilani talofatsiz olib chiqishga yordam berishimiz lozim. Bu borada Xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla», «Sog'lom avlod» fondlari, hokimliklar va hukumat tomonidan katta samarali ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, noto'liq oilalarning ko'payishi, poliginiya (ko'p xotinlilik) hamda poliandriya (ko'p erlilik) tendensiyasining kuchayish omillariga, bizning fikrimizcha, oilada erkak mavqeyining pasayishi, erkaklarda impotensiyaning yosharishi, son jihatdan o'sishi, ayollarda jinsiy xulqning erkinlashishi, yoshlarning hayotiy qiymatliklarida kuzatilayotgan o'zgarishlar, urg'u ma'naviy boylikdan iqtisodiy boylik tomon ko'chishi, ya'ni ma'naviy boylikdan iqtisodiy, moliyaviy boylik keskin ustunlik qilishi, aholida kuzatilayotgan gipodinamiya, urbanizatsiya natijasida mamlakat aholisida shahar hayot (Poliginiya (poli - ko'p, yun. gyne - xotin) – ko'p xotinlilik. Ayrim xalqlarda, ko'proq musulmon xalqlarida shu kunga qadar saqlanib qolgan turmush tarzining tarqalishi, turli ijtimoiyiqtisodiy sabablarg'a ko'ra yerli xalq orasida migratsiyaning kuchayishi va boshqalar kiradi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan noto'liq oilaga qarshi kurashish, noto'liq oilani faqat salbiy, muammoli oila turi sifatida ko'rsatish, ularni yomon jihatdan idrok etish ma'nosi kelib chiqmaydi. Shunday noto'liq oilalar borki, ular to'liq oiladan o'n chandon yaxshi yashaydi va o'z oilaviv vazifalarini to'laqonli, yuqori saviyada bajarib kelmoqda. Biz muammo sifatida mulohaza yuritayotgan noto'liq oilalar deyarli asossiz yuzaga kelgan, aksariyati jiddiy sabablarsiz ajralgan va yosh bolalari bilan katta iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, ma'lum guruhi nikoh qurishdan oldin ajralib erkin hayot kechirishni maqsad qilib qo'ygan, oila, ayniqsa bola tarbiyasiga befarq qaraydigan, bola shaxsi shakllanishiga mas'uliyatsizlik bilan yondashadigan, o'z shaxsiy manfaatini farzandlari, oila manfaatidan ustun qo'yadigan, ota-onalik burchlarini deyarli unutib qo'ygan yoki davlat, jamiyat zimmasiga yuklab yengil hayot kechirayotgan, ba'zi hollarda farzandlarini butunlay unutgan noto'liq oilalardir. Noto'liq oilalarni oila funksiyalarining to'laqonli bajarilishi darajasiga ko'ra shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin:

- oila funksiyalarini yuqori darajada bajarayotgan noto'liq oila. Bu vaqtincha yoki uzoq yillar davomida noto'liq bo'lib, oilaning barcha funksiyalarini to'liq ravishda bajarib kelayotgan noto'liq oila. Bunday oilalarga aksariyat holda yetuk yoshdag'i avlod – buva, buvilar yordam beradilar va bola tarbiyasi, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, moddiy ta'minot kabi funksiyalar to'liq bajarilishida o'zlarining hissalarini qo'shadilar. Bunda (agar bevalar oilasi bo'lmasa) ajrashgan oila bilan yashamayotgan turmush o'rtog'i ham oila funksiyalarining bajarilishiga imkon darajasida o'z tashabbusi bilan hissa qo'shadi;
- o'rta darajadagi noto'liq oila. Oila funksiyalarining bajarilishiga oila bilan yashamayotgan turmush o'rtog'i aliment to'lashdan ortiq hech qanday hissa qo'shmaydi. Oila funksiyalaridan eng muhimi bo'lgan bolani tarbiyalash masalalarida onada, ba'zi hollarda otada (otasi bilan yashayotgan bo'lsa) yetarli qiyinchiliklar uchraydi. Shu bilan birga ona aksariyat hollarda mehnat faoliyati bilan band bo'lishi oqibatida oilada psixoterapevtik, reguliyativ, kommunikativ funksiyalar xam yetarli bajarilmaydi;
- oila funksiyalarini past darajada bajarayotgan noto'liq oila. Oila funksiyalarining yarmidan ko'pini bajarmayotgan, bolalar tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'ygan, ko'pincha o'z onalik vazifasini deyarli bajarmayotgan, ichkilikka berilgan, oilada muntazam ravishda nosog'lom psixologik muhit bo'lgan moddiy nochor, noto'liq oilalar. Ushbu turdag'i oilaviy muhit ba'zan to'liq oilalar orasida ham uchrab turadi.

**Xulosa.** Noto'liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda fikrimizcha quydagilarga e'tibor berish lozim.

1. Noto'liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga psixologik yordam ko'rsatish kerak. Bu psixologik maslahat, psixologik trening, psixologik monitoring, psixologik tashviqot, seminar, maxsus o'quvlari (ota-onalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Bunda har bir noto'liq oilani o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olish zarur.

2. Noto'liq oilada o'sgan va o'z sohasida taniqli bo'lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni mifik tab o'quvchilari bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib, shunday muvaffaqiyatlarga erishganliklari haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto'liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o'rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to'liq oila bolalariga ham foydalidir.

3. Noto'liq oilada o'sayotgan o'g'il bolalarni (agar o'z otasi namuna vazifasini bajara olmayotgan bo'lsa) qarindoshlar, qo'shnilar yoki yaqin tanishlar orasida har tomonlama namuna bo'ladigan kishi vaqtincha otaliqqa olishi. Otaliqqa olgan erkak yoki ayol vaqtivaqt bilan o'z farzandlari bilan birga noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolaning bo'sh vaqtini madaniy tashkil etishi lozim, toki otasiz o'sayotgan bola yoki qiz to'laqonli oiladagi munosabatlar, ota va ona mavqeい, ular orasidagi namunali munosabatlarni idrok etib, o'ziga kelgusi hayotida namuna sifatida olsin.

4. Oila funksiyalarni past darajada bajarayotgan noto‘liq, moddiy jihatdan o‘ta nochor oilalardagi bolalarni mahalla, psixolog tavsiyasiga ko‘ra onaning roziligi bilan vaqtincha bir yilga mehribonlik uylariga qabul qilish va bir yil o‘tgach muddatini uzaytirish masalasini ona ishtirokida mahalla faollari, psixolog, mehribonlik uyi rahbarlari ko‘rib chiqishlari tavsiya etiladi.
5. Noto‘liq oiladagi bolalarni tug‘ma layoqati va qiziqishini hisobga olib sport, musiqa, tasviriy san’at va boshqalarga jalb qilish lozim.
6. Noto‘liq oilalar bilan mahalla hamda maktab psixologi muntazam ishlashi va psixologo-pedagogik monitoringini olib borishi lozim.
7. Noto‘liq oiladagi bolalarni ta’til davrida dam olishlarini tashkil etish, qo‘srimcha ta’lim olishlarida yordam berish kerak.
8. O‘zbekistonda noto‘liq oila psixolog, pedagog, sotsiolog, yurist, iqtisodchi, tibbiyotchi, demograf olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilishi lozim. Yuqorida o‘z ifodasini topgan choralarini ko‘rish noto‘liq oilalardagi bir qator muammolarni samarali bartaraf etishga imkon bergen bo‘lar edi.

**Adabiyotlar:**

1. Shoumarov G‘., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. -270-b.
2. Лапшина Е.А. Педагогические условия формирования конкурентоспособной личности учащихся из неполных семей в воспитательной системе школы. / Диссертация и автореферат на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Ульяновск. 2010.
3. Шаамирова Ю.К. “Нотўлик оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш” Дисс., п.ф.н. Т.2006 й. 33-34-бет.
- 3.Файзиева М.Х. Оила психологияси. Қарши ”Насаф нашриёти”, 2018.138-бет.

**Bekmirov Tolib Rashidovich,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
*Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasi katta o'qituvchisi*  
[tolibbekmirov@gmail.ru](mailto:tolibbekmirov@gmail.ru)

## ONA VA BOLA O'RTASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATNING O'ZIGA XOSLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy psixologik munosabatlarning psixologik talqini yoritilgan. Maqolada ilmiy izlanishlarimiz natijasida olingan ba'zi statistik ma'lumotlar berilgan bo'lib, ushbu izlanishlarimiz onalardagi nevrotik holatlarni farzandlari rivojlanishiga, bolaning xulqiga ta'sirining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishimiz dolzarbligini anglatadi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar berilgan bo'lib ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega. Bolalardagi yosh inqirozi kechishida onalar tomonidan berilgan ruhiy tarbiya yoki ruhiy jarohatlar, albatta, bola hayotiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuningdek, maqolada sinaluvchilarining yoshlari, yashash hududlari o'trasidagi aloqadorlik ham aks etgan.

**Kalit so'zlar:** nevroz, nevrotik holatlar, ayollar, onalar, oila, inqiroz davri, rivojlanish, xavotirlanish, buzulishlar.

### ХАРАКТЕРИСТИКА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ МАТЕРЬЮ И РЕБЁНКОМ

**Аннотация.** В данной статье описывается психологическая интерпретация социально-психологических отношений между матерью и ребёнком. В статье представлены некоторые статистические данные, полученные в результате наших научных исследований, а это исследование означает, что важно изучить психологические особенности влияния невротических состояний у матерей на развитие их детей и поведение ребёнка. На основании полученных результатов даны научные выводы, имеющие социально-психологическое значение. В период возрастного кризиса у детей психическое воспитание или душевные травмы, полученные от матери, обязательно не останутся без влияния на жизнь ребёнка. Также в статье показана связь между возрастом тестируемых и районами их проживания.

**Ключевые слова:** невроз, невротические состояния, женщины, матери, семья, кризисный период, развитие, тревога, расстройства.

### CHARACTERISTICS OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN MOTHER AND CHILD

**Abstract.** This article describes the psychological interpretation of social psychological relations between mother and child. The article presents some statistical data obtained as a result of our scientific research, and this research means that it is important to study the psychological characteristics of the impact of neurotic conditions in mothers on the development of their children and the child's behavior. Based on the obtained results, the scientific conclusions are given, and they are of socio-psychological importance. During the age crisis in children, the mental upbringing or mental traumas given by mothers will definitely not remain without impact on the child's life. The article also reflects the relationship between the youth of the test takers and the areas of their residence.

**Keywords:** neurosis, neurotic states, women, mothers, family, crisis period, development, anxiety, disorders.

**Kirish.** Psixologiyada ijtimoiy muhitning o'rni va yaqin kishilar bilan munosabatlarning sifatlari, xususan, bolaning rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan ona bilan erta muloqotning rivojlanishidagi ta'siri to'g'risida muhim savollar anchadan beri o'rtaga tashlangan va hali ham muhokama mavzusi hisoblanadi. Hayotiy vaziyatdagi qiyinchiliklarga bardosh berishda, o'zini qabul qilish va hurmat qilishni saqlab qolishga imkon beradigan ichki resursni yaratishda qanday omillar yordam beradi? Buning uchun yaqinlar bilan dastlabki munosabatlar qanchalik muhim? Salomatlik uchun munosabatlarning ta'sirini qayerdan izlash kerak?

Salomatligi bilan bog'liq muammolari bo'lган bola tug'ilganda, onalar ularni yetarli darajada ta'minlay olmaslikdan qo'rqishadi va oila keyingi bolalarni tug'ishdan bosh tortadi, bu esa psixologlar va boshqa mutaxassislarning alohida e'tiborini talab qiladi [3]. Demografik vaziyatning so'nggi 10 yil ichida eng ma'qul yoshda tug'ish darajasi 20%ga kamaygani bilan namoyon bo'ladi [4]. Maqbul yoshdagagi ayollarning 24%i umuman farzand ko'rmoqchi emasligini ta'kidlagan<sup>[5]</sup>.

**Adabiyotlar tahlili.** J.Boulbining ta'kidlashicha, erta bolalikda shakllangan, eng yaqqol ko'rinish turgan xatti-harakatlar bolalikdan to umrning so'ngiga qadar bo'lган barcha davrda odamlar uchun stimul vazifasini o'taydi. Odamlar doimo yaqin munosabatlarni yaratadilar, ularning intensivligi yosh bilan yo'qoladi, ammo shakllangan xatti-harakatlaridagi maxsus ko'rinishlar asosan erta bolalikdagi munosabatlar unga yaqin bo'lган kattalar ularga ko'rsatgan ta'sir va tajriba bilan chambarchas bog'liqidir. Olim fikricha, g'amxo'r shaxs – bolaga kerak bo'lganda va qiyinchiliklarga duch kelganda qulay va sezgir bo'lishi kerak. Muvaffaqiyatni anglatish bolaga buni qo'llab-quvvatlash sifatida his qildirish va onadan uzoqlashib, dunyoni sokinlik bilan tadqiq qilish imkonini beradi. Voyaga yetganda esa bunday qo'llab-quvvatlash ijtimoiy yutuqlarga erishish, yaqinlardan uzoqlashish, shu bilan birga ular bilan hissiy aloqani saqlab qolish imkonini beradi.

Bola hayotining birinchi yilida onada emotsiyal stress kamaymaydi, balki ko'payadi, onalarning 82%ida bu holat aniqlangan. Kasalxonadan uyga qaytgach, bunday bemorlar ikkilamchi agorafobiya (yolg'iz qolishdan qo'rquv)ni boshdan kechirishi mumkin, ona bolasi bilan yolg'iz qolishdan qo'rqadi va unga to'liq g'amxo'rlik qila olmaydi. Obssesiv qo'rquvlarga singib ketish oxir-oqibat ekstremal darajaga yetadi. Aksariyat hollarda og'ir xavotirli buzilishlar distrofiya bilan birikadi va bu asabiylashish, yaqinlariga, shu jumladan, bolaga yo'naltirilgan tajovuzga moyillikni yuzaga keltiradi.

Onaning bolaga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. H.Kohut hamda D.Vinnikott aynan shu haqida g'oyalar ishlab chiqib, bu insonning "empatik rezonans"ga bo'lган hayotiy ehtiyojini qondirishini ta'minlaydi, degan fikrni bildirganlar. Bolalar o'zlarining qadr-qimmati, ahamiyatlilik va ajoyibligini ko'rsatish uchun ota-onalariga muhtoj. H.Kohut bu so'zlardan emas, balki yuz ifodalari, ishoralar, ovozning intonatsiyasidan tan olinganiga e'tiborni qaratadi. Ota-onha har doim nusqonsiz oyna bo'la olmaydi va bir kun kelib bolani istalgan tafakkur bilan ta'minlamaydi. Biroq, agar bola muvaffaqiyatli, aynan ishslash bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lган bo'lsa, bunday lahzalarda u o'zi uchun oynaga aylanishi mumkin, boshqacha aytganda, u bu funksiyani o'ziga moslashtiradi. Kelajakda esa eng ajoyib va qadrli bo'lishga e'tibor bermaydi. Qabul qilish va sevish tajribasiga ega bo'lmaydi. Bu munosabat esa endi uning tashqi dunyodan qanday xabarlar olishi mumkinligiga bog'liq emas, balki o'z-o'zini hurmat qilish negiziga birikadi.

Har bir inson o'z mavjudligini ma'qullanishi, boshqa odamlar nazarida o'z qadrini his qilishi, hamdardlik rezonansiga muhtoj. Boshqacha qilib aytganda, o'zimizni tanib olish uchun har birimizda e'tiborga ehtiyoj mavjud. Biroq kattalargina o'zlarining shaxsiy foydalari va qadriyatlarini boshqalar tomonidan tan olinishi asosida yetuk munosabatlar o'rnata oladilar. Erta yoshda aynan o'sha odamlar bu ehtiyojni o'zining ibtidoiy shaklida saqlab qolishadi, ularning pastligini his qilishadi, haqiqiy bo'limgan samimiyat ularni to'xtatib qo'yadi.

Bolaning yana bir muhim ehtiyoji, aynan namunadan o'rnak olish bilan bir qatorda, H.Kohut ota-onani ideallashtirish zarurligini nazarda tutadi. Bola o'z yaqinlari kuchli va aqli insonlar ekanligini bilishi, unga hayot qiyinchiliklari va ichki muammolarni bartaraf etishga yordam berishi muhimdir. Ota-onaning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi bolaga ushbu funksiyani o'ziga singdirishiga imkon beradi. Shuning uchun u asta-sekin o'ziga va qobiliyatiga bo'lган ishonch hissini egallaydi.

Tadqiqotchilar bolada o'z-o'zini yuqori baholashning rivojlanishini talablarning barqarorligi va undan yanada yetuk xatti-harakatlarni kutish kabi elementlarni boshqarish bilan bog'lagan. Muloqotning yana bir muhim sifati farzandini tinglash qobiliyatidir. Bu bolaga o'zining munosib fikrlarni bildirayotganini, g'oyalari muhimligini va e'tiborga olinishi kerakligini his qilish imkonini beradi.


Mehr-muhabbat bola va onaning o'zaro mehr-oqibatli bo'lish istagi ko'p asrlar davomida mavjud bo'lган chuqur ehtiyojdir. U shunday qadimiy ildizlarga egaki, u arxetip hisoblanib, uning timsolini dinda, afsonalarda va ertaklarda, mehribon ona xudosi va ilohiy bolalar obrazlarida ko'rish mumkin. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bu ehtiyojni qondirish nafaqat bolaning jismoni yashashini ta'minlaydi, balki o'ziga va ichki dunyosiga, tashqi dunyoga va insonning hayot yo'lidagi boshqa kishilarga nisbatan salbiy munosabatning kalitidir. U barcha insonga yaqin munosabatlarining asl mohiyatiga singib turadi.

Agar bola nosog'lom ruhiy holatda o'sayotgan bo'lsa, bolaning onalik sevgisiga bo'lган ehtiyoji qondirilmasa va u juda xafa bo'lsa, bola salbiy his-tuyg'ular bilan ulg'ayadi va travmatik tajriba uni azoblaydi. Bundan tashqari, bunday odam ulg'aygan sari hayotga, odamlarga va hatto ichki dunyosiga


dushmanlik yoki shubha bilan qaraydi. Zero, shaxsning hissiy resursi mavjudligi quyidagilarga imkon beradi:

- ijtimoiy qiyinchiliklarga yo'l qo'yib, o'zini o'zi qabul qilish va o'z-o'zini hurmat qilishni ta'minlash;
- o'zining tabiiy fazilatlaridan (temperament, moyillik, jismoniy ma'lumotlar va boshqalar) kuchli tomonlar sifatida foydalanish va ular asosida o'z kompetentligini (intellektual, hissiy, ijtimoiy va boshqalar) rivojlantirish;
- ichki chuqur potentsialga ega bo'lish va ularning individualligini (yaxlitligi, faolligi, moslashuvchanligini) rivojlantirish;
- kayfiyatni tartibga solish, azob-uqubatlarga chidash, shaxsiy o'sish uchun foydalanish;
- o'z nomukammalligini inobatga olgan holda o'zini psixologik jihatdan rivojlangan his etish;
- qobiliyatli, salohiyatli va moslashuvchan bo'lish.

**Tahlil va natijalar.** Ona va bola o'rtaqidagi ijtimoiy psixologik munosabatlarni tadqiq etganimizda natijalarining birlamchi statistik tahliliga ko'ra, tadqiqotda jami 334 nafar ayollar ishtirok etib, Toshkent shahridan 116 nafar, Toshkent viloyatidan 154 nafar hamda Namangan viloyatidan 64 nafar sinaluvchilar qatnashdi (1-rasm). Tadqiqot obyektlari yosh tasnifiga ko'ra 28-34 yoshgacha bo'lganlar 84 nafarni, 34-40 yoshgacha bo'lganlar 110 nafarni va 41-54 yoshgacha bo'lganlar 140 nafarni tashkil etdi (2-rasm).




**1-rasm. Hududlar kesimida sinaluvchilarining ulushi**




**2-rasm. Sinaluvchilarning yosh bo'yicha tasnifi**

Sinaluvchilarning farzandi bilan munosabatini o'rganish maqsadida so'rovnama o'tkazilib, mazkur so'rovda 10 ballik tizimda baholash taklif etilgan bo'lib, mazkur so'rovnomaga ko'ra quydagicha natijalar qayd etilgan:

So'rovnomaning 1-savolida onaning farzandiga munosabatini qanday baholashi haqida bo'lib, olingen natijalarga ko'ra 66 nafar ayollar farzandi bilan munosabatini qoniqarsiz, 60 nafar ayollar farzandi bilan munosabatini o'rtaligida, 208 nafar ayollar farzandi bilan munosabatini ijobiy deb baholagan (3-rasm). Demak, aksariyat sinaluvchilar farzandi bilan munosabatini ijobiy deb baholab, o'zining onalik roldan qoniqishni his qiladi.



**1-savol: Farzandingizga munosabatingizni qanday baholaysiz?**



**2-savol: Farzandingizning sizga munosabatiga qanday baho berasiz?**

Berilgan so‘rovnomaning 2-savoliga ko‘ra onaga nisbatan farzandining munosabati qanday ekanligi baholanib, olingan natijaga ko‘ra 26 nafar sinaluvchilar munosabatlarni salbiy, 90 nafar sinaluvchilar farzandining munosabatini o‘rta hamda 218 nafar sinaluvchilar farandining unga nisbatan munosabatini ijobjiy deb baholagan (4-rasm). Farzandining onaga munosabatini ijobjiy baholamaslik 116 nafar sinaluvchilarda kuzatilib, bu onadagi nevrotik holat kelib chiqishiga sabab bo‘lishini taxmin qildik.

Munosabatlarning ayollar nigohida tahlili uning turmush o‘rtog‘i bilan qanday ko‘rinishga ega ekanligini bilish zaruratiniz tug‘dirdi va “ayolning turmush o‘rtog‘i bilan munosabati”ga baho qo‘yilishi so‘raldi. Olingan natijalarga ko‘ra, 28 nafar ayollargina munosabatlarining salbiyligi, qoniqmasligini, 90 nafar ayollar munosabatlari o‘rta ekanligini va 216 nafar ayollar munosabatlari ijobjiy ekanligini bildirgan. Shuningdek, birlamchi tadqiqot natijalarida 30 nafar sinaluvchilarning ajrashgani hamda 13 sinaluvchilarning turmush o‘rtoqlari vafot etganligini inobatga olsak, mazkur salbiy natijaning aksariyati ajrashga ayollarga tegishli ekanligini taxmin qilishimiz mumkin. Aksariyat oilalarda er-xotin munosabatlari ijobjiy ekanligini inobatga olib, nevrotik holatga asosan farzandlar bilan munosabat ta’sir qilishini hamda mazkur tadqiqotda tanlangan obyektlar asosan ona va farzand munosabatlari tizimida onalarda nevrotik holatlarning shakllanishi hamda farzandlarda yosh inqirozlarining ta’sirini o‘rganish uchun munosib tadqiqot obyekti sifatida tanlanganligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida metodikalar tahlili hamda birlamchi statististika natijalari asosida tanlangan tadqiqot metodlari va tadqiqot obyektlarining mavzu maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun munosibligini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda tadqiqot davomida ona va bola munosabatlari bilan bog‘liq muammolarning onalardagi nevrotik holatga, bolalardagi yosh inqiroziga ta’sirini o‘rganib borish maqsadga muvofiq.

**Xulosa** o‘rnida shuni ta’kidlash kerak-ki, oilada bola eng asosiy inson bu uning onasidir. Onalarning ruhiy holati bolaga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil sanaladi. Inson xulq-atvori, ularning muvaffaqiyati haqidagi hayotiy rejalarini va prognozlari, da‘volar darajasi unga onasi tomonidan qilingan munosabat natijasi bilan bog‘liq. Bolalikda yaqinlari tomonidan qabul qilish va hurmat qilish asosida shakllangan o‘z-o‘zini hurmat qilish shaxsnинг ulg‘ayishi bilan ishlarda o‘ziga bo‘lgan baholar bilan boyitiladi.

### Adabiyotlar:

1. Бекмиров, Т. (2023). Психологическое состояние матерей детей с отклонениями в развитии.
2. Бекмиров, Т. Р. (2022). Некоторые методы и приемы диагностики особенностей преодоления подростками кризисных ситуаций жизни. // Central Asian Journal of mathematical theory and computer sciences, 3(12), 224-228.
3. E.G. Shchukina. Zamonaviy an'analarni psixologik qo'llab-quvvatlash xususiyatlari. Monografiya, Arkhangelsk 2009
4. Zuykova E.M. Feminologiya va gender siyosati: darslik / M.: Nashriyot va savdo korporatsiyasi "Dashkov va K", 2007. – 300 s.
5. Eruslanova R.I. Oilaga oid davlat siyosati to'g'risida. vaqtinchalik bosqich /– Cheboksary, 2003. – S. 56.
6. Dadasheva K.N., Agafonov B.V., Dadasheva M.N., Podrezova L.A. Asthenic syndrome in general practice: therapy possibilities. RMJ. Medical Review. 2019;4(II):91–95.
7. 2020 Panteleev S. R. O‘z-o‘ziga munosabat hissiy-baholash tizimi sifatida. M., 1991.
8. Melibayeva, R. N., Narmetova, Y. K., Bekmirov, T. R., Bekmirov, T. R., & Abdumatalibova, M. M. (2023). Oilalarda nevrotik buzilishlar sabablari va ularni bartaraf etish usullari. // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 2(12), 695-699.
9. Narmetova, Y. K., Abdumatalibova, M. M., Mirzayeva, A. M., Maxsudov, V. G., & Turgunova, G. T. (2023). Oilalarda nevrotik holatlarni profilaktikasi. // Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 3), 42-46.

*Djumabayeva Manzura Bagibekovna,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi  
djumabaevamanzura74@gmail.com*

## O’SMIRLIK DAVRIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o’rta maktab o’quvchilarining suitsidal xulq-atvor o’ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Suitsidning xayfli mojaroli vaziyatlarini tahlil qilish orqali ular o’smir yoki o’spirin uchun arzimas narsalar, kattalarning fikricha, kelishmovchiliklar sababli yuz beradi. Yoshlikda suitsidal xulq-atvor ko’p hollarda ishqiy-shaxsiy munosabatlar, masalan, omadsiz sevgi bilan bog’liqligi ehtimoli kuchli. Shuningdek, suitsid o’g’il bolalarda katta yoshdagagi erkaklarga nisbatan ko’proq. Shaxsda suitsidni yuzaga kelishidagi muhim omillardan biri bu uning yoshi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** suitsidal xulq-atvor, autoagressiya, metafizik intoksikatsiya, yolg’izlik, giperaktivlik.

## ОСОБЕННОСТИ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

**Аннотация.** В этой статье представлена информация об особенностях суицидального поведения старшеклассников. Анализируя опасные конфликтные ситуации суицида, автор отмечает, что мелочи для подростка, по мнению взрослых, возникают из-за разногласий. В молодости высока вероятность того, что суицидальное поведение во многих случаях связано с романтико-личными отношениями, такими как неудачная любовь. Кроме того, самоубийства чаще встречаются у мальчиков, чем у мужчин старшего возраста. Одним из важных факторов возникновения суицида у человека является его возраст.

**Ключевые слова:** суицидальное поведение, аутоагрессия, метафизическая интоксикация, одиночество, гиперактивность.

## CHARACTERISTIC FEATURES OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

**Abstract.** This article presents information about the specific characteristics of suicidal behavior of high school students. By analyzing the dangerous conflict situations of the succidus, they are considered Trifles for a teenager, which, in the opinion of adults, occur due to disagreements. In youth, the likelihood that suicidal behavior is associated in many cases with romantic-personal relationships, for example, unlucky love is strong. There is also a higher proportion of suicidal boys compared to older men. One of the important factors in the occurrence of a suicide in a person is his age.

**Keywords:** suicidal behavior, autoaggression, metaphysical intoxication, loneliness, hyperactivity.

**Kirish.** Bir qarashda o’smirlarning o’z joniga qasd qilishi murakkabligini tushunish muhim hisoblanadi. O’smirlik davridagi o’zgarishlar, qiyinchiliklar bolada nafaqat ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan, balki atrofidagilar bilan ziddiyatlari vaziyatlarni yuzaga kelishi bilan ham ajralib turadi. Bu hayot o’smir uchun yetarli darajada anglanilmagan, tushunarsiz, qo’rqinchiligi bilan ajralib turadi. Xorij adabiyotlarida suitsidal xulq-atvorni quyidagi turlari tavsiflandi: namoyishkorona xulq-atvor, asabiy xulq-atvor, haqiqiy suitsidal xulq-atvor. Suitsid – qasddan o’limga olib keluvchi shikast yetkazish (o’z joniga qasd qilish). Bunday psixologik holatning paydo bo’lishi, ko’pincha, insonning jazavaga tushish, emotsiyonal tuyg’ularning yo’qolishi, irodasizlik kabilarni o’z ichiga oladi. Fanda suitsid ochiqchasiga yoki yashirinchha o’z joniga qasd qilish harakati, deb izohlanadi. Shuningdek, qator adabiyotlarda “pubertat (yetuklik) suitsid” atamasi ham qo’llaniladi. Bu butun bir ko’rinishga ega bo’lib, o’smirlar o’rtasida o’z joniga qasd qilish bilan izohlanadi. Bir qator tadqiqotchilar (A.G.Amburova, E.M.Bruno, N.D.Kibrik va boshqalar) o’smirlar suitsidi katta yoshdagilar suitsididan farq qilishini ta’kidlaydi. A.G.Amburovaning konsepsiyasiga binoan, suitsid shaxsning boshidan o’tkazayotgan mikroijsmoi nizolarga ijtimoiy-psixologik moslashmasligi bilan bog’liq. Shunga ko’ra, o’z joniga qasd qilish (haqiqiy suitsid) va o’z joniga qasd qilishga urinish (tugallanmagan suitsid) ga ajraladi. Bruksbenk o’zining izlanishlarida suitsid va parasuitsid (tugallanmagan suitsid) haqida fikr yuritadi. U suitsidni qasddan qilingan, parasuitsidni esa o’limga olib kelmaydigan shikast yetkazish harakati, deb belgilaydi.

**Tahlil va natijalar.** Ontogenetik rivojlanishning turli bosqichlarida suitsidal xulq-atvor o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ikkita asosiy “avj”ga bo’linadi: “yoshlikning avji” 15 dan 23 yoshgacha va “involyutsiya avji” 40 yoshdan so’ng. Tajriba va ko’p sonli tadqiqotlarning ko’rsatishicha, eng ko’p o’ziga xos xususiyat

bolalik-o’smirlik bosqichi va inson hayotining involyutsion davriga ajratib ko’rsatiladi. Bir qancha tadqiqotlarda o’smirda suitsidal ko’rinishning tahlil natijalarini ko’rsatishicha, bu yoshda suitsidal xulq-atvor, garchi kattalarning xulq-atvori bilan ko’p tomonlama o’xshash bo’lsa-da, baribir o’z yoshiga xos xususiyatlarga ega. Bu fiziologik va psixologik mexanizmlar, o’sayotgan organizm va shaxsnинг shakllanish davridagi o’ziga xoslik bilan bog’langan. Bolalar va o’smirlarda autoagressiv harakatlar o’ta xavflidir. O’smirlar uchun o’lim ancha oshkora hodisa sifatida shakllanib boradi. Lekin ular o’zlari uchun, mototsiklini juda tez haydash, xavfli narsalar bilan tajriba o’tkazish yoki o’ziga jalg qiluvchi, lekin tahlilikli faollik bilan shug’ullanishlarini rad etadilar. Keyinchalik, o’smir o’zining o’limi haqidagi fikrga keladi, lekin bu vahimani yengib o’tib rad etadi. Bolalar ko’pincha o’smirlar suitsid sodir etib, o’lim bilan yakunlanishini nazardan qochiradilar. Kattalarga qaraganda, ularda haqiqiy suitsidal urinish va namoyishkorona shantaj autoagressiya (o’ziga yo’naltirilgan agressiya) o’rtasida aniq chegaralar mavjud emas. Bu bolalar va o’smirlarda autoagressiyaning hamma ko’rinishlarini amaliyatda turli ko’rinishdagi suitsidal xulq-atvor sifatida ko’rib chiqishga majbur qiladi [1].

O’zining o’limiga atrofdigilarning guvohligi yoki “qayta tug‘ilish”ga intilish bolalar va o’smirlar suitsidenti uchun xosdir. Bolalik davrida o’lim haqidagi tasavvur bir necha bosqichda bo’ladi: bola ongida o’lim haqidagi tasavvurlarning butunlay yo’qligidan, to hayotdan ketishning rasman belgilari bilan tanishish (aza, janoza tushunchalari) va boshqalar. O’lim qo’rquvining yo’qligi bola psixikasini ajratib turuvchi xususiyatdir. Bolalar va o’smirlarni namoyishkorona harakatlardan uzoqlashtirish xato hisoblanadi. Hayotiy tajriba va tasavvurlarning yetarli emasligi natijasida bironta usul tanlay olmaydi. Natijada rejasizlik, o’z joniga qasd qilish usullarini bilmaslik yuqori darajada o’lim xavfini tug‘diradi. Shuningdek, xavf yosh xususiyatlariga qarab ham ortadi. Lekin, hayot qadri tushunchasini anglamay turib, o’smirlarda o’lim qo’rquvi shakllanadi. “Metafizik intoksikatsiya”, o’smirning o’ziga xos psixologiyasi, jumladan hayot va o’lim mavzusida fikrlashida namoyon bo’ladi. Umumiy beqarorlik, tanqidiy tafakkurning yetishmasligi, o’ziga nisbatan yuqori baho berish va xudbinlik hayot qadrini anglashning pasayishi uchun sharoit yaratadi, bunda o’smirning hissiyotlari salbiy tus oladi hamda mojaroli vaziyatlarda suitsidal xulq-atvor uchun zamin yaratadi [2]. O’z hayotiga nuqta qo’yish maqsadini anglash mezonlaridan tashqari, kattalarda o’z joniga qasd qilish haqiqatini aniqlash uchun suitsid va suitsident xulq-atvorining o’ziga xos xususiyatlari uslublari tahlil qilinadi.

Suitsidning xavfli mojaroli vaziyatlarini tahlil qilish orqali ular bola yoki o’smir uchun arzimas narsalar, kattalarning fikricha, kelishmovchiliklar sababli yuz beradi. Shuningdek, baholashda ayrim maksimalizm: o’z qilmishlarining haqiqiy oqibatlarini ko’ra bilmaslik va bo’lgan hodisalarning oqibatini tashxis qilish, hayotiy tajribaning yo’qligi bolalikning o’ziga xos davri va choraszizlik, mojaroning hal bo’lmasligi, afsuslanish va yolg’izlik hissini paydo qiladi. Bularning hammasi, hattoki, arzimas nizoli vaziyatlar bola uchun, ayniqsa, o’smir uchun atrofidagi kattalarning ba’zida xolis baholamasliklari suitsid xavfini oshiradi [3]. Bularning hammasi pubertat yoshda suitsidal xavfnining oshishiga sabab bo’ladi.

Agarda katta yoshli suitsidentlar orasida ahamiyatlari darajada erkaklar ustun bo’lsa, o’smirlar orasida bu ko’rsatkich ya’ni qarama-qarshi qizlar o’rtasida, shu yoshdagagi o’g’il bolalarga qaraganda (3,9% qarshi 1,6%), o’zini o’ldirish, deyarli, 2,5 marta ko’p. Bu yerda, aniqlanishicha, suitsidal xulq-atvor jinsga bog’liq emas, balki qizlar rivojlanishda ushbu yosh diapazonida oldindaligidir.

Suitsidal sindromga yosh bosqichining ta’siri quyidagi ma’lumotda ya’ni o’limga intilishning kuchli shakliga duchor bo’lganlarda kuzatiladi:

#### 1-jadval.


#### Suitsidal sindromga intilish o’smirlarda yosh ko’rsatkichlari foiz hisobida

1	1,3 %	10–11 yoshlilar
2	1,9 %	12–13 yoshlilar
3	2,7%	14–15 yoshlilar
4	4,5%	16–18 yoshlilar

Bu fenomen bola modeli bilan atrofdagi ijtimoiy dunyoning munosabat umumlashmasida ko’proq javobgarlik xulq-atvori yotadi. Qizlarga nisbatan o’g’il bolalarda avvalroq katta bo’lib, bu jarayonni o’zida chuqur his qiladi.

O’smir yoshda suitsidal xulq-atvorni paydo bo’lishiga oilaviy munosabatlari omili sezilarli darajada ta’sir qiladi. Tadqiqotlarga ko’ra, ota va ona 21 % “muammoli” o’smirlarga ideal hisoblanadi, normal guruhda o’g’il va qiz bolalar bu ko’rsatkichning 41% (ota uchun) va 5% (ona uchun) ni tashkil etadi. Tadqiqotlardan ma’lum bo’lishicha, onalar ko’pgina o’smirlarning ishonchini qozonishgan (77% hamma so’ralgan o’g’il va qiz bolalar). O’smirda suitsidal sindrom qanchalik kuchli bo’lsa, onasiga shunchalik kam

ishonadi, yanayam kamroq otasiga (23–29%). Ota-onalar bilan ishonchli munosabatlarning yo‘qolishi – o‘smirlarda suitsidal sindromining kuchli omillaridan biri sanaladi [4]. O‘smir ota-onasiga qanchalik kam ishonsa, uni shunchalik ko‘p o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikr qiyinaydi. Bolalarning ota-onasi bilan yaxshi munosabatlari suitsid tahlikasini 1% gacha kamaytiradi, aksincha, doimiy janjallar bu tahlikani 18% ga ko‘paytiradi. Bolalar faqat ota-onalari bilan nizolarnigina emas, ularning o‘zlariga befarqliklarini ham og‘ir oladilar. 17% yosh insonlarda yolg‘izlikning halokatga olib borishi mumkinligi, ularning aytishicha, o‘z hayotlarining og‘ir daqiqalarida ham hech kimdan yordam so‘rashni xohlamasliklaridir. Atrofidagi o‘nlab odamlar orasida birontasi yo‘qki – tug‘ishganlari, yaqinlari, do‘stlari va o‘qituvchilari – hech kim, yosh insonlarning katta tashvishlarini bo‘lishsa, ko‘nglini bo‘shtsa, hamdardlik hissini his qilsa yoki foydali maslahat bera olganda namoyon bo‘ladi. O‘smirlilik davri ontogenet bosqichining o‘ziga xos xususiyati, suitsidal xulq-atvor motivatsiyasi va dinamikasidan farqlanadi. Bu yoshda yashirin depressiya ham suitsidga sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilarining fikricha, bolalar va o‘smirlardagi depressiya ko‘pincha, giperaktivlik, agressiya bilan niqoblangani sababli tashxis qo‘yish qiyinlashadi. O‘smir yoshi uchun boshqalardan farqli o‘smirlardan iborat suitsid xavfli guruhalr mavjud bo‘lib, ular sevgi va jinsiy munosabatlar tuyg‘ulari ideallashtirilgan axloqi bilan ajralib turadi.



**1-rasm. Bolalarda suitsidal xulq-atvorning asosiy sabablari ko’rsatkichlari**

Suitsidal urinishga qo‘l urgan o‘smirlarning holati psixik jihatdan shikastlangan, suitsiddan keyingi psixik holat, shaxsiy xarakterga oid ta’sirlanishning o‘ziga xos xususiyatlari, suitsidal urinish va somatik oqibatlar bilan bog‘liq qo‘shimcha tashvishlar, oilaviy mikroiqlim va atrof muhit holati bilan belgilanadi.

Obyektiv qonuniyatlarga ko‘ra, tadqiqotchilarining oldida o‘smir suitsidi muammolsiga oid, ko‘pincha, kimlar suitsidga qo‘l uradi, degan savol turadi. O‘smirlardan qaysi biri “tahlika guruhi”ga kiradi? Xavfga kim duchor bo‘ladi? Qaysi tipdagи odamlar “suitsid xavfli” ekanligi ma’lum bo‘lsa ham, ma’lumki, ba’zi o‘smirlar arzimagan vaziyatlar sababli o‘z joniga qasd qilish tahlikasiga duchor bo‘ladilar. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki quyidagilarda suitsidal xavf yuqori bo‘ladi:

- depressiv o‘smirlar;
- spirtli ichimlik va narkotikka ruju qo‘yan o‘smirlar;
- yo suitsidga uringan yoki oila a’zolaridan kimdir suitsidga qo‘l urganda guvoh bo‘lgan o‘smirlar;
- iste’dodli o‘smirlar;
- maktabda yomon o‘zlashtirgan o‘smirlar;
- tajovuz qurbanli bo‘lgan o‘smirlar.

Alovida-alohida olganda, o‘z holicha, o‘smir duch kelgan har bir vaziyat yoki muammolar, albatta, uning suitsidal xavfning yuqori chegarasida bo‘lishini anglatmaydi. Biroq, bunday muammolar so‘zsiz uning hayotini qiyinlashtiradi. Bunday vaziyatlarning birontasiga duch kelgan o‘smir emotSIONAL, aqliy va jismoniy tomondan noxushliklarga qarshi turolmaydi va suitsid uning uchun eng to‘g‘ri yo‘l, deb hisoblaydi.

**Xulosa.** O‘smirlilik yoshida suitsidal xulq-atvor shakllanishi ko‘p hollarda suitsident shaxsining ba’zi xususiyatlari bilan bog‘liq. Bunday shaxslarda emotSIONAL beqarorlik, yuqori hissiyot, sentizivlik, ta’sirchanlik kuzatiladi. Bu sifatlar xarakterga urg‘u berish darajasigacha ifodalangan, ijtimoiy-psixologik

dezadaptatsiyasi nuqtayi nazaridan shaxsning pubertat davrini tashkil etadi. Xulosa qilib, o’smirlarga xos xususiyatlarni ajratib ko’rsatamiz:

- o’smirlarda o’lim haqida aniq tasavvur mavjud emas. Katta odam o’lim – bu hayotning tugashi, deb tushunadi, o’smir esa buni oxirigacha tushunmaydi. Ular uchun qaysidir darajada virtual o‘yin hisoblanadi.

- o’smir uchun eng muhim 3 ta muhit: oila, maktab, tengdoshlar.

- o’smirning o’z joniga qasd qilish sababi avvaliga arzimas, hatto tasodifiy bo‘lishi mumkin.

- o’smirda suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga o’smirlarga xos submadaniyat ta’sir ko’rsatishi mumkin.

- o’smir o‘zida nimalar bo‘layotganini, butun holatini yoki muammolarini tushuntirib berolmaydi.

- o’smir suitsidi – bu ko‘p hollarda yordamga chaqiruv, o‘ziga e’tibor qaratish, o‘z muammolarini “kattalarga xos” echishga urinish bilan tavsiflanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umarov B. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019, 171-172 b.
2. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. – Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2013, 246b.
3. Суицидология: Прошлое и настоящее: Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психологов, психотерапевтов и в художественных текстах. – М.: «Когнито -Центр», 2001. -569b.
4. Захарова Э.И., Бурменская Г.В. и др. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков. – М.: 2002. S.262-287.

**Elov Ziyodullo Sattorovich,**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)  
[elovziyo2021@gmail.com](mailto:elovziyo2021@gmail.com)  
**Kodirjonova Nafisaxon,**  
Osiyo xalqaro universiteti magistranti  
[kodirjonovanafisakhon@gmail.com](mailto:kodirjonovanafisakhon@gmail.com)

## NOTO'LIQ OILALARDA O'SMIRLAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda anchagina dolzarb muammoga aylangan oilaviy ajrimlarning va shu oqibatida to'liqsiz holatga kelib qolayotgan oilada ulg'ayotgan o'smirlardagi o'sish muammolari masalasi, to'liq bo'limgan oilalardagi o'smirlarga yordam ko'rsatish, ularning o'sishdagi qiyinchiliklarini asta-sekin yengillashtirish jarayonlari hadiqa fikrlar bildirilgan bo'lib, bunday oilalarda o'sib shakllanayotgan o'smir shaxsining keyinchalik jamiyatdan ajralgan holatda o'z fikrini ifoda eta olmaslik, zo'ravonlik natijasida ortirilgan jarohati, vaqt mobaynida salbiy xarakterga ega bo'lishi, tuyg'ularni nafratga aylanishi va oila qurishda sustkashlik qilishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** oila, o'smirlik davri, to'liq bo'limgan oilada o'sgan o'smir, psixologik muammolar, tadqiqot usullari, o'smirlarni psixik o'zgarishi va sabablari, buzilish, axloq, zo'ravonlik, tajovuz, nafrat.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОДРОСТКОВ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ

**Аннотация.** В этой статье рассмотрен вопрос семейных разводов, ставший сегодня весьма актуальной проблемой, а также проблемы роста подростков, растущих в неполных семьях, оказание поддержки подросткам в неполных семьях, процессы их роста. Выражено мнение о том, что подросток, растущий в таких семьях, может быть не в состоянии выразить своё мнение в состоянии оторванности от общества, травма, полученная в результате насилия, со временем у него появится отрицательный характер, его чувства перерастут в ненависть, и он будет неспособен построить дружную полноценную семью.

**Ключевые слова:** семья, подростковый возраст, подросток, растущий в неполной семье, психологические проблемы, методы исследования, психологические изменения подростков и их причины, расстройство, нравственность, насилие, агрессия, ненависть.

### PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF ADOLESCENT DEVELOPMENT IN FAULTY FAMILIES

**Abstract.** This article considers the issue of family divorce, which has become a very topical problem today, as well as the problems of growth of adolescents growing up in single-parent families, support for adolescents in single-parent families, and the processes of their growth. The opinion is expressed that a teenager growing up in such families may not be able to express his opinion in the state of detachment from society, the trauma received as a result of violence, over time he will develop a negative character, his feelings will develop into hatred, and he will be unable to build a friendly complete family.

**Keywords:** family, adolescence, a teenager growing up in an incomplete family, psychological problems, research methods, psychological changes in adolescents and their causes, disorder, morality, violence, aggression, hatred.

**Kirish.** O'smirlik davri insonni bolalikdan – yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda «O'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davr» kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

XXI asrning hozirga davriga kelib, akseleratsiya tufayli JSST o'smirlarni 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar deb belgilaydi. Shuni hisobga olgan holda aytilish mumkinki, o'smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17


yoshlargacha davom etishi mumkin. O’smirlik davrining boshlanishi qiz bolalarda o‘gil bolalarga nisbatan 1-2 yil oldin ro‘y beradi.

O’smirlik davri o‘ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bolalikdan kamolotga o‘tish davri hisoblanadi. Bolalikdan kamolotga o‘tish o’smirlik davrida sodir bo‘ladi. Bu davr bola uchun juda katta ahamiyatlari davar hisoblanadi va aynan Psixolog L.S.Vigotskiy o’smir yoshi psixologiyasini “psixik rivojlanishdagi inqiroz” deb nomlagan. Bu vaqtida o’smir uchun ota-onalar mehri birdek zarur hisoblanadi. Hech kimga sir emaski hozirgi davrda ajralishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak to‘liq bo‘lmagan oilalar ko‘pincha bir ota-onaning vafoti natijasida shakllangan. XVII, XVIII va XIV asrlarda ota-onalar o‘limining yuqori ko‘rsatkichlari asosan kasalliklar, urushlar va ona tug‘ilishidan kelib chiqqan asoratlar bilan bog‘liq edi.

**Tahlillar va mulohazalar.** L.S.Vigotskiyning fikricha, yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg‘iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot yetilishining natijasi bo‘lmay, balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o‘zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo‘lishi natijasida o’smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta’lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o’smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo‘lmaydi. Bu davrda yurak qon-tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuzatiladi. Bu paytda yurak hajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko‘pincha qon aylanishining vaqtinchcha buzilishida qon bosimining yoshga bog‘liq holda ko‘tarilishiga, yurak faoliyatining zo‘r berilishiga olib keladi. Natijada o’smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og‘rig‘i paydo bo‘ladi.

O’smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm I.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, bir butun sitsemdan iborat bo‘lib, bunda barcha to‘qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Lekin, bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog‘langan yuqori qismi I.Pavlov so‘zi bilan aytganda organizmda sodir bo‘ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po‘tsi asosiy yetakchi rolni o‘ynaydi. O’smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o‘sma boshlaydi va miya ichki tuzilishining murakkablashishga o‘tadi. Katta yarim sharda nerv hujayralarning etilishi tugallanadi. To‘liqsiz oilada katta bo‘layotgan farzandlar ota onasi doimo farzandlarini nosog‘lom muhitda bo‘lishidan va fe’l-atvorda nuqsonlar paydo bo‘lishidan doimo xavotirda. Biroq, ota-onalar umumlashtirmasliklari kerak, chunki manaviy yetuk farzandlar ham to‘liq bo‘lmagan oilalarda o‘sisi mumkin.

To‘liq bo‘lmagan oilalarda o‘sgan o’smirlarning ota yoki onasi o‘z farzandlarining ichki holatidan ko‘proq xabardor bo‘lishlari va ularni o‘zlarini topishlariga imkon berishlari kerak. Bundan tashqari, ularning bolalari ruhiy holatni boshdan kechirayotganini tushungan xolda sog‘lom tarbiya olishlari uchun ikki tarafdan ham mehr va muhabbat berilishi kerak.



**1-rasm. To‘liqsiz oiladagi sotsial muammolarni o‘rganish uchun diagnostika test natijalari**

Jadvalda ko‘rinib turganidek, to‘liqsiz oilalarni kelib chiqish sabablarining asosiyлari psixologik sabab bundan tashqari yetishmovchilik va bir-birini tushunmaslik ham tashkil qiladi.

To‘liq bo‘lmagan oilalar, o’smirga qanday ta’sir qiladi va to‘liq bo‘lmagan oilalarda tarbiyalangan o’smirlar qanday muammolarga duch kelishi mumkin?

### **1. O‘zining his-tuyg‘ularini ifoda eta olmaslik.**

Faqatgina ota yoki onasi bo‘lgan uydagi ba’zi bolalar unchalik ko‘p gapirmaydi. Aslini olganda, ular juda idrokli, yorqin, yaxshi va yomonni ajrata oladilar. Masalan, unga kim yoki nima foydali, kim gapirayotgani katta ahamiyatga ega. Oddiy qilib aytganda, ular kichikligidanoq o‘zlarining ichki fikrlari va his-tuyg‘ularini yashirishga urinishgan. Aloqa to‘sig‘i, ya’ni agar ota yoki ona farzandining qalbi, ichki hissiyoti haqida qayg‘urish uchun vaqt yoki imkoniyati bo‘lmasa va hech kim undan uning fikrlari va his-tuyg‘ulari haqida so‘ramasa, u o‘zini yolg‘iz his qiladi va natijada ichki his-tuyg‘ularini yetkazish qobiliyatini yo‘qotadi.

### **2. Siz e’tiborsiz qoldira olmaydigan hayotidagi doimiy mavjudlik.**

Agar o‘smirlarning ota-onasining ajrashishiga xiyonat yoki uydagi zo‘ravonlik kabi asosiy jarohatlar sabab bo‘lgan bo‘lsa, bolalar katta azob chekishadi. Keyinchalik, kattalar bo‘lib, nikoh bilan bog‘liq tashvishlar va noto‘g‘ri qarashlar paydo bo‘lishi mumkin va bu mavjudlik bolaning qalbida qoladi.

### **3. Salbiy xarakterning rivojlanishi.**

Bolaning fe'l-atvoriga ko‘pincha ular o‘sib-ulg‘aygan oila kuchli ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga ota-onaning ajralishi ham o‘smirda chuqur umidsizlikka olib kelishi mumkin. Unda o‘zini past baho, o‘ziga qaramlik, asabiylashish, o‘jarlik va boshqalar kabi yomon xususiyatlar rivojlanishi mumkin.

### **4. Rashk.**

Har bir yosh sog‘lom oilaga ega bo‘lishni orzu qiladi to‘liq bo‘lmagan oila farzandlari, odatda, boshqa xonodonlardagi bolalar kabi moddiy va ma’naviy jihatdan baxtli emas. Ulardagi rashk tuyg`usi tezlik bilan nafratga o‘tishi mumkin.

### **5. Nikohga nisbatan sovuqroq munosabatda bo‘lishi.**

O‘smir ulg‘ayganida va oila qurbanida, u ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin yoki er-xotin kichik janjallarga duch kelganda u tez taslim bo‘lishi va hattoki hayotdan umidini yo‘qotishi mumkin. Uning ota-onasi bolaligidan ajrashganligi sababli, u ajralish nikohning umumiy va muqarrar natijasi deb hisoblashi mumkin.

O‘tish davri yoki o‘smirlik bu – ontogenetika bolaning katta insonga aylanishining uzoq va qiyin bosqichi. Bu davrda inson nafaqat jismonan, balki psixologik jihatdan ham o‘sadi. O‘smirlar miyasida haqiqiy inqilob sodir bo‘ladi, bu quyidagi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi.

#### **Ular qarashlardan juda xijolat tortadi:**

O‘smirlar tengdoshlari yoki ota-onalari ularni kuzatayotganini bilsa, tashvishlanadi. Ular hatto biror narsaga diqqat qaratganda ham terlashi mumkin.

#### **Ular atrofidagilar ta’siri ostida foydasiz qarorlar qabul qiladi:**

13-16 yoshli o‘smir o‘zi tavakkal qilishga tayyor bo‘lmaydi. Ammo tengdoshlari ichida bo‘lsa, bu boshqa masala. Ular boshqalar oldida obro‘sini yo‘qotishdan ko‘ra, o‘zlariga zarar yetkazishni afzal ko‘radi. Bundan tashqari, bu xatti-harakat keyingi yoshda ham kuzatiladi – aniqrog‘i, 21 yoshgacha. 14 yoshni eng xavfli yosh deb atashadi: o‘smir tengdoshlari ta’sirida tavakkal qilishga va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga har qachongidan ham ko‘proq moyil bo‘ladi.

#### **Ularning xotirasi yomonlashashi:**

Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, 12 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar xotirasi susayadi, natijada o‘qishida muammolarga duch kelishi mumkin. Ko‘pincha bu gormonal o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

#### **Ularni jazolash bilan qo‘rqitib bo‘lmaydi:**

Neyropsixologlar 12-17 yoshdagilarga yaxshi o‘qish uchun eng maqbul rag‘bat mukofot ekanligini aniqladi. Ammo o‘smirlar 18-32 yoshdagi odamlarga qaraganda jazoga keskin munosabatda bo‘ladi.

#### **Ular o‘zini qidiradi:**

Bu davrda o‘smir o‘zining “men”ini qidiradi, shuning uchun tashqi ko‘rinish bilan tajriba qilish tendensiyasi: sochlarni bo‘yash, taturovka qilish, noodatiy kiyinish kuchayadi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, to‘liqsiz oilada tarbiya topayotgan o‘smirga, jamiyatimizning xar bir azosidan uning xususiyatlari va o‘zgarishlariga katta e’tibor talab qiladi. Uni jamiyatdan ajratmagan holatda yakka tartibda ishlab o‘z fikrini bayon qilishga, o‘ziga past baho bermaslikka va orzu qilishdan to‘xtamaslikka undashimiz va “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-onan” asnosida ish olib borishimiz maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar:**

1. Vygotsky's L. S. Pedagogical Works: Volume 1. Foundations Of Pedology [Vol. 1, 1st Edition] 9811505276, Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2019
2. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. // Архив научных публикаций JSPI
3. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida aggressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari" //Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
4. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,"Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
5. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, "Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
6. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. 2022. // Science and Education 3 (3), 442-447
7. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq–atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. // Psixologiya ilmiy jurnal 1 (1, 2022), 27-29
8. Элов З.С. Ўсмир шахсида деликвент ахлок–девиант хулқатворнинг шакли сифатида. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №6) 376-378



*Imonova Maftuna Baxtiyor qizi,  
Termiz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi  
imonovamaftuna949@gmail.com*

## **SIBLING MAQOMINI OILA MUNOSABATLARIDA EMPIRIK O`RGANISH METODOLOGIYASI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola oiladagi sibling maqomi va sibling munosabatlarni farzandlarning shaxs shakllanishidagi ta'siri, farzandlarning sibling maqomi uning xarakter hususiyatidagi o`rnini haqida yoritib beradi. Oilada farzandlarning maqomi ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotdagi o`rniga ta'siri va shu ta'sir natijasida jamiyatda o`rin topishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bir oilada tug'ilgan tug'ishganlarning bir-birlaridan farq qilishlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlar, motivatsiyalari, faoliyati, muloqoti, xarakterlariga sibling maqomi hayoti davomida katta ta'sir o'tkazib keladi. O`zbek oilalaridagi ko`p farzandlilik bolalarning muloqatchanligini oshirishda, faoliyatda jadal harakat qilishda, o`z qobiliyat va layoqatlarini ochiq oydin namoyon etishda, psixik taraqqiyotining juda yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** sibling maqomi, shaxsiy ko'rsatkich, psixik taraqqiyot, perfektsionizm, adaptatsiya, raqobat, infantilizm, muloqot.

### **МЕТОДОЛОГИЯ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ СТАТУСА SIBLING В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

**Аннотация.** В данной статье освещается влияние сиблиングового статуса и сиблиングовых отношений на формирование личности детей, роль сиблиングового статуса на детский характер. Статус детей в семье влияет на их место в будущей общественной жизни, и даётся информация об их месте в обществе в результате этого влияния. Статус брата и сестры оказывает большое влияние на различия братьев и сестёр, рожденных в одной семье, их интересы, способности, мотивацию, деятельность, общение и характеры на протяжении всей жизни. Большое количество детей в узбекских семьях помогает детям совершенствовать свою коммуникабельность, быть активными в своей деятельности, ярко проявлять свои способности и таланты, хорошо развивать своё умственное развитие.

**Ключевые слова:** сиблиングовый статус, индекс личности, психическое развитие, перфекционизм, адаптация, конкуренция, инфантилизм, общение.

### **METHODOLOGY OF EMPIRICAL STUDY OF SIBLING STATUS IN FAMILY RELATIONS**

**Abstract.** This article highlights the influence of sibling status and sibling relationships on the formation of children's personality and the role of sibling status on children's character. The status of children in the family influences their place in future social life, and information is given about their place in society as a result of this influence. Sibling status has a great impact on the differences between siblings born into the same family, their interests, abilities, motivation, activities, communication and characters throughout their lives. The large number of children in Uzbek families helps children to improve their sociability, be active in their activities, vividly display their abilities and talents, and develop their mental development well.

**Keywords:** sibling status, personality index, mental development, perfectionism, adaptation, competition, infantilism, communication.

**Kirish.** Sibling - bu bir oilada bir ota-onadan tug'ilgan aka-uka va opa-singillarni tasvirlash uchun ishlatalidigan atama. Birinchi marotaba bola shaxsining shakllanishida va rivojlanishida uning oilasidagi aka-ukalar, opa-singillarning bir-biriga ta'siri bor ekanligini ilgari surgan olim avstriyalik psixolog A. Adler hisoblanadi. Oilada sibling maqomi musobatlari shakllanishi va paydo bo'lishini quyidagicha tahlil etish mumkin. Qadim zamonlardan beri aka-uka maqomi merosni taqsimlash tartibi bilan bog'liq holda juda

muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Katta aka, qoida tariqasida, merosning katta ulushini olib kelgan. Kenja o`g'il farzandlar esa doimo ota-onalari bilan qolib ularga g`amxo'rlik qilib birga yashashgan. Ota-onalarining vafotlaridan so`ng ota-onalari yashagan uy kenja o`g'ilga meros bo'lib qolgan. Oilaning to`ng'ich farzandlarda doimo mas'uliyat hissi erta uyg'onadi. Chunki bunga sabab o`zidan keyin dunyoga kelgan uka yoki singilga nisbatan o`zini kattaroq his qiladi va ota-onalari tomonidan "sen akasisan", "sen kattasan", "sen himoya qilishing kerak" zaminidagi gaplar orqali tarbiya berib boriladi. Aka va opalar ota-onalardan so`ng doim uyning kattasi vazifasini bajarishga harakat qilishadi, uy-ro`zg`or ishlari, moddiy ta'minot, kichiklarning o'qish va armiya majburiyatlarini o`z zimmalariga olishadi. Oilada farzand tug'ilarkan unga bo'lgan munosabat uni parvarishlash, uni tarbiyalash, e'tibor berish, doimo u bilan birga bo'lish muhim sanaladi. Psixologlarning fikricha, to`ng'ich bolaga nisbatan, keyingi farzandlarning qobiliyatlari, iqtidori va salohiyati, xarakteri va xususiyati o'zgacha bo'lishi ta'kidlanadi. Ba'zi kitoblarda sog'lom farzand ko'rish uchun normal yosh deb yetuklik davri (28 – 35 yoshlar oralig'i) ko'rsatilgan. Negaki, bu davrda ota ham, ona ham har jihatdan yetilgan, barkamollikka erishayotgan bo'ladi. Er-xotin ham oilaga moslashgan va bir biriga butkul ko'nikkan bo'ladi. Ayni davrda tug'ilgan bolalar esa tez ko'nikuvchan va zehnli bo'lishi bilan ajralib turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada siblinglarning har birlarini alohida o`rganib, tahlil qilib chiqamiz.

### **Yolg`iz farzandlar.**

Ular nisbatan katta psixologik yukni ko'taradilar. Agar bir nechta aka-uka yoki opa-singillari bo'lganida, uni bir nechtasiga taqsimlash mumkin edi. Va bu erda - hamma uchun u barcha yukni o`z zimmasiga oladi. Yolg`iz farzanlar ko`pincha muloqotchanligi cheklangan. Misol uchun, ularda kimadir g'amxo'rlik qilish ko`nikmasi yo`q, chunki ularning kichik aka-ukalari yo'q bo'lganligi uchundir balki. O`zidan ko`ra kuchliroq bo'lgan sherikga bo'y sunishni istashmaydi, chunki undan katta akasi yo'q bo'lganligi uchun.

Ular ko'proq xudbinroq bo`ladilar, chunki ular ota-onalarning bor mehr- muhabbati va barcha g'amxo'rligi ularga tegishli ekanligiga odatlangan. Yakka farzandlar raqobatbardoshligi kamroq, chunki ular hech qanday kuch sarflamasdan hamma narsaga ota-onalari tomonidan erishib kelashadi. Shuning uchun ular uchun inqirozlar va unga qaratilgan tanqidlarni qabul qilishlari va yengib o'tishlari qiyinroq kechadi. Tengdoshlari bilan muloqot qilish odati yo'q, chunki aka-uka va opa-singillar yo'qligi sababli ular ko`pincha keksa odamlar bilan muloqot qilishni yoqtirishadi.

Yakka farzandlar doimo ota-onasining e'tiborida "mikroskop ostidagi chivin" kabi, shunga ko'ra, farzand ota-onasining umidlarini qondirishi kerakligi singdirib boriladi. Voyaga etganida, bu o'zini perfektionizm, hamma narsada mutlaq mukammallikka intilish sifatida namoyon qilishi mumkin. O'zining mukammal ekanini inobatga olib, atrofdagilar va umuman dunyoning o'zi ham shunga yarasha munosabatda bo'lishi kerak, deb o'ylaydi. Ya'ni, unga yetib bo'lmaydi. Ammo xudbinlik va boshqa har qanday buzg'unchi fikrlar, his-tuyg'ular ta'siri ostida inson tanazzulga uchrashi mumkin. U boshqa odamlar bilan munosabatlarda o'z chegaralarini qanday himoya qilishni biladi. "Bu mening kitobim. Bu mening mashinam."

### **To'ng'ichlar (katta farzand).**

Birmuncha vaqt (kichik bolalar tug'ilishidan oldin) ular barcha ota-onalarning e'tiborini tortadilar. Ular ko`pincha intellektual va jismoniy jihatdan yanada rivojlangan bo'lib o'sadi. Ular tezroq o'sadi. Ko`pincha juda erta yoshdan boshlab ular boshqalarga g'amxo'rlik qilish va yordam berish qobiliyatini rivojlantiradilar (kenja aka-uka va opa-singillar). To'g'ri, bu juda ko'p ular va keyingi yosh o'rtasidagi yosh farqiga bog'liq. Yosh bolalarga yordam berish odati tufayli ota-onalar katta mas'uliyat yuklaydi. Mas'uliyatning haddan tashqari yuki esa, o'z navbatida, ehtiyotkorlik va konservativizm kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Boshqa tomonidan, to`ng'ichlar ko`pincha kichiklarga nisbatan avtoritar usullardan foydalanadilar va buyruq berish odatiga ega. U juda erta yoshdanoq o'zini aqli va kuchliroq his qilish uchun sharoitga yaratib berilgan bo'ladi.

### **Kenjatoylar ("oxirgi bolalar").**

1. Erkin, beparvo, beg`am. Ular ko`pincha o'ynoqilik, infantilizm va hayotga bolalarcha munosabatni sochlari oqarib ketguncha saqlab qoladilar.

2. Ota-onalari tomonidan ular har doim eng yaxshi shirinliklarni kichiklar sifatida olishgan. Voyaga yetganida, ular ko`pincha sherigidan g'amxo'rlik va vasiylikni talab qilishni davom ettiradilar: "Siz qancha bersangiz ham, bu yetarli emas!"

3. Ularning shaxsiy yutuq motivi kamroq namoyon bo'ladi. Dunyoga sehrli munosabat: "Hamma narsa menga laganda keltiriladi (ota-onalari ham, koinot kuchlari ham)."

4. Katta aka-uka va opa-singillar bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvda g'alaba qozonish imkoniyati yo'qligi sababli ular ko'pincha hissiy manipulyatsiya va murakkab diplomatiyaga moyil.

#### O'rta bolalar.

1. Darhol ko'zingizga tushadigan birinchi narsa - o'rta bolalarning o'ziga xos maqomiga ega emasligi. Masalan, ko'p bolali oilada 5 ta farzandning uchta o'rta farzandi bor.

2. O'rta pozitsiya eng noqulay hisoblanadi. U kattaning ustuvor maqomidan ham, kichikning imtiyozlaridan ham mahrum.

3. O'rtacha bolalar, qoida tariqasida, ota-onasi oilasini tezroq va osonroq tark etadilar. Siz kattasini qo'yib yuborolmaysiz - u uy xizmatchisi, uni ishni topshirish kerak. Siz kichigini qo'yib yuborolmaysiz - u suyukli.

4. Katta bola ko'pincha o'rtasiga yuklaydi. Kichigini yuklay olmagani uchun u hali kichkina. Shu bilan birga, o'rtadagi to'n'gichga obro'-e'tibor va me'yor sifatida qaraydi, undan taqlid orqali o'rganadi, to'n'gichning eng kuchli fazilatlarini o'ziga oladi. Va bunday "hayotiy ta'l'lim" ota-onalarga taqlid qilishdan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin, chunki katta akasi bilan aloqa masofasi ancha yaqinroq. Bosim ostida bunday bolalar o'zlarining mudofaa qobiliyatlarini, birinchi navbatda, o'z fikrlarini himoya qilish mahoratini rivojlantiradilar.

5. O'sish va rivojlanishga to'g'ri keladigan og'irroq sharoitlar natijasida o'rta yoshdagi bolalar ancha chidamli, sabrli, turli xil turmush sharoitlariga moslashadi, kamroq tashvishlanadilar, maqsadlarga yaxshiroq diqqatni jamlaydilar va shunga mos ravishda erishadilar. Hayotda bunday insonlar ko'proq.

6. O'rta farzandlar yangi va g'ayrioddiiy narsalarni olishga tayyor. Ular baxtni oiladan emas, balki tashqaridan, jamiyatdan izlaydilar. Agar kattasi, qoida tariqasida, ota-onasining ishini meros qilib olgan bo'lsa, o'rtancha o'g'il Amerikani kashf etadi. Kenjatoylar esa to'ng'ichlarning yutuqlaridan bemalol foydalanadi.

7. Mana bir qiziq fakt. O'rta bolalar odatda g'ayrioddiiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydilar: 19-asrda Charlz Darwin ta'limotini qo'llab-quvvatlagan olimlarning 90% dan ortigi i'o'rta farzandlar bo`lishgan.

**Siblinglar o'rtasidagi nizolarning oldini olish.** Siblinglar raqobati hodisasi G.T. Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan va o'rganilgan. Bunda bolalarning o'zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib, qachon birlashishlari o'rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar paytida, ota-onasi qazo qilganda yoki xastalanib qolganda ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Aksariyat hollarda esa, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha bitta ota-onanining farzandlari o'rtasida o'ziga xos tarang munosabatlар kuzatilgan. Bu narsa o'sha jamiyatlardagi shaxsiy avtonomiya fenomeni bilan bog'liq bo'lib, har bir inson ilk yoshlikdan faqat o'z manfaati uchun yashaydi va kurashadi. Bunday sharoitda sibling munosabatlarining faqat ijobjiy bo'lishiga erishish ancha mushkul.

To'n'gich bola uchun hayotdagi eng og'riqli erta travma - bu yagona bo'lish maqomini yo'qotish, tashlab ketish jarohati. "Men eng zo'r edim, men yagona edim, men ota-onam uchun koinotning markazi edim va keyin birdan gullab-yashnadi! Keyin ukasi tug'ildi. Va tamom! Siz ikkita farzanddan birisiz! Endi esa ko'p e'tibor kichkintoyga qaratiladi!" Inqiroz tajribasi, ota-onasi bilan munosabatlarda o'ziga xosligi va o'ziga xosligini yo'qotish tajribasi, norozilik (ota-onalar xoin sifatida qabul qilinishi mumkin) va tashvish (butun dunyo tuzatib bo'lmaydiganadolatsiz va xavfli joy sifatida qabul qilinishi mumkin, bu erda hamma narsa mumkin bo'ladi. bir lahzada qulash). Shuning uchun, ukasining tug`ilishidan so'ng, katta bola maqtov va qo'llab-quvvatlashga muhtoj. O'zlarini tashlandiqday his qilmasliklari uchun ona kichigini emizadi va kattasiga ko'proq e'tibor beradi.

Kichkina bola uchun birinchi mustaqil qarorlarni qabul qilishingiz kerak bo'lgan vaziyat juda og'riqli bo'lishi mumkin. Axir, u butun hayotini to'liq xavfsizlik va maksimal qulaylik sharoitida o'tkazdi. U o'zini nochor his qilmasligi uchun uni bolaligidanoq huquq va majburiyatlariga ko'niktirish, tanlash, o'z fikriga ega bo'lish, qaror qabul qilish va o'ziga xos mas'uliyat sohasiga ega bo'lish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Ma'suliyatlari ishlarni o'ziga ishonib topshirish kerak, buni avvalambor kichikligida do'kondan biror narsa olib kelishga buyurishdan boshlash kerak.

**Xulosa** qilib shuni aytishim mumkinki, hayotimizdagи barcha narsalar, qiziqishlarimiz, ishtiyoqlarimiz bolalikdan boshlanadi. Bir qarashda shaxsiy va kasbiy hayotda ko'plab "tushunib bo'lmaydigan" psixologik muammolarning sabablari, odatlarning ildizlari, e'tiqodlari, insonning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasining asosi uning sibling maqomida yotadi. Ota-onanining o'rta farzandga yordami - ba'zida unga aka-uka va opa-singillarning afzalliklarini his qilish imkoniyatini berish - uni kichik boladek erkash va unga katta boladek ishonishdir. Oila va undagi munosabatlarning shaxs taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham talaygina. Zero shaxsning shakllanishi va kelajagini belgilashda uning oilasidagi muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, ya'ni bolanoring ota-onasi, siblinglar bilan aloqalari muhimdir.

**Adabiyotlar:**

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik – T.: Fan va texnologiya, 2008.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2009.
3. Cicirelli, V. G. (1994). "Sibling relationships over the life course." Paper presented at the 49th Annual Scientific Meeting of the Gerontological Society of America, Atlanta.
4. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
5. Имонова, М. Б. (2023). Важность семейных отношений в личном развитии. // Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(22), 120-123.

*Isabayeva Dilfuza Komiljonovna,*

Doctoral (PhD) student of department of “Pedagogy”, Bukhara State Pedagogical Institute  
[dilfuzaisabayeva@gmail.com](mailto:dilfuzaisabayeva@gmail.com)

## **PROBLEMS OF IDENTIFYING AND DEVELOPING KNOWLEDGEABLE, SKILLED AND TALENTED STUDENTS**

**Abstract.** In this article, the need to create an environment for identifying, developing and motivating educated, capable and talented students, methods of working with talent, areas of ability and talent, the role of ability and talent and difficulties in practice, student confidence opportunities to absorb and help them if needed are discussed. The problems of creating opportunities and conditions for student self-expression are considered, the principles of identifying gifted children are determined. Forms and methods of identifying knowledgeable, capable and talented students, diagnosing the development of talent, organizing the content of educational work are studied. In addition, this article identifies the problems of working with educated, talented students in educational practice, educational problems specific to educated, talented students, problems and solutions in the field of education.

**Keywords:** knowledgeable, capable and talented student, scientific and creative activity, educational activity, diagnostics, educational problems, solutions, development, motivation.

### **BILIMLI, QOBILIYATLI VA ISTE'DODLI TALABALARINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, rivojlanirish va rag'batlantirish uchun muhit yaratish zarurligi , iste'dod bilan ishlash usullari, qobiliyat va iste'dod sohalari, qobiliyat va iste'dodning o'rni va amaliyotdagi qiyinchiliklar, talabaga ishonchni singdirish va kerak bo'lganda ularga yordam berish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Talabaning o'zini namoyon qilish uchun imkoniyat va sharoit yaratish muammolari ko'rib chiqiladi, iqtidorli bolalarni aniqlash tamoyillari aniqlanadi. Bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash, iqtidorning rivojlanishini tashxislash, tarbiyaviy ishlarning mazmunini tashkil etish shakkllari va usullari o'rganiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada o'quv amaliyotida bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalar bilan ishlashdagi muammolar , bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarlarga xos bo'lgan o'quv muammolari, ta'lim sohasidagi muammolar va yechimlar aniqlandi

**Kalit so'zlar:** bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talaba, ilmiy va ijodiy faoliyat, o'quv faoliyati, diagnostika, o'quv muammolari, yechimlar, rivojlanish, motivatsiya.

### **ПРОБЛЕМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭРУДИРОВАННЫХ, СПОСОБНЫХ И ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В статье обсуждаются необходимость создания среды для выявления, развития и мотивации образованных, способных и талантливых студентов, методы работы с одаренностью, области способностей и одаренности, роль способностей, одаренности и трудностей в практической деятельности, возможности уверенности студентов в себе и помочь им в случае необходимости. Рассматриваются проблемы создания возможностей и условий для самовыражения студентов, определяются принципы выявления одаренных студентов. Изучаются формы и методы выявления знающих, способных и талантливых студентов, диагностики развития одаренности, организации содержания учебной работы. Кроме того, в статье обозначены проблемы работы с образованными, одаренными студентами в образовательной практике, образовательные проблемы, характерные для образованных, одаренных студентов, проблемы и пути их решения в сфере образования.

**Ключевые слова:** образованный, способный и талантливый студент, научная и творческая деятельность, учебная деятельность, диагностика, учебные проблемы, решение, развитие, мотивация.

**Введение.** В настоящее время в учебной практике стран мира разрабатывается система обучения студентов в зависимости от их знаний, способностей и таланта. При этом особое внимание уделяется в основном образованным и талантливым студентам (обладающим познавательной

спецификой, нестандартным, непредсказуемым характером предложения решений проблем), а также компонентам творческого развития. Наличие необходимости в создании условий для выявления, развития и стимулирования образованных, способных и талантливых студентов, способы работы с одарёнными и талантливыми студентами, возможность привить студенту доверие и при необходимости помочь ему могут стать основой успешного и эффективного образовательного процесса.

В процессе обучения у образованных, способных и талантливых студентов могут возникнуть проблемы:

- проблемы в образовательном процессе для образованных, способных и талантливых студентов;

- проблемы когнитивных и личностных особенностей образованных, способных и талантливых студентов;

Для образованных, способных и талантливых студентов проблемами в процессе обучения могут быть:

1. Недопущение диалога со сверстниками
2. Могут возникнуть проблемы со здоровьем
3. Эмоционально чувствителен (быстро передаётся эмоциям)
4. Гиперактивность.
5. Леность
6. Требуется частая смена деятельности.
9. Трудность работы учителей с ними.

Когнитивные и личностные особенности образованных, способных и талантливых студентов можно увидеть в таблице:

1-таблица.

№	Когнитивная сфера	Область личных свойств
1	Оригинальность мышления	Быть терпеливым к заданию
2	Гибкость мышления	Совершенство
3	Новаторство	Социальная связь
4	Способность к анализу и синтезу	Лидерство
5	Классификация	Конкуренция
6	Высокая концентрация внимания	Широта интереса
7	Сильная память	Доброта

**Литература и методология.** В процессе выявления, развития и поощрения образованных, способных и талантливых студентов принимают участие различные участники педагогического процесса, а также родители.

При выявлении одарённых и талантливых детей А.И. Савенков предложил метод оценки общего таланта. В исследованиях А.И. Савенкова выявлены четыре основных компонента (понятие таланта, программные и методические средства для диагностики таланта, психологические формы развития таланта, организации содержания учебной работы), прошедшие тестирование в качестве теоретической основы выявления образованных, способных и талантливых детей в образовательном процессе. В результате долгосрочных поисков в Москве разработана целевая программа «Талантливые дети» и её концепция. На основе этой программы организована система выявления, обучения и поддержки образованных, одаренных и талантливых детей.

В процессе обучения талантливые и талантливые студенты приобретают следующие особенности:

*Интерес (потребность в знаниях)* Талантливые и талантливые дети стремятся узнать еще больше новостей, получить знания.

*Внимание к проблемам.* Многие дети испытывают страсть к сложным вопросам и проблемным обстоятельствам.

*Способность предвидеть результат перед решением проблемы* - предсказать возможные последствия движения перед её реализацией.

*Способность к оценке.* Это означает способность оценивать свои мысли и действия.

*Новаторство.*

*Способность к логическому мышлению и мышлению*

*Решительность*

*Спрос на результаты* - это обеспечивает очень высокие и эффективные результаты.

В научно-исследовательской работе одного из русских учёных З. М. Бадиевой разработаны образовательные программы по выявлению талантов и способностей, талантов и способностей детей, понятий умственных способностей, образованных, способных и талантливых детей.

**Обсуждение и результаты.** Выявление образованных, способных и талантливых студентов является очень сложным процессом и требует всестороннего комплексного подхода.

С учётом вышеизложенного могут быть следующие принципы выявления образованных, способных и талантливых детей:

1) комплексная оценка путём всестороннего сопровождения различных сторон поведения и деятельности ребёнка. Это позволит максимально использовать различные источники данных и охватывать различные возможности.

2) анализ его действий в сферах деятельности с высоким уровнем его способностей и интересов (в том числе вовлечение ребёнка в специально созданные кружки науки, а также вовлечение его в различные бытовые дела)

3) использование определённых развивающих методов образования может снять определённые психологические и педагогические «барьеры» у ребёнка.

4) в процессе работы с одарёнными и талантливыми детьми должны подходить все, включая учителей и членов семьи.

Можно использовать различные методы выявления образованных, способных и талантливых студентов:

способ наблюдения за студентами (в аудитории и вне аудитории);

специальными психоdiagностическими тренингами;

в результате бесед с учителями и родителями;

через специальные игры и тематические уроки;

путем экспертной оценки специалистами специфических продуктов студенческой творческой деятельности (чертежи, стихи, технические модели);

путем организации различных интеллектуальных и научных олимпиад, конференций, спортивных соревнований, а также анализа деятельности на конкурсах, фестивалях и др.;

Работа с образованными, способными и талантливыми студентами включает в себя следующие взаимосвязанные процессы:

1. создание специальной творческой среды, способствующей проявлению знаний и талантов студентов, а также развитие творческого и интеллектуального потенциала молодёжи;

2. Работа со студентами (наблюдение, проверка, анализ творчества детей);

3. Работа с родителями (беседы, запросы).

Выявление образованных, способных и талантливых студентов включает в себя:

1. Выявление интересов и способностей к определенной деятельности.

2. Определение условий для знаний, способностей и талантов.

3. Определение уровня развития студенческой креативности (творческие способности).

Разработанная А.И. Савенковым «карта таланта» предназначена в основном для родителей, но может использоваться и учителями. Это интеллектуальная, творческая, академическая, художественная, музыкальная, художественная, техническая, спортивная деятельность детей от 5 до 10 лет. оценку уровня развития по. Карта таланта выполняет две функции:

1. Определить талант. Выявление различных способностей и талантов ребёнка на данном этапе.

2. Развитие таланта. Ещё больше работы над способностями и талантом, которые есть у ребёнка.

В процессе образования мы должны обратить внимание на следующие проблемы и их решения. (смите таблицу 2).

Образовательный процесс не ограничивается только обучением ребёнка. В процессе обучения студент также приобретает воспитательные аспекты, такие как уважение к учителю, прослушивание его одноклассников.

2- таблица.

№	Проблема	Решение
1	Отсутствие педагогической и психологической квалификации в учебных заведениях.	Проверка педагогической и психологической квалификации учителя
2	Влияние учителей авторитарного стиля.	Организация преподавателями уроков демократического стиля и семинаров-тренингов.
3	Отставание пустого передатчика.	Обратить внимание на то, что в зависимости от уровня студента даёт задания, сформировать уверенность в себе.
4	Недостатки в организации лабораторной работы в образовательных учреждениях в таких дисциплинах, как физика, химия, биология.	Использование современных лабораторных помещений и оборудования.
5	Недостаточно использование технических средств для развития творческих способностей студентов в образовательных учреждениях.	Использование ручной работы, подготовленной преподавателями и студентами.
6	Недостатки студенческой речи.	Обучение студентов технике обучения и регулярное проведение ежегодных конкурсов «Лучший читатель».

**Результаты.** Выявление и развитие способностей и таланта студента позволит улучшить педагогические условия, изучение психологической среды и индивидуального диалога участников образовательного процесса, обогащение образования контентами на основе информационных технологий и внедрение инновационных образовательных технологий, также учитывать личное развитие студентов, обращать внимание на их работу в коллективе и на индивидуальном подходе и регулярно стимулировать их рост.

**Заключение.** В последние годы растёт интерес молодёжи к проблемам выявления и развития таланта и способностей. Раннее выявление и развитие талантов и способностей детей способствует повышению интеллектуального и творческого потенциала страны. Поэтому очень важно изучать проблемы талантливой и одарённой молодёжи, их образовательный потенциал, личностные особенности талантливых студентов.

#### Литература:

- Савенков Александр Ильич. Развитие детской одаренности в условиях образования. Москва 2002. <https://www.dissercat.com/content/razvitiye-detskoi-odarennosti-v-usloviyakh-obrazovaniya>.
- Карпова, Светлана Ивановна. Управление общеобразовательной школой как фактор развития детской одаренности. Москва 2013. <https://www.dissercat.com/content/upravlenie-obshcheobrazovatelnoi-shkoloi-kak-faktor-razvitiya-detskoi-odarennosti>
- Щебланова Елена Игоревна. Одаренность как психологическая система: структура и динамика в школьном возрасте. 2006 [www.dissercat.com/content/odarenost-kak-psikhologicheskaya-sistema-struktura-i-dinamika-v-shkolnom-vozraste](http://www.dissercat.com/content/odarennost-kak-psikhologicheskaya-sistema-struktura-i-dinamika-v-shkolnom-vozraste)
- Shatalina V.A. Revealing gifted children in the educational process // Eurasian scientific journal. - No. 12. St. Petersburg, 2015. Electronic resource: <http://journalpro.ru/articles/vyyavlenie-odarennnykh-detey-v-obrazovatelnom-protsesse>
- Principles and methods for identifying gifted children. Electronic resource: <http://psylist.net/praktikum/00209.htm>.

*Jabbor Alisher Musirmon o'g'li,*  
*Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi,*  
*psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*alisher.jabbor@yandex.com*

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA TUSHUNISH FENOMENIGA DOIR TAHLILIIY IZLANISHLAR

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy psixologik tadqiqotlar orqali tushunish fenomeniga doir tahliliy izlanishlar qiyosiy ravishda ochib berilgan. Shu bilan birlgilikda, psixologiya va falsafa sohalarida tushunishga doir fenomenal yondashuvlar tahliliy yoritilgan. Tushunish fenomenining o'ziga xos jihatlari falsafiy va psixologik yondashuvlar orqali keng ravishda ochib berilgan. Shuningdek, tushunishning o'ziga xosliklari batasfil oydinlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** tushunish, axborot, tushuntirish, fenomen, falsafiy yondashuvlar, xususiyat.

### АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФЕНОМЕНА ПОНИМАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

**Аннотация.** В статье в сравнительном аспекте раскрыто аналитическое исследование феномена понимания посредством современных психологических исследований. Наряду с этим аналитически анализируются феноменологические подходы к пониманию в области психологии и философии. Также подробно объясняются особенности понимания.

**Ключевые слова:** понимание, информация, объяснение, феномен, философские подходы, характеристика.

### ANALYTICAL RESEARCH ON THE PHENOMENON OF UNDERSTANDING IN MODERN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

**Abstract.** The article comparatively reveals an analytical study of the phenomenon of understanding through modern psychological research. Along with this, phenomenological approaches to understanding in the field of psychology and philosophy are analyzed analytically. The features of understanding are also explained in detail.

**Keywords:** understanding, information, explanation, phenomenon, philosophical approaches, characteristics.

**Kirish.** Umuman olganda, kishilar ijtimoiy-psixologik tajribasi mujassamlangan xalq ongingin unsurlari-konseptlarini tadqiq etish hozirgi zamon psixolingvistikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. L.V. Balashovaning fikricha, inson ba'zan bilimning global birliklari tuzilmasi kabi konseptlar yordamida fikrlaydi. Shu bilan birga, dunyoning lisoniy va konseptual manzarasi turli xil usul va vositalar asosida shakllanadi [1; 21]. Kognitiv lingvistikaning asosiy qoidalariga muvofiq holda til kategoriyalari insonning lisoniy ongdagi u yoki bu ekstralingvistik, real voqeilikni aks ettiruvchi tushunchalarga tayanadi. Shu jihatdan ham shaxs nutqida qo'llanadigan leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali o'ziga xos nomlash, atash usullari kuzatiladi. Shaxs nutqiga oid dastlabki qarashlar Germaniyada D. Tideman tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Jahon psixologiyasida taniqli olimlar J. Piage va L.S. Vigotskiy asarlarida bolaning egosentrik nutqi, ichki nutqi, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish davrlari, ularning muloqot xulqiga xos stimullar va bunda taraqqiyotning psixologik jihatlari chuqur tahlil etilgan. Mazkur davrda psixologiya yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatgan ba'zi olimlar bolalar nutqini o'rganishda tajribaviy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlardan keng foydalanganlar. Demak, XX asrda rus tilshunoslari bolalar so'z-ijodining lingvistik jihatlariga emas, balki psixologik xususiyatlariga jiddiy e'tibor berilgan. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida lingvistikada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'rgangan A.A. Leontev va A.M. Shaxnarovichning tadqiqotlari, E.G. Negnevitskaya singari olimlarning ilmiy ishlari yuzaga kelgan [2; 323]. Chunki so'z ijod jarayonini tadqiq qilishda ushbu holatning shaxs lisoniy qobiliyati rivojlanishiga ta'sirini alohida e'tiborga olish maqasadga muvofiq sanaladi.

I.R. Galperin “Текст как объект лингвистического исследования” kitobida matnda grammatik kategoriya tushunchasini birinchilardan bo’lib izohlar ekan, u psixolingvistik tadqiqot obyekti sifatida matn tarkibidagi qator muammolarni ko’rsatib beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Matn lingvistikasining umumiyligi masalalariga to’xtalib, matnda axborot-psixologik ko’rinishlarini ko’rsatar ekan, matn modeli abstrakt model sifatida tadqiqot obyektinga butun belgilarini qamrab ololmasligini, matnning barcha kategoriyalari aniq bir formada amalga oshishini, shunday formalardan biri axborot kategoriyasi ekanini-tasvir, rivoyat va muhokamaning iboratligini yozadi [3; 22 стр.]. E.A. Referovskaya tasvir, rivoyat va muhokamaning matn kommunikativ strukturasi bilan bog’liq tomonlariga to’xtaladi va nutq tiplariga matndan parcha sifatida qaraydi. I.O. Moskalskaya matnning kommunikativ maqsadi haqida yozar ekan, matn stilistikasi badiy va badiy bo’lmagan prozaning nutqiy formalariga alohida e’tiborni qaratishi lozimligini ta’kidlaydi. Bunday formalar tasvir, rivoyat va muhokama ekanini aytadi [4; 57].

I.P. Shishkina va V.A. Kuxarenko nutq tiplarini kompozitsion nutq shakllari sifatida qaraydi va ular matnni sharhlash ma’nosida matnning syujetini, asar g’oyasi va kompozitsiyasi bilan bog’laydilar. O.A. Nechayeva funksional-mazmuniy nutq tiplarining o’ziga xos xususiyatlарини atroficha tadqiq qiladi. Nutq tiplarining o’zaro farqlarini, ularning til birliliklari munosabatini, matn birliliklarda namoyon bo’lishini, funksional uslublardagi ko’rinishini izohlaydi. Bu ishning yutug’i shundaki, funksional-mazmuniy nutq tiplariga mufassal ta’rif beriladi, biroq fikrlarni isbotlashda ko’p hollarda formal-grammatik tomondan yondashiladi [5; 18]. Til va tafakkur munosabati fikrlash jarayoni va nutqiy jarayon. So’zlovchi niyati va uning ifodalanishi va boshqa ko’plab muammolarni gapdan yuqori birliklarga murojaat qilish, ularni tahlil qilish asosida yechish mumkin bo’ladi. Chunki inson alohida olingan so’z yordamida gapirmagandek, u avvaldan o’ylangan birgina gap bilan fikrlamaydi. Odamda fikr aytish niyati tug’ilganda uning tafakkurida yagona bir gap emas, butun boshli matn shakllanadi. Fikrlar o’rtasidagi munosabat boshlanganda fikrlash jarayoni yuzaga keladi va bu jarayon tilda ma’lum bir formada o’z ifodasini topadi. Fikrlash jarayonining tildagi ifodasi monologik nutq tiplarida o’z aksini topadi [6; 142].


**Muhokama va natijalar.** Matnda ma’nolarining shakllanishi bu subyekt tomonidan ijtimoiy tushunchalar va umumlashtirilgan harakatlar obrazni, bilimlar jarayoni kabilarni egallash demakdir. Bunda, albatta subyektning to’g’ridan-to’g’ri tayyor bilimlar loyihasini tushunishi nazarda tutilmaydi. Gap individual predmet faoliyatidagi bilish sistemasini jarayonining shakllanishi haqida ketyapti. Demak, shuni nazarda tutish lozimki, matndagi individual ma’nolar sistemasining qurilishi va bu pirovard natijada aynan shu xil o’zlashtirishning va shunday loyihaning maqsadidir. Chunki individual sistema yoki individual ma’nolar sistemasi, turli o’lchov darajadagi va qobiliyatlar asta-sekin shakllanadi. Keyingi yillarda nutqiy hodisalar tadqiqida borgan sari matnlarning ayrim hodisalarini emas, balki semantik va perceptiv kategoriyalarning shakllanishi haqidagi umumlashgan ko’rinishlarini o’rganish ham nazarda tutilmoqda. So’ngi holat to’g’ridan-to’g’ri zamonaviy psixolingvistika uchun xarakterli bo’lgan an’analari: matn birliliklari ma’nolarini o’rganish, sintaksisning psixosemantikaga murojaati va so’zlovchi insonga bo’lgan mo’ljal bilan bog’liq.

Agar semantik-sintaktik tushunchalar sistemasida mustahkam metodologik baza bo’lmaganda, psixolingvistikaning barcha xususiyatlari nutq rivojlanishini tadqiq qilishga aytarli ta’sir etolmasdi. O’tgan asrning 30-yillaridayoq L.S. Vigotskiy tomonidan bolalar nutqini tahlil etishning psixolingvistik asoslari belgilab berilgan. Bolaning kattalar bilan muloqoti jarayonida uning nutqi shakllanib, takomillashib boradi [7; 60].


Ertelning pregnantlik indeksi-matn birligidagi umumiyligi so’z miqdoriga A-ekspressiya so’zlarini va iboralari miqdoriy nisbatiga aytildi. A-ekspressiyaga quyidagi so’z va so’z birikmalari taalluqlidir: kerak, shart, majbur, hech qachon, bo’lishi mumkin emas, hech kimga ruxsat etilmaydi, mumkin emas, e’tiroqsiz, mutloq, shaksiz, butunlay, hamisha, har yerda, hech qachon, hech kim, hech nima, shubhasiz va h. Ertelning pregnantlik indeksi-ta’kidlar negizida yotgan kognitiv faoliyot pregnantligini aks ettiradi, uni aks ettiruvchi effekt intensivligi bilan bog’liq, ustivorlik, ekspansiyaga moyil, jur’atli va nokompromis shaxs xususiyatlari ifodalaydi. Ertelning pregnantlik indeksi yuqorilashuvi suitsidal faoliyot, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyati ko’pligini bashorat qilish imkonini beradi. Ertelning pregnantlik indeksi balandligi aggressivlik darajasining yuqoriligi, affektiv to’yingan g’oyalalar ustivorligiga bilvosita ishora qiladi. Konkret mijozning semantik-grammatik xususiyatlari to’g’risida yaxlit tasavvur hosil qilish uchun psixolingvistik koeffitsiyentlar, ular dinamikasi kompleks baholanishi lozim [8; 312].

Temalarining ahamiyatlari darajada ko’pligi tafakkurning formal buzilishlari (oligafaziya, maydakashlik, rezonyorlik, amorflik, tafakkur yemirilishining turli bosqichlari) ga ishora qiladi. Rematik konstruksiyalarning ahamiyatlari ustivorligi egosentrik nutqda, autistik tafakkurda, simvolizmda va vasvasalarda kuzatiladi. Ayni vaziyatda yangi va aktual axborot rema deb nomlanadi. Nutqning qisqacha

fragmentini ko’zdan kechirsak: (1) talabalar ma’ruzani tinglab konspekt yozmoqdalar. (2) U psixolingvistika muammolariga bag’ishlangan. (3) U til to’g’risidagi eng qiziqarli fanlardan biridir. Keltirilgan matnni quyidagi sxemada aks ettirish mumkin.



Matnning bunday uyuşdırılıvu to’g’ri chiziqli tematik progressiya deb nomlanadi. Boshqa misol: (1) Talabalar auditoriyada o’tirishibdi. (2) Ular ma’ruza tinglab konspekt qilmoqdalar. (3) Yoshlar maroq bilan nutqiylar sir-sinoatlarini o’zlashtirmoqdalar. Sxematik tarzda ushbu matn quyidagicha aks ettiriladi.



Mazkur sxematik ifoda konstant mavzudagi tematik progressiya deb nomlanadi. Tema-rematik nisbatni o’rganishda quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

- a) remalar ko’pligi-nutqda vasvasalarga doir konstruksiylar ko’pligiga ishora qiladi;
- b) ushbu ustivorlik arzimas bo’lsa unda u:
  - Vasvasaning tizimga solingan tuzilmasi;
  - Tafakkurda stereotiplar mavjudligi (rematik konstruksiylar) bilan bog’liq;
  - v) tafakkurdagi uzuq-yuluqlik elementlari yaqqollashadi.

Matn idroki murakkab psixologik jarayon sifatida turli xil holatlarda o’rganilgan. Bu kabilarning asosiyлари jihatida kvantitativ, kognitiv, psixologik va psixolingvistik yo’nalishlarda aks etishi mumkin. Matnni idrok etishda kvantitativ yondashuv xabarlarning kvantitativ nazariyasiga asoslanadi. Matn harflar, so’zlar elementlaridan tashkil topgan kodli zanjir sifatida olinadi. Matnning bir butun qabul qilinishini formallashtirish nuqtayi nazaridan o’rgangan S. Gumenuk matnlarni idrok etishga shunday ta’rif beradi: berilgan matnning yaxlit idroki so’z va uning matndagi holati bilan shunday aloqani o’rnatadiki, bu matnning to’g’ri tushunilgan shaklini yaratishga yordam beradi [9; 54].

#### 1-jadval.

**Virtual olamdagи axborotlarni tushunishga doir so’rovnomalar faktorizatsiyasi**

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Internet va kompyuterga tobeklik		0,586
Kompyuter o‘yinlariga tobeklik		0,768
Televizorga tobeklik	0,589	
Destruktiv diniy axborotlarga tobeklik		0,557
Tobelikka umumiy moyillik		0,624
Internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish	0,507	
Vaqtni idrok etish	0,556	
Internetning ijobjiy xususiyatlarini anglash		0,529
Internetning salbiy xususiyatlarini anglash	0,625	
Internetdagi axborotlarni tushunish		0,523

Tadqiqotdan olingan virtual olamdagи axborotlarni tushunishni belgilab beruvchi asosiy omillar quyidagi natijalarni namoyon qilgan. Birinchi faktorga kirgan ta’kidlar: televizorga tobeklik, internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtini idrok etish, internetning salbiy xususiyatlarini anglash shkalalaridir. Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko’ra), shartli ravishda: internetda o’zini nazorat qilish deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o’rin oldi: internet va kompyuterga tobeklik, kompyuter o‘yinlariga tobeklik, destruktiv diniy axborotlarga tobeklik, tobekikka umumiy moyillik, internetning ijobjiy

xususiyatlarini anglash, internetdagi axborotlarni tushunish kabilar. Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko‘ra), shartli ravishda: virtual olamda o‘zini boshqarish shkalasi deb nomladik.

Psixologik yondashuvda birlamchi obyekt inson bo’lib, matnning qabul qilinishida uning individual ruhiy holati, xususiyatlari ko’proq tahlil qilinadi. T.A. Drozdova matnni tushunishni psixologik tajribalar asosida tadqiq etib, uning darajalarini belgilaydi. Ammo bu darajalar har doim ham tushunish jarayonida yuzaga chiqavermasligini ta’kidlab o’tadi, ya’ni tajriba sinaluvchilarining 36% da tushunish jarayonining bosqichma-bosqich kechishi kuzatilgan bo’lsa, sinaluvchilarining qolganlarida tushunish aralash, betartib holatda amalga oshgan. Yuqorida keltirilgan bosqichlarning ayrimlari tushirib qoldirilgan, qisqartirilgan holatlar ham kuzatilgan. Kommunikativ vazifaning o’zgarishi tushunish va idrok etishning borishiga ta’sir qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, sinaluvchilarining virtual olamdagagi axborotlarni tushunishi asosan, televizordagi axborotlar, internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtin idrok etish, internetning salbiy xususiyatlarini ongli ravishda anglash bilan bog’liq faktorlarda o’z ifodasini topdi. Shuningdek, subyekt matnni idrok etishida kognitiv yondashuvning bir tashkiliy qismi sifatida baholashi muhim omil sanaladi. Shaxs turli xildagi biror matnni o’qir ekan, shu matn mavzusiga aloqador bo’lgan bilimlari yanada faollashadi va shu asosida matnni tushuna olishi imkoniyatlari oshishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Балашова Л.В. Концепт детство в метафорической системе языка. М., 2004. – С.21.
2. Гвоздев А.Н. От первых слов до первого класса. Саратов. Саратовский университет., 1981. – С.323.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования, М., 1981. – С.22.
4. Мосальская О.И. Грамматика текста. М., 1991. – С.57.
5. Нечаева О.А. Функционально-смысловые типы речи. М., 1984. – С.18.
6. Шишкина И.П. Интерпретация художественного текста. М., 1989. – С.142.
7. Выготский Л.С. Мысление и речь. -М.-С.60.
8. Радченко О.А. Язык как миросозидание. М., Эдиториал УРСС.2006. – С.312.
9. Гуменюк Ю. Квантитативная лингвистика и семантика. Новосибирск., 2001. – С.4.

*Jalolova Mohigul Odiljon qizi,  
Andijon davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi  
mohiguljalolova1991@gmail.com*

## **HARBIY HAMDA HARBIY BO‘LMAGAN OILALARDA ROLLAR TAQSIMOTINING SPETSIFIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oila barqarorligida oiladagi rollar taqsimotining o`rni va uning harbiy hamda harbiy bo`lmagan oilalarda o`ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Harbiy xizmatchilar oilasida bu jarayon o`ziga xos bo`lib, ijtimoiy-harbiy omil tarzida harbiy xizmatning shart-sharoiti, o`z kasbidan qoniqqanlik, oila va kasbiy muhit balansini salqash, xo`jalikni boshqarish tartibi, farzandlar ta’lim-tarbiyasida hayotiy strategiyalarni belgilash muhim. Qolaversa, oilaviy munosabatlarning harbiy xizmatga ta’sir darajasi boshqa omillarga qaraganda yuqoriyoq, shu sababli, oilaviy munosabatlarning silliq kechishi harbiy xizmat sohasi uchun manfaatlidir. Maqolada oiladagi vazifalar taqsimoti, erkaklarning oiladan, ayolidan kutuvlari haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** oila, er-xotin munosabatlari, oiladagi hissiy muhit, harbiy kasbiy faoliyat, oiladagi rollar, oiladagi kutuvlar, oilaning moddiy ta’minati, oila begi-bekasi.

### **СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ РОЛЕЙ В ВОЕННЫХ И НЕВОЕННЫХ СЕМЬЯХ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль семейных ролей в стабильности семьи и её особенности в военных и невоенных семьях. В семье военнослужащих этот процесс уникален, как социально-военный фактор, условия военной службы, удовлетворённость своей профессией, баланс семейной и профессиональной среды, порядок ведения хозяйства, выбор жизненной стратегии в воспитании и образовании детей имеет важное значение. Кроме того, степень влияния семейных отношений на военную службу выше других факторов, поэтому плавное течение семейных отношений полезно для сферы военной службы. В статье рассматривается распределение задач в семье, ожидания мужчины от семьи и женщины.

**Ключевые слова:** семья, супружеские отношения, эмоциональная атмосфера в семье, военно-профессиональная деятельность, роли в семье, ожидание от семьи, материальное обеспечение семьи, роль хозяйки/хозяина в семье.

### **SPECIFIC FEATURES OF THE DISTRIBUTION OF ROLES IN MILITARY AND NON-MILITARY FAMILIES**

**Abstract.** This article examines the role of family roles in family stability and its characteristics in military and non-military families. In a family of military personnel, this process is unique, as a socio-military factor, the conditions of military service, satisfaction with one's profession, the balance of the family and professional environment, the order of housekeeping, the choice of life strategy in the upbringing and education of children is important. In addition, the degree of influence of family relationships on military service is higher than other factors, so the smooth flow of family relationships is beneficial for the field of military service. The article examines the distribution of tasks in the family, the expectations of a man from family and a woman.

**Keywords:** family, marital relations, emotional atmosphere in the family, military-professional activity, roles in the family, expectations from family, financial support of the family, the role of the householder in the family.

**Kirish.** Jamiyatimizda harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlash [6], ularning kasbiy faoliyati samaradorligini yanada oshirish, harbiy hodimlarda oila va oilaviy munosabatlar haqida ijtimoiy-psixologik bilimlarni shakllantirish asosida zamonaviy, namunali harbiy oilalarni qaror toptirish kabi muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Har qanday oilaning saqlanishini ta’minlovchi motivlar, er-xotinlarning rolli ustanovkalari, ular o`rtasidagi fikrlarning nomutanosibligiga olib keluvchi omillarni, ularning hamkorligini ifodalovchi holatlardir. Shu maqsadda Y.E.Aleshina, L.Y.Gozman, E.M.Dubovskayalarning “Oiladagi nikoh rollarining taqsimlanishi”ni diagnostika qilishga mo’ljallangan ixcham metodikadan[8] foydalandik. Bu metodikadan

o`tkazishdan maqsad, oilalarda rollar taqsimotining oila mustahkamligiga ta`sirini aniqlash, shuningdek harbiy oila va harbiy bo`lmagan oilalardagi rollar taqsimotida o`ziga xoslikni aniqlashdan iborat.

**Natijalar va mulohazalar.** Psixologiya fanlari doktori, professor S.V.Kovalev oilaning eng muhim xususiyatlari muvofiq oilaviy rollar [2] tizimini ajratib ko`rsatadi va turmush o`rtoqlarning funksional va rol uyg`unligi nikoh ittifoqining barqarorligi va farovonligining asosi deb hisoblaydi. Ushbu rollarga quyidagilar kirdi: oilaning moddiy ta'minotchisi, oilaning begi-bekasi, qarindoshlararo munosabatlarga mas`ul, oilaviy submadaniyat tashkilotchisi, oilada ko`ngilochar o`yinlar tashkillovchi, oilaviy psixoterapevt, sevimli mahbuba, ota-on-a-tarbiyachi [3].


Harbiylar oilasida oiladagi munosabatlarni o`rganish maqsadida o`tkazgan “Oiladagi rollar taqsimoti” so`rovnomamiz natijasiga ko`ra, oiladagi vazifalar va rollar taqsimoti oddiy oilalarga nisbatan farqli natijalar bilan ajralib turdi. Oilada moddiy ta'minotchi – erkak zimmasida (ayollarning aksar qismi uy bekasi), ammo farzand tarbiyasi, oilaviy submadaniyat tashkilotchisi, qarindoshlararo munosabatlarga mas`ullik, oiladagi katta-kichik harajatlarni qilish ayollar zimmasida ekanligi aniqlandi. Qolaversa, tadqiqot ishida erkak sinaluvchilarning oiladagi vazifalar taqsimotiga ko`ra, harbiy va harbiy bo`lmagan oilalar o`rtasidagi tafovutlarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlar kuzatildi (1-jadval).

#### 1-jadval.

**Harbiy bo`lgan (n=98) va harbiy bo`lmagan (n=92) oila vakillari erkaklar natijalarining solishtirma qiymatlari**

№	Shkalalar nomi	Harbiy erkaklar		Harbiy bo`lmagan erkaklar		t t	Ishonch qiymat
		O`rtacha qiymat	Standart og`ish	O`rtacha qiymat	Standart og`ish		
1	Farzandlarning tarbiyasi	2,47	,52	2,31	,521	,198	,029
2	Oilada hissiy muhit	2,32	,58	2,19	,44	,732	,085
3	Oilaning moddiy ta'minoti	2,25	,65	2,19	,61	667	,506
4	O`yin-kulgini tashkil etish	1,98	,53	1,94	,55	420	,675
5	Oila begi va bekasi	1,97	,48	1,89	,52	,096	,274
6	Jinsiy munosabatdagi sheriklik	1,94	,47	1,99	,54	,740	,460
7	Oilada submadaniyat tashkilotchisi	1,86	,52	1,89	,55	,428	,669

Olingan natijalar shuni ko`rsatdiki, farzandlarning tarbiyasi shkalasi ( $t=2,198$ ;  $p<0,01$ ), oilada hissiy muhit ko`rsatkichi - ( $t=1,732$ ;  $p<0,05$ ), oilaning moddiy ta'minoti - ( $t=,667$ ;  $p<0,05$ ), o`yin-kulgini tashkil etish - ( $t=,420$ ;  $p<0,05$ ), oila begi va bekasi - ( $t=1,096$ ;  $p<0,05$ ), jinsiy munosabatdagi sheriklik - ( $t=,740$ ;  $p<0,05$ ), oilada submadaniyat tashkilotchisi - ( $t= ,428$ ;  $p<0,05$ ). Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, “farzandlar tarbiyasi”, “oilada hissiy muhit”, “oila begi va bekasi” shkalalarida sinaluvchilar ya’ni harbiy va harbiy bo`lmagan erkaklarda ishonchli tafovvutlar kuzatildi(1-rasm).



**1-rasm. “Oiladagi rollar taqsimoti” metodikasining harbiy hamda harbiy bo`lmagan erkak respondentlar natijalarida yuqori farqli ko`rsatkichlari**

Haqiqatan ham, harbiy kasbiy faoliyat bilan band bo`lgan erkaklar kasb taqozosiga ko`ra, ko`p vaqtini oiladan tashqarida o`tkazadi. Farzandlari tarbiyasiga nisbatan kam vaqt ajratishlari ma`lum. Bu holat nafaqat oilada farzand tarbiyasi balki hissiy muhit hamda oiladagi rollarni, vazifalarni bajarishda ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. Sinaluvchilarimiz bilan suhbat vaqtida harbiy erkaklar, “Ertalab erta ishga ketaman, farzandlarim uxbayotgan bo`ladilar, ishdan qaytunimgacha ham uxbay qolgan bo`ladilar, uyqularini buzgim kelmaydi”, “Farzandlarim bilan faqat dam olish kunlari vaqt o`tkaza olaman”, degan fikrlarni berdilar. Harbiy oilalarda farzandlar qarovi o`z navbatida ona (ayol) zimmasida ko`proq bajarilishini kuzatamiz.

Yana bir ko`rsatkich – “Oiladagi hissiy muhit” (psixoterapevtlik roli) zamonaviy oilalarda eng qiziqarli va muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuni ta`kidlash kerakki, uning paydo bo`lishi oiladagi vazifalarini tubdan o`zgartirish natijasida yuzaga keladi, bunda asosiy xususiyatlardan biri oila a`zolarining qo`llab-quvvatlash, himoya qilish va shaxsiy qulayliklarga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Erkak sinaluvchilarning “oilada hissiy muhit” shkalasida farqlarning kuzatilishida harbiy erkaklar ko`proq ayollaridan kutishlarini ta`kidladilar. Harbiy erkaklarning natijasi nisbatan avtonomiyaga, ya`ni turmush o`rtoqlarining ularni xohish-irodasi, qiziqishlariga, ehtiyojlariga muvofiqlashishlaridan dalolat beradi. Harbiy erkaklar, “Ishdan charchab kelaman, uyg`a kelganimda ayolim, go`zal, toza-pokiza va samimiyl tabassum bilan kutib olishini istardim” yoxud aksineha “Yaxshi hamki ayolim yonimda, ayolim va farzandlarim bilan gaplashganimda, charchoqlarim yoziladi”, degan fikrlarni bildirganlar. Yana ba`zi bir harbiy erkaklar, “Ishga yaxshi borib keling”, “Yaxshi borib keldingizmi?” kabi so`zlar bilan kutib olish, narsani darrov qo`ldan olish, turmush o`rtog`ini e`tibor bilan kutib olgan ayol o`z navbatida eri uchun eng yaqin va sevimli ayol bo`la olishini ta`kidlaganlar. Harbiy bo`lmagan erkaklar esa bu rolni katta ahamiyatli ekanligini, uni oila ahzolari tomonidan amalga oshirish darajasi turmush o`rtoqlarning nikohdan qoniqishlari bilan chambarchas bog`liq, deb hisoblaydilar.

Yana bir ko`rsatkich – “Oila begi va bekasi”da harbiy va harbiy bo`lmagan erkaklarda farqli tafovutlarni ko`rsatdi. Bunga sabab harbiy erkaklar oilaning boshi sifatida ko`proq moddiy ta`minot bilan bog`laganlar. Oilani moddiy ta`minlash ular uchun “oila begi” statusini olish uchun yetarli. An`anaga ko`ra, bu rolga oziq-ovqat xarid qilish va ovqat tayyorlash, uyni qulay, tartibli va toza saqlash kiradi. Garchi zamonaviy oilalarda qarashlar sezilarli o`zgargan bo`lsa-da, an`ananaviy oilalarda bu rol ayolga tegishli. So`rovlarga ko`ra, harbiy bo`lmagan erkaklarning 70 foizi bu rolni xotin va er o`rtasida teng taqsimlash kerakligini tan olishgan.

“Oilaning moddiy ta`minoti”, “o`yin-kulgini tashkil etish”, “jinsiy munosabatdagi sheriklik”, “oilada submadaniyat tashkilotchisi” shkalalari bo`yicha har ikki harbiy va harbiy bo`lmagan erkak vakillarida o`rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi, rollarni amalga oshirishda qarashlar adekvat baholadilar. Respondentlarda xoh u harbiy, xoh u boshqa kasb egasi bo`lsin, oiladagi moddiy ta`minot masalasida erkaklar dominantligini belgiladilar.

Oilaviy o`yin-kulgungi tashkil etish – bu shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda faol dam olish, ma`naviy qadriyatlarni oshirish va oila jamoasining barcha a`zolarining shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan, oila a`zolarini emotSIONAL birlashtiradigan faoliyatidir. Qolaversa birgalikda dam olish va o`yin-kulgu oiladagi mikroiqlimni yaxshilaydi, bolalar va ota-onalar o`rtasidagi ishonchli munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo`shadi[5]. Shu nuqtayi nazardan harbiy va harbiy bo`lmagan erkaklarning qarashlarida sezilarli farqlarning mavjud bo`lmasligi quvonarli, zero oiladagi pozitiv va sog`lom muhit baxtli oila garovidir.

Oilaning mustahkam bo`lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch-totuv yashashlarida ularning o`zaro qovushuvi muhim rol o`ynaydi. Bu albatta, ularning o`zaro munosabatida shubhasiz o`z izini qoldiradi. Bu o`rinda shuni ham aytib o`tish joizki, bizni bolalikdan qolgan o`ziga xos tarbiyamiz jinsiy munosabatlar, jinsiy muloqotga noma`quluyat, go`yoki axloqsiz hodisadek qarashga majbur qiladi. Ko`p juftliklar qarama - qarshi jinslar o`rtasidagi munosabatlarning bu sohasida tegishli bilimga ega emasligidan aziyat chekishadi, bu borada ochiq suxbat qurushdan qochadilar. Bu esa o`z navbatida juftliklar o`rtasidagi munosabatlarning uyg`unligiga salbiy ta`sir qilishi mumkun. Qadimiy, afsonaviy Sparta qonunchiligidagi er-hotinlarni ishqiy munosabatlarning sovuqlashib ketishidan saqlash maqsadida ularning muloqotlari imkon qadar chegaralab qo`yilgan. Unga ko`ra erlar xotinlaridan ajratilgan holda, ya`ni er va xotin boshqa -boshqa yashaganlar va ular faqat ovloq joylardagina, “begona ko`zlardan” yashirin tarzda uchrashib turishlari mumkin bo`lgan. Bu tadbir nafaqat Sparta jangchilari o`zlarining jangovar ruhlarini yo`qotmasligi, o`zlarining yosh xotinlari bilan mashg`ul bo`lib qolmasliklari uchungina emas edi[9]. Bunda “ta`qiqlangan meva” effektidan foydalanilgan. Uchrashishlarning qiyinligi, xuddi tuzsiz taomga tuz, ziravorlar qanchalik maza bergenidek, er-xotinlarning bir-birlariga hissiy yaqinligini sezilarli darajada kuchaytiradi, nikoh rishtalarini mustahkamlaydi.

Erkak sinaluvchilarning “jinsiy munosabatdagi sheriklik” shkalasi natijalariga to`xtaladigan bo`lsak qarashlardagi tafovutning yo`qligini jinsiy munosabatlar har bir erkak hayotida katta rol o`ynashi, bu ularning jismoniy va ruhiy muvozanatiga bevosita bog`liqligi bilan izohlasak bo`ladi.

Oilalarda rollarning taqsimlanishini G`arb va sharq mamlakatlari misolida tahlil qiladigan bo`lsak, Shvetsiyada turmush o`rtoqlar barcha xarajat va majburiyatlarni teng ravishda bo`ladilar, Germaniyada ayolning yarim kuni professional faoliyatiga, qolgani esa uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug`ullanishga qaratilgan. Xitoyda esa “Bo`lingan nikoh” («Раздельный брак»)[10] tendensiyasi mavjud bo`lib, unga ko`ra turmush o`rtoqlar kelishilgan tarzda bir-birlarini haftada bir necha marta ko`rishadi, farzandlarning biri otasi, ikkinchisi onasi bilan yashaydi. Biroq, aksariyat Yevropa va Amerika davlatlarida sheriklik oilaviy modeli[4] hukmron bo`lib, unda turmush o`rtoqlar o`zlarining oilaviy va ota-onas vazifalarini teng ravishda taqsimlaydilar. Oilada, ko`p daromad keltiruvchi turmush o`rtoq ishlaydi, hatto u ayol kishi bo`lsa ham. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilish mumkinki, oilada rollar taqsimotining o`zgarishi o`z-o`zidan paydo bo`ladigan hodisa emas. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o`zgarishlar oilalarda ijtimoiy rollarning o`zgarishiga olib keldi.

**Xulosa.** Harbiy xizmatchilar oilasining oiladagi rollar taqsimotida o`ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- farzandlarning ta`lim-tarbiyasiga asosiy ishtirokchi ayol mas`ul ekanligi;
- moddiy ta`minot oilada erkak zimmasida ko`proq ekanligi;
- oiladagi hissiy muhitni tashkillash ayollar tomonidan bajarilishini kutilishi;
- nikohdan qoniqish darajasiga ko`ra, harbiy xizmatchilarning oila ahzolarining qoniqishi har xil.

Erkaklar ayollarga nisbatan ko`proq qoniqadilar[7].

- Er va xotin o`rtasidagi muloqot formasida avtoritar munosabat tarzining dominantlik qilishi(komandirlilik stilida);

- nikohdagilarning oilada yuzaga keladigan barcha muammolar yuzasidan er-xotin o`zlar hal etishlari;

Oilaviy munosabatlarda xoh u harbiy xoh u harbiy bo`lmanan oila bo`lsin, er-xotinning e`zozlanishi, konfliktlarning oldini olishda, oilada barqarorlik hukm surishida oiladagi rollar taqsimoti har ikki tomon uchun ijobjiy taqsimlanishi muhim. Zero hissiy-emotsional, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, huquqiy, siyosiy savodxonlik, «birgalik» effekti, hissiy-psixologik uyg`unlik, tenglik, o`zaro bir-birlarini tan olish, yon berish ko`nikmalari oila barqarorligining asosiy omilidir.

### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Хавфсизлик кенгашининг йигилишидаги маъruzасидан. Тошкент. <https://www.Gazeta.uz/>.10.01.2018.
2. Кондрашова Е.А. «Распределение ролей в семье и семейные конфликты»// ТРУДЫ СГА. Выпуск № 6, 2011, 68 с.
3. Жалолова Моҳигул Одилжон қизи. (2023). Дисфункциональное распределение ролей в семье и его последствия. Европейский журнал педагогических инициатив и образовательной практики, 1(6), 15-18. Извлечено из <https://europeanscience.org/index.php/4/article/view/269>.
4. Оила психологияси: Акад.лицей ва касб-хунар коллежлари ўкувчилари учун ўкув кўл./ Шоумаров Ф.Б., Найдаров И.О., Соғинов Н.А. ва бошq.; Ф.Б.Шоумаровнинг таҳрири остида; Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-маҳсус таълим вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 118 б.
5. Рустамова Шахзода Мариповна (2023). Формирование положительного отношения к мужчинам при обучении девочек. Научный журнал Intent Research, 2(5), 92-99. Извлечено из <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/102>.
6. Жалолова Моҳигул Одилжон қизи. (2023). Социальная среда в семье военнослужащего и распределение ролей в ней. // Научный журнал Intent Research, 2(5), 112-118. Извлечено из <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/105>.
ifodalanib turishi, keskin salbiy emotsiyalar (KSE) esa 29,41 foizida ifodalanishi, shuningdek, xavotir – tushkunlik hislari indeksi (XTX) 23,52 foizida ifodalanishi kuzatildi. O’g’il bolalarda esa, ijobiy emotsiyalar indeksi (IEI) 25% da kuchli Ifodalanishi, keskin salbiy emotsiyalar (KSE) esa 18,34 foizida kuchli ifodalanishi, shuningdek, xavotir – tushkunlik hislari indeksi (XTX) 11,66 foizida ifodalanishi kuzatildi.

**3-jadval.**

**Differentsial emotsiyalar shkalalari ko’rsatkichlar (jinslar bo’yicha)**

Shkalalar	Emotsional his-tuyg’ular	Qizlar (N=68)	O’g’il bolalar (N=60)
<b>Ijobiy emotsiyalar indeksi (IEI)</b>	Kuchsiz	23,5%	21,1%
	O’rta meyona	27,94%	28,33%
	Ifodalanib turadi	32,35%	23,66%
	Kuchli	16,21%	25%
<b>Keskin salbiy emotsiyalar (KSE)</b>	Kuchsiz	20,15%	28,33%
	O’rta meyona	34,82%	30%
	Ifodalanib turadi	29,41%	23,33%
	Kuchli	15,7%	18,34%
<b>Xavotir – tushkunlik hislari indeksi (XTX)</b>	Kuchsiz	22,13%	30%
	O’rta meyona	32,35%	33,34%
	Ifodalanib turadi	23,52%	25%
	Kuchli	22%	11,66%

**Xulosa.** Bugun insoniyat hayotida global o’zgarishlar ro’y berayotgan davrda, sharoitlar, vaziyatlar, obyektlar insonlarni cho’chitishi yoki xavotirga solishi tabiy xoldir. Boshqa fundamental hissiyotlardan ko’ra xavotirlanishni ilmiy o’rganishning zaruratini shu bilan izohlash mumkin. Psixologiyada xavotirlanishni o’rganishga qaratilgan tadqiqotlar ushbu hissiyotni yanada kengroq tushunish imkonini beradi. Shaxs xavotirlanishini korrektsiyalash zarurati shundan iboratki, turli yoshdagi, jinsdagi kishilarda kuchli xavotirlanish xususiyatlari kuzatiladi va bu o’z navbatida insonni psixik jihatdan zo’riqishiga olib keladi. Shaxsning yuqori xavotirlanishiga xos xususiyatlarini korrektsiyalab borish orqali turli salbiy oqibatlarning oldi olinadi. Ta’kidlash joizki, talabalarda salbiy emotsiyalarning namoyon bo’lishi ularning bilimlarni o’zlashtirishi va kasbiy shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishini hisobga olib, salbiy emotsiyalar jumladan, xavotir – tushkunlik hislari indeksi (XTX) ustun bo’lgan talabalar bilan xavotir va tushkunlikni pasaytirishga qaratilgan psixokorreksion ishlarni olib boorish lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Анохин, П. К. Эмоции под ред. В.К.Вилюнаса, Ю. Б. Гиппенрейтер // Психология эмоций. — М., 1984. — 486 с.
2. Изард Кэррол Э. Психология эмоций = The Psychology of Emotions / Пер. с англ. А. М. Татлыбаевой. СПб.: Питер, 2000. — 464 с
3. Прохоров А.О. Технологии психической саморегуляции. — Харьков: Гуманитарный Центр, 2021.
4. Сосновикова, Ю. Е. - Возрастной аспект психических состояний Санкт-Петербург // Психические состояния : [хрестоматия] / сост. Л.В. Куликов. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – С. 99-104.

*Orziqulova Charos Raxmatovna,  
Renessans ta’lim universiteti Pedagogika-psixologiya  
kafedrasi katta o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi*

## O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘Z-O‘ZIGA MUNOSABAT OMILLARI BO‘YICHA TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

**Annotatsiya.** O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga munosabatning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va bu davrdagi oliy insoniy hislar hamda ular bilan emotsiyaning uzviy bog‘liqligini izohlashga harakat qilingan bo‘lib, tahlillar tashkil etilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** etnopsixologik, emotsiyal, simpatiya, yozilmagan qonuniyatlar, bag‘rikenglik, do‘stlik, sevgi, fizioanatomiya, shaxs, munosabat, ishonch, sadoqat.

### АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ ФАКТОРОВ САМООТНОШЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ

**Аннотация.** Предпринята попытка объяснить социально-психологические особенности отношения к себе в подростковом возрасте и неразрывную связь между высокими чувствами и эмоциями человека в этот период. Процесс интерпретации основан на результатах предварительно организованных исследований.

**Ключевые слова:** этнопсихологический, эмоциональный, симпатия, неписаные законы, физиоанатомия, личность, отношение, доверие, лояльность.

### ANALYSIS OF RESEARCH RESULTS ON SELF-ATTITUDE FACTORS IN ADOLESCENT PERIOD

**Abstract.** An attempt was made to explain the social and psychological characteristics of self-relation in adolescence and the inextricable connection between higher human feelings and emotions in this period, and the analyzes were based on the results of the preliminary studies organized.

**Keywords:** ethnopsychological, emotional, sympathy, unwritten laws, physioanatomy, personality, attitude, trust, loyalty.

**Kirish.** Jahonda inson shaxsiyuksalishining asosiy omillari orasida uning tug‘ilgan oilasi, ma’lumot savyiasi, ijtimoiy maskanlari ta’siridan ham ko‘ra, o‘smirlik davridan boshlab, o‘z-o‘zini baholashda o‘smirlarning emotsiyal hislarini shaxs psixologiyasiga ta’sir darajasining ortishi, o‘smir hayotining o‘zgarishi masalalari dolzarb ahamiyatlidir. O‘smirning o‘z-o‘ziga munosabati, o‘z-o‘zini anglashida hissiy tarkibiy qism muhim bo‘lib, bir tomondan o‘z-o‘zini bilishga tayanadi, ikkinchi tomondan, o‘z-o‘zini anglashni shakkantirish uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratadi hamda o‘z-o‘zini namoyon qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini beradi. Shuning uchun, o‘smirlik bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni boshidan kechirib, o‘z xulqida «keskinlik», «o‘jarlik», «xavotirlanish», «ichki qo‘rquv» sindromlarini birvarakayiga namoyon etishadi [1].

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama y yetuk, komil insonni tarbiyalash, an’anaviy qadriyatlar asosida tarkib toptirish bo‘yicha zarur huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratildi: «...yagona davlat siyosatini yoshlar kelajagiga yo‘naltirish orqali ijtimoiy himoyaga erishish, ularning salohiyatini qo‘llab quvvatlash, kelajagi uchun o‘zini o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda...»[2]. Bu esa, o‘smirlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan manbalarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun zarur imkoniyatlar yaratilganligi hamda amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda o‘smirlardagi emotsiyal hislar va antropometrik belgilarining namoyon bo‘lishini amaliy jihatdan o‘rganish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

-o‘smirlarda emotsiyal hislar va antropometrik belgilarining namoyon bo‘lishi bilan o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatida «ishonch», «dadillik», «doimiy e’tiborda bo‘lish», «yulduzlik»ning destruktiv hamda konstruktiv natijasini shaxsiyuksalisharga bog‘liq ravishda o‘zaro munosabatlariga integratsiyasi tufayli o‘zidan qoniqish hissiga ta’sir etishini isbotlash;

-o'smirlarda emotsional hislari va antropometrik belgilarining o'z-o'ziga nisbatan emotsional munosabatini barqarorlashtirish, o'z-o'ziga beradigan bahoni adekvatlashtirish, «keskinlik», «o'jarlik», «xavotirlanish», «ichki qo'rquv», stressga chidamlilik sifatlari, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhimligiga ko'ra ular uchun manzilli psixokorreksion dasturni qo'llash samarali natijani ta'minlashi asoslangan.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, o'smirlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati ularning psixologik o'ziga xos bo'lgan avtonomiyalari bilan bog'liqidir. O'smirlik davri avtonomiyalari ularning tashqi ko'rinishi, makoniy va shaxsiy manzillari va o'zini shaxsiy iqtisodiy alohidaligini o'ziga nisbatan "ego"sinu ta'kidlash orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun tadqiqot ishimizda o'smirlarning emotsional hislari va antropometrik belgilarining o'z-o'ziga nisbatan munosabatiga psixologik ta'sirini o'rganishga qaratilgan maxsus psixologik metodikalardan foydalandik.

Tadqiqot natijalari tahlilini hudud bo'yicha qishloq va shaharda istiqomat qiluvchi o'smirlar kesimida amalga oshirishga harakat qildik, yani, ushbu respondentlarning 158 nafari (53%) qishloqda istiqomat qiladigan va 142 nafar (47%) respondent shaharda istiqomat qiluvchilarni tashkil etdi.

Respondentlar jins bo'yicha taqqoslanganda 137 nafar o'smirlik davridagi yigit respondentlar va 163 nafar o'smirlik davridagi qiz respondentlar ishtirot etishdi.

Tadqiqotimiz natijalarini amalga oshirishda dastavval olingan natjalarning tavsiflovchi statistik tahlili amalga oshirildi. Bunga ko'ra S.R.Panteleevning "O'z-o'ziga munosabatni o'rganish metodikasi" bo'yicha olingan natjalarning tavsiflovchi statistik tahlili (*1-jadvalda*) keltirilgan.

#### 1-jadval.

#### Tadqiqot metodikalarining tavsiflovchi statistik tahlili (N=300)

Ko'rsatkichlar	N	Minimal qiymat	Maksimal qiymat	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Yaqinlik	300	2,00	13,00	6,1133	1,90242	,470	,118
O'ziga ishonch	300	2,00	13,00	7,7200	2,14404	-,538	,410
O'z-o'zini boshqarish	300	2,00	12,00	7,0867	2,54836	-,128	-,792
O'ziga xos munosabat	300	,00	11,00	5,9700	1,86925	,090	,248
O'zini qadrlash	300	3,00	14,00	7,5167	2,29651	,385	-,106
O'z-o'zini qabul qilish	300	1,00	12,00	7,1167	2,37385	,031	-,444
O'z-o'zini bog'lash	300	2,00	13,00	6,7067	1,94763	,153	,076
Ichki ziddiyat	300	1,00	15,00	8,7100	3,07094	-,333	-,647
O'zini ayplash	300	,00	11,00	6,1933	2,50937	-,177	-,754


Olingan natjalarni ko'rsatkichlar kesimida diagramma va histogrammalarda izohlashga harakat qildik. Ushbu natijalar tahlilidan quyidagilar aniqlandi:

Yaqinlik shkalasi bo'yicha respondentlardan olingan minimal 2 ballni tashkil etgan bo'lsa, maksimal 13 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo'yicha o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 6,1133 ni, standart og'ish ko'rsatkichi 1,90242 ni tashkil etdi.  $6,1133 \pm 1,90242$ . Assimetriya ( $A=,470$ ) va eksess ( $E=,118$ ) ni tashkil qildi. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi. Yaqinlik shkalasi ikkita tendensiyadan birining ustunligini belgilaydi, ya'ni, muvofiqlik, ijtimoiy ma'qullah uchun aniq motivatsiya yoki tanqidiylik, chuqur o'zini o'zi anglash, ichki halollik va ochiqlik namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natjalariga ko'ra, yaqinlik shkalasi bo'yicha respondentlarning 66 nafarida aniq himoya xulq-atvorining mayjudligi va shu bilan bирgalikda umumiyl qabul qilingan xulq-atvor standartlariga va atrofdagi odamlar bilan munosabatlarga rioya qilish istaginiq mayjudligi bilan xarakterlandi. Aytish mumkinki, bunday o'smirlarda o'zi bilan ochiq munosabatlardan qochishga intilish kuzatilishi mumkin. Buning sababi, fikrlash qobiliyatining yetishmasligi, o'zini yuzaki ko'rish yoki o'zini olib berishni, shaxsiy muammolar mavjudligini tan olishni ongli ravishda istamasligi bilan izohlanadi. Yaqinlik shkalasi bo'yicha 217 nafar respondentlarda o'ziga nisbatan tanlangan munosabatning mavjudligi aniqlandi. Ya'ni, ba'zilarida psixologik himoya mexanizmi sifatida muammoni yengib o'tish, boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarda yangilikka intilish tendensiyasining mavjudligi, ayniqsa, tanqidiy vaziyatlarda tahlil qila olish ko'nikmasini

egallashni ichidan his etishi kuzatiladi. Respondentlarning 17 nafarida esa, ichki faollikning namoyon bo‘lishi va buni his qila olishi, o‘smirning o‘zi bilan munosabatlarining ochiq ekanligi, o‘zini chuqur anglashining namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunda o‘smir o‘zini tanqid qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi va buni o‘zi amalga oshiradi. Odamlar bilan munosabatlarda asosiy e’tiborni vaziyatga, sodir bo‘layotgan voqealarga va o‘z qarashlariga qaratadi.

O‘ziga bo‘lgan ishonch shkalasi bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etgan respondentlardan olingan minimal ko‘rsatkich 2 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal 13 ballni tashkil etdi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 7,7200 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 2,14404 ni tashkil etdi.  $7,7200 \pm 2,14404$ . Assimetriya ( $A=-,538$ ) va eksess ( $E=-,410$ ) ni namoyon etdi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.



**1-rasm. O‘smirlarda o‘ziga ishonch hissining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi**

O‘ziga bo‘lgan ishonch shkalasi o‘zini hurmat qilishni, o‘zini ishonchli, mustaqil, kuchli irodali va ishonchli shaxs sifatida hurmat qilishga sabab bo‘la oladigan xususiyatning mavjud ekanligini namoyon qiladigan munosabatni ochib berdi. Respondentlarning 188 nafarida o‘ziga bo‘lgan ishonchni, o‘zining “men” kuchini his qilishni, muloqotda yuqori jasoratning namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu respondentlarda muvaffaqiyat motivi ustunlik qilishi, o‘zini hurmat qilishi, o‘zidan, tashabbuslari va yutuqlaridan mammun bo‘lishi, ko‘plab hayotiy masalalarni hal qilishda o‘zining malakasi va qobiliyatini his qilishi bilan xarakterlanadi. Haqiqatdan, o‘smirlar davriga xos psixologik xususiyatlarida o‘ziga ishonch, o‘zini tan oldirish “kattalik” hissini boshqa yosh davrlariga nisbatan keskin ifodalanishi ilmiy adabiyotlarda tahlil qilingan [3]. Bu tipdagи o‘smirlar o‘z navbatida maqsadga erishish yo‘lidagi to‘sqliarni yengib o‘tishga intiladi, bu esa, o‘z navbatida muammolar ularga yuzaki ta’sir qilishini, muammoli vaziyatlarni qisqa vaqt ichida boshdan kechirishini bildiradi. Respondentlarning 98 nafarida o‘ziga ishonchning o‘rta darajada ekanligi aniqlandi, ya’ni, odatdagи vaziyatlarda samaradorlikni, o‘ziga ishonchni, tashabbusning muvaffaqiyatiga yo‘naltirilganlik ularga xos bo‘lgan xususiyatdir. Bunday o‘smirlarda, qiyinchiliklarning kutilmagan ko‘rinishi namoyon bo‘lganda ularda o‘ziga ishonchning pasayishi va kuchli xavotirlanishning namoyon bo‘lishi bilan kechishi mumkinligi ham kuzatiladi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 14 nafarida o‘z qobiliyatidagi noaniqlik, o‘z qobiliyatlariga shubha bilan bog‘liq o‘ziga nisbatan ishonchsizlikning mavjudligi aniqlandi. Bunday o‘smirlarda o‘z qarorlariga ishonmaslik, ko‘pincha, qiyinchiliklar va to‘sqliarni yengish, maqsadlariga erishish qobiliyatiga shubha bilan qarash, odamlar bilan aloqa qilishdan qochish, o‘z muammolariga chuqur botish, ichki taranglikning namoyon bo‘lishi bilan boshqa tengdoshlaridan farq qildilar.

O‘z-o‘zini boshqarish shkalasi bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etgan respondentlardan olingan minimal ko‘rsatkich 2 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal 12 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 7,0867 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 2,54836 ni tashkil etdi.  $7,0867 \pm 2,54836$ . Assimetriya ( $A=-,128$ ) va eksess ( $E=-,792$ ) ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

S.R.Panteleev fikricha, o‘z-o‘zini boshqarish shkalasi shaxs faoliyatining asosiy manbai bo‘lib, u olingan natijalar va yutuqlarida, shaxsning rivojlanish manbaini aks ettiradi. O‘z “men”i yoki tashqi sharoitlar ustunligini ham ta’kidlashga sabab bo‘ladi. Olingan natijalarga ko‘ra, respondentlarning 137 nafarida o‘z-o‘zini boshqarish shkalasi bevosita o‘zini rivojlanishini va muvaffaqiyatlarining regulyatori deb hisoblaydilar.

S.R.Panteleevning “O‘z-o‘ziga munosabatni o‘rganish metodikasi” bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rinadiki, o‘smirlar o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini barcha faoliyatini muvofiqlashtiradigan va boshqaradigan, odamlar bilan xatti-harakatlari va munosabatlarni tartibga soluvchi ichki yadro sifatida his qiladi, bu ularga o‘z xatti-harakatlari va boshqalar bilan paydo bo‘ladigan munosabatlarning oqibatlarini oldindan aytishga imkon beradi. Ularda o‘zini tashqi ta’sirlarga qarshi kurasha olish, turli ziddiyatlarga qarshi turishga qodirligini his qilishi bilan ham xarakterlanadi. Aytish kerakki, bu ularda o‘ziga nisbatan hissiy reaksiyalar va his-tuyg‘ularni nazorat qila olishga ham ta’sir ko‘rsatadi.

O‘ziga xos munosabat shkalasi bo‘yicha tadqiqotda ishtirot etgan respondentlardan olingan minimal qiymat ko‘rsatkichi 0 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal qiymat 11 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 5,9700 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 1,86925 ni tashkil etdi.  $5,9700 \pm 1,86925$ . Assimetriya  $A=,090$  va eksess  $E=,248$  ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz o‘ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.


Aytishi mumkinki, munosabatlarning subyektiv idroki o‘smirlarning 61 nafarida o‘zini boshqa odamlar tomonidan qabul qilingan deb o‘ylashini ko‘rsatadi. O‘smirlarning psixologik xususiyatlarida boshqalar tomonidan sevilish, o‘z shaxsiy va ma’naviy fazilatlari, xatti-harakatlari, guruh me’yorlari va qoidalariiga rioya qilganligi uchun qadrlashlarini his qilish istagi yuqoridir. Bu toifa o‘smirlar o‘zlarini xushmuomalalik, boshqalar bilan muloqot qilish uchun hissiy ochiqlik, biznes va shaxsiy aloqalarni o‘rnatish qulayligini his qilishi bilan ham xarakterlanadi.

O‘smirlarning 220 nafarida o‘ziga xos munosabat normada bo‘lib, ularda boshqalarning o‘ziga bo‘lgan munosabatini tanlab idrok etish mavjud. Ularning nuqtayi nazariga ko‘ra, boshqalarning ijobjiy munosabati faqat ma’lum fazilatlarga, muayyan harakatlarga taalluqlidir, boshqa shaxsiy ko‘rinishlar esa ularni ranjitishi va rad etishga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Respondentlarning 19 nafarida esa o‘zida boshqa odamlarga nisbatani hurmatini uyg‘otishga qodir emaslik, ularni qoralash, boshqalardan ma’qullah quvvatlashni kutmasliklari namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

O‘zini qadrlash shkalasi bo‘yicha olingan natijalarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, tadqiqotda ishtirot etgan respondentlardan olingan minimal qiymat ko‘rsatkichi 3 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal qiymat 14 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 7,5167 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 2,29651 ni tashkil etdi.  $7,5167 \pm 2,29651$ . Assimetriya  $A=,385$  va eksess  $E=-,106$  ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz o‘ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

O‘z-o‘zini qadrlash shkalasi o‘z shaxsiyatining qadr-qimmatini va boshqalar uchun o‘z “men”ining qadr-qimmatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, respondentlarning 150 nafari o‘zining ma’naviy salohiyatini, ichki dunyosining boyligini yuqori baholaydigan o‘smirlardan iborat ekanligi tadqiqotda kuzatildi. Bu toifa o‘smirlarda o‘zini shaxs sifatida qabul qilishga va o‘ziga xosligini yuksak qadrlashga intilish mavjud bo‘lib, bu esa uning atrof-muhit ta’siriga qarshi turishga, o‘ziga ishonchi, tanqidni oqilona qabul qilishga tayyorligini bildiradi.

Respondentlarning 144 nafarida o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabat aks etgan bo‘lib, bu norma hisoblanadi. Bunda inson o‘zining bir qator fazilatlarini yuqori baholaydi, ularning o‘ziga xosligini tan oladi, boshqa fazilatlariga e’tibor qaratmaydi, shu bilan birgalikda shaxsiy muvaffaqiyatsizlik hissiga ham ta’sir etishini anglaydi.




**2-rasm. O‘z-o‘zini qabul qilish xususiyatlarining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi bo‘yicha tavsiylovchi statistika grafigi.**

Respondentlarning 6 nafarida o‘z-o‘zini qadrlashning quyi darajasi aniqlandi. Bu esa, ularda shaxsiyatiga nisbatan chuqur shubhalari, psixologik jihatdan o‘z “men”ini past baholaganliklarini ko‘rsatadi. Aytish kerakki, bu ko‘rsatkich tufayli o‘z-o‘zidan shubhalanish, atrof-muhit ta’siriga qarshilikni zaiflashtiradi. Bu esa, ularga nisbatan boshqalarning baholari va tanqidlariga nisbatan sezgirlikning oshishi o‘smirni ta’sirchan va himoyasiz qiladi, uning o‘ziga ishonmaslik moyilligiga olib keladi.

O‘z-o‘zini qabul qilish shkalasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, respondentlardan olingan minimal qiymat ko‘rsatkichi 1 ballni tashkil etdi, maksimal qiymat esa 12 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 7,1167 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 2,37385 ni tashkil etdi.  $7,1167 \pm 2,37385$ . Assimetriya  $A=,031$  va eksess  $E=-,444$  ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz o‘ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

O‘z-o‘zini qabul qilish, bu o‘ziga nisbatan hamdardlik hissi, o‘z ichki impulslar bilan kelishish, kamchiliklar va zaif tomonlarga qaramay, o‘zini o‘zi qabul qilishning jiddiyligini baholashga imkon berish bo‘lib, o‘smirlarning 132 nafarida o‘z “men”ining barcha tomonlarini idrok etish, o‘z xatti-harakatlarining to‘liqligicha qabul qilish tendentsiyasi mavjud. O‘z-o‘zini idrok etishning umumiy foni ijobjiy namoyon bo‘ladi. O‘smir ko‘pincha o‘ziga, shaxsiyatining barcha fazilatlariga hamdardlikni his qiladi. U o‘z kamchiliklarini o‘z fazilatlarining davomi deb biladi. Muvaffaqiyatsizliklar, ziddiyatl vaziyatlar ular uchun yomon odam deb hisoblash uchun asos bo‘lmaydi. Respondentlarning 146 nafarida normadagi o‘z-o‘zini qabul qilish mavjud bo‘lib, ularda o‘ziga bo‘lgan munosabatning tanlanganligi aks etadi. Bunda o‘smir o‘zining barcha fazilatlarini qabul qilmaydi va barcha kamchiliklarini tanqid ham qilmaydi. Respondentlarning 22 nafarida o‘z-o‘zini qabul qilishning quyi darajasi aniqlandi, bu esa, o‘zini haddan tashqari tanqidiy deb bilish tendensiyasini ko‘rsatadi. O‘ziga nisbatan hamdardlik yetarli darajada ifoda etilmaydi, salbiy o‘z-o‘zini baholash turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ya’ni, o‘zini kulgili tarzda tasvirlash, o‘zini o‘zi kansitish ko‘rinishlarda ham kechishi mumkin.

O‘z-o‘zini bog‘lash shkalasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra tadqiqotda ishtirok etgan respondentlardan olingan minimal qiymat ko‘rsatkichi 2 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal qiymat 13 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 6,7067 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 1,94763 ni tashkil etdi.  $6,7067 \pm 1,94763$ . Assimetriya  $A=,153$  va eksess  $E=,076$  ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz o‘ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.




**3-rasm. O‘z-o‘zini bog‘lash xususiyatlarining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi bo‘yicha tavsliflovchi statistika grafigi**

Metodikaning o‘z-o‘zini bog‘lash shkalasi bu hozirgi holatga nisbatan o‘zgarish istagi darajasini ochib berishga qaratilgan. Respondentlarning 99 nafarida “men” tushunchasining yuqori qat’iyligi, o‘z fazilatlari, o‘zlariga bo‘lgan talablari va eng muhimi – o‘zini o‘zi ko‘rish va baholashni o‘zgarishsiz saqlab qolish istagi mavjud ekanligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, o‘z-o‘zini ta’minlash va idealga erishish hissi o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini hurmat qilish uchun tahdid sifatida qabul qilishga moyillik bo‘lishi mumkin ekanligi bilan izohlanadi. 185 nafar o‘smir respondentlarda o‘zini shaxs sifatida takomillashtirish imkoniyatlarini amalga oshirishga to‘sinqinlikni sezadi, bu esa, shaxsiy xavotirning yuqori darajasi, atrofdagi dunyonи o‘z xususiyatlariga ta’siri, boshqalarni saqlab qolgan holda faqat ba’zi fazilatlarini o‘zgartirish istagi mavjudligini ko‘rsatadi. 16 nafar respondentlarda “men”ni o‘zgartirishga yuqori tayyorlik, tushunchalar,

o‘zini bilishning yangi tajribasiga ochiqlik, real va ideal “men” o‘rtasidagi moslikni izlash mavjud. Ularda o‘z “men”ini rivojlantirish va yaxshilash istagi va o‘zini ayblash ham kuzatildi.

Ichki ziddiyat shkalasi bo‘yicha minimal qiymat ko‘rsatkichi 1 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal qiymat 15 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 8,7100 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 3,07094 ni tashkil etdi.  $8,7100 \pm 3,07094$ . Assimetriya A=-,333 va eksess E=-,647 ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

Ichki ziddiyat, ichki qarama-qarshiliklar, shubhalar, o‘z-o‘zidan kelishmovchiliklar mavjudligini, introspeksiya va mulohaza yuritish tendentsiyalarining jiddiyligini belgilaydi. Respondentlarning 203 nafarida o‘ziga nisbatan salbiy munosabat mavjudligi aniqlandi. Ularda o‘zining “men” ustidan doimiy nazorat holati, ichki dunyosida sodir bo‘layotgan hamma narsani chuqur baholashga intilish mavjud. Shuning bilan birgalikda, ularda o‘zlari tomonidan sodir etiladigan xatti-harakatlarni qat’iy nazorat qilishda talabchanlik mavjud bo‘lib, bu o‘z-o‘zidan shaxsda o‘ziga nisbatan salbiy xususiyatlarni ham ko‘ra olishiga olib keladi va o‘ziga nisbatan yuqori talablarni qo‘yishi bilan xarakterlanadi hamda ko‘pincha o‘smirda real va ideal “men” o‘rtasida ziddiyatga olib keladi.



**4-rasm. Ichki ziddiyat xususiyatlarining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi bo‘yicha tavsiflovchi statistika grafigi**

78 nafar respondentlarda o‘ziga nisbatan munosabatning normal darajasi mavjud bo‘lib, ularda o‘zini ko‘rishga bo‘lgan munosabat, vaziyatga moslashish darajasiga bog‘liq. Shu bilan birgalikda, ularning xususiyatlari yaxshi ma’lum va oldindan aytib bo‘ladigan tanish sharoitlarda o‘ziga nisbatan ijobjiy munosabat, o‘z xizmatlarini tan olish va o‘z yutuqlarini yuqori baholash ham mavjud. Kutilmagan qiyinchiliklar, paydo bo‘ladigan qo‘srimcha to‘silalar o‘z muvaffaqiyatlarini yetarlicha baholamaslikka yordam beradi.

Respondentlarning 19 nafarida ichki ziddiyatning quyi darajasi aniqlanib, ular ko‘pincha o‘ziga nisbatan ijobjiy munosabatda bo‘lgan, o‘z imkoniyatlari va atrofdagi voqelik talablari, da‘volar va yutuqlar o‘rtasidagi muvozanatni his qilish mavjud va ular hozirgi hayotidan mammunliklari yaqqol ko‘rinadi. Shu bilan birga, o‘z muammolarini inkor etish va o‘zini yuzaki idrok etish hissi ham mavjud.

O‘zini ayblash shkalasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, minimal qiymat ko‘rsatkichi 0 ballni tashkil etgan bo‘lsa, maksimal qiymat 11 ballni tashkil qildi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 6,1933 ni, standart og‘ish ko‘rsatkichi 2,50937 ni tashkil etdi.  $6,1933 \pm 2,50937$ . Assimetriya A=-,177 va eksess E=-,754 ni tashkil qildi. Olingan natijalar tahlilida kuchsiz chap tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi. Aytishimiz mumkinki, o‘zini ayblash, o‘zining “men”iga murojaatida salbiy his-tuyg‘ularning jiddiyligini tavsiflaydi.

O‘smir respondentlarining 108 nafarida birinchi navbatda o‘zida kamchiliklar bor deb biladigan, barcha xatolari va muvaffaqiyatsizliklarida o‘zini ayblashga tayyor bo‘lganlar tashkil etganligi aniqlandi. Muammoli vaziyatlar, muloqot sohasidagi nizolar mavjud psixologik himoyani dolzarblashtiradi, ular orasida tanqid, o‘zini qoralash yoki yengillashtiruvchi holatlarni jalb qilish shaklida o‘z “men”ini himoya qilish reaksiyalarini ustunlik qiladi. O‘z-o‘zini ayblashning o‘rnatalishi ichki taranglikning rivojlanishi, asosiy ehtiyojlarni qondirishning mumkin emasligi hissi bilan birga kelishining guvohi bo‘ldik.

Respondentlarning 151 nafarida o‘ziga nisbatan munosabatning mayjudligi o‘rtacha darajada ekanligi namoyon bo‘ldi. Bunda muayyan harakatlarda o‘zini ayblash boshqalarga nisbatan g‘azab, bezovtalik ifodasi bilan uyg‘unlashadi. Respondentlarning 41 nafarida ziddiyatli vaziyatlarda o‘z aybini inkor etish tendensiyasi mayjudligi, o‘z “men”ini himoya qilish, asosan boshqalarni ayblash, maqsadga erishish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish uchun ma’suliyatni boshqalarga yuklashi (topshirish) orqali amalga oshirilishi, o‘z-o‘zidan qoniqish hissi, boshqalarni tanqid qilish, ulardagi barcha muammolar va muammo sabablarini izlashga hozirligi bilan ham izohlash mumkin.

**Xulosa.** Yuqorida biz tomonimizdan olib borilgan tatqiqodlar natijasidan to‘plangan ma’lumotlarga tayangan holda shuni takidlashimiz mumkinki, shaxs ontogenezida eng murakkab davr o‘smirlilik davri ekanligi yana bir bor o‘z tasdig’ini topdi, olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Sharq allomalari asarlari hamda o‘zbekistonlik olim va tadqiqotchilarining ishlarida o‘smirlarning emotsiyal hislari va o‘smirlilik davrida oz-o‘ziga ishonchni shakllantirishning o‘ziga xos muammolari kabilalar bilan bog‘liq tarzda bayon etilgan.

2. O‘smirlarning emotsiyal hislari va o‘smirlilik davrida oz-o‘ziga ishonchni shakllantirishning o‘ziga xos namoyon bo‘lishida hislaridan do‘stlik, yoqtirish, sevgi hislarining omillarning ta’siri kuchliligi tufayli differensial farqlarning mavjudligi dalillandi.

3. O‘smirlarda emotsiyal hislari va antropometrik belgilarining namoyon bo‘lishi bilan o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatiga psixologik ta’siri omillarining differensial farqlari asoslandi.

4. O‘smirlarda emotsiyal hislaridan do‘stlik, yoqtirish, sevgi hislarining darajaviy ifodalananishining ta’siri bilan bog‘liq o‘z xulqida «keskinlik», «o‘jarlik», «xavotirlanish», «ichki qo‘rquv» sindromlarini ham birvarakayiga namoyon etishi o‘zininng antropometrik belgilariga bo‘gliqligi bo‘yicha farqlari dalillandi.

5. O‘smirlarda emotsiyal hislari va antropometrik belgilarining namoyon bo‘lishi bilan o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatida «ishonch», «dadillik», «doimiy e’tiborda bo‘lish», «yulduzlik»ning destruktiv hamda konstruktiv natijasini shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq ravishda o‘zaro munosabatlariga integratsiyasi tufayli o‘zidan qoniqish hissiga ta’sir etishi isbotlandi.

O‘smirlarda emotsiyal hislari va antropometrik belgilarining o‘z-o‘ziga nisbatan emotsiyal munosabatini barqarorlashtirish, o‘z-o‘ziga beradigan bahoni adekvatlashtirish, «keskinlik», «o‘jarlik», «xavotirlanish», «ichki qo‘rquv», stressga chidamlilik sifatlari, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligiga ko‘ra ular uchun manzilli psixokorreksion dasturni qo‘llash samarali natija ta’minlashi asoslandi.

### **Adabiyotlar:**

1. Ступина К.С., Бахолдина В.Ю.. Самооценка подростков и антропометрические (морфоконституциональные) особенности. ВЕСТ.МОС.УН. № 16. Психологияю Биология, 2010. № 3 стр. 2-6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagи 490-sон «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori/ <https://lex.uz/docs/5550539>
3. G‘oziev E.G. “Ontogenet psixologiyasi” Noshir T – 2019
4. Akramova F.A. Oila psixologiyasi fanidan darslik TOShKENT – 2011
5. Пантелейев С.Р.. Самоотношение как эмоционально-оценочная система. М.: МГУ, 1991
6. Каримова В.М., Акрамова Ф.А. Психология, Т., 2000, -172 б.
7. Orzukulova Ch.R. Theoretical significance of factors determining mental health // Science and innovation international scientific journal. - volume 2 issue 11, november 2023 uif-2022: 8.2 scientists.uz

*Otamuratov Rustam Uskanovich,*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasi o'qituvchisi  
rustamota1989@gmail.com*

*ORCID: https://orcid.org/0009-0009-1150-6991*

*Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna,*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasi o'qituvchisi  
Ustin Pavel Nikolayevich,*

*Qozon Privoljskiy Federal universiteti Psixologiya va tarbiya instituti, Umumiy psixologiya kafedrasi  
mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

## **INTERNET FOYDALANUVCHILARI HISSIY INTELLEKTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Internetdan maqsadsiz va ko'p vaqt sarflab foydalanish odamlarga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir etishi tufayli jamoatchilikning katta e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu keltirilgan ishimizda 18-23 yoshlilarning hissiy intellekt xususiyatlarini Internetdan foydalanish va virtual muhitning submadaniyatini qabul qilishi, shaxsning virtual obrazini qanday his etishi hamda Internetga tobelik bilan aloqadorlik masalalarining ta'sirini o'rganishga qaratganimiz. Maqolamizda hissiy intellektning Internet foydalanuvchilarda qanday rivojlanganlik holatini tadqiq etganimiz. Tahlillarga asoslanib, Internetga qaramlikning oldini olish uchun hissiy intellektni kuchaytirish kerak, ammo ba'zi natijalar teskari munosabatni ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hissiy intellektni yaxshilash o'zbek talabalari orasida Internetga qaramlik darajasini kamaytirishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** internetga qaramlik, emotsional intellekt, kibberaddiksya, introvert, ekstrovert, neyrotizim, psixika, virtual obraz, perceptiv.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ ИНТЕРНЕТА**

**Аннотация.** Использование Интернета без цели и траты большого количества времени привлекает большое внимание общественности из-за его негативного воздействия на людей, особенно, на молодёжь. В представленной работе мы сосредоточились на изучении особенностей эмоционального интеллекта 18-23-летних людей, использовании Интернета и принятии субкультуры виртуальной среды, их отношения к виртуальному образу человека и влияния проблем, связанных с интернет-зависимостью. В нашей статье мы исследовали состояние развития эмоционального интеллекта у пользователей Интернета. Согласно анализу, для предотвращения интернет-зависимости необходимо укреплять эмоциональный интеллект, однако некоторые результаты показывают обратную зависимость. В целом результаты исследования показывают, что улучшение эмоционального интеллекта может снизить уровень интернет-зависимости среди узбекских студентов.

**Ключевые слова:** интернет зависимость, эмоциональный интеллект, киберзависимость, интроверт, экстраверт, нервная система, психика, виртуальный образ, проницательный.

## **PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE OF INTERNET USERS**

**Abstract.** The use of the Internet without purpose and spending a lot of time is attracting a lot of public attention due to its negative impact on people, especially young people. In this presented work, we focused on the study of the emotional intelligence characteristics of 18-23-year-olds, the use of the Internet and the acceptance of the subculture of the virtual environment, how they feel about the virtual image of a person, and the influence of issues related to Internet addiction. In our article, we researched the state of development of emotional intelligence in Internet users. Based on the analysis, it is necessary to strengthen emotional intelligence to prevent Internet addiction, but some results show the opposite relationship. In general, the results of the study show that improving emotional intelligence can reduce the level of Internet addiction among Uzbek students.

**Keywords:** Internet addiction, emotional intelligence, cyberaddiction; introvert, extrovert, nervous system, psyche, virtual image, perceptive.

**Kirish.** Bugungi kunda bizga yaxshi mutaxassis yoki o'z ishining ustasi bo'lish yetarli emas. Jamiat bilan samarali o'zaro munosabatda bo'la olish ham muhimdir. Hammaga ma'lumki, hozirgi dunyoda har bir shaxsnинг asosiy ma'lumot manbai sifatida jahonning barcha mintaqasida va hududida Internetdan foydalanish tendensiyasining obro'si tobora oshib bormoqda. Internetga qaram bo'lgan odamlarning psixologik xususiyatlari o'rganishning dolzarbligi ko'plab odamlarning Internetdan foydalanish va bu faoliyatning hissiy intellektga ta'sir etishini tadqiq etish keng tarqaganligi bilan bog'liq. Bugungi kunda yoshlarning ma'lumot olishlariga haddan tashqari qiziqish ortib bormoqda, zamonning shiddat bilan rivojlanishi yoshlardan tinimsiz bilimini va malakasini oshirishni talab qilmoqda. Ushbu jarayonda yoshlar albatta ma'lumotlarni olishning eng oson va samarali yo'llarini izlamoqda bu esa shubhasiz Internet jahon axborot tarmog'i hisoblanadi. Bu esa yoshlarda Internet tarmog'idan foydalanish vaqt va maqsadini ortishiga olib keladi. Internetdan foydalanish tobora ortishi va undan foydalanish tendensiyasining o'sishi natijasi o'laroq yoshlardagi kognitiv va hissiy sohalarga ta'sir etishi ehtimoli mavjud. Internetdan maqsadsiz va ko'p vaqt foydalanadiganlarning hissiy intellekt darajasi Internetdan kam va maqsadli foydalanadiganlarga qarganda hissiy intellekt darajasi past bo'lishi ehtimol. Bundan tashqari Internet qaramligiga moyil bo'lgan odamlar o'zlarining his-tuyg'ularini nazorat qilishni kamaytiradilar. Shaxs o'z hissiy intellektidan o'zini va atrofdagilarni maqsadiga erishish uchun resurs sifatida foydalanishi mumkin, shuning uchun emotsiyonal intellektni rivojlantirish — kelajakdag'i muvaffaqiyat va katta g'alabalarning garovidir. Emotsional intellekt — o'z hislaringizni va atrofingizdag'i kishilarning hissiyotlarini tushuna olishdir [1, 136 b]. Bu qobiliyat o'ziga nisbatan va boshqa kishilarga nisbatan o'z hislarini va kechinmalarini to'g'ri baholashda namoyon bo'ladi. Bu muammoning shaxsga ta'sir etishining turli tomonlari bor, ham ijobjiy, ham salbiy, bu esa ularni o'rganish zarurligini asoslaydi. IQ (intelligence quotient, ya'ni, zehn koefitsiyenti) insonning aqliy va tahliliy qobiliyatini belgilab beradi. EQ (emotional Intelligence) esa insonning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari va malakalari jamlanmasidir [2, 11 b.]. Ushbu malakalarga quyidagilar kiradi;

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Internetga qaramlik muammolariga bag'ishlangan ishlar mavjud: ushbu mavzu bo'yicha asosiy tadqiqotlar K. Young [3, 241], E. P. Belinskaya [4, 92 b; 5, 3 b] va A. E. Jichkina [6, 7 b]. So`nggi vaqtlardagi Internetga qaramlikni o'rganishning eng qiziqarli yondashuvlaridan biri V.A.Emelin kiborgizatsiya jarayoni - inson va mashinaning simbiotik mavjudligini o'rganish [7, 2 b]. Uzoq vaqt davomida "Internetga qaramlik", "Internetga qaramlik" yoki "Internetdan ortiqcha, patologik foydalanish" atamalari shifokorlar va psixologlar tomonidan qo'llanilgan, ammo ular hech qachon ruhiy kasalliklarning xalqaro va milliy tasniflagichlariga kiritilmagan (Rybaltovich 2011). Ularning DSM-5 ga kiritilishi 2013 yilda kutilgan bo'lsa-da, bu hech qachon sodir bo'lмаган. Qaramlik atamasining o'zi 1995 yilda A. Goldberg tomonidan kimyoiy giyohvandlikka o'xshashlik yo'li bilan taklif qilingan, ammo keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bu rost emas edi (Voiskunskiy, 2000) [8, 2 b]. Muammoning birinchi tadqiqotchilari nozologik yondashuv doirasida amalga oshirildi, ya'ni kompyuter va internetga qaramlik alomatlar to'plami orqali ko'rib chiqildi (Young K.S., 2000, M. Griffiths, W. Brenner va boshqalar) [9, 22 b], O.K.Tixomirov produktiv tafakkurning o'tkir emotsiyonal tartibga solinishi hodisasi o'rgangan [10, 13 b].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Internetga qaramlikni aniqlash uchun K. Young tomonidan Internetga qaramlik testi ishlatilgan V. A. Laskutova (Burova) [11, 26 b] tomonidan moslashtirilgan.

Dmitriy Nikolayevich Pogorelovning "Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining virtual identifikatori" (VIPSS) testi metodikasi so'rovnomasi ishlatilgan [12, 65 b].

Internet foydalanuvchilarining emotsiyonal intellekt darajasini o'rganish uchun Dmitriy Vladimirovich Lyusin EmIN testidan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** 18-23 yoshlilarning individual psixologik xususiyatlari muhim tarkibiy qismlarning biri o'quv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan kognitiv va intellektual qobiliyatlar hisoblanadi. O'zgarishlar ham miqdori va sifat jihatiga ega. Ushbu yosh davrida emotsiyonal sezgirlik kuchayadi hissiy reaksiyalarning xilma-xilligi va davomiyligi oshadi [13, 102 b; 14, 27 b]. Bu vaqtda psixologik himoya va hissiy barqarorlik imkoniyati ortadi. O'z-o'zini tartibga solish va o'zini-o'zi nazorat qilish darajasi ortadi, hissiyotlarni boshqarish osonroq bo'ladi va ijtimoiy moslashuv kuchayadi [15, 102 b]. Umuman olganda biz hissiy intellekt darajasi va uning individual tarkibiy qismlarining ortishi haqida gapirishimiz kerak.

**Tadqiqot jarayoni.** Tadqiqot 2023-yilda Internet tarmog'ining <https://docs.google.com> platformasida online shaklda o'tkazildi. Anketalarni to'ldirish vaqt cheklanmagan. Respondentlar ham o'z natijalarini shaxsiy xabarlar shaklida muallif manziliga yubordilar.

**Natijalarini tahlil qilish.** Tadqiqotimizda Tuyg'ularni tushunishning ortishi tuyg'ularni boshqarishning ortishiga ( $r=.587$ ;  $p\leq0,01$ ), umumiy hissiy intellektning oshishiga ( $r=.894$ ;  $p\leq0,01$ ) va internetga qaramlikning pasayishiga olib keladi ( $r=-.169$ ;  $p\leq0,01$ ). Tuyg'ularni boshqarishning ortishi umumiy hissiy intellektning ham ortishiga ( $r=.888$ ;  $p\leq0,01$ ), tuyg'ularni boshqarishning ortishi internetga

qaramlikning susayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-.228$ ;  $p\leq 0,01$ ), Umumiy hissiy intellektning ortishi internetga qaramlikning kamayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-.223$ ;  $p\leq 0,01$ )ligi aniqlandi. Internetga qaramlik testiga ko'ra, K. Yang tomonidan taklif etilgan V. A. Laskutova (Burova) tomonidan moslashtirilgan bo'lib, respondentlarning soni (279) 50% qishloq va (279) 50% shaharlik yoshlarni qamrab olgan. Olingen natijalarni emperik tahlil qilish jarayonida shahar va qishloq hududidagi yoshlarning shakllanishidagi psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat va ushbu nisbatlarning quyida berilgan.

Kimberli Yang tomonidan tavsiya etilgan metodika, olingen natijalarga ko'ra internetga qaramlik ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 14,64279 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=0,023$ ) va eksess ( $E=1,257$ ) ni tashkil qildi. Olingen natijalarga ko'ra kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatilganligining guvohi bo'lismiz mumkin. Virtual obraz shkalasi bo'yicha standart og'ish ko'rsatkichi o'z navbatida 7,72 ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Assimetriya ( $A=,215$ ) va eksess ( $E=,780$ ) ni tashkil qildi. Olingen natijalarga ko'ra kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksess natijalarni oldik. Boshqa odamlarni his-tuyg'ularini tushunish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish ko'rsatkichi 3,58211 ni tashkil qildi. Assimetriya ( $A=,531$ ) va eksess ( $E=1,062$ ) ni tashkil qildi. Yani, kuchsiz o'ng tomonlama assimetriyava kuchli musbat eksess natijalar olindi. Boshqa odamlarni his-tuyg'ularini boshqarish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish ko'rsatkichi 3,47168 ni tashkil etgan bo'lsa, assimetriya ( $A=,552$ ) va eksess ( $E=1,004$ ) ni tashkil qildi. Yani, kuchsiz o'ng tomonlama assimetriyava kuchli musbat eksess natijalar olindi. O'z his-tuyg'ularini tushunish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 3,75822 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=,037$ ) va eksess ( $E=-,406$ ) ni tashkil qildi. Yani, kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz manfiy eksess natijalar olindi. O'z his-tuyg'ularini boshqarish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 3,08933 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=,443$ ) va eksess ( $E=,843$ ) ni tashkil qildi. Ifodani nazorat qilish ko'rsatkichi bo'yicha olingen natijalarga ko'ra, standart og'ish 2,63956 ni tashkil qildi. Assimetriya ( $A=-,176$ ) va eksess ( $E=,870$ ) ni tashkil qildi. Shaxslararo hissiy intellekt ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 8,04988 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=,968$ ) va eksess ( $E=1,385$ ) ni tashkil qildi. Interpersonal hissiy intellekt ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 8,31386 ni tashkil qildi. Assimetriya ( $A=-,007$ ) va eksess ( $E=,650$ ) ni tashkil qildi. Tuyg'ularni tushunish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 6,67402 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=,981$ ) va eksess ( $E=2,041$ ) ni tashkil qildi. Tuyg'ularni boshqarish ko'rsatkichi bo'yicha standart og'ish 6,51612 ni tashkil qildi. Assimetriya ( $A=,730$ ) va eksess ( $E=1,426$ ) ni tashkil qildi, standart og'ish 11,75112 ni tashkil etdi. Assimetriya ( $A=1,249$ ) va eksess ( $E=3,041$ ) ni tashkil qildi.

Tadqiqotimizda SPSS dasturiy ta'minotidan foydalanib metodikalar orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni Pearson mezoni bo'yicha aniqladik uni quyidagi 1-jadvalda tasvirladik.

### 1-jadval.


#### Tadqiqotda qo'llanilgan metodika ko'rsatkichlarining tavsiflovchi statistik jadvali (N=558)

	<b>K. Young</b>	<b>VIPSS</b>										<b>EmIN</b>					
		<b>Shahar</b>	<b>IQ</b>	<b>KA</b>	<b>SM</b>	<b>VO</b>	<b>BOHT<sub>T</sub></b>	<b>BOHT<sub>B</sub></b>	<b>O'HT<sub>T</sub></b>	<b>O'HT<sub>B</sub></b>	<b>INQ</b>	<b>ShHI</b>	<b>IPHI</b>	<b>GT</b>	<b>TB</b>	<b>UHI</b>	
O'rtacha qiymat	14,642 5	11,75 6	10,31 4	7,72 2	3,58 1	3,47 8	3,75 9	3,08 9	2,63 9	8,04 9	8,31 3	6,67 4	6,51 6	11,75 1			
Assimetriya	,023 ,096	- ,096	,208 5	,21 1	,53 2	,55 7	,03 3	,44 6	- ,17	,96 8	- ,00	,98 7	,73 1	,1,24 0			
Eksess	1,257	,693	,779	,78 0	1,0 62	1,0 04	- ,40	,84 3	,87 0	1,3 85	,65 0	,2, 041	1,4 26	3,04 1			

Sinaluvchilarning shaharda yashovchilarining 1,4 % i (4 nafari) da Internetga qaramlik, 16,5 % i (47 nafar) respondentlarimizda Internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog'liq ba'zi muammolar mavjudligi, 77,8 % i (217 nafari) esa odatiy Internet foydalanuvchisi ekanligi va 4,3 % i (11 nafari) da Internetga umuman qiziqish yo'qligi aniqlandi. Tadqiqotimizning keyingi taqqoslash guruhi qishloqda yashovchi 279

nafar respondentlarni o‘z ichiga oladi. Respondentlarning 75,3 %i (210 nafari)da odatiy Internet foydalanuvchisi ekanligi, 7,2 %i (20 nafari) da Internetdan umuman foydalanmasligi, 17,5%i (49 nafari) da esa Internetga haddan tashqari qiziqish bilan bog‘liq ba’zi muammolar mavjud ekanligini aniqlandi.

Navbatdagi tadqiqot metodikamiz Internet foydalanuvchilarining emotsiyal intellekt darajasini o‘rganish uchun Dmitriy Vladimirovich Lyusinning EmIN testidan foydalandik. Internetga haddan tashqari qiziqish bilan qaraydigan 49 nafar yoshlarning 30 nafarida umumiyy hissiy intellekti juda past ekanligi, 9 nafarida past darajada ekanligi, yana 9 nafarida esa umumiyy hissiy intellekti o‘rtachaligi, 1 nafarida yuqori ekanligi aniqlandi. Shaharda yashovchi respondentlarning Internetdan foydalanish ko`rsatkichi va hissiy intellektiga bog‘liqligi bo`yicha 45 nafar yoshlarning 38 nafarida hissiy intellekt juda pastligi, 7 nafarida hissiy intellekti past, 2 nafarida hissiy intellekt o‘rtacha va hissiy intellekt yuqori ko`rsatkichi qayd etilmagan.



**2-rasm. D.V.Lyusinning EmIN testi natijalari (qishloq-shahar) yoshlari misolida**

Barcha o‘rganilayotgan shkalalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun korrelyatsiya tahlili o’tkazildi (ikki guruh uchun). r-Pearson korrelyatsiya koeffitsienti formulasi yordamida korrelyatsiya tahlili natijalari aks ettirilgan.

K.Youngning Internetga qaramlik, D.N.Pogorelovning “Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining virtual identifikatori” (VIPSS) va D.V.Lyusinning EmIN testidan hissiy intellekt shkalasidagi barcha ko`rsatkichlar bir-biri bilan juda chambarchas bog‘liqligini ko‘rish mumkin: Kiberaddiksyaning oshishi submadaniyatni qabul qilish ( $r=,675$ ;  $p\leq 0,01$ ), virtual obrazning oshishiga olib keladi ( $r=,764$ ;  $p\leq 0,01$ ). Kiberaddiksyaning ortishi o‘z-his tuyg’ulari ( $r=-,275$ ;  $p\leq 0,01$ ) va ifodani nazorat qilishning kamayishiga olib keladi ( $r=-,195$ ;  $p\leq 0,01$ ). Kiberaddiksyaning ortishi shaxslararo hissiy intellektning oshishiga olib keladi ( $r=-,213$ ;  $p\leq 0,01$ ). Kiberaddiksyaning ortishi internetga qaramlikning oshishiga olib keladi ( $r=-,451$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Submadaniyatni qabul qilishning ortishi virtual obrazning ham oshishiga olib keladi ( $r=-,733$ ;  $p\leq 0,01$ ). Submadaniyatni qabul qilishning ortishi o‘z his-tuyg’ularini tushunishning kamayishiga ( $r=-,246$ ;  $p\leq 0,01$ ), ifodani nazorat qilishning kamayishiga ( $r=-,179$ ;  $p\leq 0,01$ ), interpersonal hissiy intellektning susayishiga ( $r=-,283$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘z tuyg’ularini boshqarishning pasayishiga ( $r=-,153$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiyy hissiy intellektning susayishiga ( $r=-,123$ ;  $p\leq 0,01$ ) va submadaniyatni qabul qilishning ortishi internetga qaramlikning oshishiga olib keladi ( $r=.463$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Virtual obrazning ortishi o‘z tuyg’ularini tushunishning kamayishiga ( $r=-,174$ ;  $p\leq 0,01$ ), ifodani nazorat qilishning susayishiga ( $r=-,098$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo hissiy intellektning ortishiga ( $r=,151$ ;  $p\leq 0,01$ ), interpersonal hissiy intellektning susayishiga ( $r=-,294$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘z tuyg’ularini tushunishning oshishiga ( $r=,092$ ;  $p\leq 0,01$ ), virtual obrazning ortishi internetga qaramlikning ortishiga olib keladi ( $r=,448$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Boshqa odamlarni his-tuyg’ularini tushunishning ortishi o‘z navbatida boshqa odamlarni his-tuyg’ularini boshqarishning ham ortishiga ( $r=,973$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘z his-tuyg’ularini tushunishning ortishiga ( $r=,171$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg’ularini boshqarishning oshishiga ( $r=,448$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo hissiy intellektning ortishiga ( $r=,754$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg’ularini tushunishning ortishi interpersonal hissiy intellektning susayishiga ( $r=-,086$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg’ularini tushunishning ortishiga ( $r=-,500$ ;  $p\leq 0,01$ ) olib keladi. Boshqa odamlarni his-tuyg’ularini tushunishning ortishi tuyg’ularni boshqarishning ortishiga

( $r=.736$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini tushunishning ortishi umumiyl hissiy intellektning ortishiga ( $r=.692$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini tushunishning ortishi internetga qaramlikning pasayishiga olib keladi ( $r=-.109$ ;  $p\leq 0,01$ ).


Boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi o`z his-tuyg`ularini tushunishning oshishiga ( $r=-.109$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi tuyg`ularini boshqarishning oshishiga ( $r=.144$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi shaxslararo hissiy intellektning oshishiga ( $r=.755$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi interpersonal hissiy intellektning kamayishiga olib keladi ( $r=-.086$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi tuyg`ularni tushunishning oshishiga ( $r=.485$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi tuyg`ularni boshqarishning ham ortishiga ( $r=.755$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi umumiyl hissiy intellektning ham oshishiga ( $r=.694$ ;  $p\leq 0,01$ ), boshqa odamlarni his-tuyg`ularini boshqarishning ortishi internetga qaramlikning pasayishiga olib kelishi aniqlandi ( $r=-.120$ ;  $p\leq 0,01$ ).

O`z his-tuyg`ularini tushunishning ortishi o`z tuyg`ularini boshqarishning ham ortishiga ( $r=.305$ ;  $p\leq 0,01$ ), ifodani nazorat qilishning ortishiga ( $r=.244$ ;  $p\leq 0,01$ ), interpersonal hissiy intellektning ortishiga ( $r=.750$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni tushunishning oshishiga ( $r=.333$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni boshqarishning oshishiga ( $r=.479$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiyl hissiy intellektning ortishiga ( $r=.457$ ;  $p\leq 0,01$ ), Internetga qaramlikning pasayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-.462$ ;  $p\leq 0,01$ ). Tuyg`ularini boshqarishning ortishi ifodani nazorat qilishning ham oshishiga ( $r=.236$ ;  $p\leq 0,01$ ), shaxslararo hissiy intellektning oshishiga ( $r=.505$ ;  $p\leq 0,01$ ), interpersonal hissiy intellektning oshishiga ( $r=.083$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni tushunishning oshishiga ( $r=.552$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni boshqarishning ortishiga ( $r=.805$ ;  $p\leq 0,01$ ), Tuyg`ularini boshqarishning ortishi umumiyl hissiy intellektning ortishiga ( $r=.760$ ;  $p\leq 0,01$ ), internetga qaramlikning pasayishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi ( $r=-.131$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Ifodani nazorat qilishning oshishi interpersonal hissiy intellektning ham oshishiga olib keladi ( $r=.442$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni tushunishning oshishiga ( $r=.166$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni boshqarishning oshishiga ( $r=.534$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiyl hissiy intellektning oshishiga ( $r=.390$ ;  $p\leq 0,01$ ), internetga qaramlikning susayishiga olib keladi ( $r=-.250$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Shaxslararo hissiy intellektning ortishi interpersonal hissiy intellektning pasayishiga ( $r=-.374$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni tushunishning ortishiga ( $r=.815$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni boshqarishning ortishiga ( $r=.657$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiyl hissiy intellektning ham ortishiga olib keladi ( $r=.827$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Interpersonal hissiy intellektning oshishi tuyg`ularni boshqarishning ham ortishiga ( $r=.165$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiyl hissiy intellektning ortishiga ( $r=.101$ ;  $p\leq 0,01$ ) va internetga qaramlikning susayishiga olib keladi ( $r=-.543$ ;  $p\leq 0,01$ ).



Tuyg`ularni tushunishning ortishi tuyg`ularni boshqarishning ortishiga ( $r=.587$ ;  $p\leq 0,01$ ), umumiy hissiy intellektning oshishiga ( $r=.894$ ;  $p\leq 0,01$ ) va internetga qaramlikning pasayishiga olib keladi ( $r=-.169$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Tuyg`ularni boshqarishning ortishi umumiy hissiy intellektning ham ortishiga ( $r=.888$ ;  $p\leq 0,01$ ), tuyg`ularni boshqarishning ortishi internetga qaramlikning susayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-.228$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Umumiy hissiy intellektning ortishi internetga qaramlikning kamayishiga olib kelishi mumkin ( $r=-.223$ ;  $p\leq 0,01$ ).

BOHTB-boshqa odamlarni his tuyg`ularini boshqarish, BOHT-boshqa odamlarni his tuyg`ularini tushunish, O`HTB-o`z his tuyg`ularini boshqarish, O`HTT-o`z his tuyg`ularini tushunish, INQ- Ifodani nazorat qilish, ShHI-shaxslararo hissiy intellekt, IPHI- Interpersonal hissiy intellekt, TT-tuyg`ularini tushunish, TB - tuyg`ularini boshqarish, UHI-umumiy hissiy intellekt, VO-virtual obraz, SM-submadaniyatni qabul qilish, KA-kiberaddiksiya, IQ-internetga tobek kuzatilgan.Natijada, ko`pincha Internetda odamlar ishni, maktabni sog'inishni, uy ishlarini e'tiborsiz qoldirishni boshlaydilar shaxsiy hayotidan ham voz kechadi bu Internetda ko`p vaqt o'tkazish uchun shaxsiyat sifatida namoyon bo'ladi

**Xulosa.** Biz ishimizda Internetga qaramlikka moyil bo`lgan Internet foydalanuvchilarining hissiy intellekt xususiyatlarini o`rganishga harakat qildik. Ushbu muammo bo'yicha nazariy materiallar tahlil qilindi, usullar tanlandi, to'plandi va qayta ishlangan ma'lumotlar shu jumladan Statistik tahlildan foydalanib, xulosalar chiqarildi. Ish natijalari amaliy ahamiyatga ega, chunki ular bilan maslahat ishlarida foydalanish mumkin Internetga qaram bo`lgan o'smirlarning ota-onalari. Shuningdek, butun Internetga bog'liq bo`lgan kontingenclar uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko`ra, shuni ko`rsatadigan ma'lumotlar olindi;

- Internetga qaram bo`lganlarning hissiy intellekt darajasi o`rtasidagi farqlar mavjudligi va shuningdek, Internetga qaram bo`lmagan shaxslar o`rtasidagi tafovutlar olindi. Shahar va qishloq yoshlarning Internetdan ortiqcha foydalanganlar ichida hissiy intellekt darjasi pastligi kelib chiqdi,

- Internetga qaram yoshlardagi mustaqil qaror qabul qilish jarayoni ham pastligi aniqlandi,

- Kiberaddiksianing ortishi shaxslararo hissiy intellektning oshishiga olib keladi shu bilan birgalikda internetga tobek ham oshadi,

- Submadaniyatni qabul qilishning ortishi o`z his-tuyg`ularini tushunishning kamayishiga, ifodani nazorat qilishning kamayishiga, interpersonal hissiy intellektning susayishiga, o`z tuyg`ularini boshqarishning pasayishiga, umumiy hissiy intellektning susayishiga va submadaniyatni qabul qilishning ortishi internetga qaramlikning oshishiga olib keladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Vasilyev I.A. Intellectual emotions., Psychology in Russia: State of the Art., Volume 6, Issue 4, 2013, Pages 134-142.
2. Отамуратов Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжи) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — № 5. — URL: <https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf>
3. Young K. S.6 Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder. CyberPsychology & Behavior, №1, 1996., p 237-244.
4. Бабаева Ю.Д. И так далее. Проблемы классификации чувств и типов мышления // Вестник МГУ. Серия 14: Психология, 1999. № 2. С. 91-96.
5. Белинская Е.П. На пути к обоснованию социокультурного подхода к анализу виртуальной реальности. 12.12.2018. <https://cyberpsy.ru/>
6. Жичкина А.Е., Белинская Е.П. Стратегии самопрезентации в Интернет и их связь с реальной идентичностью/.30.08.2017. <https://cyberpsy.ru/>
7. Анатольевич Е.В., Киборгизация и инвалидизация технологически расширенного человека // Национальный психологический журнал. 2013. №1 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kiborgizatsiya-i-invalidizatsiya-tehnologicheski-rasshirennogo-cheloveka>
8. Образцова А.Ю., Сердотецкий Ф.А., Инструменты формирования общественного мнения в социальной сети Telegram., Меди@льманах., №2., 2024.
9. Dr. Javier Serrano-Puche is Senior Lecturer., Internet and Emotions: New Trends in an Emerging Field of Research., Comunicar, №46, v. XXIV, 2016 | Media Education Journal., pp 19-26.
10. Benski T., & Fisher E., Introduction: Investigating Emotions and the Internet. In T. Benski, & E. Fisher (Eds.), Internet and Emotions New York: Routledge., 2014., pp. 1-14.
11. Yang K. Diagnosis - Internet addiction // Internet world, 2000. No. 2. c.24-29.

*Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li,  
Namangan davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasini tayanch doktoranti*

## **O‘SMIRLARDA KREATIVLIK DARAJASINING JINSGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda davlat siyosatining o‘zga xos tomonlari, uzluksiz ta’limning ijodkor shaxs shakllanishidagi roli. O’smirlilik davrining o‘ziga xos tomonlari ularda kreativlikni nomoyon bo‘lishi, kreativlik haqidagi fikrlar qiyosiy tahlil qilingan. Kreativlik darajasini aniqlash bo‘yicha tadqiqot ishi va uning o‘g‘il bola va qizlar o‘rtasidagi farqlari hamda ularning yuzaga kelishida biologik va psixologik omillar haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘smirlilik davri, ontogenet, gender farq, rivojlanish, shaxs, barkamol shaxs, renessans, intellekt, kreativlik, motiv.

## **ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УРОВНЯ КРЕАТИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются специфические аспекты государственной политики в воспитании подрастающего поколения гармоничной личностью, роль непрерывного образования в формировании творческой личности. Стороны самого подросткового возраста проявляют в них креативность, мысли о креативности подвергаются сравнительному анализу. Представлена исследовательская работа по определению уровня креативности и её различий между парнями и девушкиами, а также отзывы о биологических и психологических факторах их возникновения.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, онтогенез, гендерные различия, развитие, личность, гармоничная личность, возрождение, интеллект, креативность, мотив.

## **GENDER CHARACTERISTICS OF THE LEVEL OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS**

**Abstract.** The unique aspects of government policy in educating the growing generation of young people as perfect individuals in this article, the role of continuous education in the formation of a creative person. The aspects of adolescence themselves are that they have a comparative analysis of creativity. Opinions are provided on the research work on determining the level of creativity and its differences between young men and women and the biological and psychological factors in their occurrence.

**Keywords:** adolescence, ontogenesis, gender difference, development, individual, perfect person, renaissance, intellect, creativity, motive.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda mustaqil fikrlovchi, ijodkor, raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Ilm-fan texnika va madaniyatdagi globallashuv ijtimoiy jamiyatning har bir ishtirokchilariga nisbatan globallashuvga monand yangicha qarashni talab etmoqda. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – davlatimizning asosiy bosh maqsadi bo‘lib kelmoqda. Uzluksiz ta’limning ham eng muhim ustuvor vazifalaridan biri o‘quvchilar iqtidori va qobiliyatini rivojlanirish, ularing rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. Shuningdek ta’lim oluvchilarining kreativ va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni tashkil etishdan iborat.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlanirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.[1, 2]

Yuqorida firkrlarni o‘zi ham yoshlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlanirish zaruriyati dolzarb muammo bo‘lib borayotganini anglatadi. Bundan tashqari yurtboshimizning ushbu fikrlari yoshlarda kreativ

qobiliyatlarni rivojlantirish bilan cheklanmaydi, balki ta’lim-tarbiya ishtirokchilari bo‘lmish pedagog kadrlar va ota-onalarni zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi.

**Asosiy qisim.** Bizga ma’lumki, ontogenezda rivojlanayotgan insonda u ontogenezning qaysi boshqichidaligiga qarab psixik holat, psixik jarayonlar va ularni rivojlanish qonuniyatları ham turli xil kechadi. Ana shunday qonuniyatlardan habardor bo‘lish har bir ta’lim-tarbiya ishtirokchilari faoliyatida birmuncha qulaylikni yuzaga keltiradi.

Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanishi muammosini shaxs psixikasining taraqqiyoti qonunlarini hisobga olmay oqilonan hal qilib bo‘lmaydi. Demak, o’smirlik davrini har tamonlama tadqiq qilib uni boshqa yosh davrlaridan farqli tomonlarini ajratib o‘rganish orqaligina tadqiqotimizga obektiv baho berishga erishamiz.

Globalashuv davrida o’smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatlarda nomutanosiblikni vujudga keltirmaydi. Bu esa o‘z navbatida balog‘at davrining mo‘tadil o‘tishiga zamin yaratadi. O’smirlik davri 10-11 dan 14-15 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il va qizlarni o‘z ichiga oladi [2.145].

Bizga ma’lumki mazkur yosh davrida inson organizmida biologik va psixologik jihatdan taraqqiyot boshqa yosh bosqichlariga nisbatan tez sur’atlar bilan kechadi. O’smirlik davrida shaxsning shakllanishi 3 ta omil zanjir halqasi kabi bir- biriga uzviy bog‘langan bo‘ladi.

Bular: a) organizmnning fiziologik rivojlanishi;

b) psixik rivojlanish;

c) ijtimoiy muhit.

O’smir shaxsi shakllanishida yuqorida omillar o‘rni beqiyos, chunki organizm fiziologik rivojlanishining ortda qolishi psixik taraqqiyotni ham susaytiradi. O’smirlik yoshida dunyoqarash, e’tiqod, o‘zligini anglash, baholash va boshqalar o‘smirni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liqdir.

Haqiqatan, sog’lom, hur fikrli yoshlarni tarbiyalash har bir ota-onan jaamiyatning ezgu maqsadidir. Shu o‘rinda nega aynan har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashda o’smirlik davriga alohida urg‘u berishimiz kerak, degan savol tug‘ildi.

Chunki o’smirlik davri psixologik jihatdan eng muhim xislat – bolalikdan kattalikka o‘tish hissining paydo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida ularda materiallarni tahlil va sintez qilish, muammoning mohiyatiga tushunish jadal su’ratlar bilan o‘sadi. Tafakkurning rivojlanishi intedlektni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Natijada mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanadi bu esa o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini anglatadi. Bu mustaqil fikrlash va dunyoqarash o‘smir hayotida farvonlikni ta’minalashga yetarli hisoblanmasligini o‘zi anglab yetmaydi. Shuning uchun ota-onasi, o‘qituvchilar bilan muloqotda ziddiyatlari to‘siqlar paydo bo‘ladi.

Bunday o‘tish davridagi bo‘shliqni to‘ldirish, ijtimoiy jaamiyat uchun foydali shaxslarni tarbiyalash tadqiqotning ijtimoiy dolzarbligini isbotlaydi.

O’smirlarda kreativlikni rivojlantirish orqali mazkur davrni ravon kechishini va komil insonni tarbiyalashni maqsad qilingan.

Biz eng avvalo “kreativlik tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Kreativlik tushunchasi so‘ngi vaqtarda nafaqat ta’lim-tarbiya, balki jaamiyatning boshqa sektorlarida ham tez-tez qo‘llanib kelinmoqda. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary lug‘atiga ko‘ra, creative so‘zi ilk marta 1678 yilda paydo bo‘ldi, creativity so‘zi esa 1875 yilda esga olindi.

Kreativlikni o‘rganishga doir tadqiqotlar bir xil mazmunda kechmagan va turli-tuman munozaralarga sabab bo‘lgan. XX asr boshlarida ushbu tushunchani o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

Shunday tadqiqotlardan biri XX asr boshlarida Z.Freyd tomonidan amalga oshirilgan, uning faraziga ko‘ra, ijodkor shaxslar, jumladan yozuvchilar va rassomlar o‘zlarining yashirin istak-xohishlarini madaniy nuqtayi nazardan ommaga ma’qul keladigan vositalar orqali namoyish etadilar. Uning xulosasi kreativlikning ilk manbai odamning anglangan va anglanmagan mayllari o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi, degan g‘oyaga asoslanadi.

«Kreativlik» atamasi Z.Freyd tadqiqotlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Ilk marta ushbu atamani D.Simpson (1922-yil) ishlarida uchratish mumkin, bu yerda kreativlik, odamning tarixan shakllangan va bir qolipdagil tafakkur usullaridan voz kechish malakasi sifatida talqin etiladi.

A.Adlerning fikricha, har bir odam dastavval ijodiy kuchga ega bo‘ladi. Natijada u o‘z uslubiga ega hayotni boshqara oladi. A.Adler ijodkorlikni “kompensatsiya nazariyasi” bilan izohlashga uringan. Uning fikricha, shaxs har qanday madaniyatning turini (san’at, ilm va boshqalarni) o‘zidagi kamchilikni to‘ldirish vositasi deb qaraydi. Ijodkor “Men” shaxsda mavjud bo‘lsa, o‘zidagi tajribalarni o‘z hayotning ijodkori bo‘lish va o‘zini rivojlantirish uchun qo‘llay oladi [5].

1950-yillarda ko‘plab ilmiy nashrlar paydo bo‘ldiki, ularda bir qator tadqiqotlar samarasi «kreativlik» atamasiga nisbatan izohlarni topish mumkin bo‘ldi. 1960-yillarga kelib, ushbu atamananing 60 dan ortiq izohi mavjud edi [3].

XX asr nihoyasida, kreativlikni o‘rganishga doir ko‘plab izlanishlar, uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarga asoslandi. Jumladan, 80-yillarda asosiy tadqiqotlar shaxsning kreativlik xususiyatiga madaniy muhitning ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlandi. Ushbu sohada, ayniqsa, Din Saymont faoliyati diqqatga sazovor bo‘ldi. U o‘zining «tarixiy-metrik» tahlillarida shunday xulosaga keldiki, kishilik jamiyatining ayrim tavsiyiy belgilari, tarixiy rivojlanish davrida jamiyat a‘zolari shaxsining kreativlik darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etib kelgan.

Yuqoridaagi olimlarning fikrini tahlil qilib, kreativlik – bu ehtiyojlarni qondirish uchun ichki imkoniyatlarning yuzaga chiqishi natijasida yangi moddiy va nomoddiy tovarlarning dunyoga kelishi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Natijalar tahlili.** Biz o‘smirlik davrida kreativlikni tadqiq qilishda ularni yosh va gender tafovutlariga alohida etibor berib uning namyonon bo‘lishining o‘ziga xos tomonlarini tahlil qildik. Tadqiqotimiz davomida 168 nafar o‘smir yigit qizlarimizda kreativlikni diagnostika qilish maqsadida J. Brunnerning „Fikrlash turlari va ijodkorlik darajasini aniqlash so‘rovnomasi”ni o‘tkazdik. Tadqiqotlarimizda ishtirok etgan 168 nafar o‘smirning 83 nafari yigitlar va 85 nafari qizlar bo‘lib, tadqiqot natijalariga ko‘ra yigitlarga qaraganda qizlarda kreativlik yuqori chiqqanligini ko‘rdik.

Jami ishtirokchi o‘quvchi qizlar 85 nafar, shundan:

kreativligi yuqori – 60 nafar

kreativligi o‘rtaligida – 25 nafar


kreativligi past – 0 nafar

Jami ishtirokchi o‘quvchi yigitlar 83 nafar, shundan:


kreativligi yuqori – 48 nafar

kreativligi o‘rtaligida – 32 nafar

kreativligi past – 3 nafar



1-rasm.





3-rasm.

**Xulosa.** O'smir yigit va qizlarda kreativlik darajalarini bunday nomutanosib namoyon bo'lishini chuqur tahlil qilib, quydag'i xulosalarga keldik. Nega qizlarda kreativlik darajasi yuqori degan savolga eng avvalo, qaysi yosh davrini tadqiq qilayotqanimizga etibor berishimiz kerak. Chunki bizga dunyoviy va diniy manbalardan ma'lumki, o'smirlik davri kirib kelishida ham jins tafovut mavjud ya'ni yigitlarga qaraganda qizlarda 1-2 yil oldin o'smirlik boshlanishi. Demak, o'smir organizmidagi fiziologik va psixologik taraqqiyot uning fikrlash jarayoniga, xulq-atvoriga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'smir shaxsidagi idrok, yuksak hislar, xayol, tafakkur o'zaro bir birini shakllanishiga ta'sir etadi. O'smirda o'zni namoyon etish hissi yetakchi faollikkaga aylanadi. Sovet psixologlari aytganidek, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'ttasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik o'z ichki qiziqishining namoyon bo'lishiga olib keladi. Bu esa kreativlikni ifodalashga uzviy aloqador bo'lgan odamning ichki motivatsiyasiga turki bo'ladi. Shunday psixologik jarayonlar yigitlarga qaraganda qizlarda erta paydo bo'lishi ularning bilish jarayonlarining ko'lami, sifatiga ham ta'sir etishi natijasida kreativlik o'smir qizlarda bir muncha yuqoriroq ko'rsatgichga ega bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-y 29-dekabr Xalq so'zi № 276 (7778) 2020 yil 30 dekabr, 2-b.
2. G'oziyev E. Ontogenet psixologiyasi. O'quv qo'llaman. Toshkent: NIF MSH. 2020.-144-145 b.
3. <https://www.wikidata.ru-ru.nina.azD1%8C.html>
4. Нишанова З.Т. Изучение креативности в психологии. // Киргизский научно-педагогический научный журнал.1999, №5-6.47-51б.
5. Ильин Е.П.«Психология творчества, креативности, одаренности» Питер; СПб.; 2009 ISBN 978-5-49807-239-5. 16-с
6. Meerovich M.I., Shragina L.I. Технология творческого мышления: Практическое пособие. - Мн.: Харвест, М.: АСТ, 2000. - 432 с.
7. Каюмов Б.З. & Абдураҳмонов О. А. Ў. (2021). Таалабаларда шахсий ва интеллектуал фазилатларни шакллантириш механизmlари. // Scientific progress, 1(6), 750-754.



*Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna,  
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya  
kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)*

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARNI  
MANIPULYATSION TA'SIRLARDAN HIMOYALASHNING IJTIMOIY-  
PSIXOLOGIK OMILLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mamlakatimizda talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilish, uning mohiyati va asosiy belgilari muammosini, talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, talabalarda manipulyatsion ta'sirlariga berilishi va turli ta'sirlarni oldini olishning etnopsixologik xususiyatlari, talabalarda manipulyatsion ta'sirlar natijasida integrativ tarzda namoyon bo'ladigan refleksiv xususiyatlar rivojlanishi, talabalardagi axborotni qabul qilishga bo'lgan motivatsiyaning gender tafovutlariga ko'ra, muloqot motivatsiyasining ustuvor xarakteri haqida so'z boradi. Shuningdek, talabalarda globallashuv sharoitida manipulyatsion ta'sirlariga berilishi va uni oldini olishda tayanch qadriyatlarning differensial namoyon bo'lishi, talabalarda manipulyatsion ta'sirlar natijasida rejalshtirish, modellashtirish, dasturlashtirish, egiluvchanlik, mustaqillikning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati negizida integrativ namoyon bo'lishi tufayli talabalarning xulq-atvorida refleksiv xususiyatlar ustuvor rivojlanishi aytilgan.

**Kalit so'zlar:** globalizatsiya, manipulyatsiya, tafakkur, emotsiya, mustaqillik, mafkura, psixologik ta'sir.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЗАЩИТЫ СТУДЕНТОВ ОТ  
МАНИПУЛЯТИВНЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема защиты студентов от манипулятивных воздействий в нашей стране, её сущность и основные признаки, социально-психологические особенности защиты обучающихся от манипулятивных воздействий, этнопсихологические особенности предрасположенности студентов к манипулятивным воздействиям и предупреждения различных воздействий, развитие у студентов рефлексивных черт, проявляющихся интегративно в результате манипулятивных воздействий, гендерные аспекты мотивации студентов к восприятию информации, речь идет о приоритетном характере коммуникативной мотивации. Также сказано, что в поведении студентов приоритетное развитие рефлексивных черт обусловлено дифференцированным проявлением базовых ценностей у студентов в условиях глобализации и в её предотвращении, интегративным проявлением у студентов в результате манипулятивных воздействий на основе способности к самоконтролю планирования, моделирования, программирования, гибкости, самостоятельности.

**Ключевые слова:** глобализация, манипуляция, мышление, эмоции, независимость, идеология, психологическое воздействие.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROTECTING STUDENTS FROM  
MANIPULATIVE INFLUENCES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

**Abstract.** In this article, the development of reflexive features in our country, which are manifested in an integrative way as a result of manipulative influences in students, the problem of its essence and main signs, the socio-psychological features of protecting students from manipulative influences, the ethnopsychological features of giving to manipulative influences in students and preventing various influences, the development of, talks about the priority character of communication motivation. It is also said that students priority development of reflexive features in student behavior due to the differential manifestation of base values in the conditions of globalization and its prevention, integrative manifestation on the basis of planning, modeling, programming, flexibility, self-control ability of independence as a result of manipulative influences in students.

**Keywords:** globalization, manipulation, thinking, emotion, independence, ideology, psychological impact.

**Kirish.** Hozirda axborot xuruji deb nom olgan tushunchalar o’ta nozik ko’rinishga ega bo’lib, borgan sari uning xavf-xatar darajasi yanada ortib bormoqda. Antik zamonlarda axborot xuruji yirik ko’rinishdagi harbiy urushlar, afsonalar, yolg’on targ’ibotlar ko’rinishida bo’lgan. Bu kabi xurujlarda dushmanlar bir-birlariga ochiq urush e’lon qilgan bo’lsalar, hozirgi vaqtidagi xurujlarda tashqi dushmanlar virtual, ya’ni ko’rinmas shaklda insonlarga o’z ta’sirini o’tkazyaptilar. Xakerlar, kiber jinoyatchilar bunga misol bo’la oladi.

Manipulyatsiya — bu o’z manfaati yo‘lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta’sir ko’rsatish. Haddan oshiq manipulyatsiya — bu axloqiy tamoyillarni hurmat qilmaydigan, aldaydigan va boshqalarning zaifligi va ishonuvchanligidan foydalanadigan nayrangchilar, firibgarlar va yolg’onchilarning hiylasidir. Eng kamida manipulyatsiya boshqalarning hisobidan nazorat o’rnatish, foyda olish yoki imtiyozlarni qo’lga kiritish uchun o’tkaziladigan ta’sirdir.

Manipulyatsiya oddiy ta’sir o’tkazish va ishontirishdan farq qiladi. Ta’sir o’tkazish odatda zararsiz deb hisoblanadi, chunki u ta’sir o’tkazilayotgan shaxsni ta’sirni qabul qilish yoki qilmaslik huquqini hurmat qiladi va ortiqcha majburlamaydi. Ishontirish — bu boshqalarni odatda ma’lum bir maqsad zamirida istalgan xatti-harakat tomon yo’naltira olishlik qobiliyatidir. Ta’sir o’tkazish va ishontirish na salbiy va na ijobjiydir.

Manipulyatsiya uchun motivatsiya o’z-o’ziga xizmat qilish yoki boshqalarga yordam berish yoki foyda keltirish bo’lishi mumkin. Anti-iijtimoiy manipulyatsiya — bu «boshqalarning hisobidan o’zining shaxsiy maqsadlari yoki manfaatlariga yetishish uchun foydalanish ko’nikmalarini ishlatishdir», iijtimoiy xulq-atvor esa «boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga yordam berish yoki foyda keltirish uchun mo’ljallangan ixtiyoriy harakat».

Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo’nalish bo’yicha to’g’ridan to’g’ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagи teleradio kanallar tomonidan tayyorlangan ko’rsatuв va eshittirishlar internet global tarmog’i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda. Yurtimizda faqat keyingi o’n yilning o’zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko’payib, bugungi kunda ularning umumiy soni 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning 53%, radiokanallarning esa 85 % nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko’rsatuвlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda. Yurtimizda internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal suratda kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Darhaqiqat, tafsilotlarni bayon etmoq va uni tushuntirib bermoq, shu orqali inson ruhiyatiga ta’sir etmoq muhim ahamiyat kasb etadi. "Adabiyot atomdan kuchli"- degan edi XX asrning buyuk adiblaridan biri Abdulla Qahhor. Adibning o’tgan asrda aytgan ushbu fikri bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotgani yo’q. O’zbek adibi Abdulla Qahhor ushbu fikrlarni aytganida dunyo ahli mafkuraviy poligonlar yadroviy poligonlardan kuchli bo’lishini va mafkuraviy poligonlarning asosiy quroli so’z bo’lib, butun dunyoni larzaga solishini tasavvur ham qilmagan bo’lsa kerak [1]. Tarixdan ma’lumki, tajovuzkor kuchlar biror davlatning yer osti va ustki boyliklariga egalik qilishni xohlab qolsa, och bo’lsada yurish qilavergan. Bugun minglab chaqirim masofani bosib o’tib, og’ir qurol-aslahalarni olib borish uchun sarflanadigan mablag’ o’rniga arzimagan mablag’ bilan "mo’ljaldagi" davlatni bir guruh fuqarolarining tafakkurini zaharlab, ongiga nosog’lom g’oyalar singdirish, qulay uslubga aylanib qoldi. Ayrim markazlar axborotlar oqimini yoyish orqali davlatlarda ichki nizolar keltirib chiqarmoqdalar. Bugungi kunda inson tafakkuri uchun kurash avj olib ketdi. Inson tafakkuri o’zi nima?

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining, aql-zakovati, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, iijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko’lAMDAGI faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr-mulohaza, g’oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi [2]. Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, axborot vositasida ta’sir ko’rsatish o’z ilmiy konsepsiyasiga ega bo’lib, bunda “Shaxs va iijtimoiy munosabatlar nazariyasi”, “Tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish” kabi ta’limotlarga tayaniladi. Psixologik ta’sir ko’rsatishni amalga oshirishda mintaqaviy, etnomadaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy kabi omillardan foydalanilishini ta’kidlash mumkin. Psixologik ta’sir ko’rsatish konspektiv va destruktiv jihatlarga ega. Uning konstruktiv jihatni ko’proq amaliy ahamiyat kasb etib, bevosita mamlakat strategiyasini amalga oshirish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo’ladi. Fuqarolarga xavfsizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida ijobjiy ustakovkalar berish, milliy rivojlanish g’oyalarining asosiy tamoyillarini singdirish, jamiyatda ifodalanishi mumkin bo’lgan iijtimoiy og’ishlarni silliqlash maqsadida turli usul va vositalar orqali olib boriladigan dasturiy tadbirlar majmuasini amalga tatbiq etilishidir [3].

**Tadqiqot obyekti** sifatida talabalarni manipulyatsion ta’sirlardan himoya qilishning o’ziga xos iijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o’rganish jarayonlari tanlangan bo’lib, tadqiqotda Buxoro davlat

universiteti va Qarshi davlat universitetlaridan jami 240 nafar talabalar jalb etilgan. Mafkuraviy poligonlar ta'siridan qanday qutulish mumkin? Mafkuraviy poligonlar xurujidan o'zimizni qanday himoya qilishimiz kerak? - degan savollar bugun barchani birdek qiynaydi. Ha, mafkuraviy poligonlarning turlari judayam ko'p, ular turli ko'rinishdadir. Masalan, chet eldan kirib kelayotgan ochiq pornografiya negizida nosog'lom g'oyalar yashiringan xorij teledasturlari, buzuq kayfiyatli ayrim internet saytlarini inson ongini zaharlash uchun foydalanadigan vositalar deb aytishimiz mumkin. Ushbu omillarni "Chet ellik hojatbarorlarimiz" to'g'ridan-to'g'ri vatanimizga olib kelib tarqatayotgani yo'q, aksincha, o'z vatandoshlarimiz "O'zlarining beminnat xizmatlarini mo'may pullar evaziga" taklif etmoqdalar.

Shuni unutmaslik kerakki, tajovuzkor kuchlarning oddiy rahbarlaridan tortib oddiy vakillarigacha hammasi boshqa insonlardan o'z maqsadlari yo'lida bir "vosita" sifatida foydalanadilar. Bu "vosita" manfaat keltirmay qo'ygach, "keraksiz matodek" uloqtiriladi. Biroq ular muloqot jarayonida, shaxsiy manfaatlari doirasida so'zlashayotganida o'z ichki kechinmalarini aslo sezdirmaydilar. Aksincha, o'zlarini olижаноб, sahovatpesha, hojatbaror sifatida ko'rsatib, sodda odamlarni aldaydilar. Bunday sahovatpesha kuchlar bizning jonajon vatanimizga ham ko'z olaytirgan. Shuning uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi qabul qilinayotgan axborotni har jihatdan mulohaza qilib, o'z ongida psixologik sintez-analizdan o'tkazib, axborotning mavzusi, mavzuning g'oyasi, g'oya ortidagi maqsadni anglab yetgan holda to'g'ri xulosa chiqara olishi kerak. Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun har bir inson ongida sog'lom siyosiy psixologiyani, sog'lom siyosiy ruhiyatni shakllantirishimiz, boyitib va rivojlantirib borishimiz kerak. Buning uchun ishni, avvalo, oiladan boshlash kerak. Zero, inson oilada dunyoga keladi, shu makonda tarbiyalanadi; mahallada o'sib ulg'ayadi, bog'chada, mактабда kamolotga yetadi, demak, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lib shakllanadi.

**Qо'llanilgan metodlar.** Biz tadqiqot ishimiz davomida talabalarning manipulyatsion ta'sirlarga qanchalik tez berilishida ularning xulq-atvorida mavjud xarakter xususiyatlarining ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun V.I.Morosanovning "Xulq-atvorni o'z-o'zini boshqarish uslubi" so'rovnomasidan foydalandik. Shunindek, biz talabalarda manipulyatsion ta'sirlar vaqtida emotsiyonal holatlarni boshqarishni o'rgatishga qaratilgan trening mashg'ulotlari ham o'tkazdik. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarda sun'iy ravishda manipulyatsion ta'sirlar, vayronkor va buzg'unchi mafkuralar xuriji uyushtiriladi. Bu vaziyatlarda ularning emotsiya va hissiyotlarini aqlan boshqarish va qarshi g'oyaviy kurashchanlikka safarbar qilish ko'nikmalar haqidagi bilimlar kengaytirish edi. Biz o'z oldimizga quyidagilarni vazifa sifatida belgilab oldik:

1. Emotsiyalar bilan tanishish.
2. Emotsiyalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini anglash.
3. Emotsiyalarni ijtimoiy ma'qullangan shaklda buzg'unchi, vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi namoyon qilish yo'llarini izlash.

Mafkuraviy xurujlar vaqtida emotsiyonal holatlarni boshqarishga qaratilgan trening mashg'ulotlarining quyidagi o'ziga xosliklari mavjud:

- a) faoliyat jarayonida ishtirokchilardan samimiylilik va oshkorlik talab etiladi, buning uchun guruh jipslashgan bo'lishi lozim;
- b) mashg'ulotlar davomida trenerdan katta mas'uliyat talab qilinib, u guruhdagi o'zaro ishonchni saqlab turishi kerak;
- v) emotsiyonal muammolar mashg'ulotlar davomida niqoblangan o'yinlar, mashqlar orqali ko'rsatib berilishi darkor.

Talabalarda manipulyatsion ta'sirlarga qarshi immunitet shakllanishining ta'sirchan ijtimoiy-psixologik trening dasturini tashkil etish psixolog faoliyatining murakkab va ko'p qirrali imkoniyatlaridan sanaladi. Ushbu faoliyatning tashkiliy jihatlarini yengillashtirishda talabalar manipulyatsion ta'sirlarga qarshi immunitet shakllanishining ta'sirchan psixologik dasturining nazariy jihatdan asoslanishi muhimdir.

Axborot-psixologik xavfsizlik - bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ma'nnaviy-ruhiy ta'sir, buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Biz korreksion dastur o'tkazganimizdan so'ng talabalarning xulq-atvorida o'zgarishlar sodir bo'lgan yoki bo'lмаганligini tahlili 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

**V.I.Morosanovaning “Xulq-atvorni o’z-o’zini boshqarish uslubi” so’rovnomasi bo'yicha tajriba guruhidan olingan natijalar tahlili (n=110)**

Omillar	O'rtacha qiymat		t	P
	M1	M2		
<b>Rejalahtirish</b>	14,2	20,3	7,3	0,000
<b>Modellashtirish</b>	18,4	23,8	9,6	0,000
<b>Dasturlashtirish</b>	17,2	22,1	8,1	0,000
<b>Natijalarni baholash</b>	13,5	16,2	6,3	0,005
<b>Moslashuvchanlik</b>	16,1	19,1	7,6	0,004
<b>Mustaqillik</b>	14,5	12,3	7,1	0,000
<b>O'zini o'zi boshqarishning umumiy darajasi</b>	15,2	19,2	6,8	0,002

Tadqiqot natijalari tahliliga o'tadigan bo'lsak, so'rovnomaning dastlabki “**Rejalahtirish**” omilida yuqori statistik tafovutlar aniqlandi (ishonchlilik darajasi p<0,000). Bu globallashuv davrida talabalarda uchraydigan turli xil manipulyatsion ta'sirlar jarayonida shaxsning faoliyatni ongli ravishda rejalahtirish, o'z faoliyatini ongli ravishda tashkil qilish, ijtimoiy munosabatlarda o'z pozitsiyasini anglash kabi sifatlarni shakllanganligini anglatadi.

“**Modellashtirish**” omilida ham sezilarli farqlar kuzatildi (ishonchlilik darajasi p<0,000). Mazkur omilning talabalarda yuqori darajada shakllantirishdan maqsad ularni tashqi va ichki muhim sharoitlar to'g'risidagi g'oyalarning individual rivojanishini, ularning xabardorlik darajasi, tafsiloti va adekvatligini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari talabalar hozirgi vaziyatda ham, uzoq muddatli kelajakda ham maqsadlarga erishish uchun muhim shart-sharoitlarni aniqlay oladilar, bu harakat dasturlarining faoliyat rejalariga muvofiqligi, olingan natijalarning qabul qilingan maqsadlarga muvofiqligi bilan namoyon bo'ladi.

“**Dasturlashtirish**” omili talabalarning o'z harakatlarini ongli ravishda dasturlashning individual rivojanishi haqida kerakli tasavvurlarni shakllantirish imkonini beradi (ishonchlilik darajasi p<0,000). Ushbu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar insonning o'z harakatlari va xatti-harakatlari yo'llarini ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun, ishlab chiqilayotgan dasturlarning batafsil va ishlab chiqish darajasi haqida o'ylash zarurligini ko'rsatadi. Har bir talaba o'quv faoliyati davomida erishgan natijalarini izchlik ravishda gipoteza qila olish qobiliyatiga ega bo'lsa, ularning turli ko'rinishdagi axborot ta'sirlariga tushish ehtimoli shunchalik past bo'ladi.

“**Natijalarni baholash**” omili talabalarda o'zlarini va ularning faoliyati va xatti-harakatlari natijalarini baholashning individual rivojanishi va adekvatligini tavsiflash maqsadida qo'llaniladi (ishonchlilik darajasi p<0,005). Bu esa talabalardagi o'z-o'zini baholashning rivojanishi va yetarlilagini, natijalarni baholashning subyektiv mezonlarining shakllanishi va barqarorligini ko'rsatadi. Talaba erishilgan natijalar va faoliyat maqsadi o'rtasidagi nomuvofiqlik faktini, shuningdek, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan tarzda moslashishga olib kelgan sabablarni adekvat baholay oladi.

Talabalarni manipulyatison ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirishdagi yana bir muhim jihatlardan biri bu ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda “**Moslashuvchanlik**” darajalari sanaladi. Agar shaxs o'zi yashab turgan muhitga qanchalik moslasha olsa, ularda turli xil salbiy hissiyotlarni o'rnini ijobiy muhit egallaydi. Mazkur omilni talabalarda shakllantirishdan asosiy maqsad moslashuvchanligining shakllanish darajasini, ya'ni tashqi va ichki sharoitlar o'zgarganda o'z-o'zini boshqarish tizimini qayta qurish, tuzatishlar kiritish qobiliyatlarini hamda ekstremal vaziyatlarda kerakli munosabatni bildira olish ko'nikmasi, xatti-harakatlarning rejalarini va dasturlarini osongina qayta tiklay olish bilan belgilanadi.

“**Mustaqillik**” omilida yuqori farqlar aniqlandi (ishonchlilik darajasi p<0,000). Talabalarda mustaqillik sifatining yuqori bo'lishi shaxs faoliyatini tashkil etishda avtonomiya, uning faoliyati va xulq-atvorini mustaqil ravishda rejalahtirish, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ishlarni tashkil etish, uning bajarilishini nazorat qilish, faoliyatning oraliq va yakuniy natijalarini tahlil qilish, baholash va turli ta'sirlar paytida o'zini adekvat nazorat qilish qobiliyatidan dalolat beradi.

“**O'zini o'zi boshqarishning umumiy darajasi**” O'z-o'zini boshqarishning umumiy darajasi yuqori bo'lgan subyektlar mustaqil, moslashuvchan va o'zgaruvchan sharoitlarga, ko'p jihatdan ongli ravishda rag'batlantirish va maqsadga erishishga adekvat munosabatda bo'lishadi. Yuqori yutuq motivatsiyasi bilan ular maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan shaxsiy, xarakterli xususiyatlarning ta'sirini qoplashga imkon beradigan o'zini o'zi boshqarish uslubini shakllantirish bilan xarakterlanadi. Ongli boshqarishning umumiy darjasasi qanchalik yuqori bo'lsa, odam yangi faoliyat turlarini qanchalik oson o'zlashtirsa, notanish vaziyatlarda o'zini qanchalik ishonchli his qilsa, odatiy faoliyatdagi muvaffaqiyati shunchalik barqaror

bo’ladi. Xulosa qiladigan bo’lsak, talabalardagi o’zini-o’zi boshqarish darajalari qanchalik yuqori bo’lsa, ularni turli ta’sirlardan himoyalanganligi ham shunchalik yuqori bo’ladi.

**Xulosa.** Bizning mazkur ishimizdan olgan natijalarimizga ko’ra quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin: Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish orqali ularni turli xil manipulyatsion ta’sirlardan himoyalashda jins farqlarida ishonchli farqlar kuzatildi, ya’ni o’tkazilgan tadqiqotlarda psixologik himoya mexanizmlari qiz bolalarda o’g’il bolalarga nisbatan yuqori shakllanganligini ko’rish mumkin. Talabalarni manipulyatsion ta’sirlardan himoyalashning ijtimoiy-psixologik usullarini yoshlarni turli axborot manbaalaridan foydalanish holati, axborot madaniyati asoslari, axborot faolligining motivatsion tarkibini o’rganish orqali aniqlash mumkinligi isbotlandik. Globallashuv davrida talabalarda uchraydigan turli xil manipulyatsion ta’sirlar jarayonida shaxsning faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish, o’z faoliyatini ongli ravishda tashkil qilish, ijtimoiy munosabatlarda o’z pozitsiyasini anglash kabi sifatlarni muhim ahamiyatga ega ekanligini aytishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Журбин, И. В. Понятие психологической защиты в концепциях З. Фрейда и К. Роджерса / И. В. Журбин // Вопр. психологии. 1990. - № 4. -С. 14-23.
2. Киршбаум Э.И., Еремеева А.И. Психологическая защита. 2-е изд. – М.: Смысл, 2000.
3. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием: 2-е изд., испр. – М.: Эксмо, 2003.
4. Келлерман, Барбара Идущие за лидером / Барбара Келлерман. - М.: Аквамариновая Книга, 2009. - 384 с.
5. Лернер М. Развитие цивилизации в Америке. Образ жизни в Соединенных Штатах сегодня. - М., 1992. 91 с.

*Quliyev Yorqin Karimovich,*  
*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasasi o'qituvchisi*

## KORRUPSIYA VA KORRUPSIYAVIY XULQ-ATVOR FENOMENINING PSIXOLOGIK TALQINI

**Annotatsiya.** Korrupsiya jamiyat hayotining murakkab noaniq hodisasi va ilmiy tushuncha sifatida uzoq vaqt davomida turli olimlar tomonidan o'r ganilgan va talqin qilingan. "Korrupsiya" tushunchasining tarkibi va tuzilishi vaqt o'tishi bilan o'zgardi. Uning mazmunini hodisa, hayotiy va ilmiy tushunchalar sifatida tushunish uchun uni ta'riflashning tarixiy va zamonaviy manbalari o'r ganildi. Maqolada "Korrupsion o'zaro munosabatlar" konsepsiyasini aniqlashni shakllantirishga qaratilgan "korrupsiya" tushunchasining mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiyaga oid huquqbazarlik, manfaatlar to'q nashuvi, davlat korrupsiyasi, biznesdagi korrupsiya, pora olish, mahalliy (ichki) korrupsiya, tizimli korrupsiya, kleptokratiya, nepotizm, noqonuniy lobbichilik.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА КОРРУПЦИИ И КОРРУПЦИОННОГО ПОВЕДЕНИЯ

**Аннотация.** Коррупция как сложное неоднозначное явление общественной жизни и научное понятие которого долгое время изучалось и интерпретировалось различными учёными. Состав и структура понятия "коррупции" со временем менялись. Для понимания его содержания как явления, жизненных и научных понятий были изучены исторические и современные источники его описания. В статье проанализированы изменения в содержании и структуре понятия "коррупция", направленные на формирование определения понятия "коррупционного взаимодействия".

**Ключевые слова:** коррупционные правонарушения, конфликт интересов, государственная коррупция, коррупция в бизнесе, взяточничество, местная (внутренняя) коррупция, системная коррупция, клептократия, кумовство, незаконное лоббирование.

### PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF CORRUPTION AND CORRUPTIVE BEHAVIOR

**Abstract.** Corruption as a complex ambiguous phenomenon of the life of society and a scientific concept has long been studied and interpreted by various scientists. The composition and structure of the concept of "corruption" has changed over time. To understand its content as a phenomenon, vital and scientific concepts, historical and modern sources of its definition were studied. The article analyzes the changes in the content and structure of the concept of "corruption", aimed at forming the definition of the concept of "corrupt interaction".

**Keywords:** corruption infringement, conflict of interest, public corruption, business corruption, bribery, local (internal) corruption, systemic corruption, kleptocracy, nepotism, illegal lobbying.

**Kirish.** "Korrupsiya" tushunchasining tarkibi va tuzilishi vaqt o'tishi bilan o'zgardi. Uning mazmunini hodisa, hayotiy va ilmiy tushunchalar sifatida tushunish uchun biz uni ta'riflashning tarixiy va zamonaviy manbalariga murojaat qildik. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy va dolzarb usullari, uni zamonaviy talqin etishning o'ziga xos xususiyatlari o'r ganildi.

Korrupsiyani chuqur ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa sifatida o'r ganish muammosi ming yildan ko'proq vaqt davomida mavjud. "Korrupsion o'zaro munosabatlar" konsepsiyasini aniqlashni shakllantirishga qaratilgan tahlillarimiz doirasida "korrupsiya" tushunchasining mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlari insoniyat tarixi davomida va hozirgi paytda kuzatib borish dolzarb bo'lib qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tufayli bizda korrupsiya tushunchasining tarkibi, tuzilishi, uning tarixiy kelib chiqishi va dunyoning turli mintaqalarida jamiyatning korrupsiyaga munosabati to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi manbalarni o'r ganish natijalari shuni ko'rsatadi, ushbu hodisa mazmunining zamonaviy shakli ham davlat apparatining paydo bo'lishi bilan deyarli bir vaqtida paydo bo'lgan va ma'lum darajada rivojlanishning turli tarixiy davrlarida barcha mamlakatlarga xos bo'lgan.

Korrupsion o‘zaro munosabatlarning eng keng tarqalgan misollaridan biri bu poraxo‘rlikdir. Qadim zamonlardan beri hukumat amaldorlari va oddiy odamlar bunday o‘zaro munosabatlar davlat va jamiyatning alokalariga zid ekanligini tushunishgan. Masalan, biz Bobil shohi qonunlarida korrupsiyaga berilgan birinchi "ta’riflaridan" birini ko‘rishimiz mumkin. Hamurapi(Bobil shoxi) konuninig 5-bo‘limi: “Agar suda ishni ko‘rib chiqib, qaror qabul qilgan va muhr bilan uni tasdiklab hujjat chiqargan bo‘lsa va shundan keyin xam o‘zi tasdiqlagan qarorini o‘zgartirgan bo‘lsa, ushbu holatda suda o‘zi qabul qilgan qarorni o‘zgartirganlikda aybdor deb topilishi kerak. Shu bilan birga bu holatda da‘vo miqdoridagi tulovdan o‘n ikki baravar ko‘p miqdorda suda tomonidan jarima to‘lanishi kerak; bundan tashqari, u sudyalik lavozimidan haydalishi kerak”.(2).

Yuqorida keltirilgan qonundagi jinoyat tavsifiga tuxtalamiz: unda sudyaning qarorida noqonuniy (asossiz) o‘zgartirishlar mavjudligini, ya’ni rasmiy (rahbar) shaxs tomonidan noqonuniy harakat sodir etilishi qayd etilgan. Ushbu misolda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: suda (davlat amaldori sifatida); obyektiv sabablersiz qarorni o‘zgartirishi (ya’ni hokimiyat ishonchini suiste’mol qilish va firibgarlik); pul yoki boshqa moddiy komponent, ya’ni "da‘vo qilingan miqdor" jarima va ish joyidan mahrum qilish kabi jazo shakllari qo‘llanilganligi haqida ma’lumot keltirilgan. Shunday qilib, korrupsiyaga oid jinoyatlar qadimdan rasmiy hokimiyatni suiste’mol qilish va mansabdar shaxslar tomonidan amalga oshirilgan firibgarlik sifatida qonun buzilishi deb tushunilib kelingan.

Qadimgi Yunonistonda esa korruptsianing terminologik ekvivalenti qo‘llanilgan. Bu atama buzg‘unchilik qilish, avvalo, suvni talon-taroj qilish, mol-mulkni yoqish, davlatni sovurish bilan tenglashtirildi. Shu bilan birga, "*korrumpere*" atamasi ijtimoiy ma’noga ega—*axloqni, tartibni buzish, erkinlikni buzish, yoshlarni yo‘ldan urish, shuningdek jamiyatga zarar yetkazish* kabi bir necha komponentlardan tuzilgan hisoblanadi. Ya’ni, atama ijtimoiy hayot uchun zararli tarkibiy qismlardan biri bo‘lib qolayotgan tartibning buzilishi, erkinlikning buzilishi, shuningdek, axloqiy buzuqlikni ham o‘z ichiga oladi (axloqni rad etish ham korruptsianing bir turidir). Qadimgi Yunonistonda poraxo‘rlik shunchalik teztez uchraganki, hattoki Platon o‘z burchini bajarish uchun sovg‘alar oladigan amaldorlarni o‘ldirishni taklif qilgan (4).

**Tahlil va natijalar.** Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, vaqt o‘tishi bilan korruptsianing ko‘rinishlari yangi shakllarga o‘tgan va tarqalgan. Yevropada O‘rtalashtirish davomida, "korrupsiya" tushunchasi *diniy sotqinlik, "vasvasa" sifatida, "iblisning vasvasasi" va "gunoh" sifatida* qaralgan. Lotincha «corruptibilitas» so‘zi insonning ko‘ngil bo‘shligi, halokatga moyillagini anglatgan.

Hozirgi ma’noda korrupsiyaning tushunishga italiyalik mutafakkir va siyosatchi Nikolo Di Bernardo Makiavelli (1469-1527) asarlari muhim turtki beradi. N. Makiavelli korrupsiyanı dastlab aniqlash qiyin bo‘lgan, ammo davolash oson, biroq boshlanganda aniqlash oson va davolash qiyin bo‘lgan kasallik bilan taqqoslaydi: "*korrupsiya isitmaga o‘xshaydi, uni dastlab aniqlash qiyin, lekin davolash osonroq. Agar shunday bo‘lsa boshlash oson, lekin uni davolash qiyin.*" Korrupsiya bilan buzilgan odamlar uchun erkin qolish juda qiyin(Machiavelli, 1982, 78-79-betlar). Bu satrlardan keyin XVI asrga kelib Yevropada korruption o‘zaro munosabatlarning ko‘lamni oydinlashadi. Muallif korrupsiyaning ommaviyligini va uning davlatga yetkazadigan zararini ham qayd etib utgan.

Rossiyada normativ hujjatlardagi "korrupsiya" atamasi faqat zamonaviy tarix bosqichidagina paydo bo‘ldi. Biroq, korrupsiyaning ayrim shakllari rus davlatchiligi tarixi davomida mavjud bo‘lgan va keng tarqalgan: sudxo‘rlik (Tatar-mo‘g‘ullarga hurmat va boshqalar); poraxo‘rlik (Pyotrdan oldingi davrdagi amaldorlarga pora berish va boshqalar); byurokratizm (davlat va cherkov apparatining asossiz o‘sishi); talon-taroj qilish (davlat byudjetidan mablag‘larni o‘zlashtirish). Ushbu korruption ko‘rinishlari uchun tarixiy bosqichlarda turli xil jazo turlari mavjud bulgan.

Sobiq ittifoq davrida "burjua" terminidek "korrupsiya" termini ham qonunchilik doirasida bo‘lmagan. Biroq, "poraxo‘rlik", "amaldorga pora berish", "rasmiy hokimiyatni suiste’mol qilish", "rasmiy lavozimni suiste’mol qilish" - kabi shunga o‘xshash jinoyatlarga juda jiddiy bo‘lgan jazolar belgilangan. Ammo davlat apparatining amalda o‘sishi, mablag‘larning nazoratsiz sarflanishi, cheksiz kuch va shaxsga sig‘inish-bularning barchasi hukumatning barcha darajalarida korrupsiya tarmoqlarining rivojlanishi va kengayishiga olib keldi.

Tadqiqotchilar korruption o‘zaro munosabatlarni ancha oldin tushunish va ilmiy o‘rganishni boshlaganlar. Bugungi kunga qadar ushbu mavzuga bag‘ishlangan katta miqdordagi materiallar va uning konseptual asoslari to‘plangan bo‘lib, ular nafaqat ilmiy, balki jurnalistik adabiyotlarda ham mavjud.

“Britannica” ensiklopediyasi - ingliz tilidagi eng keng qamrovli va eng qadimgi universal ensiklopediyada (6) "korrupsiya" tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: korrupsiya odatda o‘zi yoki boshqasi uchun foyda olish uchun mo‘ljallangan noqonuniy harakatlardir. Uning shakllariga poraxo‘rlik, tovlamachilik va ichki ma’lumotlarni suiste’mol qilish kiradi. Marosim sovg‘asi madaniyatiga ega

jamiyatlarda ko'pincha qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan sovg'alar orasidagi chiziqni chizish qiyin. "Britannica" ensiklopediyasida quyidagi ta'rifni ko'ramiz: "korrupsiya (lat. Corruptio - korrupsiya, poraxo'rlik), mansabdor shaxs tomonidan o'z lavozimi bo'yicha berilgan huquqlardan shaxsiy boyish maqsadida bevosita foydalanishdan iborat jinoyat. Korrupsiya amaldorlarning poraxo'rligi, sotqinligi ham deyladi. "Ikkala ta'rifda ham o'xshash xususiyatlar mavjud: qilmishning jinoiy yoki noqonuniy tabiat, shaxsiy boyitish yoki shaxsiy manfaat. Bunday xususiyatlar amaldorga tegishli ekanligini ta'kidlaydi.

"Transparency International", Juhon banki va boshqa tashkilotlar korrupsiyani shaxsiy manfaat uchun ishonchli hokimiyatni suiste'mol qilish moddiy yoki nomoddiy o'zlarining yoki uchinchi shaxslarning foydalari uchun, a korruptsianing tarkibiy qismi – hokimiyatni suiste'mol qilish deb ta'kidlangan(5).

Normativ hujjatlar odatda ma'lum tushunchalarning eng batafsil talqinlarini belgilaydi. Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa shu kabi ko'plab mamlakatlarning huquqiy asoslari "korrupsiya" tushunchasini va uning amaldagi shaklini ham o'z ichiga oladi. Ularning barchasi bir-biri bilan bog'liq. Biz bir qator qonubuzarlikning tarkibiy elementlarini va ularning o'zaro munosabatlarini qonunchilik doirasida "korrupsiya" tushunchasida aniqlashimiz mumkin. Ushbu elementlar:

- 1) muayyan vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxs;
- 2) rasmiy lavozim/rasmiy vakolatlarni suiste'mol qilish;
- 3) pora berish/olish;
- 4) pul shaklida foyda olish, boyliklar, boshqa mulk yoki mulkiy xizmatlar, o'zi uchun yoki uchinchi shaxslar uchun boshqa mulkiy huquqlar (shu jumladan: lobbi).
- 5) mulkni o'zlashtirish va suiste'mol qilish (jumladan, noqonuniy boyish);
- 6) mol-mulk va daromadni yashirish;
- 7) adolatga to'sqinlik qilish;
- 8) pora olish jinoyat hisoblanishi.

BMTning korruptsiyaga qarshi Konvensiyasida (31.10.2003 y.) keltirilgan ta'rifda korruptsiyaga oid jinoyatlar/aktlarga quyidagilar kiradi: *mansabdor shaxslarning poraxo'rligi, shu jumladan chet ellik shaxslarni sotib olish, talon-taroj qilish, mol-mulkni o'zlashtirish va suiste'mol qilish, lobbichilik, rasmiy lavozimni suiste'mol qilish, noqonuniy boyish, poraxo'rlik, mol-mulk va daromadlarni yashirish, adolatga to'sqinlik qilish* va boshqalar (Birlashgan Millatlar Tashkilotining korruptsiyaga qarshi Konvensiyasi, 2003, p. 10). Ushbu ta'rifda korrupsiya harakatlarining mumkin bo'lgan turlari batafsilroq keltirilgan. Masalan, xorijiy amaldorlarning poraxo'rligi, mol-mulkini suiste'mol qilish, noqonuniy boyitish, daromadni yashirish, shuningdek, korruptsianing eng muhim elementi-adolatga to'sqinlik qilish alohida belgilab qo'yilgan. Biroq, asosiy elementlar jahon qonunchiligida belgilangan: rasmiy lavozimni suiste'mol qilish va amaldorlarning poraxo'rligi kabi o'xshashliklarni takrorlaydi.

Shunga o'xshash tasniflash tizimini "Criminal Law" korrupsiya bo'yicha Yevropa Jinoyat huquqi Konvensiyasida ham topishimiz mumkin. "On Corruption", korruptsiani jismoniy va yuridik shaxslar uchun jinoyat deb tasniflaydi (Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya, 1999, 8-11 betlar).

Mavzu yuzasidan o'rganilgan adabiyotlar tahlillaridan "korrupsiya" tushunchasi mazmunining o'zgarishi 1-jadvalda belgilandi.

#### 1-jadval.

Turli tarixiy davrlarda "korrupsiya" tushunchasi ma'nosining o'zgarishi

<b>"Korrupsiya"</b> tushunchasining tuzilish elementlari	<b>Tarixiy talqini</b>	<b>Zamonaviy talqini</b>
<b>Mansabdor shaxs</b>	<b>Qadimiyy Bobil:</b>  Mansabdor shaxs tomonidan xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish va firibgarlik ko'rinishida qonubuzarlikni sodir etish	BMTning korrupsiya qarshi Konvensiyasi (2003 yil 31 oktyabr):  korruption xuquqbazarlik/harakatlarga quyidagilar kiradi: mansabdor shaxsga pora berish, o'g'rilik, mulkni g'ayriqonuniy o'zlashtirish va maqsadsiz foydalanish, lobbizm, xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish, qonunga xilof boylik orttirish, mol-mulk va daromadni yashirish.
<b>Mansabni</b>	<b>Qadimiyy Yunoniston:</b>	<b>korrupsiya</b> – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini

<b>suiste'mol qilish</b>  <b>O'rta asr Yevropasi:</b>  Vayronagarchilikka moyillik, gunohkorlik	Yoshlarning ahloqini buzish, erkinlikka to'sqinlik qilish, tartibni izdan chiqarish  <b>Evropa, XIX va XX asrlar (K. Marks)</b>  Jamiyat manfaatlarini muayyan amaldorning shaxsiy manfaatlariga almashtirish	yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;
<b>Foya (manfaat) olish</b>	<b>korrupsiyaga oid huquqbuzarlik</b>  korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;	<b>manfaatlar to'qnashuvি</b> shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Miloddan avvalgi 2400 yillikda allaqachon "korrupsiya" tushunchasi mansabdor shaxslar xulq-atvor shakllaridan biri sifatida "rasmiy hokimiyatni suiste'mol qilish"ni o'z ichiga oladi, ya'ni "korrupsiya" tushunchasining uchta majburiy elementlaridan ikkitasi paydo bo'ladi.

**Maqolamizninig ikkinchi bosqichida** turli tarixiy davrlarda "korrupsiya" tushunchasining tarkibi va tuzilishi, korrupsiyaning asosiy tarkibiy elementlari, korrupsiyaga oid jinoyatlarning turlari, korrupsion munosabat turlarining tahlillari keltirildi.

Hozirgi kunda jahon qonunchiligidagi korrupsion o'zaro munosabatlarning barcha shakllari va u uchun javobgarlik choralarini batafsil va aniq belgilangan. Shuni ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq tizimida huquqiy tomondan tartibga solishida "korrupsiya" iborasining yo'qligi davlat va jamiyatdagi korrupsion o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning qo'shimcha sabablaridan biri bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining amaldagi chora-tadbirlari yanada rivojlantirishga qaratilgan. Rossiya va xalqaro qonunchilikda, masalan tahlil materiallaridan ko'rinib turibdiki, buzg'unchi uchun yoki uning manfaatlari uchun "foya" (shaxsiy foya, moddiy/nomoddiy foya) tarkibiy qismi 19-asr oxirida alohida zaruriy tarkibiy qism sifatida ajratilgan. Hozirgi vaqtida qonunga ko'ra, bunday jinoyatlarda qandaydir foya shaklining mavjudligi jinoyatchini qonunning tegishli tartiblari bo'yicha jalb qilishning zaruriy sharti bo'lib qolmoqda.

Korrupsiya ostida biz shaxsiy imtiyozlarni olish maqsadida rasmiy vakolatlarni suiste'mol qilishni tushunamiz. Korrupsiyaning asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

1) vakolatga ega bo'lgan shaxs;

2) hokimiyatni suiste'mol qilish (rasmiy/rasmiy lavozim – boshqacha qilib aytganda, manfaatlar to'qnashuvи mavjudligi) uchinchi shaxs/shaxslar manfaatlari uchun; shaxsiy daromad (moddiy yoki nomoddiy);

3) mansabga ega shaxs tomonidan tomonidan ta'magirliklar.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarning turlari (shakllari) xilma-xil bo'lgan va hanuzgacha mavjud. Tarixan, korrupsiyaning poraxo'rlik va talon-taroj holatlari yaxshi o'rganilgan, lekin hozir, xalqaro huquqga ko'ra, korrupsiyaviy o'zaro munosabatning boshqa ko'plab shakllari mavjud. Turli xil korrupsiya turlari uchun jinoyatchi boshqa javobgarlik choralariga duch keladi. Shuning uchun biz har bir turning tarkibiy xususiyatlarini muhim deb hisoblaymiz.

Amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchilikka asoslanib, korrupsiyaga qarshi o‘zaro munosabatning turli tarkibiy xususiyatlari (elementlari) bilan bog‘liq o‘ziga xos turlari mavjud. Korrupsion o‘zaro munosabatlarning turli asoslarga ko‘ra tasniflari quyidagi 2-jadvalda keltirildi:

**2-jadval.**

**Korrupsion munosabat turlari**

<b>Korrupsion munosabatning tuzilish elementlari</b>	<b>Korrupsion munosabat klassifikatsiyalarining toifasi</b>	<b>Korrupsion munosabatning turlari</b>
<b>Mansabдор шахс</b>	1. Mansabni suiiste’mol qiluvchi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Davlatga oid korrupsiya (amaldorlar va davlat xizmatchilarining munosabatlari);</li> <li>- Biznes-korrupsiya (tashkilotlardi munosabatlari).</li> </ul>
	2. Korrupsion munosabatning tashabbuskorি	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Pora undirish, ta’magirlik (poraxo‘rlik va sudxo‘rlik yoki “qulaylik” porasi va “omonlik” porasi);</li> <li>- Uchinchi shaxs tashabbusi bilan mansabдор shaxsga pora berib, uni sotib olish.</li> </ul>
	3. Korrupsion munosabatlarning markazlashganlik darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Markazlashmagan korrupsiya (har bir korruptioner mustaqil faoliyat yuritadi);</li> <li>- Markazlashgan korrupsiya (guruhiy sxema faoliyat yuritiladi, unda har bir ishtirokchi o‘zining muayyan manfaatiga ega bo‘ladi).</li> </ul>
<b>Xizmat vakolatlarini suiste’mol qilish</b>	1. Pora beruvchi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yakka tartibdagi pora;</li> <li>- Kollektiv (tashkiliy) pora.</li> </ul>
	2. Korrupsion munosabatlarning tarqalganlik darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Quyi (maishiy) korrupsiya;</li> <li>- Biznes tashkilotlarda korrupsiya (iqtisodiy-ijtimoiy korrupsiya);</li> <li>- Siyosiy korrupsiya (bir davlat doirasida uning eng yuqori hokimiyat cho‘qqisidagi korrupsiya);</li> <li>- Xalqaro korrupsiya (ofshor tashkilotlar va “manffatli” hamkorlikning boshqa sxemalari).</li> </ul>
	3. Korrupsion munosabatlarning muntazamligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tasodifiy korrupsiya (korruption huquqbazarlikning yolg‘iz holatlari);</li> <li>- Sistematiq korrupsiya (davlat yoki tashkilotning siyosiy va iqtisodiy tizimlari korruptionsiz faoliyat yurita olmaydi);</li> <li>- Kleptokratiya (noqonuniy yo‘l bilan boylik va xizmatlarni olishga bo‘lgan bog‘liqlik).</li> </ul>
<b>Manfaat</b>	1. Manfaat shakli	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Moddiy (pul, boyliklar, mulk, mansab);</li> <li>- Nomoddiy (oshna-og‘aynigarchilik yoki nepotizm, noqonuniy lobbizm).</li> </ul>

Jadvalda ko‘rsatilganidek, korruption munosabatlarning barcha turlari tarkibiy xususiyatlariiga (elementlariga) ko‘ra umumiy tasnifga e’tibor berib, turli asoslarda tasniflangan. Shu bilan birga korruptionsyaning batafsil belgilanishi kerak bo‘lgan korruption jinoyatlarining o‘ziga xos shakllari ko‘rsatilgan.

**Davlat korrupsiysi** – davlat va mahaliy hokimiyat tizimida moddiy va nomoddiy tovarlarni olib chiqish va muomalada bo‘lishning noqonuniy sxemalarining ishlashi, shu jumladan talon-taroj qilish.

**Biznesdagи korrupsiya** – iqtisodiy resurslar aylanishining noqonuniy sxemalari, shu jumladan: sun’iy bankrotlik, reyd va boshqalarni ishlatish, tijorat tashkilotlari tizimlarida (ichki va tashqi) iqtisodiyotning turli sohalarida, biznes va davlat idoralarining o‘zaro munosabatlarda uchraydi.

**Pora olish** – noqonuniy ravishda foyda olish uchun shaxsga korruption bosim o‘tkazish. Pora-mansabдор shaxs tomonidan pora beruvchining manfaati uchun harakat yoki harakatsizlik uchun qabul qilingan moddiy tuhfalar (buyumlar, pullar, xizmatlar, boshqa mulkiy imtiyozlar), bu shaxs o‘zining rasmiy pozitsiyasi tufayli qila olmagan yoki qilmasligi kerak bulgan harakat (5).

**Poraxo‘rlik** (tijorat poraxo‘rligi) – moddiy tovarlar va xizmatlarni mansab va vakolatga ega bo‘lgan shaxsga noqonuniy topshirish.

**Mahalliy (ichki) korrupsiya** - foyda olish uchun mansabdor shaxsning rasmiy mavqeini suiste'mol qilish bilan bog'liq noqonuniy harakatning muntazam shakli emas. Bu turdag'i korrupsiyani sodir etuvchi mansabdor shaxs quy'i va o'rta darajadagi mutaxassislar, masalan, shifokor, o'qituvchi, yo'l xarakati xavfsizligi inspektori, davlat xizmatlari markazining xodimi va boshqalardir.

**Tizimli korrupsiya** - (davlat yoki tashkilotning siyosiy va iqtisodiy tizimlari korrupsiya tarkibiy qismisiz ishlay olmaydi). Bunday tizimdag'i o'zaro ta'sir shakllaridan biri bu "otkat"-boshqa talabgorlarning raqobatbardosh xususiyatlarini hisobga olmaslik. Balki tovar yoki xizmatlarni yetkazib beruvchini tanlashda ma'lum bir taklifni shaxsiy manfaati yulida tanlagani uchun mansabdor shaxs tomonidan qabul qilingan belgilangan miqdor yoki bitim summasining foizi ko'rinishidagi mukofotning olinishi.

**Kleptokratiya** (yunon tilidan "o'g'irlamoq" va "o'g'rilar hukmronligi", o'grilar hokimiyati; "o'g'rilar kuchi") - davlat mablag'larini talon-taroj qilib, shaxsiy boylik va siyosiy ta'sirni oshirish uchun hokimiyat ustunliklaridan foydalanadigan firibgarlarning noqonuniy manfaatlari bilan boshqariladigan mansabdor shaxslarning faoliyat. Ba'zan bu faoliyat nosog'lom, pora olish bilan bog'liq qo'shimcha imtiyozlar va xizmatlar (3) sifatida tushuniladi.

**Nepotizm** - bu o'zlarining xizmatlari va lavozimlaridan qat'iy nazar, yaqin qarindoshlari va do'stlariga homiylik qilish bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaning nokonuniy shakli (3).

**Noqonuniy lobbichilik** - bu siyosatchilarni turli manfaatdor guruhlarning qarashlari to'g'risida xabardor qilish va ularni tegishli qonunlarni tayyorlash yoki ushbu qonunlarga ovoz berish uchun tashviqot qilishga qaratilgan faoliyat.

Korrupsion o'zaro munosabatlarning boshqa turlari yuqorida aytib o'tilganlar orqali aniqlanadi. Ko'rib turganimizdek, korrupsion hamkorlikning barcha turlari uchta majburiy elementni o'z ichiga oladi - rasmiylik, rasmiy lavozim va mansabni (hokimiyatni) suiste'mol qilish va foyda olish tushuniladi.

Korrupsion o'zaro munosabatlar turlarining ko'pligi korrupsiya qarshi kurash shakllari bilan bog'liq (7). Tarixiy davrlarda korrupsiya qarshi kurash usullari aniqlandi, tavsiflandi va turli darajadagi samaradorlik bilan qo'llanildi. Ushbu turdag'i faoliyatning rivojlanishini doimiy tarzda kuzatib borish lozim hisoblanadi.

Korrupsianing turli xil turlari har xil tarkibga ega va tartibga solish nuqtayi nazaridan turli xil javobgarlik choralarini keltirib chiqaradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida amaldagi qonunchilikka muvofiq, "mansabdor shaxsga pora berish" jinoyat hisoblanadi va jarima, jazoni o'tash yoki majburiy mehnat bilan jazolanadi. Holbuki, "nepotizm" jinoyat emas va Rossiya Federatsiyasining normativ-huquqiy bazasi bilan tartibga solinmaydi. Ta'riflangan misolda "pora berish" uning mazmunini tashkil etuvchi korrupsion o'zaro ta'sirning eng keng tarqalgan va "taniqli" turlaridan biridir.

Korrupsiya haqidagi ilmiy bilimlar jinoyat-protsessual yurisdiksiyasiga tegishli va tegishli bo'limgan boshqa ko'plab turlarni o'z ichiga oladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, hayotiy bilimlarda "pora berish" to'g'risida to'liq bo'limgan ma'lumotlar mavjud: masalan, pora narxining minimal miqdori yoki pul ekvivalenti tavsifi mavjud emas, ularning berilishi turli xil. Javobgarlik choralarini ham shu bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'riflangan misoldan foydalanib, biz hayotiy bilimlar, qoida bo'yicha to'liq bo'limgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega, ko'pincha intuitiv xususiyatga ega ekanligini ko'rsatamiz. Holbuki, ilmiy bilimlar har doim ushbu bilimlarning barcha xususiyatlarini aks ettiradigan to'liq, umumlashtirilgan va oqilona xususiyatlarga ega (8).

Biroq bu haqda ilmiy bilimlarni shakllantirish jarayonida korrupsiya haqidagi hayotiy (o'z-o'zidan shakllangan) bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Korrupsiya haqidagi hayotiy bilimlardan u haqidagi to'liq va umumlashtirilgan ilmiy bilimlarni shakllantirishda foydalanishga oid turli xil yondashuvlar mavjud. Bir qator tadqiqotchilar subyektlarning hayotiy bilimlari uning yordami bilan to'liqroq ilmiy bilimlarni shakllantirish uchun asos, zarur asosiy element deb hisoblashadi.

Boshqa tomondan, hayotiy bilimlar ba'zan ikkinchisining shakllanishida ilmiy bilimlar bilan ziddiyatga keladi. Ushbu yondashuv bilan hayotiy va ilmiy bilimlar bir-biri bilan parallel ravishda mavjud bo'lib, u yoki bu bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash strategiyasini oldindan aytib bo'lmaydi (8).

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Korrupsion o'zaro munosabatlar xususiyatlari va "korrupsiya" asosiy tushunchasining mazmunini o'rganishda korrupsiya haqidagi hayotiy (o'z-o'zidan shakllangan) bilimlarning mazmunini tahlil qilish kerak. Bizning fikrimizcha, korrupsiya haqidagi hayotiy bilimlar, shuningdek boshqa mavzular va hodisalar haqidagi bilimlar to'liq emas va o'ziga xosdir, ammo uning asosida "korrupsiya" tushunchasining xususiyatlarini umumlashtirish va tarkibini to'ldirish orqali korrupsiya (korrupsion o'zaro munosabatlar) to'g'risida ilmiy bilimlarni shakllantirish mumkin. Bunday bilimlarni egallash korrupsiyaga qarshi kurash va korrupsiyaga qarshi vakolatlar haqidagi bilimlarni shakllantirish uchun eng yaxshi asosdir.

**Adabiyotlar:**

- 1.“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi” (Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldaggi PF-6257-sonli Farmoni).
2. Hammurapining Bobil qonunlari, 2015 й.
3. Rus tilining “Gallitsizmlarining tarixiy lug‘ati”, 2010 й)
4. Решетников М.М. Психология коррупции. Утопия и антиутопия: монография / М.М.Решетников. — 2-ье изд. — Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 101 с. — (Актуальные монографии).
5. The Anti-Corruption Plain Language Guide, 2009, r. 14)
6. Britannica Concise Encyclopedia, r.65)
7. Abashidze A. H. Korrupsiyaga qarshi kurashda Milliy va xalqaro choralar // Xalqaro huquqshunos. 2007. № 2.
8. Ayrapetyan E. S. "Korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm, uning elementlari va takomillashtirilishi" "Yosh olim", 3-son (50). 2013.
9. «Arxashastra». Nauka politiki, 1993.
10. Кравцова М.В. Психологические особенности вовлеченности в решение когнитивных задач. – 2011. – 150 с.

*Qulmamatova Fazilat Qarshiyevna,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

## **YOSHLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishining etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash va bartaraf etish usullaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish muammosi tahlil qilingan. Yoshlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishi omillarini aniqlash hamda ularning ta'sirini bartaraf etishda psixologik usullarni qo'llash muammosi o'rganilgan. Destruktiv xulq shakllanishi va rivojlanishining oldini olishda etnopsixologik omillar tahlili amalga oshirilgan. Yoshlar xarakterida barqarorlikni shakllantirish bugun yechimini kutayotgan muammo sifatida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, psixologiya, etnopsixologiya, etnos, destruktiv, inson kapitali.

### **ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЁЖИ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ**

**Аннотация.** В статье анализируется проблема совершенствования технологии использования методов выявления и устранения этнопсихологических особенностей формирования деструктивного поведения у молодёжи. Изучена проблема определения факторов формирования деструктивного поведения у молодёжи и использования психологических методов устранения их влияния. Проведён анализ этнопсихологических факторов профилактики формирования и развития деструктивного поведения. Формирование устойчивости характера молодёжи рассматривается как проблема, которая сегодня ждёт своего решения.

**Ключевые слова:** воспитание, психология, этнопсихология, этнос, деструктивный, человеческий капитал.

### **ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR FORMATION IN YOUTH**

**Abstract.** The article analyzes the problem of improving the technology of using methods for identifying and eliminating ethnopsychological features of the formation of destructive behavior in young people. The problem of determining the factors in the formation of destructive behavior in young people and the use of psychological methods to eliminate their influence has been studied. An analysis of ethnopsychological factors for preventing the formation and development of destructive behavior was carried out. Forming the resilient character of young people is considered as a problem that today awaits its solution.

**Keywords:** upbringing , psychology, ethnopsychology, ethnos, destructive, human capital.

**Kirish.** Odob-axloq komil inson tomonidan uning ichki dunyosida va tashqi olamda amalga oshirilayotgan o'y-fikrlar, xatti-harakatlar, natijalar hamda boshidan kechirayotgan his-tuyg'ular, kechinmalar va shu kabilar majmuidir. O'y-fikr insonning ichki dunyosi va hayotiy jarayonlarining muhim bo'g'ini hamda uning tashqi dunyosidagi xatti-harakatlari asosidir. O'y-fikrlar yig'ilib nuqtayi nazarga, ular esa qarashlarga aylanadi, keyin esa dunyoqarash shakllanadi. Hozirgi zamon odami o'y-fikrni kichkina bir aqliy harakat deb tushunadi: o'y-fikrning natijasi ko'zga ko'rinxayaptimi, demak, u mayjud emas va hech qanday ta'sirga ham ega emas, deb o'ylaymiz. O'y-fikr juda katta imkoniyatlarga ega bo'lган kuchdir, quvvatdir. Uning ta'siri va harakati uchun vaqt va fazo kabi qiyinchiliklar yo'qdir. O'y-fikrga xuddi o'z-o'zidan harakatlanishi mumkin bo'lган vosita sifatida yondashish lozim. Taniqli olim V. Jikarentsev odob-axloqli inson faoliyatiga e'tibor berib: "Hayotingizda nima yuz bergen va berayotgan bo'lsa, ularga faqat o'zingiz mas'ulsiz, boshqa hech kim emas" deb izoh bergen edi.

Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan saqlanish, yoshlar ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni destruktiv guruuhlar ta'siridan asrash, jamiyatimizda fuqarolar ongida milliy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, xavfsizlikni ta'minlashda antimanipulyativ xulqni tarkib toptirish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda shaxs xavfsizligi, jamiyatning xavfsizligini ta'minlanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yoshlarni turli destruktiv g'oyalalar ta'siridan himoya qilish turli g'oyalarning inson xatti-harakatiga ta'siridan ximoyalash muammosiga doir ijtimoiy-psixologiya yo'naliishidagi ilmiy izlanishlar,

tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lif muassasalari, jumladan, AQShning Yel universiteti (Yale University, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA), Irlandiyaning Dublin Triniti kolleji (Trinity College Dublin, Ireland), Germaniyaning Vup-pertal universiteti (Universitat Wuppertal, Deutschland), Avstraliyaning Tasmaniya universiteti (University of Tasmania, Australia), Janubiy Federal universitet (Rossiya Fede-ratsiyasi, Rostov-Don)da olib borilmokda.

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va harakatlar toboro ortmoqda. Faqat o'zini o'yash, mehnatga, oilaga yengil qarash, butun dunyoga keng tarqalayotgan ma'naviy-axloqiy buzuqlik, turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa yoshlar ongiga ustomonlik bilan singdirishga urinishlar ortmogda.

Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahididlarning avj olayotganligi yoshlarning dunyoqarashi va xulq- atvorning shakllanishiga ham jiddiy havf solayotganligi etirof etilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni ularning ta'siridan asrash va destruktiv xulq shakllanishining oldini olish uchun ta'lif hamda psixologik xizmat ko'rsatish sohasida maxsus psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqish va amalda qo'llash dolzarblashmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lif-tarbiya sohasidagi islohotlar strategik mohiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Najot ta'linda, najot tarbiyada, najot bilimda” g'oyasining ko'tarilishi, “Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari” ulug' g'oyalarning belgilanishi, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida ta'lif-tarbiyaning ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika hamda psixologiya fanlari zimmasiga juda katta ma'suliyatli vazifalarini yukladi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning tarqqiyot strategiyasi”ning 4-yo'nalishida inson kapitalini rivojlantirish, 5- yo'nalishida ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish ko'zda tutildi.

Teodor Shuls Nobel mukofoti lauriati inson kapitali to'g'risida “Odamni bilim va malakalari kapitalning o'ziga xos shaklidir. Odam iqtisodiy qiyomatga ega bilim va malakalarga ega bo'lgani uchun mulkdorga aylanadi”, degan edi. Ba'zi ekspertlarning fikricha 2020-yilda rivojlangan mamlakatlar milliy boyliklari 10% ni tashkil etgani, hozirda intellektual-ma'naviy omil milliy boylikning hal qiluvchi omiliga, davlat qudratining eng muhim ko'rsatkichi va jamiyatning rivojlanganlik darajasini belgilayotganini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, inson kapitalining o'zagi inson bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Chuqur bilimlar, buniyodkorlik, tashabbuskorlik, yuksak proffesionalizm ana shu o'zakni tashkil qiladi. Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda “farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy- ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur” deya ta'kidlab, destruktiv harakatlarning oldini olish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yo'nalishini belgilab berdi.

Har bir davlat va jamiyat rivojlanishi uchun bilimi va axloqi yuksak bo'lgan kadrlar yetishib chiqishi juda muhim o'rinnegallashi barchaga ma'lum va mashhurdir. Buning uchun yetishib kelayotgan yosh avlodni ta'lif olishi va xulqini yaxshilashga alohida urg'u berilishi ayniqsa, muhim o'rinn tutadi. Har bir shaxs jamiyatda rivojlanib boradi. Uning xulq- atvoriga hamisha tashqi va ichki omillar ta'sir etadi. Insondagi destruktiv xulq tabiat, uning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini o'rganish hozirga qadar jiddiy muammo sanaladi. Bu muammo 20-asrning o'rtalarida shakllangan.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Psixologik tadqiqotlar destruktiv xulq-atvorning ikkita ko'rinishda: delenkvent, deviantga ajratishgan b'lib, delikvent xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-me'yorlarga qarshi bo'lgan xulqdir. Deviant xulq-atvor esa, jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarshi bo'lgan xulqiy ko'nikmalarini namoyon etishdan iborat.

Destruktiv xulq-atvor ko'rinishlari sifatida addiktiv xulq, g'ayriijtimoiy xulq, suitsidal xulq, konformistik, nartsisistik, fanatic, autistik xulqni keltirish mumkin. Shaxs destruktiv xulq-atvorining istalgan ko'rinishida o'zaro munosabatlarga putur etkazuvchi jihatlar mavjud.

Jumladan, birgina addiktiv xulq-atvorning umumiyligi xususiyatlari kundalik hayotiy qiyinchiliklarga chidamsizlik, nomukhammadlik kompleksining yashirin ko'rinishi, turg'un emotsiyal munoسابatlardan qo'rqish, yolg'on gapirishga intilish, boshqalarni ayplashga intilish, qaror qabul qilishdagi mas'uliyatdan ochish, xulqining bir qolipdaligi, tobelik, xavotirlanish kabilalar shaxs hayotida o'ziga xos murakkabliklarga sabab bo'ladi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatishga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan sotsial muhit va o'zi mansub bolgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan sotsial muhitdan butunlay ciqib ketib yashay olmaydi.

Yoshlarda destruktiv xulqning paydo bo'ishi juda ko'p omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, yoshlardagi impusivlik ham destruktiv xulqqa ishora hisoblanadi. Impulsivlik - o'yamasdan, asosan, his-tuyg'ular hamda boshqa sharoitlar ta'sirida harakatlarni amalga oshirishga moyillik ifodalanadigan xulq-atvor xususiyati hisoblanib, impulsiv yoshlar hissiy beqaror, besabrsiz hamda asabiy bo'ladilar. Ularda mas'uliyatsizlik, beparvolik ko'pincha ustunlik qiladi. Impulsivlik xususiyati mayjudligini suhbat, kuzatish va psixologik test orqali aniqlash mumkin.

Ko'pchilik yoshlarda impulsivlik paydo bo'lib, u beqaror va jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelmasligi mumkin. Bular kuchli hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan ichki va tashqi vaziyatlar, chalkashlik yoki charchoq holati ta'siri bo'lishi mumkin. Bu kabi omillarning barchasi yoshlarda o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini pasaytiradi va aqliy rivojlanishining muayyan bosqichlarida, xarakterning ma'lum turlari bilan kuzatiladi.

Ba'zida impulsivlik yoshlarda temperament va xarakter xususiyati sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Jumladan, sangvinik va xolerik temperamentlarga xos bo'lgan yuqori asabiylik jarayonlarining harakatchanligidir. Impulsivlik xususiyatlarning bunday birlashishi ta'lim va ijtimoiylashuv jarayonida sodir bo'lishi mumkin. Bunday yoshlar jahldor, o'zini tuta olmaslik hamda mantiqsiz harakatlarga moyil bo'lib, ular ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'lgan xohish va injiqliklar bilan boshqariladi. Eng achinarlisi bu kabi yoshlar o'z harakatlarining salbiy oqibatlarini anglamaydilar.

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqotimizda yoshlarda impulsivlik shakllanganligini aniqlash maqsadida "Impulsivlik indeksi" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnama ishlab chiqdiq. Mazkur so'rovnama quyidagi 10 ta savoldan iborat.

Mazkur so'rovnama asosida talabalar bilan olib borgan tadqiqotlarimiz asosida yoshlarda impulsivlik xususiyatining namoyon bo'lishi haqida tegishli ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldik.

#### 1-jadval.

#### Talabalarda «Impulsivlik va barqarorlik indeksi» turkumidagi fikr-mulohazalarning jins kesimidagi tahlili

		Jinsi			
		Qiz bolalar (N=340)		O'g'il bolalar (N=168)	
		"Ha"	"Yo'q"	"Ha"	"Yo'q"
Siz boshqalarga nisbatan ishni tez bitirishga moyilmisiz?	Soni	106	234	104	64
	Foizi	31,17%	68,83%	61,90%	38,10%
Harakati sekin odamlar g'azabingizni qo'zg'aydimi?	Soni	53	287	118	50
	Foizi	14,72%	85,28%	64,28%	35,72%
Jahlingiz chiqqan paytlarda nimani xohlayotganingiz haqida o'ylaysizmi?	Soni	135	205	130	38
	Foizi	37,5%	62,5%	77,38%	22,42%
Agar siz uchun muhim bo'lsa kutishga qodirmisiz?	Soni	182	158	121	47
	Foizi	53,52%	46,48%	72%	28%
Uzoq muddat shug'ullanib, charchogingizni sheringizing bilan suhbatlashib chiqarasizmi?	Soni	74	266	107	61
	Foizi	21,76%	78,24%	63,69%	26,31%
Sizga yoqmagan davradan darxol chiqib ketasizmi?	Soni	158	182	62	106
	Foizi	43,88%	56,12%	36,90%	63,10%
Agar siz biron ishni boshlasangiz har doim uni oxirigacha yetkazasizmi?	Soni	281	59	118	50
	Foizi	78%	22%	70,23%	29,67%
Zarur qaror qabul qilishda boshqalar bilan maslahatlashasizmi?	Soni	203	137	32	136
	Foizi	56,38%	43,62%	19%	81%
Sabrsizligingiz tufayli pand yeb turasizmi?	Soni	108	232	91	77
	Foizi	31,7%	68,3%	54,16%	45,84%
Sizni tanishlaringiz shoshqaloq deb hisoblaydilarmi?	Soni	112	228	89	77
	Foizi	33%	67%	53%	47%
Sizga bildirilgan yoqimsiz tanqidlarni yengil qabul qilasizmi?	Soni	184	156	117	49
	Foizi	54,11%	45,89%	69,64%	30,36%
Ko'pincha va'dangizda turasizmi?	Soni	223	117	136	22
	Foizi	65,58%	34,42%	81%	19%

Yuqoridagi jadval ko’rsatkichlari tahlilidan impulsivlikka oid munosabtlar yoshlarning aksariyatiga xosligi, ammo vaziyatlarga va muammo xarakteriga ko’ra ular turlicha tus olishi namoyon bo’ldi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan shaxsnинг ijtimoiylashuvi, milliy lashuvi hamda milliylikni o’zlastirishi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bu soha muammolari va xususiyatlarni psixologiya fanining tarmog’i bo’lgan etnopsixologiya o’rganadi. Etnopsixologiya – etnografiya va psixologiya fanlarining qo’shilishidan tashkil topgan bo’lib, yunoncha “etnos” xalq, qabila, “psixologiya” ruh ilmi degan ma’noni anglatadi. Etnopsixologiya ma’lum millat va etnik birlik vakaillarining o’ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq atvorini, mentalitetini o’rganadi. Har bir xalqqa xos bo’lgan milliy xarakter, urf- odat va an’analar, millat tuyg’ulari va did, etnik ong va milliy o’zlikni anglashni namoyon bo’lishi, o’zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani tadqiqot sohasi hisoblanadi.

Etnopsixologik xususiyatlarning o’ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi aynan shu etnik birlik vakillaridir. Ma’lumki, bola o’ziga Vatanni yoki ota- onani tanlab tug’ilmaydi. Shunday ekan u o’z millatiga xos bo’lgan tayyor ruhiy xususiyatlarn bilan ham tug’ilmaydi. Bola ota – onasida avlod- ajdodidan biologik yo’l bilan faqat irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina meros qilib oladi, xolos. Bola tug’lish davrida odam bo’lishga nomzod bo’ladi lekin yakka jamiyatdan ajralgan holada u shaxsga aylanma olmaydi balki, ma’lum bir jamiyatda yashasagina shaxsga aylanadi.

**Xulosa.** Ta’kidlash joizki, shaxs yashayotgam milliy muhit yoki uning qaysi millatga mansubligi shu millat va elatga xos bo’lgan xususiyatlarni egallashiga va unga xos xulq-atvor va xarakterning shakllanishiga zamin yaratadi. Ontogenetik taraqqiyot davomida tashqi xatti-harakatlarini botiniy, ya’ni “aqliy” xususiyatlarga aylanishi davrida kishida milliy psixologik qiyofa asoslar shakllana boshlaydi. Tadqiqotchilar tomonidan etnopsixologiya masalalarini o’rganishda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishilgan bo’lsada, uning ko’p muammolari xali yechimini topa olgani yo’q. Yoshlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishining etnopsixologik xususiyatlarni aniqlash va bartaraf etish usullaridan foydalanishda amaliyotchi psixologlar ta’lim muassalarida destruktiv xulq-atvor diagnostikasi, psixokorrektsiyasiga oid ishlarni tizimli yo’lga qo’yishlari maqsadga muvoqligi: destruktiv xulq-atvorga ega bo’lganlar bilan individual va guruhiy psixoterapeutik ishlarni olib borish va salbiy xususiyatlarni bartaraf etish zarurligi: o’quvchilar va ularning ota-onalari, pedagoglar uchun destruktiv xulqni bartaraf etishda individual va guruhiy psixoterapiya elementlaridan foydalanish bo’yicha tavsiyalar berish muhindir.

### Adabiyotlar:

1. Злоказов К.В. Деструктивность и идентичность личности // Научный ежегодник Ин-та философии и права Урал. отд-ния Рос. акад. наук. 2014. № 1.
2. Каримова В.М. Иджтимоий психология. Дарслик. – Т.:Фан ва технология, 2012. – 172 б.
3. Клейберг, Ю.А. Типология деструктивного поведения // Вестник Краснодарского университета МВД России. - 2008. - С. 130-135.

*Ramazonov Zuxriddin Orif o‘g‘li,*  
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xayfsizligi universiteti tadqiqotchisi*

**KURSANTLARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANISHIGA SHAXS INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING TA’SIRI**

**Annotatsiya.** Maqolada kursantlarda irodaviy sifatlarni shakllanishiga shaxs individual-psixologik xususiyatlarini ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Dastavval kursantlarda shaxs individual psixologik xususiyatlaridan reaktivlik, rigidlik va xavotirlanish borasidagi nazariy qarashlarning tahlillari keltirilgan. Shuningdek, irodaviy sifatlarni kursantlarda shakllanishiga individual xususiyatlarni ta’siri empirik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** qo‘rquv, g‘azab, quvonch, qayg‘u, hayrat, tashvish, qayg‘u, hayrat, nafrat, reaktivlik, rigidlik, xavotirlanish, irodaviy sifatlar, mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik, jur’atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat’iyatlilik, g‘ayratlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik.

**ВЛИЯНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У КУРСАНТОВ**

**Аннотация.** Статья посвящена изучению влияния индивидуально-психологических особенностей личности на формирование волевых качеств у курсантов. Первоначально курсантами были представлены анализы теоретических взглядов на реактивность, ригидность и тревожность с точки зрения индивидуально-психологических особенностей личности. Также на основе эмпирических данных изучается влияние индивидуальных особенностей на формирование волевых качеств у курсантов.

**Ключевые слова:** страх, гнев, радость, печаль, удивление, беспокойство, печаль, изумление, отвращение, реактивность, ригидность, беспокойство, волевые качества, ответственность, инициатива, смелость, самостоятельность, упорство, решительность, трудолюбие, энтузиазм, внимательность, стремление к цели.

**INFLUENCE OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INDIVIDUAL ON THE FORMATION OF VOLITIONAL QUALITIES IN CADETS**

**Abstract.** The article will be devoted to the study of the influence of individual-psychological characteristics of the individual on the formation of volitional qualities in cadets. Initially, cadets presented analyzes of theoretical views on reactivity, rigidity and anxiety from individual psychological characteristics of the individual. Also, the influence of individual characteristics on the formation of volitional qualities in Cadets is studied on the basis of empirical data.

**Keywords:** fear, anger, joy, sadness, surprise, anxiety, sorrow, amazement, disgust, reactivity, rigidity, restlessness, volitional qualities, responsibility, initiative, courage, independence, perseverance, determination, enthusiasm, attentiveness, goal striving.

**Kirish.** Harbiy xizmatchilar shaxsining hissiy-irodaviy sohasini hisobga olgan holda, uning asosiy elementlarini, jumladan, harbiy xizmatchilarning emosiyalari va his-tuyg‘ulari sohasini, shuningdek, ularning irodasi va irodaviy barqarorligi sohasini tushunish kerak. Harbiy xizmatchilarni jangovar vazifalarini bajarishga psixologik tayyorlashda muhim ahamiyatga ega [1].

Har qanday odamning hissiy ko‘rinishlari juda xilma-xildir: qo‘rquv, g‘azab, quvonch, qayg‘u, hayrat, tashvish, qayg‘u, hayrat, nafrat va boshqalar. Harbiy xizmatchilar bundan mustasno emas, emosiya va his-tuyg‘ular ularning ichki hayotining asosiy jihatini tashkil qiladi. Shuning uchun barcha harbiy xizmatchilar har daqiqada ma’lum bir hissiy holatda bo‘ladilar va qandaydir his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar.

Harbiy xizmatchilarda his-tuyg‘ular atrofida sodir bo‘layotgan narsalar va ular bilan sodir bo‘layotgan narsalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganda paydo bo‘ladi. Emosiyalarning paydo bo‘lish mexanizmi harbiy xizmatchining ehtiyojlari va motivlari bilan chambarchas bog‘liq. Harbiy xizmatchilarda ijobjiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadigan narsa va hodisalar mavjud - zavq, quvonch, qiziqish, hayajon va ularning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Salbiy his – tuyg‘ular va tajribalar sifatida qabul qilinadigan vaziyatlar-norozilik, qayg‘u, qayg‘u, qo‘rquv, qoniqmaslik, xavotirlanish va boshqalar ehtiyojlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Harbiy xizmatchining irodasini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun zarur bo‘lgan irodaviy fazilatlar va xususiyatlarni rivojlantirish bo‘yicha muayyan tadbirlar nazarda tutiladi, jumladan:

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Maqsadga yo‘nalganlik - bu harbiy xizmatchining o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga bo‘ysundirish qobiliyatidir [2]. Qat’iyilik - bu harbiy xizmatchining tezkor qarorlar qabul qilish va ularni ikkilanmasdan amalga oshirish qobiliyatidir. Energiya va qat’iyatlilik - bu insonning irodaviy faolligi darajasini belgilaydigan xususiyatlar. Umuman olganda, baquvvat odamlar ham qat’iyatlari. Qat’iyatlari insonlar uzoqroq va doimiy energiyaga qodir.

Mardlik va jasorat insonning kurashish va muayyan qiyinchiliklarni engishga tayyorligini belgilaydi. Jasur odam impuls ko‘rsatishi va ehtiyoitsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Jasorat - yuzaga kelgan xavfni hisobga olish bilan birlashtirilgan jasoratdir. Qat’iyat va jasorat harbiy shaxs irodasining o‘zagi bo‘lgan fazilatlarni ifodalaydi. Chidamlilik - bu jasorat, jismoniy va ma’naviy chidamlilik. Jasoratli odam o‘z ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va motivatsiyasining egasidir. Harbiy xizmatchining irodasini shakllantirish uchun samarali, samarali va doimiy mehnat talab etiladi, bu esa harbiy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashishi kerak.

Ma’lumki, harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligining markaziy vazifalaridan biri hissiy-irodaviy barqarorlik va kuchli irodali tayyorgarlikni shakllantirishdir. Kuchli iroda harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat va g‘alabalarning kalitidir. Shunday qilib, harbiy xizmatchilarining hissiy-irodaviy sohasining xususiyatlarini o‘rganishda uning asosiy elementlarini, xususan, harbiy xizmatchilarining his-tuyg‘ulari va hissiyotlari sohasini, shuningdek, harbiy xizmatchilarining belgilangan vazifalarni bajarishga psixologik tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydigan ularning irodasi va irodaviy barqarorligi sohasini tushunish kerak.

Tadqiqot ishimizda asosiy e’tibor qaratiladigan jihat kursantlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda shaxsnинг individual psixologik xususiyatlarini o‘rnini ochib berish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda tadqiqot uchun tanlab olingan sinaluvchilar guruhida “Shaxs irodaviy sifatlarni o‘rganish” metodikasining modifikasyon varianti (V.M.Chumakov tomonidan ishlab chiqilgan), “Reaktivlik o‘zgarishini baholash shkalasi” (Ya.Strelyau tomonidan ishlab chiqilgan) hamda “Ekstraversiya, rigidlik va xavotirlanishni baholash metodika” (O.P.Yeliseyev tomonidan ishlab chiqilgan) laridan foydalanildi. Metodika bo‘yicha olingan natijalarini yaqqol ifodalash maqsadida natijalar jadvallarda aks ettirildi.

#### 1-jadval.

**Kursantlarda irodaviy sifatlari va shaxs individual-psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlik**

Shaxsning irodaviy sifatlari	Shaxs individual psixologik xususiyatlari		
	Reaktivlik	Rigidlik	Xavotirlanish
Mas’uliyatlilik	0,77**	0,22	0,48**
Tashabbuskorlik	0,12	0,14	0,66**
Jur’atlilik	0,47**	0,38*	0,61**
Mustaqillik	0,61**	0,53**	0,32*
Matonatlilik	0,08	0,41**	0,43**
Qat’iyatlilik	0,01	0,69**	0,82**
G‘ayratlilik	0,63**	0,11	0,55**
E’tiborlilik	0,65**	0,10	0,44**
Maqsadga intiluvchanlik	0,20	0,42**	0,78**

\*\* $r \leq 0,01$  \* $r \leq 0,05$

Jadval natijalariga ko‘ra, mas’uliyatlilik reaktivlik bilan ( $r=0,77$ ;  $r \leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,48$ ;  $r \leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ma’lumki, ryeaktivlik – bu bir xil kuch bilan ta’sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsiyonal reaksiya qilishiga qarab munosabat bildirishdir. Reaktivlikning ro‘yogiga chiqishi emotsiyallik, ta’sirlanuvchanlikda ifodalanadi. Reaktivlik, o‘z navbatida, faollik bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Unga ko‘ra, kursant shaxsida mas’uliyatlilikni rivojlanishida reaktivlik va xavotirlanish holatlari ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bo‘lajak ofitser shaxsida tanlagan kasbi nuqtayi nazaridan mas’uliyatlilik sifati yuqori darajada rivojlanishni taqazo etadi. Natijalarga ko‘ra, mas’uliyatlilik bilan rigidlik o‘rtasida umumiy aloqadorlik kuzatilmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd etildi. Rigidlik – shaxsning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga nisbatan baho berishdan iboratdir. Rigidlik holati o‘smirning tashqi ta’sirlarga nisbatan qanday darajada reaksiya bilan javob bera olishi hamda unda o‘zini o‘zi nazorat qilishning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda rigidlik – o‘zgaruvchan vaziyatlarga qarab motivatsiya jarayonini korreksiya qilish xususiyati bo‘lib, shaxsning yangi sharoitlarga ko‘nika olishi, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligi, ya’ni, shaxs psixikasining egiluvchanlik sifatini bildiradi. Rigidlik yuqori bo‘lgan insonning o‘z xulq-atvori strategiyasini o‘zgartirish og‘ir kechadi. Oqibatda qabul qilingan qarorlari hamda shakllanayotgan motivlari har doim ham vaziyatga adekvat bo‘lavermaydi (mos kelavermaydi).

Sinaluvchilarning natijalariga ko‘ra, tashabbuskorlik xavotirlanish bilan ( $r=0,66$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori daraja ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Natijalardan ko‘rish mumkinki, kursantlar o‘rtasida tashabbuskorlik sifatining yuqori daraja rivojlanishi ularning xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xavotirlanish – bu odamning doimo o‘zini tashvishli his etishi, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechirilishi ham individual xususiyat bo‘lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo‘ladi. Xavotirlanish ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yoki ehtimol tutilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo‘lishi, odatda, faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq-atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi va vaziyat bilan bog‘liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan belgilanadi. Vaziyat bilan bog‘liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan va undan tashqarida namoyon bo‘lmaydigan tashvishli holatdir. Shuning bilan birga kursantlar kasbiy faoliyatga tayyorlanishlari negizida o‘zlarida ma’lum tashabbus, ixtiro va yangiliklarni topib, ularni amaliyatga qo‘llashga harakat qiladilar. Bu esa har doim ham samarali va natijalari chiqmasligi mumkin. Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, xavotirlanish holati rigidlik va reaktivlik o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik kuzatilmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi.

Metodika natijalariga ko‘ra, jur’atlilik reaktivlik bilan ( $r=0,47$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,61$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada rigidlik bilan ( $r=0,38$ ;  $r\leq 0,01$ ) ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, kursantlarda jur’atlilikni rivojlanishida ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan qatiy pozisiyada turish imkoniyati muhim ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Ayniqsa, bo‘lajak ofitserlarda o‘quv va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq xavotirlanish holatlarini ortib ketishi ularda o‘zlariga nisbatan jur’atlilikni rivojlanishiga olib keladi. Shu o‘rinda kursant shaxsida jur’atlilikni rivojlanishida reaktivlikning ham ahamiyat mayjud ekanligi tajriba natijalaridan ma’lum bo‘ldi.

Metodika natijalariga ko‘ra, mustaqillik rigidlik bilan ( $r=0,53$ ;  $r\leq 0,01$ ), reaktivlik bilan ( $r=0,61$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada, xavotirlanish bilan ( $r=0,32$ ;  $r\leq 0,01$ ) ahamiyatli daraja aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Natijalardan ko‘rinadiki, kursantlardagi mustaqillik sifatini rivojlanishida ulardagى individual-psixologik xususiyatlarining o‘rni muhim hisoblanadi.

Sinaluvchilarning natijalariga ko‘ra, matonatlilik rigidlik bilan ( $r=0,41$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,43$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu esa kursantlarda matonatlilikni rivojlanishi ulardagى rigidlik va xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog‘liq holda kechishi kuzatiladi. Shuning bilan birga bo‘lajak ofitserlarda matonatlilikni shakllanishi reaktivlik bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qat’iyatlilik rigidlik bilan ( $r=0,69$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,82$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida kursant shaxsida qat’iyatlilikni ortib ketishi ulardagى har qanday ta’sirlarga nisbatan shaxsning o‘zgarmasligi hamda xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Ayniqsa, bo‘lajak ofitser shaxsida qat’iyatlilikning tarkib topishi ulardagى reaktivlik bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi.

Sinaluvchilarning natijalariga ko‘ra, g‘ayratlilik reaktivlik bilan ( $r=0,63$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,55$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Shuning bilan kursantlarda g‘ayratlilikni rivojlanishi ulardagى rigidlik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bo‘lajak ofitserlarda g‘ayratlilikni rivojlanishi ulardagى o‘quv va kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan xavotirlanish holatlarini ortib ketishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, e’tiborlilik shaxs individual xususiyatlaridan reaktivlik bilan ( $r=0,65$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,44$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd qilindi. Shuning bilan e’tiborlik rigidlik bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi. Natijalardan ko‘rinadiki, kursant shaxsida e’tiborlikni shakllanishida reaktivlik va xavotirlanishning ortishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, maqsadga intiluvchanlik rigidlik bilan ( $r=0,42$ ;  $r\leq 0,01$ ), xavotirlanish bilan ( $r=0,78$ ;  $r\leq 0,01$ ) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuning bilan birga bo‘lajak ofitser shaxsida maqsadga intiluvchanlik reaktivlik bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Ta’kidlash joizki, maqsadga intiluvchanlik kursant shaxsidagi rigidlik va xavotirlanish holatlari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishi qayd etiladi.

**Xulosa.** Metodika natijalariga ko‘ra, bo‘lajak ofitserlarda irodaviy sifatlari va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi. Unga ko‘ra, bo‘lajak ofitserlarda irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi ko‘p hollarda emotsiyal holatlardan xavotirlanish bilan aloqador bo‘lib, shaxs emotsiyal jabhasini faol ravishda nazorat qila olishi bilan tavsiflanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. - М.: Издательство: Академия, Смысл: 2007. - 528 с.
2. Лебедев В.И. Личность в экстремальных условиях. - М.: Издательство политической литературы, 1989. - 304 с.

*Ro'ziyev Umar Muzafarovich,  
Buxoro davlat universiteti  
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti*

## **O'SPIRINLIK DAVRIDAGI IJTIMOIY FOBİYA HOLATINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**Annotatsiya.** Bu maqolada o'spirinlarda xavotir bezovtalik hissi va ijtimoiy fobiya ko'rinishlari va ularni oldini olish, ijtimoiy fobiya belgilar, kimlarda ko'proq kuzatilishi, ijtimoiy fobiyaning sabablari. Ijtimoiy tashvish va fobiya bilan kasallangan bolalarda yolg'iz bo'lish istagi va nazorat kuchli bolalarga nisbatan do'stlikni shakllantirish va guruhlarga qo'shilish ko'proq qiyin bo'lishi, o'spirinlarda ijtimoiy fobiyaning differensial ifodalanishiga ko'ra xulq-atvorning motivatsion omillari ustuvor xarakterga ega ekanligi, o'spirinlik davridagi ijtimoiy fobiyanı mezonlarining shaxslilik sifatlariga bog'liq ekanligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** agorafobiya, xavotir bezovtalik, zaifliklar fobiya, xulq-atvor, somatik kasalliklar, vahima, irratsional qo'rquiv, chuqur depressiya, stereotip travmatik holat.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОСТОЯНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ФОБИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются тревожные расстройства у подростков и проявления социальной фобии и их профилактика, симптомы социальной фобии, у кого они наблюдаются чаще, причины социальной фобии. Было высказано предположение, что у детей с социальной тревожностью и фобиями желание побывать в одиночестве и контроль более затрудняют формирование дружеских отношений и присоединение к группам, чем у детей с сильной фобией, что мотивационные факторы поведения по дифференциальному выражению социальной фобии у подростков имеют приоритетный характер, что критерии социальной фобии в подростковом возрасте зависят от личностных качеств.

**Ключевые слова:** агорафобия, тревожное расстройство, фобия уязвимости, поведение, соматические заболевания, паника, иррациональный страх, глубокая депрессия, стереотипное травматическое состояние.

## **PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF SOCIAL PHOBIA IN ADOLESCENCE**

**Abstract.** This article discusses anxiety disorders in adolescents and manifestations of social phobia and their prevention, symptoms of social phobia, who has them more often, causes of social phobia. It has been suggested that in children with social anxiety and phobias, the desire to be alone and control make it more difficult to form friendships and join groups than in children with severe phobia, that motivational factors of behavior in the differential expression of social phobia in adolescents have a priority character, that the criteria of social phobia in adolescence depend on personal qualities.

**Keywords:** agoraphobia, anxiety disorder, vulnerability phobia, behavior, somatic diseases, panic, irrational fear, deep depression, stereotypical traumatic condition.

**Kirish.** Jahon ilmiy tadqiqot muassasalarida va oliv ta'lrim tizimida ijtimoiy fobiyanı umumiyları global darajada o'rganishning ahamiyati, dunyoning aksariyat mamlakatlarida ushbu muammoning sezilarli darajada ko'payishi, uning psixodiagnostika, psixokorreksiyasining yagona konseptual nuqtayi nazarining yo'qligi, shuningdek, bunday toifadagi shaxslarning ijtimoiy hayotdan butunlay ajratib qo'yish xavfi va o'z joniga qasd qilish ehtimoli juda katta ekanligi tadqiqotlarda aniqlanmoqda. Ijtimoiy fobiyaga psixologik nuqtayi nazardan qarashlar va ushbu muammo bilan bog'liq bo'lgan omillarni empirik jihatdan tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda ta'limg-tarbiya tizimini takomillashtirish, bugungi zamon talablari asosida innovatsion yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida yoshlarni har tomonlama barkamol topishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, fan-teknika taraqqiyoti, sifatlari va mustaqil ta'limg olishga ehtiyojlарining ortishi bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** A.V.Karpovning “Refleksivlik rivojlanish darajasi” Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, psixologik adabiyotlarda shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi o'z xulq-atvorini boshqarish

muammosini aniqlashga qaratilgan juda ko'plab usullar mayjud. Biz shular ichidan barchaga ma'lum bo'lgan A.V.Karpovning "Refleksivlik rivojlanish darjasasi"ni diagnostika qilish metodikasi, V.Stefansonning "Guruhdagi xulq - atvor motivatsiyasini o'rganish metodikasi", Derogatisning "Psixologik salomatlik omillarining namoyon bo'lishi so'rovnomasi hamda Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish so'rovnomasidan foydalanildi.

O.A.Truevstev, bu sotsiofobiyanı «Ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etishdan qo'rqish», - deb tushunadi. Bu boshqalar tomonidan salbiy baholanishidan qo'rqishga asoslanadi".

Vitkovskaya M.I. qo'rquvning ushbu turini o'rganishning ahamiyatini ham dolzarblashtirish. «Turli guruhlar uchun ijtimoiy qo'rquvlar bir-biridan farq qiladi, ijtimoiy qo'rquvlarning "repertuari" turli xil "qo'rquv obyektlari" bilan farqlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Insonning xulq-atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos «uslublari»ning mavjudligi hech qachon va hech kimda hech qanday shubha tug'dirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o'zaro muloqoti, o'zaro munosabati, xarakter xususiyatlari, tempramental sifatlari ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Qolaversa, har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan psixologik tuzilmalarga asoslanib, o'z tadqiqotimizda o'spirinlarda ijtimoiy fobiya xususiyatlarini tadqiq qilishning ijtimoiy-psixologik mezonlari tizimini ishlab chiqildi va shu tizim asosida o'spirinlar orasida fobiya darajalarini o'rgandik, tahlil qildik va tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Biz ushbu tadqiqotda o'spirinlardagi ijtimoiy fobiya holatlarini o'rganishda dastlab ularni ijtimoiy munosabatlarda o'zini o'zini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratdik. O'z xulq-atvorni boshqarish va individual-psixologik holatlar orasidagi o'zaro bog'liqlikning olib berishga harakat qildik. Psixologiya fanida emotsiyonal holatlarning subyekt nazoratida bo'lishi o'z tasdig'ini topgan. Emotsional holatlarning jadal taraqqiyoti o'z xulq-atvorni boshqarishning kuchsizligi bilan kechadi. Emotsional holatlarda o'zini o'zi idora qila olmaslik turli ko'rinishdagi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ye.Shpranger fikricha, (ya'ni 14-22 yoshli o'spirinlar) bu yosh davrida yuz beradigan asosiy o'zgarishlar:

- a) shaxsiy "Men"ni kashf qilish;
- b) refleksiyaning (o'zini o'zi va o'zgalarini anglash) o'sishi;
- c) o'zining individualligini anglash va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof qilish;
- d) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo'lishi;
- e) o'z shaxsiy turmushga jiddiy e'tiborning kuchayishi

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va o'z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy mulohazalarimiz bugungi kunda o'spirin-yoshlarning o'z xulq-atvorni boshqarish muammosini ijtimoiy-psixologik omillarini atroficha tadqiq qilishni taqazo qilmoqda.

Refleksiya (lotincha aks ettirish) - insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi. Kishini kishi tomonidan idrok qilinishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga o'xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks ettirar ekan, shu bilan birga o'zini ham aks ettiradi, agar kishi o'zi muloqotga kirishadigan kishilar haqida to'liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'lsa, ular bilan bexato aniqlikda o'zaro ta'sir o'rnatishi mumkin. Biroq subyekt hamma vaqt bunday aniq ma'lumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini o'ylab chiqishga majbur bo'ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg'ular, intilish va fikrlashning o'ylab chiqarilishi *kauzal atributsiya* deb ataladi.

Refleksivlik - bu shaxsning o'z "men"ligidan tashqariga chiqish, fikrlash, o'rganish, "men" timsolini biron-bir voqeа yoki hodisalar bilan taqqoslash, tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksivlik, impulsivlikdan farqli o'laroq, shaxslarning faoliyatga kirishishidan oldin ichki ravishda barcha gipotezalarni ko'rib chiqadigan, ularga noto'g'ri tuyulgan narsalarni tashlab, "muammoni" hal qilishning turli variantlarini hisobga olgan holda, ataylab, ehtiyyotkorlik bilan qaror qabul qiladigan odamlarni xarakterlaydi. Ushbu metodika 27 ta savoldan iborat bo'lib, shulardan 15 tasi tasdiq, 12 tasi esa inkor shaklida tuzilgan. Natijalar uch asosiy kategoriyaga ajratilgan holda interpretatsiya qilinadi. Agar natija 7 ta tasdiqqa teng yoki undan katta bo'lsa usul natijalari yuqori darajada rivojlangan refleksivlikni ko'rsatadi.

Refleksiya - bu shaxsning o'z harakatlari va holatlarini tushunishga qaratilgan ichki aqliy faoliyati; insonning o'z ma'naviy dunyosini o'zi bilishi;

Refleksiya - bu shaxsning ichki dunyosi bilan o'zaro aloqasi jarayonida psixikaning turli darajalarida (ongli, ongsiz) amalga oshiriladigan aqliy faoliyati orqali o'zini o'zi tashkil etishdir.

Refleksivlik metodining umumiy talqini ushbu xususiyatning boshqa bir qator muhim xususiyatlarini belgilovchi nazariy materialga asoslanadi. Ushbu fikrlarni quyidagi bayonotlarda umumlashtirish mumkin:

Refleksivlik psixik xususiyat sifatida aks ettirish bilan bog‘liq bo‘lgan integrativ ruhiy voqelikning asosiy qirralaridan biridir.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Natijalarni sharhlashda uchta toifaga asoslaniladi. 7-chegegaradan yuqorisi refleksivlikning yuqoriligini, 4-7 chegaralar o‘rtacha ko‘rsatkichni, 1-4 chegaralar esa refleksivlikning past darajasini bildiradi.

Javoblar ko‘rinishi	To‘g‘ri tasdiq	Teskari tasdiq
Mutlaqo noto‘g‘ri	1 ball	7 ball
noto‘g‘ri	2 ball	6 ball
Noto‘g‘ri bo‘lsa kerak	3 ball	5 ball
Bilmadim	4 ball	4 ball
to‘g‘ri bo‘lsa kerak	5 ball	3 ball
to‘g‘ri	6 ball	2 ball
Mutlaqo to‘g‘ri	7 ball	1 ball

Ballar quyidagicha taqsimlanadi:

**To‘g‘ri tasdiq** - 1, 3, 4, 5, 9, 10, 11, 14, 15, 18, 19, 20, 22, 24, 25.

**Teskari tasdiq** - 2, 6, 7, 8, 12, 13, 16, 17, 21, 23.

**Natijalar interpretatsiyasi:**

<b>Ballar oralig‘i</b>	80 gacha	100	101- 107	108- 113	114- 122	123- 130	131- 139	140- 147	148- 156	157- 171	172 va undan yuqori
<b>Tasdiqlar</b>	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

8 dan 10 gacha bo‘lgan test bo‘yicha yuqori natijalar, ya’ni 7 dan ortiq miqdor shuni ko‘rsatadiki, bunday insonlar o‘z faoliyati va boshqa kishilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga, ularning o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagagi harakatlarining sabab va oqibatlarini aniqlashga o‘ta moyil bo‘ladi. Bunday shaxslar asosan voqeа va hodisalarning kichik detallarigacha batafsil o‘ylash istagida bo‘lishadi, ularning oqibatlarini oldindan tahlil qiladi hamda o‘z xatti-harakatlarini doimiy tarzda diqqat bilan rejalashtirishadi.

Bunday odamlar asosan, boshqa shaxslarni tushunishi, o‘zini uning o‘rniga qo‘yishi, uning xatti-harakatlarini oldindan tahmin qilishi va shaxslarning o‘zi haqidagi tasavvurlarini bashorat qila olish layoqatiga ega bo‘lishadi.

O‘rtacha test natijalari 4 tadan 7 tagacha ustunlar oralig‘ida bo‘ladi.

1 dan 3 gacha bo‘lgan test bo‘yicha past natijalar, ya’ni 4 ta ustundan kam bo‘lishi, shaxslardagi voqeа hodisalar qanday yuz bergani, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan sabablar va ularning oqibatlari haqida ko‘proq o‘ylashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, A.Karpov tomonidan ishlab chiqilgan “Refleksiya darajalarini aniqlash” metodikasi orqali biz quyidagi xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin.

1. Vaziyatli refleksiya
2. Retrospektiv refleksiya
3. Perspektiv refleksiya

Vaziyatli refleksiya - vaziyatli aks ettirish, haqiqiy vaziyatda inson xulq-atvori bilan bog‘liq holatning namoyon etilishida bevosita o‘z xulq-atvori boshqarish, uning tarkibiy qismlarini tushunish, tahlil qilish va subyektning o‘z harakatlarini vaziyatga bog‘lash, ularni o‘zgaruvchan sharoit va o‘z holatiga mos muvofiqlashtirish qobiliyatini ta’minlaydi.

Retrospektiv refleksiya - o‘tmishda sodir bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish tendensiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatda retrospektiv refleksiyani predmeti sifatida shart-sharoit, bo‘lib o‘tgan voqealar tafsiloti, o‘tmishda qilingan xatolari va motivlarini tashkil etadi.

Perspektiv refleksiya - kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalari bashoratlash va boshqa shunga o‘xhash funksiyasi bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Perspektiv refleksiya xulq-atvor xususiyatlari - o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirish, kelajakdagi hodisalarga bo‘lgan munosabat dinamikasining namoyon etilishini belgilaydi.

### O‘spirinlarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishining umumiy ko‘rsatkichlari (n=210)

O‘spirin-yoshlarda refleksiya darajalari	Respondentlar soni n=210	%
Yuqori	52	24,5
o‘rta	82	39,3
quyi	76	36,2

**Xulosa.** Refleksiya shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi bilan yaqin qo‘yiladi va o‘zining yaxlit — Men obrazini tuzish, ichki dunyosining tuzilishi va mazmunini ochishga yo‘naltirilgan subyektning o‘zini o‘zi bilish jarayonidir. Refleksiya metakognitiv jarayon sifatida inson tafakkurining tamoyili bo‘lib shaxsiy shakl va imkoniyatlarini tushunish va anglash, uning mazmuni, metodi va bilish natijalarini tanqidiy tahlil qilishdan iborat yoki boshqacha qilib aytganda o‘z tafakkurining asosi haqida o‘ylash qobiliyatidir. Olingan ma’lumotlar tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, umumiy hisobda barcha respondentlardan olingan eng yuqori natija bu refleksiyaning o‘rta darajasi bo‘lib, o‘spirinlarning 39,3 % ushbu darajaga mansubligi aniqlandi. Eng quyi ko‘rsatkich esa 36,2 % ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘spirin-yoshlardagi refleksiya darajalari nisbatan korreksiya ishlarini olib borishni talab etadi.

O‘spirinlarda psixologik salomatlik omillarining namoyon bo‘lishi darajalarini aniqlash orqali ularning jamiyatdagи xatti-harakatlari, o‘zini tutishi, shaxslararo munosabatlarga kirishishlarida muhim omillardan ekanligi asoslandi.

### Adabiyotlar:

1. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хруш. – Мн. БГМУ, 2004.
2. Психологик консультация ва психокоррекция дарслик. У.М.Рўзиев -2021
3. Рузиев У.М. Симптомы социальной фобии человека. // Вестник интегративной психологии. -Ярославль: 2022, Выпуск 24, стр. 289-292.
4. Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии -Ярославль: 2022 Выпуск 26, стр. 192-197.
5. Ro’ziyev U.M. Xavotirli bolalar, ijtimoiy fobiya namoyon etilishining o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 y №6) -Buxoro: B. 337-344.
6. Ro’ziyev U.M. O’spirinlarda ijtimoiy fobiya rivojlanishi bilan bog’liq holatlarning diagnostikasi va psixokorreksiysi. // № 4, 2022 “Psixologiya ilmiy jurnalı” -Buxoro: B.125-132.
7. Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии -Ярославль: 2022 Выпуск 26, стр. 192-197.

**Rustamova Shaxzoda Maripovna,**  
Farg'onan viloyat PYMO 'MM o'qituvchisi

**NOTO'LIQ OILA QIZLARIDA OTA SHAXSIGA BO'LGAN MUNOSABATLARNING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada noto'lq oilalarda voyaga yetayotgan qizlarning kelajakdagi oilasi va undagi erkak obraziga nisbatan tasavvurlari haqida yoritilib, o'spirin qizlarning oilaviy rollar va unga munosabatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, qiz bola rivojlanishida otaning roli hamda noto'lq oilada onalarning qizlar tarbiyasiga munosabati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, to'lq va noto'lq oila, qizlar va otalar, erkaklar haqida tasavvurlar, voyaga yetayotgan qizlar.

**ОСОБЕННОСТИ ОТНОШЕНИЯ К ОТЦУ ДЕВОЧЕК ИЗ НЕПОЛНЫХ СЕМЕЙ**

**Аннотация.** В статье описываются представления девочек, растущих в неполных семьях, относительно своей будущей семьи и образа мужчины в ней, а также комментируются семейные роли и установки девочек-подростков. При этом освещается роль отца в развитии девочки и отношение матерей к воспитанию девочек в неполных семьях.

**Ключевые слова:** семья, полная и неполная семья, девочки и отцы, представления о мужчинах, восхождение девочек.

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE RELATIONSHIP TO THE FATHER IN  
DAUGHTER FROM INCOMPLETE FAMILIES**

**Abstract.** The article focused on the future family of girls growing up in dysfunctional families and their perception of the image of a man in it, reflecting on the family roles and relationships of teenage girls. At the same time, the girl was covered about the role of the father in the development of the child, as well as the attitude of mothers to the upbringing of girls in a dysfunctional family.

**Keywords:** family, complete and incomplete family, daughters and fathers, perceptions of men, adolescent girls.

**Kirish.** “Oila ensiklopediyasi”da, “Noto'lq oila – bu, ota-onalardan biri yo‘q bo‘lgan oila. Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari, biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida: bemorlik, favqulodda hodisalar, o‘lim, mehnat migratsiyasi tufayli er yoki xotinning o‘zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi”, deya “noto'lq oila” tushunchasiga ta’rif berilgan. “**Noto'lq oila** – ba’zan turmush o‘rtog‘idan birining o‘limi tufayli judolikka mahkum etilganlar oilasida ham o‘ziga xos munosabatlar shakllangan bo‘lib, ularda go‘yoki “arvoh” oilaviy jarayonlarning barchasida ishtirot etayotganga o‘xshaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlarida marhumning ruhini hurmat qilib, barcha oilaviy tadbir va marosimlarda ularning ruhlarini shod etuvchi duolar o‘qiladi, ular yaxshi gaplar bilan eslanadi, duolar mavjud bo‘ladi. Bu farzandlar tarbiyasida ham ijobjiy, ham salbiy rol o‘ynaydi”[2].

Islom dini tarixida ham ajrashish holatlari bo‘lgan. Bunday vaqtida, ayol eri bilan oila bo‘lib yashab ketolmasligi aniq bo‘lganda, murosa yo‘liga o‘tilgan. Ya’ni, ayol va uning farzandlari uchun alohida uy ajratilgan va ota erlik vazifalarini bajarmasa ham, otalik burchini ado qilib, bolalarini moddiy va ma’naviy ta’minlagan. Muqaddas kitoblarda, “Shariat istilohida ota va ona ajrashganidan keyin go‘dak bolani o‘z qaramog‘iga olish va tarbiya qilish – “hizona” (“quchog‘iga olish”) deyiladi. Ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qat’i nazar, onasi istab tursa, bola onaga beriladi. Agar ayol olishni istamasasi, u majburlanmaydi. Lekin iloji boricha onaga, ona tomonidan ayol qarindoshga beriladi”. Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisga ko‘ra, “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, “Xola ona bilan barobardir”, dedilar”, deyilgan.

Yosh bolani qaramog‘iga olish kabi mas’uliyatning ma’naviy tomonini erkaklarga nisbatan ayollar yaxshi bajara olishlari hammaga ma’lum. Ammo hadisi shariflarga ko‘ra, bolani va bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan onani moddiy ta’minlash otaning burchi bo‘lib qolaverган va bunday majburiyatdan bo‘yin toplash otalar uchun ham or hisoblangan. Bugungi kunda, asosan, ajrashishdan so‘ng bolalarning ta’minoti to‘liq onasining zimmasiga o‘tadi. Ota uchun esa nafaqat ayoli, balki farzandlari ham “sobiq”lik maqomini

egallaydi. Endi ular undan uzoqda, “yomon” onasining qo‘lida, demak o‘sha ona boqib olsin, degan tushuncha bilan uyalmay, boshqa yangi hayot qurishni ko‘zlab yurgan odamlar oramizda oz emas...

**Asosiy qism.** Ota oilada o‘z farzandlariga har tomonlama – yurish-turishda, nutq odobida, so‘z madaniyatida, o‘zaro muomala jarayonida, eng muhimmi, amaliy ish faoliyatida to‘g‘rilik va haqqoniylilik, samimiylikka namuna bo‘lmog‘i kerak.

Hozirgi zamon o‘zbek oilasida otaning roli o‘zgarmoqda. Xalqimiz qadriyatlarida ota oilaning boquvchisi, moddiy jihatdan ta‘minlovchisi, uning posboni deb qaralgan bo‘lsa, bugun esa, u ko‘p oilalarda oddiy a’zo, boqimanda, iste’molchiga aylanib borayotganini ham kuzatish mumkin.

Oilalarda ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgacha tamoyillar (o‘zaro tenglik, hurmat, manfaatdorlik kabi) asosida tarkib topmoqda. Natijada bolalarni tarbiyalashda, ularni tubdan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy hayot jabhalariga tayyorlashda ota-onalarning roli o‘zgarib bormoqda.

Zamonaviy jamiyatdagi jinsiy taqsimlanishning an’anaviy tizimini buzilishi bilan bog‘liq jismoniy o‘zgarishlar shu qatorda gender hamda ota-onalarining ham o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda oila muammolari, oilaviy tarbiya masalalari, oilaning qizlar shaxsining rivojlanishiga ta’siri yanada dolzarb muammo bo‘lib bormoqda. Hozirgi vaqtida onaning roliga, onalikning ayol va xususan, qizlar shaxsining shakllanishiga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqotlari mavjud. Lekin qiz bolaning rivojlanishini, uning tarbiyasi va ijtimoiyashuvida otaning roli kam o‘rganilgan muammolardan bo‘lib, bu masala oila psixologiyasi sohasi hamda oilaga psixologik yordam ko‘rsatish dasturlarini tuzishda dolzarb va amaliy ahamiyatga ega.

Z.Freyd o‘z vaqtida qiz bola rivojlanishida otaning roli haqida gapirgan edi, ammo keyinchalik otaning qiziga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar emas, asosan ona va bolaning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘paydi (M.Klyayn, Dj.Boulbi va boshqalar). Ammo aynan “ota-qiz” juftligi borasidagi tadqiqotlar juda kam o‘tkazilgan.

**Tahlil va natijalar.** Shuning uchun maqsadimiz noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan qizlar tarbiyasida erkakning, ayniqsa, ota rolini o‘rganishdan iborat.

To‘liq va noto‘liq oila vakilalari bo‘lgan qizlarda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilada ota mavqeyining farzandlar tarbiyasiga ta’sirining psixologik xususiyatlari o‘rganildi.

### 1-jadval.

#### Oilada ota va qiz munosabatlari

<i>Savollar</i>	<i>Javoblar</i>	<i>Respondentlar soni</i>
		<i>N=191</i>
Sizningcha, oilada otaning roli qanday?	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Beqiyos. Ota – oila ustuni;</li> <li>- Otaning o‘rnini ona va boshqa oila a’zolari belgilab beradi;</li> <li>- Hech bu haqda o‘ylab ko‘rmagan ekanman;</li> <li>- Otasiz ham oila tinch, xotirjam bo‘lishi mumkin.</li> </ul>	62,3 % 9,4 % 14,1 12,6 %
Qiz bolaning hayotida ota ko‘proq ahamiyatga ega, chunki...	<ul style="list-style-type: none"> <li>-Ikkalasining ham teng ahamiyati bor, ularning bittasi yo‘qligi qiz bolaning hayotida qiyinchiliklar tug‘diradi;</li> <li>- Ota uydagi maishiy-xo‘jalik ishlarining bilimdoni hisoblanadi.</li> </ul>	81,2 % 13,6 %
Oilada otaning mavjudligi (erkak kishining boshqaruvchi bo‘lishi) kim uchun ko‘proq ahamiyatga ega?	- O‘g‘il bolaga ham, qiz bolaga ham;	75,9 %
Ideal ota obrazi qanday xususiyatlarga ega bo‘ladi?	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yordam beradigan;</li> <li>- Doim yonimda bo‘ladigan.</li> </ul>	70,2 % 3,1 %
Kelajakda turmush o‘rtog‘ingiz otangizga o‘xshagan bo‘lishini istarmidengiz?	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Albatta, chunki mening otam yagona;</li> <li>- Albatta, chunki onam otam bilan baxtli yashagan.</li> </ul>	23 % 10,5 %

Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarning to‘liq oilalarda kamol topayotgan qizlar (respondentlarning 51,3 %i noto‘liq, 48,7 foizi to‘liq oila vakilalari) bilan oiladagi erkaklar, ya’ni otalar

haqidagi tasavvurlarini o‘rganish maqsadida “Sizningcha, oilada otaning roli qanday?”, deb berilgan savolga sinaluvchilarining 62,3 %‘i, “Beqiyos, ota – oila ustuni”, deb javob qaytargan bo‘lsalar, 12,6 %‘i “Otasiz ham oila tinch, xotirjam bo‘lishi mumkin”, 9,4 %‘i “Otaning o‘rnini ona va boshqa oila a’zolari belgilab beradi”, 14,1 %‘i “Hech bu haqida o‘ylab ko‘rmagan ekanman”, deb javob qaytargan. Bundan ko‘rinib turibdiki, sinaluvchilarining barchasida, ular qanday oilaviy shaklda yashashlaridan qat’i nazar, otalar haqida o‘ta salbiy munosabatda ham emaslar, deb hisoblash mumkin. Chunki berilgan javobning “Hech bu haqida o‘ylab ko‘rmagan ekanman”, deb qaytarilgan varianti ham ota haqidagi tasavvurlari, hech bo‘lmaganda, salbiy emasligining isbotidir. “Qiz bolaning hayotida ota ko‘proq ahamiyatga ega, chunki...”, mazmunida berilgan fikrni qatnashuvchilarining 81,2 %‘i “Ikkalasining ham teng ahamiyati bor, ularning bittasi yo‘qligi qiz bolaning hayotida qiyinchiliklar tug‘diradi”, deb qayd etgan bo‘lsa, ularning 13,6 %‘i “Ota uydagi maishiyxo‘jalik ishlarining bilimdoni hisoblanadi” deb fikrni davom ettirganlar. Demak, qizlar uchun ota xo‘jalik ishlarida muhim ahamiyat kasb etishidan ko‘ra, o‘z hayotlarida ota-onaning o‘rni yuqoriroq ekanligini bildirganlar. “Oilada otaning mavjudligi (erkak kishining boshqaruvchi bo‘lishi) kim uchun ko‘proq ahamiyatga ega?”, deb so‘ralganda esa, 75,9 % qizlar otalar ham o‘g‘il bolalar, ham qizlar uchun teng ahamiyatga ega ekanligini bayon etishgan. “Ideal ota obrazni qanday xususiyatlarga ega bo‘ladi?” deb berilgan savolga sinaluvchilarining yarmidan ko‘prog‘i (70,2 %) “Yordam bera oladigan”, deb belgilagan bo‘lsalar, atigi 3,1 %‘i “Doim yonimda bo‘ladigan”, deb ko‘rsatishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, qizlarning hammasi ham otalari ularning yonlarida bo‘lishidan ko‘ra, doim yordamga tayyor turishlarini istaganliklari ko‘ringan. “Kelajakda turmush o‘rtog‘ingiz otangizga o‘xshagan bo‘lishini istarmidingiz?”, deb so‘ralgan savolga sinaluvchilarining eng ko‘pi – 23 %‘i albatta istashlarini, chunki ularning otalari dunyoda yagona shaxs sifatida farzandlari hayotida muhim ahamiyatga ega shaxs ekanligini bildirishgan. Bundan kelib chiqadiki, qizlar otalari haqida farzandlariga o‘rnak bo‘la oladigan darajada ijobjiy xislatlarga ega shaxs sifatida qaraydilar va otalari farzandlarida qaytarilishini istaydilar. “Albatta, chunki onam otam bilan baxtli yashagan”, degan javobni esa qizlarning eng kami – 10,5 %‘i belgilaganlar.

Olimlarning ta’kidlashlaricha, qanday sabab bilan oila noto‘liq bo‘lishidan qat’i nazar, ona ajrashgan turmush o‘rtog‘i va uning yaqindoshlari haqida qanday fikrda bo‘lsa, farzandlarning qarashlari va munosabtlarida bu fikr albatta aks etadi. Psixologik adabiyotlarda shunday keltiriladiki, to‘liq oilalarda otalar qizlar uchun ideal shaxs sifatida gavdalansa, noto‘liq oilalarda qizlar onasidan andoza sifatida foydalanadi. Nafaqat noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan qizlarda, balki to‘liq oila qizlari shaxsida ham o‘z-o‘ziga munosabat va o‘z-o‘zini anglashining shakllanishiga ta’sir qilishi ehtimol bilan o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomalar natijasi bizga qizlarning otalariga munosabati bilan bog‘liq masalalarni amaliy jihatdan yoritishga yordam berdi.

**Xulosa.** Otasiz tarbiyalanayotgan qizlar hayotiy jarayonlarida qanchalik qiyinchilik va muammolarga duch kelmasinlar, kelajakda o‘zi qurmoqchi bo‘lgan oila boshqaruvchisi sifatida bo‘lajak turmush o‘rtog‘ini tan oladi va o‘zining otasida mavjud bo‘lgan ijobjiy sifatlarni unda shakllanishini istaydi. Buning uchun esa, qandaydir sabablar bilan yolg‘iz onalik maqomini olgan onalar kelajakda qizlari to‘kis oilaning baxtli bekalari bo‘lishlari uchun aggressivlik, alamzadalik, sobiq turmush o‘rtoqlaridan norozilik bilan emas, qizlarining eng baxtli ayol bo‘lib yashashlari uchun harakat qilib tarbiya berishlari maqsadga muvofiqdir.

Olingan natijalar asosida esa ota-onalar, o‘qituvchi va murabbiylar, psixologlar uchun ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bunday tavsiya va ko‘rsatmalar oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, umumlashtirilgan natijalar ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, umr davrlari va ontogenezi fanlarini yangi ma’lumotlar bilan boyitadi. Yangi sharoit, yangi davr ruhidagi inson psixologiyasining shakllanish dinamikasini bilish, amaliy jihatdan jamiyatimiz fuqarolarining dunyoqarashini zamon talabi darajasiga mos ravishda shakllantirish, yoshlarning kelajakka ishonch hissini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarida yangidan-yangi maqbul imkoniyatlarini qidirib topish ishini jonlantiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 40-b.
2. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent. 2007 yil.17-b.
3. Akramova F. va boshqalar. Oila ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – bet 237-b.
4. Shoumarov G. va boshqalar. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2010. 295-b.

5. Adnan A.A., Rauf R.I., Argustang A., Ahmad J. (2020). Agile leadership and divorce education: perception. *Humanities and Social Sciences Letters*, 8(3), 323330. DOI: 10.18488/journal.73.2020.83.323.330.
6. Mechanic, D. Hansell, S. (1989). Divorce, family conflict and adolescents' wellbeing. // Journal of health and social behavior, 30(1), 105-116. <https://doi.org/10.2307/2136916>.
7. Basnet R., Campbell R. (2017). Effect of family structure on mental health of children: a preliminary study. // Indian Journal of Psychiatric Medicine, 39(4), 457-463. <https://journals.sagerub.com/doi/rdf/10.4103/0253-7176.211767>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/104720>. (Family Code of the Republic of Uzbekistan. <https://lex.uz/docs/104720>.)
9. Shax Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: HIOLNASHR, 2018. – 528-b.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 2-juz. – T.: HIOLNASHR, 2015. – 584-b.
11. Saifnazarov I., Saifnazarova F. (2018) Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. “Ta’lim nashriyoti”, 132-b.

*Sa'dullayev Aziz Akmal o'g'li,*  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi*  
*azizbek210895@gmail.ru*

## O'SMIR KURASHCHILARDA XAVOTIRLANISH HISSI SHAKLLANISHINING PSIXODIAGNOSTIKASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqola o'smir sportchilarda xavotirlanish hissi shakllanishini tekshirishning psixodiagnostik imkoniyatlari mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida xavotirlanish hissining psixologik tavsifi, turli psixolog tadqiqotchilarining xavotirlanish hissi haqidagi ta'riflari, xavotirlanish hissini yengib o'tishning psixologik shart-sharoitlari, o'smir sportchilar xavotirlanish hissi shakillanishini psixodiagnostik baholash kabi masalalar ham keng yoritilgan.

**Kalit so'lari:** sport, o'smir sportchi, muvaffaqiyat, intilish, mashqlantirish, mashg'ulotlar, xavotirlanish, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, yengib o'tish, ichki nazorat, musobaqalashuv motivi, g'alaba, rag'batlantirish, jazo, madad istagi.

### ПСИХОДИАГНОСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТРЕВОЖНОСТИ У ПОДРОСТКОВ-БОРЦОВ

**Аннотация.** Данная статья посвящена теме психодиагностических возможностей изучения формирования тревожности у спортсменов-подростков. Также в тексте статьи освещены такие вопросы, как психологическое описание чувства тревоги, определения чувства тревоги различными исследователями-психологами, психологические условия преодоления чувства тревоги, психодиагностическая оценка формирования чувства тревожности у спортсменов-подростков.

**Ключевые слова:** спорт, спортсмен-подросток, достижение, стремление, упражнение, тренировка, тревожность, настойчивость, ответственность, преодоление, внутренний контроль, соревновательный мотив, победа, мотивация, наказание, желание покровительства.

### PSYCHODIAGNOSTICS OF ANXIETY FORMATION IN ADOLESCENT WRESTLERS

**Abstract.** This article is devoted to the topic of psychodiagnostic possibilities of examining the formation of anxiety in teenage athletes. Also, the text of the article covers such issues as the psychological description of the feeling of anxiety, the definitions of the feeling of anxiety by various psychological researchers, the psychological conditions for overcoming the feeling of anxiety, psychodiagnostic assessment of the formation of the feeling of anxiety in teenage athletes.

**Keywords:** sport, adolescent athlete, achievement, aspiration, exercise, training, anxiety, persistence, responsibility, overcoming, internal control, competitive drive, winning, motivation, punishment, desire for help.

**Kirish.** Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqlari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltiligan keng ko'lamlili ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun yurtimizda barcha sohalar bilan bir qatorda sport turlari ham jadal rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 18-fevraldag'i PF-75-sون “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” Farmoni hamda 2022-yil 18-fevraldag'i PQ-136-sон “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan yurtimizda sportga berilayotgan e'tibor va uni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Sport boshqa faoliyat turlaridan o'z subyekti his-tuyg'ularining o'ta junbushga kelishi va kuchli his-tuyg'ularga boyligi bilan farqlanadi.

Xalqaro sport tashkilotining 2019-yilgi yil yakunlari bo'yicha bergen ma'lumotida esa dunyo bo'yicha o'quvchi yoshlarning 34 foizi sportning basketbol, 29 foizi kurash, 25 foizi futbol, 12 foizi sportning boshqa turlari bilan shug'ullanishlari aniqlangan. Sportdagi bellashuvlar, olishuvlar, ularda faqat kuchli ta'sirlanishni

vujudga keltiribgina qolmasdan, musobaqada ishtirok etayotgan juda ko’p qatnashuvchilarda, jumladan, tomoshabinlarda ham hayajonlanish, xursandlik va xafa bo’lish kabi his-tuyg’ularni vujudga keltiradi. Turli xil sport musobaqlari millionlab kishilarni o’ziga jalb qila oladi hamda kishilarda mavjud bo’lgan eng yuksak his-tuyg’ularni uyg’otib yuboradi. Ma’lumki, irodaviy sifatlar sportda inson harakatlarini psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo’luvchi shaxs xususiyatlardan biridir. Sportda irodaviy sifatlarning namoyon bo’lishi nafaqat, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo’l qo’ymaslik balki, insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, o’smir sportchilarni muboqalarga hissiy emotsiyonal tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni talab etmoqda.

**Tadqiqot obyekti.** Kurash sporti uzoq tarixga ega bo’lib, qadimgi Olimpiya o‘yinlaridan boshlanadi. Hayotning davom etishi bilan birga, boshqalardan ustun bo’lish va hukmronlik o’rnatish istagi hamisha insoniyatga bo’lgan ishtiyoq bo’lib, bu ularning tajovuzkor munosabatda bo’lishiga va qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo’lgan. Kurash nafaqat raqibni mag’lub etish uchun bir nechta o‘yinlarni o’z ichiga olgan sport turi, balki chidamlilik (aerob, anaerob, nafas olish funksiyalari), kuch, moslashuvchanlik, tezlik, muvozanat, reaksiya va strategiya kabi bir nechta yuqori darajadagi jismoniy faoliyatni talab qiladi1. Kurash - kuchli va murakkab harakat shakllarini talab qiladigan yaqin jangovar sport turi. U ma’lum bir joyda, ma’lum bir qoidaga ega bo’lgan ikki kishi o’rtasida hech qanday asbob-uskunadan foydalanmasdan sodir bo’ladi va raqibni psixologik kuch bilan bir qatorda texnik va taktik mahoratdan foydalangan holda mag’lub etishga bog’liq.

S. L. Rubenshteynning kuzatishicha: bunday shaxslar o‘zlarini sharoitning boshqaruviiga topshiradi va bu ularga mos keladigan natijani keltirishiga ishonishadi. Shuning uchun xavotir va ikkilanishning belgilangan darajasi kerakli hisoblanadi va bu ma’lum darajada xavfsizlikni yaratadi [6]:

Ta’lim muassasasida o’tkazilgan tadqiqotida o’smirlarda tashvish hissi shakllanishi va turli xil tashqi omillar o’rtasidagi bog’liqlik tahlil qilinadi. Bu omillar o’quvchilarining psixologik holatiga qanday ta’sir qilishini tushunish muhimdir.

Ish innovatsion mактабда o’rta maktab o’quvchilarida tashvish shakllanishining quyidagi yetakchi omillarga e’tibor qaratishimiz kerak:

Shaxsiy o’zini namoyon qilishda ijtimoiy-madaniy va tartibga soluvchi cheklovlar: Ijtimoiy-madaniy me’yorlar va qoidalar bilan bog’liq cheklovlar o’smirlarda tashvish tug’dirishi mumkin.

O’smirlar bilan muloqot: Boshqa o’smirlar bilan o’zaro munosabatlarning sifati tashvish darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Maktab va oila o’rtasidagi o’zaro ta’sir epizodlari: maktab va oila o’zaro ta’siri o’smirlardagi tashvishga ham ta’sir qilishi mumkin.

Jismoniy faoliyatida tanlov holatlari: tanlash jarayoni o’smirlarda tashvish tug’dirishi mumkin.

O’quvchilarining individual fiziologik va intellektual xususiyatlari: fiziologiya va intellektdagi farqlar ham tashvish darajasiga ta’sir qilishi mumkin.

Pedagogik ta’sir va o’qituvchining shaxsiyati: o’qituvchilar bilan o’zaro munosabat o’smirlarning psixologik holatiga ta’sir qilishi mumkin.

O’smir sportchilar faoliyati har tomonidan turli qiyinchiliklarni doimo yengib o’tish bilan uzviy bog’liqdir. Qiyinchiliklarning ikki asosiy guruhi ajratiladi – obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar. Obyektiv qiyinchiliklar – ayni sport faoliyati turiga xos bo’lgan to’siqlar. Bular katta jismoniy yuklamalar, faoliyatning ob-havoga bog’liq shartlari (shamol, yomg’ir qor, issiqlik), o’rganilayotgan mashg’ulotning texnik jihatdan qiyinligi, sport anjomlarining buzilishi, tomoshabinlarning salbiy reaksiysi, notanish musobaqa joyi, chigal yozdi mashg’ulotlarni to’liq bajara olmaslik kabilarda namoyon bo’ladi. Insonlar o’z faoliyati natijasi uchun mas’uliyatni tashqi sabablarga yoki o’ziga yuklash moyilligiga qarab farqlanishadi. Bunday sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi. O’z xatti-harakati uchun mas’uliyatni tashqi sabablariga yuklaganda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to’g’risida fikr yuritiladi. Bu toifaga mansub shaxslar o’zining qoniqarsiz xatti-harakatini turli bahonalar bilan izohlaydi. O’z xatti-harakati uchun o’zini mas’ul deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallashtiruvchi ustun deb hisoblash uchun asos bor. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo’lgan odamlar maqsadga erishishda ancha ma’suliyatli, izchil o’z-o’zini tahlil qilishga moyil hamda mustaqil bo’lishliklari aniqlangan.

Ushbu tadqiqot o’smirlarda tashvishlanish mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi va qo’llab-quvvatlash va tuzatishning samarali usullarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

**Qo’llanilgan metodlar.** O’smir kurashchilarda musobaqa oldidan tashvishlanishni bartaraf etishning psixodiagnostika sportchilarining musobaqlari oldidan tashvishlanish darajasini aniqlashga va bu tashvishni yengishga yordam beradigan omillarni aniqlashga qaratilgan. Shuni esda tutish kerakki, musobaqa oldidan

tashvishlanish tananing normal reaksiyasi, ammo ortiqcha tashvish sportchining ishlashi va natijalariga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Psixodiagnostika uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Savol berish: sportchilarga musobaqalar oldidan o’zlarining tashvish darajasini baholash imkonini beradigan maxsus so’rovnomani tuzish. Savollar tashvishning fiziologik ko’rinishlariga (masalan, yurak urish tezligining oshishi, terlash), tashvishning psixologik ko’rinishlariga (masalan, salbiy fikrlar, tashvishlanish) va xatti-harakatlarning namoyon bo’lishiga (masalan, raqobatdan qochish) murojaat qilishi mumkin.

2. O’smir polvonlar bilan suhbat: o’smirlar bilan individual suhbatlar o’tkazish, musobaqalar oldidan ularning emotsiyal holati, fikr va umidlarini aniqlash. Bu muayyan muammolar va tashvishlarni aniqlashga yordam beradi.

3. Mashg’ulotlar va musobaqalar vaqtida sportchilarning xatti-harakatlarini kuzatish: musobaqalar oldidan tashvishlanishning namoyon bo’lishini, shuningdek, mashg’ulotlarning tashvish darajasiga ta’sirini kuzatish.

4. Testlarni o’tkazish: tashvish darajasini aniqlashga yordam beradigan va tashvishni yengib o’tishga ta’sir qiladigan sportchining psixologik profilining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan psixologik testlardan foydalanish

M.Ya.Basov ta’kidlaganidek, sportda hissiy-irodvaiy mashqlantirishning psixologik usullari yetarlicha rivojlanirilgan. Bundan tashqari, maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, psixologik va pedagogik xarakterdagi ilmiy -uslubiy asarlarda, sportchilarning irodasi, irodaviy jihatdan tayyorlash muammolariga qiziqish sezilarli darajada kamaygan[6].

O’smir sportchilarda o’z-o’zini ixtiyoriy tartibga solish shuningdek, ularda birlamchi hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlanirish masalalari, sport mashg’ulotlarining dastlabki bosqichida juda muhimdir. Chunki, bu o’tish davri hisoblanib, unda insonning qiziqishlari, sohaga bo’lgan qobiliyati, motivatsiya darajasi kabilar hisobga olinishi lozim. Qolversa, bunday xulosalar ko’plab yetuk psixologlar tomonidan e’tirof etilgan. Shu bois, sport bilan shug’ullanuvchi yoshlarda qat’iyatlilikni shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir.

L.V.Marishukning aniqlashicha, agarda, o’smir sportchilarning o’zi qat’iyat bilan maqsadga erishishga intilmasa, unda murabbiy ham hech qanday yordam bera olmaydi[2]. Quyida o’smir yosh sportchilar uchun zarur sanalgan irodaviy sifatlarning turiga va ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi ayrim psixologik omillar haqida to’xtalib o’tishga harakat qilamiz. Bundan tashqari, maqsadga intilish o’z ishiga bo’lgan ishtiyoq bilan ham bog’liq bo’lishi mumkin. Ta’kidlanishicha, qat’iylikni nafaqat, insonning irodasi balki, uning qiziqishlari, bajarilayotgan faoliyatning hissiy mazmundorligi kabilar ham qo’llab-quvvatlaydi. Tajribalar shuni ko’rsatdiki, har doim uzoq maqsadga erishishda o’ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ya’ni charchoq, to’yinganlik, muvaffaqiyatizlikka uchraganda o’smirlarda hissiy xavotirlanish hissi shakllanishi, vazifallardan ko’ngil qolishi va hokazo. Bizningcha, keltirib o’tilgan sifatlar faqatgina irodaviy sifatlar orqali bartaraf etiladigan qiyinchiliklar sanaladi.

Sportdagagi subyektiv qiyinchiliklar va xavotirlanish hissi ko’pincha, salbiy his-tuyg’ularda namoyon bo’ladi. Ya’ni dushmandan qo’rqish, shikastlanishdan qo’rqish, yutqizib qo’yishdan qo’rqish va hokazo. Obyektiv qiyinchiliklarga esa, sport faoliyatining umumiyligi va o’ziga xos shart-sharoitlari bilan tushuntiriladi. Ya’ni belgilangan rejimga rioya qilish, ko’plab musobaqalarda qatnashish, noqulay ob-havo va boshqalar.

S.K.Bagadirova boshqalardan farqli o’laroq, sportchilarning qaysi sport turi bilan shug’ullanishidan qat’i-nazar, sportchi-sportchilar o’rtasida ixtiyoriy faoliyat uslubini o’rgangan. Muallif hissiy-irodaviy faoliyatning har xil uslublarini aniqladi [3]:

- Rag’batlantirish;
- Tartibga solish;
- Cheklash va hokazo.

L.S.Vigotskiyning fikricha, ta’lim-tarbiya faoliyati o’smirning qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish shaklidir. Ta’lim faoliyatida bola tarbiyaviy munosabatlar tizimiga kiradi, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarga ega bo’ladi, shaxslararo muloqot tajribasiga ega bo’ladi. Natijada, ta’lim jarayonini shunday tashkil etish juda muhimki, ta’lim faoliyatidagi ziddiyatlarni kamaytirish bilan birga hissiy emotsiyal chidamlilikni rivojlanirish vazifalari ham hal qilinishi lozim.

O’smirlikning o’ziga xos xususiyati o’ziga va o’z muammolariga e’tibor qaratishdir. Bu rivojlanayotgan shaxs uchun uning shaxsiyatiga boshqalarning e’tibori juda muhim ekanligida ifodalanadi. Tengdoshlar va ota-onalarning yutuqlar va muvaffaqiyatlarga g’amxo’r munosabati, ular tushunish, ma’qullash va hayratga tushishga intiladi. Ular do’stlarga juda kuchli ehtiyoj sezadilar. Kattalarga hissiy qaramlik ota-onalar va kattalar tomonidan chuqur tushunish zarurati bilan ifodalanishi mumkin.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** V.T.Malkinning fikriga ko'ra esa, o'smir sportchilarda xavotirlanish hissini yengib o'tishda irodvaiy sifatlarning shakllanishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, uni quyidagi ketma-ketlik asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir[4]:

– Dinamik jismoniy fazilatlar - kuch, tezlik, reaksiya tezligi kasbi sifatlar birinchi bo'lib shakllanadi;

– Katta va uzoq yutuqlarga javob beruvchi irodaviy sifatlar - qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyati, chidamlilik, qat'iyatlilik hamda murakkab va nozik harakatlarga javob beruvchi sifatlar konsentratsiya, diqqatni jamlay olish, o'zini o'zi faollashtira olish va hokazo.

O'smirlik yoshida irodaviy sifatlarning shakllanishi intensiv kechib, keyinchalik mustahkamlana boradi. O'smir sportchilarda xavotirlanish hissini yengib o'tishda jamoadoshlarining ham roli yuqori sanaladi. Chunki tengdoshlar tomonidan berilgan tanbehtar, aytilgan sifatlar ya'ni, qo'rkoqlik, dangasalik, yalqovlik, manmanlik, o'ziga bino qo'yish kabilalar bunga yaqqol misoldir. Shu orqali o'smir qat'iyatlili bo'lishga, boshqalardan orqada qolmaslikka, yetakchilikni qo'lga olishga, namunali va muvaffaqiyatli jamoadoshlariga intilishga harakat qiladi. Bundan tashqari, ushbu jadval orqali faktorlar o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rshimiz mumkin.

#### **Yengib o'tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish muvaffaqiyatsizlikdan qochish so'rovnomalari faktorli analiz ko'rsatkichlari**

Shkalalar	Faktorlar			
	1	2	3	4
Irodaviy matonat	0,643		0,538	0,566
Vaziyatni yengib o'tish		0,637		
Oqilona harakat		0,594	0,554	
Jur'atsizlik	0,589	0,567	0,646	
Nazorat				0,738
Kechinmalar namoyishi	0,732		0,518	
Madad istagi	0,724	0,485	0,652	
Muvaffaqiyatga erishish	0,743			
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	0,670			0,562

O'smir yoshdagi kurashchi sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarga doir tadqiqotimizga aniqlik kiritish davomida shaxsning hayoti davomida murakkab vazifalarni bajarishda irodaviy sifatlarni shakllantirish eng asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Sinaluvchilar natijalari omilli analiz bo'yicha ko'rsatkichlar 4 ta omilga birlashganligi namoyon bo'ldi.

Birinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: irodaviy matonat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi, madad istagi, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish kabi natijalar bilan o'zaro farqlangan Aksariyat hollarda inson shaxsining ijtimoiy shartlangan xususiyatlari uning irodaviy faolligi yo'naliшини gavdalantiradi. Ijtimoiy yo'nalanlik shaxsning motivatsion-irodaviy xislati hisoblanmish sobitqadamlilikda o'z ifodasini topadi. Inson shaxsining irodaviy jarayonlari, holatlari, xislati faoliyatning motivlari va maqsadini amalga oshirishning o'ziga xos usuli sifatida yuzaga keladi. Aqliy faoliyatda hissiy holatlар irodaviy xatti-harakatlar kechishining aynan ichida, ya'ni maqsad belgilashdan tortib, to uning bajarilishigacha oraliqda ko'zga tashlanadi.

Ikkinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: vaziyatni engib o'tish, oqilona harakat, jur'atsizlik va madad istagi kabi natija bilan alohida tavsiflangan. Ongli xulq-atvorda, ixtiyoriy diqqatda, eslab qolishda, esga tushirishda, tafakkurda, xayolda ifodalanadi, murakkab muammolarni yechish, irodaviy zo'r berishni sabablarga yetish uchun mutlaqo zarur, chunki busiz mehnat va o'quv faoliyatida hech qanday natijaga erishish mumkin emas. Ularning o'zaro uyg'unlashuvi samaralar keltirish majmuasi sifatida ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi.

Uchinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: irodaviy matonat, oqilona harakat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi va madad istagi kabi daraja bilan alohida xarakterlangan.

To'rtinchi shkalani tashkil qilgan psixologik birliklar: hissiy-irodaviy matonat, nazorat va muvaffaqiyatsizlikdan qochish kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turganligini qayd qilish mumkin. Mehnat faoliyatidagi va ta'lim jarayonidagi irodaviy holatlар - bu vujudga kelgan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etishning usullari, inson shaxsining omilkor, oqil ichki sharoitlarining muvaqqat ruhiy hodisasi. Ularni qatoriga bir talay hayotiy shart-sharoitlar ta'siri ostida vujudga keluvchi optimizm va umumiyl faollik, qiziquvchanlik, motivatsion, mobilizatsion tayyorgarlik, qat'iyatlilik xususiyatlari kiradi. Mehnat va stress-emotsional zo'riqishning keskin holati ko'rinishi, shakli hisoblanib, tashqi va ichki muhitning noxush omillarini shaxsga favqulodda ta'sir etish natijasida vujudga keladi. Shaxs uzluksiz paydo bo'luvchi va bartaraf qilish qiyin hissiy

xavotirlanish kabi to'siqlarning ta'siri ostida ruhan tushkunlik, o'zini yo'qotib qo'yish, ko'pincha eksperimentga, vaziyatga nisbatan agressiv (tajovuzkor) reaksiyalar (javob xatti-harakatlari) yuzaga kelishi kuzatiladi. Axloqiy qoidalar hissiy xavotirlanish va irodani bevosita belgilaganda, iroda axloqiy qoidalarga bo'ysunganda u erkin hisoblanadi. Buning natijasida inson faqat hissiy taassurotlar, istaklar bilan emas, zarar va foyda haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, asosida harakatlanadi.

Yosh kurashchilar bir necha sabablarga ko'ra musobaqa dan oldin tashvishga tushishlari mumkin. Mana ulardan ba'zilari:

➤ Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish: yosh sportchilar murabbiylarning kutganlarini yoki o'zlarining yuqori umidlarini qondira olmaslik ehtimoli haqida tashvishlanishlari mumkin. Ular muvaffaqiyatsizlikdan yoki maqsadlariga erisha olmaslikdan qo'rqishlari mumkin.

➤ Ishonchsizlik: Ba'zi kurashchilar o'z qobiliyatlari va texnikasiga ishonch bildirmasligi mumkin. Ular o'zlarining jismoniy tayyorgarligi yoki raqobatga loyiqligiga shubha qilishlari mumkin.

➤ Boshqalar tomonidan baholanishidan qo'rqish: Yosh sportchilar boshqa odamlar ularni musobaqadagi natijalariga qarab baholaydilar deb xavotirlanishi mumkin. Ular yomon natijalar hukm chiqarishga yoki ularning sa'y-harakatlari uchun tan olinmaslikga olib kelishidan qo'rqishlari mumkin.

Yosh polvonlarning ana shunday psixologik qiyinchiliklarni yengib o'tishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish muhim ahamiyatga ega. Mana bir nechta maslahatlar:

➤ O'ziga ishonchni oshirish: sportchilarga o'zlarini va qibiliyatlari haqida ijobjiy e'tiqodlarni rivojlantirishga yordam bering. Ularni nafaqat natijalar, balki harakat uchun ham mukofotlang.

➤ Haqiqiy maqsadlarni qo'ying: Sportchilarga ular erishishi mumkin bo'lган real maqsadlarni qo'yishlariga yordam bering va ular erishayotgan yutuqlar haqida ular bilan muloqot qiling.

➤ Anksiyeteni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqing: sportchilarga nafas olish mashqlari, muvaffaqiyatni vizualizatsiya qilish yoki ijobjiy o'z-o'zini gipnoz kabi tashvishlarni boshqarish usullarini taqdim eting.

➤ Qo'llab-quvvatlovchi muhit yarating: yosh kurashchilar o'zlarini qo'llab-quvvatlash va tushunishlarini his qilishlariga ishonch hosil qiling. Agar kerak bo'lsa, ular yordam yoki maslahat so'rashlari mumkinligini bilishlari kerak.

Umuman olganda, o'smir yoshdagagi kurashchi sportchilarda xavotirlanish hissini yengib o'tishga ta'sir qiluvchi psixologik omillariga doir tadqiqotimizga aniqlik kiritish davomida, shaxsning hayoti davomida murakkab vazifalarni bajarishda irodaviy sifatlarni shakllantirish eng asosiy jarayonlardan biri sanaladi. Sinaluvchilar natijalari faktorli analiz bo'yicha ko'rsatkichlar 4 ta faktorga birlashganligi namoyon bo'ldi.

**Xulosa.** Amalga oshirilgan empirik tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin. Birinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: irodaviy matonat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi, madad istagi, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish kabi natijalar bilan o'zaro farqlangan. Ikkinci shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: vaziyatni engib o'tish, oqilona harakat, jur'atsizlik va madad istagi kabi natija bilan alohida tavsiflangan. Uchinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: irodaviy matonat, oqilona harakat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi va madad istagi kabi daraja bilan alohida xarakterlangan. To'rtinchi shkalani tashkil qilgan psixologik birliklar: irodaviy matonat, nazorat va muvaffaqiyatsizlikdan qochish, xavotirlanish hissini yengib o'tish kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turganligini qayd qilish mumkin. Yana shuni aytish mumkunki, muntazam maqsadli jismoniy tarbiya yoki sport mashg'ulotlari jarayoni nafaqat ma'lum ko'nikma va qibiliyatlarni, jismoniy sifatlarni, balki ruhiy jarayonlarni, shaxsning xususiyatlarini ham tarbiyalash va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Jismoniy madaniyat bilan shug'ullanadigan o'smir vaqt tanqisligi, aqliy charchoq, neyro emotSIONAL stress, stress sharoitida diqqat, idrok, xotira, ularning konsentratsiyasi va almashinuvi barqarorligini ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi. Jismoniy madaniyat ish faoliyatini optimallashtirish, neyro-emotsional va psixofizik charchoqning oldini olish uchun ishlataladi. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning intellektual sifatlarini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ul jarayonida doimiy ravishdaharakatchan kognitiv vaziyatlar paydo bo'ladi, ularni hal qilish jiddiy ruhiy stressnitalab qiladi. Harakat muammosining oddiy yechimi: harakatni qanday qilib to'g'ri, tez, aniq bajarish, xatoni qanday tuzatish - bu kuzatish, umumlashtirish, qaror qabul qilishni o'z ichiga olgan aqliy amaliyot zanjiri. Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, jismoniy mashqlar nafaqat tananining funksional imkoniyatlarini, insonning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshiradi, balki o'smirning aqliy xususiyatlarini rivojlantirishga va shakllantirishga yordam beradi. ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlar.

**Adabiyotlar:**

1. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. - М., 2008. – С.89.
2. Марищук Л.В. Психология спорта: учеб. пособие. - Минск: БГУФК, 2006. – С.66.
3. Багадирова С. К. Материалы к курсу «Спортивная психология»: учебное пособие / С. К. Багадирова. - Майкоп: Изд-во «Магарин О. Г.», 2014. – С.58.
4. Малкин В. Т. Спортивная психология: взгляд в XXI век / В. Малкин, Л. Рогалева // Человек в мире спорта: Новые идеи, технологии, перспективы : тез. докл. Междунар. конгр. - М., 1998. – Т. 2. - С. 340-341.
5. Ибрагимов У.«Спорт психологияси» 2004-йил ўқув қўлланма
6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии, 4-издание.
7. Родионов А.В.“Практика психологии спорта” Тошкент-2018 -224с.
8. Арзикулов Д.Н., Гаппаров З.Г., Вахобова Д.В. “Психология ва спорт психологияси” Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2018 -307 б.
9. Гаппаров З.Г., Абидов Ш.У., Иштаев Ж.М., Садиков А.Г., Умаров М.Н., Хасанова Г.М. Психология спорта вқсших достижений. –Т.: Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2018 -300 б.
10. Гаппаров З.Г., Иштаев Ж.М. Спортчиларни тезкор-қуч қобилиятини ривожлантиришнинг психофизиологик асослари. Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2018 -124 б.

*Saidova Yulduzxon Akbarjon qizi,  
Farg'onan davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi  
yusaidova777@gmail.com*

## O'SMIRLARDA ISHONCH HISSI VA UNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotasiya.** Maqolada o'smir yoshdagi bolalarning psixologik holati, emotsiyal holati, o'zgalar bilan munosabatlari, ishonch darajalarini o'rghanish, tahlil qilish, ularni ishonch darajalarini oshirishda qo'llaniladigan asosiy metodikalar bilan ishlash. O'smirlarni ishonch darajalarini oshirishda asosan ota-onalar, o'qituvchilarini olib borilgan ishlarini o'rghanish tahlil qilish, ko'maklashish, ularga ishonch bildirish, ularni o'zlariga bo'lган ishonchlarini oshirishda asosan turli individual suhbatlar, metodikalar o'tkazish orqali ularga yordam berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** o'smir, ishonch hissiyot, mehr, oqibat, diqqat, hayol, idrok, tafakkur, fikrlar mosligi, ota-onas, xotira, oiladagi farovonlik.

## ЧУВСТВО ДОВЕРИЯ У ПОДРОСТКОВ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

**Аннотация.** В статье речь идёт об изучении и анализе психологического состояния отношений с окружающими, уровня доверия детей-подростков, а также работе с основными методами повышения уровня их доверия. Чтобы повысить уровень доверия подростков, родители и педагоги преимущественно изучают и анализируют проделанную работу, помогают им, придают им уверенность, повышают уверенность в себе, главным образом, путём проведения различных индивидуальных бесед и методов оказания им помощи

**Ключевые слова:** подросток, доверие, эмоция, любовь, следствие, внимание, воображение, восприятие, мышление, совместимость мыслей, родители, память, благополучие в семье.

## ADOLESCENTS' SENSE OF TRUST AND ITS SOCIO-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES

**Abstract** The article deals with the study and analysis of the psychological state, emotional state, relationships with others, trust levels of adolescent children, and working with the main methods used to increase their trust levels. In order to increase the confidence levels of teenagers, parents and teachers mainly study and analyze the work done, help them, give them confidence in themselves, mainly by conducting various individual conversations and methods is to help them.

**Keywords:** adolescent, trust, emotion, love, consequence, attention, imagination, perception, thinking, thought compatibility, parents, memory, family well-being.

**Kirish.** Mamlakatimiz barcha sohalarda ilg'or va taraqqiy etib borayotgani hech birimizga sir emas, zero O'zbekiston mustaqillikga erishgach, har jabhada salmoqli ishlarni amalga oshirib, tub islohotlarni olib borgan, hususan ta'lim tizimida ham o'zgarishlar bo'lganligi va bu o'zgarishlarning barcha barchasi yosh avlod va uning kelajagiga qaratilganligi bejiz emas. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek. "Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur".


Izchil bilimlar hamda amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Respublikamizning rivoji, ravnaqi yoshlarga bog'liq ekan, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash kerak. O'qituvchi bilan o'smirning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining asosiy omillaridan biridir. Mamlakatimizda yangi "Ta'lim to'g'risidagi qonuning" loyihasining muhokama qilish jarayonida - o'z kasbining zukkolari, o'ta zehnli, kuchli intellektual salohiyat egasi, o'zida mukammal dunyoqarash va boy ma'naviyatni mujassamlashtirish, ularni jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligiga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, o'smir va o'spirin shaxsini, kelajak avlodni o'zining sog'lom va mustaqil fikriga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunda ko'ndalang qo'yilgan asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bugungi kunda psixologlarni qiyayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni, shaxs xususiyatlarini iloji boricha to'liq va mukammal o'rganib chiqishdir.

O'smirlarda odamlarga ishonchning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** "Ishonch" tushunchasi odamlar o'rtasidagi kundalik munosabatlar amaliyotini aks ettirish oddiy holdir degan fikrniyam ilgari surishgan.Sharq allomalaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rus olimlaridan E.Erikson, S.L.Rubinshteyn, M.S.Kagan, V.E.Klochko bevosita ijtimoiy-psixologik omillar o'z tadqiqotlarida ishonch tushinchasini qanday paydo bo'lganini ishonchni avvalo oilada, do'stlar davrasida, makatab davlarida paydo bo'lishini ya'ni ishonchni paydo bo'lishini o'smir yoshdag'i bolalarda asosan kamroq chunki u yoshda ko'proq mehrga, shirin so'zga muhitojligini aytilib o'tishgan (1.79 b)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki ishonch tushinchasini paydo bo'lishi, asosan oilaga ,muhitga,fikr mulohazalarga ijtimoiy-psixologik omillar , mehnat jarayonlari, qo'rquiv,ishonchsizlikni yengishda asosan mamalakatimiz olimlaridan M.Adilova, E.G'oziyev, Adizova T.M. va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etishgan.

**Natijalar.** Natijalarimiz shuni ko'rsatadiki tadqiqotimiz Farg'on'a shahrida joylashgan 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi va Oltiariq tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirildi. Maktablarning 7-sinf o'quvchilari tadqiqotda ishtiroy etishlari avvaldan rejaga kiritilgan bo'lib, tajribada ishtiroy etishlari taklif etildi. 6-maktabning 7-A sinfdan 25, 7-B sinfdan 30 nafar, 17-maktabdan 7-B sinfdan 32, 7-V sinlaridan 25 nafardan sinaluvchilar qatnashdi. Tadqiqotimizda shahar maktabidan 55, qishloq maktabidan 57 nafar o'quvchilar tajribada ishtiroy etdilar. Har bir ishtiroychiga test matni berildi. Ularning har biriga test bilan ishlayotganda amal qilish lozim bo'lgan harakatlar tushuntirildi. Dastlab o'tkazilgan «Odamlarga ishonasizmi?» so'rovnomasi bo'yicha natijalar quyidagicha bo'ldi.




1-diagrammada ko'rinish turibdiki, respondentlarning 34 foizi ishonuvchan, ochiq va rashk nimaligini bilmaydigan, atrofdagilar bilan tez til topishib keta oladi, ko'ngilsizliklarni xafagarchiliklarni tez unutadigan toifa ekanliklari aniqlandi. 56 foiz ishtiroychilar har doim ham boshqalarga ishonmasliklari, begona va yo'lida uchrangan kishilar bilan darhol hamkorlik qilishga shoshilmasliklari, ishdan tez ko'ngil sovish, atrofdagilarga emas balki, o'zlariga bo'lgan ishonch hissini ortiqligi kuzatildi. 10 foiz respondentlarda faqat o'ziga bo'lgan ishonchni yuqoriligi, mustaqil harakat, qarorga kelish kabi xususiyatlari yuqori darajada shakllangan biroq boshqalarning manfaatlari, qiziqishlari, orzu umidlari va armonlari umuman qiziqtirmasligi kuzatildi. Mazkur holat bo'yicha olingan natijalarning ishonchligi quyidagi ko'rinishni berdi.

	umumiyo ko'rsatgich
o'rta arifmetik qiymat	8,29
St.Og'ish	3,55134062
Assimetriya	0,641191441
Ektsess	-0,388973665
Xmin	3
Xmaks	17

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra sinaluvchilarning umumiy ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari  $8,29 \pm 3,55$  chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 67 foizini qamrab olmoqda.

Ushbu testning umumiy natijasi bo'yicha asimmetriya va ekstsess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi ( 1-rasm).



**Muhokama.** Mazkur 2-diagrammada 8 foiz o'g'il bolalar va 26 foiz qizlarda ishonuvchanlik, atrofdagilarga xayrixohlik, begonalar bilan ham tez hamkorlik qila bilish, ko'ngilsizliklarni tezda unutishga moyillik mavjudligi kuzatildi. Jinsiy farqni mavjudligi yigitlarda qizlarga nisbatan mustaqillikning ustunligi shunday natijani berilishiga sabab bo'ladi deb, tushunish mumkin.

19 foiz o'g'il bolalar va qizlarning 37 foizi har doim ham boshqalarga ishonib ketavermasligi, atrofdagi notanish yolg'onchilar bilan masofa saqlagan holda munosabatda bo'lishi yeki o'sha odam bilan hamkorlik qilishdan darhol bosh tortishi mumkinligi aniqlandi. Har ikki jins vakillarida o'zlariga ishonchning mustahkamligi, qat'iyligi bir xilda ekanligi kuzatildi. Bu esa ularning atigi 5 foizinigina tashkil qilgan. Ularda boshqalarga emas asosan o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori, o'zini fikrini maqul ko'radi. Ular asosan yolg'iz qolganda fikr mulohazalarini bildira oladi boshqalarni so'zlarini ma'qullamaydi. Ular asosan o'ziga ishonishni ma'qul deb ko'rishadi.

Ular asosan yolg'iz qolganda fikr mulohazalarini bildira oladi boshqalarni so'zlarini ma'qullamaydi. Ular asosan o'ziga ishonishni ma'qul deb ko'rishadi.

	yigit	qiz	shahar	qishloq
O'rt	8,90625	8	9,96	6,62
St.og'ish	3,44879	3,586875	3,891173	2,156055
Asimmetra	0,683407	0,677786	0,035733	0,236313
Eksess	-0,39249	-0,31925	-1,10086	0,66717
Xmin	3	3	3	3
Xmaks	16	17	17	12

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra o'g'il bolalarning ballari 3 balldan 16 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari  $8,91 \pm 3,45$  chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 71 foizini qamrab olmoqda.Qiz bolalarning ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari  $8 \pm 3,58$  chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 63,2 foizini qamrab olmoqda.

O'g'il va qiz bolalarning natijasi bo'yicha asimmetriya va eksess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra shahar hududi bo'yicha ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari  $9,96 \pm 3,89$  chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 54 foizini qamrab olmoqda. Qishloq hududi bo'yicha esabu ko'rsatgich 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari  $6,62 \pm 2,15$  chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 58 foizini qamrab olmoqda.

Shahar hududining natijasi bo'yicha ekstsess ko'rsatgichlari -1 dan yuqori ko'rinishda bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining yuqori qismlari o'ng tomonda joylashganligidan dalolat beradi va bu sinaluvchilarning natijalari nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi (diagramma3).

Qishloq hududining natijasi bo'yicha asimmetriya va ekstsess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

3-diagramma orqali farq yo'qdek ko'rinishi mumkin lekin chastatali tahlil qilinganda ularning o'rtasidagi farq ko'rindi. Ushbu diagrammadan ko'rish mumkinki shahar hududida yashovchi sinaluvchilarning o'ng tomonda ya'ni yuqori ball ko'pligini ko'rsatadi. Qishloq hududining natijalari esa chap tomonda bu esa natijalarda past ko'rsatgichning ko'pligini ko'rsatadi. Bu esa ularda shahar aholisiga qaraganda odamlarga ishonish yuqoriligidan dalolat beradi (2-rasm).

Bu natijalar yigit va qizlarda ishonch hissini qay darajada ekanligini farqlanganligini ko'rsatmoqda. Bunda asosan ko'proq qiz bolalarda ishonch hissi pastroq yigitlarda ishonch hissi yuqoriroq ekanligi isbotlandi. Bunga asoslangan holda yigitlarda ishonch hissi qizlarga qaraganda kuchliroq ya'ni ishga qo'l urishdan avval aniq ishonch hosil qilib, so'ng faoliyatni boshlashi, ikkilanish holati yuz bermasligi kuzatildi. Statistik tahlil qilinganda ular orasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi. Natijalar tahlili quyida 2-diagrammada keltirildi.

**Xulosa.** Ishonch hissi qiz bolalar va o'g'il bolalarda solishtirib jadval asosida ko'radigon bo'lsak, asosan ikkalasini solishtirganimizda qizlarimizda ishonch darajalari yuqori chiqyapti bunga asosiy sabab ularni qiziqonligi o'z fikriga ega ekanligi, fikrlarini erkin ifoda etishini ko'rishimiz mumkin. Shahar qishloq kesishmasida ko'radigon bo'lsak asosan shahar hududidagi o'smirlarni ishonch darajalarini yuqori chiqanligini ko'rishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.Taqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent;O'zbekiston -2017-104b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T;”O'zbekiston”.2017-488b.
3. Mirziyoyev Sh.M.Taqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent;O'zbekiston-2017.-104 b.
4. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. – Toshkent, TDPU, 1997.
5. Adilova M., Raxmonova D.R. Farzandlar mehrimizga muhtoj. Ayollar psixologiyasi: anhanaviylik va o'zgaruvchanlik. Respublika ilmiy-amaliy anjumanı mahruzalari to'plami. - Toshkent, 2002.
6. Анастази А. Психологической тестирование - М 1982, - Т2.
7. Баратов Ш.Методы изучения личности студента.-Ташкент. Учитель 1995.
8. Беспальков И.Г. Гилгашев. И.Н.Проективной метод психологической и коррекции личности. –Л. – 1983.
9. Каган М.С. Мир общения. – М., 1988.
- 10.Клочко Е.В. Инициация мыслительной деятельности: Автореф. Дис... д-ра психол. наук. – М. - 1991 г.

Sattarova Gulnora Ikromovna,  
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p. f. f. d.(PhD)

## JISMONIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN O'SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOKORREKSION DASTURI SAMARADORLIGI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jismoniy rivojlanishida, ya'ni tayanch harakatida hamda eshitishida nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixokorreksion dasturi samaradorligi, shuningdek, eshitishda nuqsoni bor o'smirlar, tayanch harakati shikastlangan o'smirlar va sog'lom rivojlangan o'smir yoshlarning irodaviy sifatlar darajasi so'rovnomasi bo'yicha olgan natijalari eksperimental materiallar asosida izohlangan, natijalar yuzasidan o'ziga xos mushohadalar bildirilgan, subyektlarda iroda shakllanishining jabhalari talqin qilingan, muammo bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smir, hissiy-irodavviy soha, emotsiyonal intellekt, coping xulq atvor, jur'atilik, matonatlilik, ijtimoiylashuv, ta'sirchanlik, zo'riqish-bo'shashish, o'zini o'zi nazorat qilish, lokus nazorat.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОКОРРЕКЦИОННОЙ ПРОГРАММЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ ПОДРОСТКОВ С ОТКЛОНЕНИЯМИ В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрена эффективность психокоррекционной программы формирования эмоционально-волевых качеств подростков с отклонениями в физическом развитии, т.е. в основных движениях и слухе а также, результаты опросника уровня волевых качеств подростков с нарушением слуха, нарушениями локомоции и здоровых подростков на основе экспериментального материала, дано объяснение, сделаны конкретные наблюдения за результатами, интерпретированы аспекты формирования воли у испытуемых, даны научные выводы по проблеме.

**Ключевые слова:** подросток, эмоционально-волевая сфера, эмоциональный интеллект, совладающее поведение, смелость, упорство, социализация, аффективность, напряжение-расслабление, самоконтроль, локус-контроль.

## THE EFFECTIVENESS OF THE PSYCHOCORRECTION PROGRAM OF FORMING EMOTIONAL AND VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS WITH DEFECTS IN PHYSICAL DEVELOPMENT

**Abstract.** This article examines the effectiveness of a psychocorrectional program for the formation of emotional and volitional qualities of adolescents with deviations in physical development, i.e. in basic movements and hearing, as well as the results of the questionnaire of the level of volitional qualities of adolescents with hearing impairment, locomotion disorders and healthy adolescents, based on experimental material, an explanation is given, specific observations of the results are made, aspects of the formation of will in the subjects are interpreted, scientific conclusions on the problem are given.

**Keywords:** teenager, emotional sphere, emotional intelligence, coping behavior, courage, perseverance, socialization, affectivity, tension-relaxation, self-control, locus control.

**Kirish.** Zamonaviy psixologiyada irodaviy sifatlar muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy konsepsiylar va yondashuvlar yaratilgan bo'lsa-da, hali-hanuz uni tushuntiruvchi yagona ta'rif mavjud emas. Insonga xos irodaviy sifatlar va uning shakllanishi masalasi bilan bog'liq qarashlarda qo'plab qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bundan tashqari, irodaviy sifatlar masalasida ko'plab ilmiy konsepsiylar mavjud bo'lib, ularda muammo borasidagi o'ziga xos qarashlarni uchratish mumkin. Shunday ekan, irodaviy sifatlarni tadqiq etishda bir yoqlama yondashuvra emas balki, psixologiyaning sohalari aro ma'lumotlar integratsiyasiga tayanishi lozim[2]. Chunki, hissiy-irodaviy sifatlar faqat ixtiyoriy harakatlar bilan xarakterlanib qolmasdan, u hissiy o'z-o'zini boshqarish va nazorat qila olish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq sanaladi. Aksariyat psixologik adabiyotlarda bunday mulohazalarning aksini uchratish mumkin. Y.O.Smirnova boshqalardan farqli o'laroq, irodaviy sifatlarni quyi instinktiv xatti-harakatlarni bostiruvchi "aqliy kuch" deb ta'riflaydi [5]. Ya'ni u bir vaqtning o'zida organizm uchun maxsus dvigatel (motor) vazifasini o'tashini ham ta'kidlaydi. Keltirib o'tilgan ushbu ta'rifdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, irodaviy sifatlar insonni biror faoliyatga undovchi yoki uni tormozlovchi aqliy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar iroda va irodaviy sifatlarni, insonning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasi bilan tushuntirishga harakat

qiladilar. Boshqalardan farqli ravishda, Y.A.Sergiyenkoning ta’rificha, iroda bu-vogelikni subyektga ong darajasida aks ettiruvchi hamda faoliyatni nazorat qiluvchi psixikaning tipik xususiyatidir[4]. Ya’ni inson har qanday muvaffaqiyat yoki oliy maqsadlarga irodaviy sifatlar orqali erishadi. Shu bilan birga, iroda insonni atrof-muhit bilan aloqasini ta’minlovchi psixologik jarayondir. Demak, irodaviy sifatlar maqsad qilingan harakatlars asosida shakllanib, maqsaddan tashqari harakatlarni to’xtatish holati bilan ham xarakterlanadi. Boshqa bir olimlar guruhi esa, irodaviy sifatlarini “aqliy barqaror shakllanish” jarayoni bilan tushuntirish holatlari ham uchraydi. Jumladan, V.I.Selevanovning so’zlariga ko’ra, irodaviy sifatlar berilgan tashqi vaziyatlardan mustaqil, shaxsnинг aqliy dinamik shakllanish jarayoni sanalib, uning asosiy turlariga maqsadga yo’nalganlik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, chidamlilik, o’zini tuta bilih, mustaqillik, uyushqoqlik, jasorat, samaradorlik kabi sifatlar kiritiladi[3]. Shu bois, irodaviy sifatlar aqliy harakatlarning asosi hisoblanib, u dinamik rivojlanish bosqichiga egadir. Iroda va irodaviy sifatlar muammosiga qiziqish antik davr allomalari asarlarida ham aks etgan bo’lib, unda irodaviy sifatlar aql-idrokning bir qismi sifatida ta’riflangan. Antik davr faylasuflaridan Platonning aytishicha, iroda bu aqlning sintezi, u orqali biror narsaning bahosi belgilanadi shuningdek, irodaviy sifatlar bu - shaxsnинг intilishlarida aks etuvchi xulq – atvor shakllaridir [1].

**Tahlil va natijalar.** Mazkur ishimizni amaliy jihatdan boyitish davomida, tadqiqotimizda aniqlagan таянч харакати шикастланган, eshitish qobiliyati zaif o’smirlarning hissiy-irodaviy sohasi sifatlarini psixokorreksiya etishda, ayrim maxsus psixologik trening mashg’ulotlaridan foydalandik. Тадқиқотда қўлланган maxsus treninglar majmui, hissiy-irodaviy soha sifatlarini tizimli, izchillikda shakllantirishga qaratilgan korreksion vositalar sanalib, hozirgi kunda, ular emotSIONAL-irodaviy sifatlarni rivojlanantirish amaliyotida foylanish mumkin bo’lgan, eng samarali psixokorreksion texnikalardan biri hisoblanadi.

Guruhiy psixokorreksianing umumiy maqsadi hissiy-irodaviy sifatlarga zid xulq-atvor darajasini adaptiv xulq-atvorni o’zlashtirish yo’li bilan pasaytirishga qaratilgan. An’anaviy trening muolajalariga mansub rolli o’yinlar, bahs-munozaralar, mini-leksiyalar bilan uyg’un tarzda guruhiy psixokorreksiya amalga oshirildi.

#### 1-jadval.

Irodaviy sifatlar	Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo’lgan o’smirlar		
	Eshitishda nuqsoni bor o’smirlar	Tayanch harakati shikastlangan o’smirlar	Sog’lom o’smirlar
Yuqori	24%	18%	48%
O’rtalik	30%	28%	36%
Quyi	46%	54%	16%

Shaxsnинг irodaviy faoliyatga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati, vazifalarni bajarishga bo’lgan ijodiylik darajasi, hamkorlik qilishga nisbatan istakning yuqoriligi kabilar hissiy-irodaviy sifatlarini tushuntiruvchi psixologik unsurlaridir.

Hissiy jarayonlar darajasi va irodaviy sifatlarning ma’lum fursat ichida qanchalik samara bergenligi bilan baholanadi. Irodaviy sifatlarning tezligi imkoniyati cheklangan o’smirlarga juda zarur psixologik quroq bo’lib xizmat qiladi. Olingan natijalardan shuni kuzatish mumkinki, eshitishda nuqsoni bor o’smirlar, tayanch harakati shikastlangan o’smirlar va sog’lom rivojlangan o’smir yoshlarning irodaviy sifatlar darajasi so’rovnomasi bo’yicha olgan natijalari sog’lom rivojlangan o’smir yoshlarda yuqoriroq, tayanch harakatida nuqsoni bor va zaif eshituvchi o’smirlarda pastroq namoyon qilgan.

#### 2-jadval.

Emotsional intellekt	Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo’lgan o’smirlar		
	Eshitishda nuqsoni bor o’smirlar	Tayanch harakati shikastlangan o’smirlar	Sog’lom o’smirlar
Yuqori	21%	13%	50%
O’rtalik	28%	20%	38%
Quyi	51%	67%	12%

Emotsional intellekt darajasini aniqlash metodikasi emotsional bilimning ustunligi va hissiy-operatsional komponentlari bajarish sur’atini aniqlashga imkon beradi. Mazkur metodika ham individual, ham guruhiy tarzda o’tkazilishi mumkin. Emotsional bilimning ustunligi orqali shaxs emotsional-intellektual topshiriqlarni tanlov usuli yordamida, ya’ni to’g’ri javobni topishda noto’g’ri variantni olib tashlash orqali amalga oshiradi. “Emotsional intellekt” tushunchasini tahlil etar ekan uningcha, ushbu tushuncha mazmunida

atrofdagilarga emotsiyalarini anglash hamda insonning sohaga bo'lgan qiiqishlari ham mujassamdir. Emotsional intellekt darajasi ham sog'lom rivojlangan o'smirlarda yuqori, qolgan ikki imkoniyati cheklanganlarda esa pastroq namoyon bo'lgan.

**3-jadval.**

Koping xulq-atvor	Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlar		
	Eshitishda nuqsoni bor o'smirlar	Tayanch harakati shikastlangan o'smirlar	Sog'lom o'smirlar
Yuqori	30%	18%	44%
O'rta	34%	23%	39%
Quyi	36%	59%	17%

Koping xulq-atvorning shakllanganlik darajsi bu – imkoniyati cheklangan o'smirlarning muvaffaqiyatsiz vaziyatlarga tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Ya'ni malaka, mahorat, hayotiy tajriba, bilim va ko'nikmalar koping xulq-atvorning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Koping xulq-atvor so'rvonomasi bo'yicha olingan natijalar, eshitishda nuqsoni bor o'smirlar, miya falaji bilan chalingan o'smirlar va sog'lom rivojlangan o'smir yoshlarning koping sifatlar darajasi so'rvonomasi bo'yicha olgan natijalari sog'lom rivojlangan o'smir yoshlarda yuqoriroq, eshitishda nuqsoni bor va miya falaji bilan chalingan o'smirlarda esa quyi ko'rsatkichni tashkil etgan.

**4-jadval.**

Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlar		
	Eshitishda nuqsoni bor o'smirlar	Tayanch harakati shikastlangan o'smirlar	Sog'lom o'smirlar
Yuqori	21%	16%	54%
O'rta	25%	19%	32%
Quyi	54%	65%	14%

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatadi, imkoniyati cheklangan o'smir o'quvchilarda hissiy-irodaviy sifatlar darajasini o'rganishga doir so'rvonomaga ko'ra, eshitishda nuqsoni bor o'smirlar, tayanch harakati shikastlangan o'smirlar va sog'lom rivojlangan o'smir yoshlarning so'rvonomalarga bergan mulohazalari ya'ni shaxsning emotsiyonal holatlarda o'zini nazorat qilish so'rvonomasining o'zaro tanlab olingan tadqiqot guruhlari o'rtasida qiyosiy farqlar qayd etilganda, sog'lom rivojlangan o'smirlarda natijalar barqaror ekanligi aniqlangan.

**5-jadval.**

**Koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari  
so'rvonmalari natijalari**

shkalalar	Psixologik treninglarni qo'llashdan oldin	Psixologik treninglarni qo'llashdan keyin
	O'rtacha ko'rsatkich	O'rtacha ko'rsatkich
Irodaviy mas'uliyatlilik	6	9
Jur'atlilik	5	8
Matonatlilik	4	9
Qat'iylilik	6	8
G'ayratlilik	7	10
Muammoni yechish	25	34
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish	32	28
Muammodan ochish	30	25
Samimiylilik (Taqnidiy tafakkur)	34	27
Eksternal lokus nazorat	21	17
Internal lokus nazorat	16	23
Samimiylilik	14	18

Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlari tadqiqot ishi bo'yicha o'zgarishlari quyidagi shkalalarda o'z ifodasini topgan: irodaviy mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar  $\mu=6$  bo'lib, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyin o'zgarishlar  $\mu=9$  ni tashkil qilgan. Jur'atlilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar psixotreninga qadar  $\mu=5$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi o'zgarishlar  $\mu=8$  ni ko'rsatdi. Matonatlilik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan bir paytda, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=9$  ni tashkil qilgan. Qat'iylik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=6$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=8$  ni namoyon qilgan.

G'ayratlilik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=7$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=10$  ni aks etgan. Muammoni yechish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=25$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=34$  ni qayd etgan. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=32$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=28$  ni tashkil etgan.

Muammodan qochish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=30$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=25$  ni namoyon etgan. Samimiylit (tanqidiy tafakkur) shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=34$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=27$  ni tashkil etgan. Eksternal lokus nazorat shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=21$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=17$  ni qayd qilgan. Internal lokus nazorat shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=16$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=23$  ni aks etgan. Samimiylit shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=14$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=18$  ni ko'rsatgan.

#### 6-jadval.

#### Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari natijalari

shkalalar	Psixologik treninglarni qo'llashdan oldin	Psixologik treninglarni qo'llashdan keyin
	O'rtacha ko'rsatkich	O'rtacha ko'rsatkich
O'z his-tuyg'ularini anglash	18	27
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	17	23
Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash	20	28
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish	17	25
Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihatni	15	23
Emotsional intellektning shaxslararo jihatni	19	26
Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi	15	24
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	8	12
Muloqotda o'zini nazorat qilish	7	10
Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish	5	9

Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlari bo'yicha psixotrening ko'rsatkichlari emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalardan olingan natijalar testni ikkinchi bora qayta o'tkazganda hamda psixotreninglarni qo'llash oqibatida har bir shkalalar ko'rsatkichlari ijobji darajaga o'zgarganligi ma'lum bo'ldi.

O'z his-tuyg'ularini anglash shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=18$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=27$  ni aks etgan. O'z his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=17$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=23$  ni ko'rsatgan. Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=20$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=28$  ni keltirib chiqqargan.

Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish shkalasi bo'yicha psixotreningga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=17$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=25$  ni qayd qilgan. Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihatni shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=15$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=23$  ni tashkil qilgan. Emotsional intellektning

shaxslararo jihatni shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=19$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=26$  ni namoyon qilgan.


Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=15$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=24$  ni aks etgan. Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=8$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=12$  ni ko'rsatgan. Muloqotda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=7$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=10$  ni keltirib chiqargan. Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=5$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=9$  ni aks etgan.

### 7-jadval.

#### Shaxsning ko'p omilli so'rovnomasini natijalari

shkalalar	Psixologik treninglarni qo'llashdan oldin	Psixologik treninglarni qo'llashdan keyin
	O'rtacha ko'rsatkich	O'rtacha ko'rsatkich
Muloqotga moyillik	6	8
Hissiy barqaror-beqaror	4	7
Hukmronlikka intilish-tobelik	7	5
Ijtimoiy yetuklik-onglilik	4	6
Dadillik-tortinchoqlik	5	8
Ishonuvchanlik-shubhalanish	3	6
O'ziga ishonch-ishonmaslik	4	7
Mustaqillik-tobelik	4	9
O'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik	4	8
Zo'riqish-bo'shashish	7	5

Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan o'smir o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlari xususiyatlarining o'zgarishlari quyidagi shkalalarda o'z ifodasini topgan: muloqotga moyillik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar  $\mu=6$  bo'lib, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyin o'zgarishlar  $\mu=8$  ni tashkil qilgan. Hissiy barqaror-beqaror shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar psixotreninga qadar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi o'zgarishlar  $\mu=7$  ni ko'rsatdi.




**1-rasm. Koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnomalari natijalari**

Hukmronlikka intilish-tobelik shkalasi bo'yicha psixotreningda qadar ko'rsatkichlar  $\mu=7$  ni tashkil qilgan bir paytda, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=5$  ni tashkil qilgan. Ijtimoiy yetuklik-onglilik shkalasi bo'yicha psixotreningda qadar ko'rsatkichlar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=6$  ni namoyon qilgan.

Dadillik-tortinchoqlik shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=5$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=8$  ni aks etgan. Ishonuvchanlik-shubhalanish shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=3$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=6$  ni qayd etgan. O'ziga ishonch-ishonmaslik shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=7$  ni tashkil etgan. Mustaqillik-tobelik shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=9$  ni namoyon etgan. O'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=4$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=8$  ni qayd qilgan.

Zo'riqish-bo'shashish shkalasi bo'yicha psixotrenenga qadar ko'rsatkichlar  $\mu=7$  ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat  $\mu=5$  ni aks etgan.

Tadqiqotdan olingen natijalar shuni ko'rsatadi, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lган о'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishni o'rganishga doir so'rovnoma maga ko'ra, jismoniy rivojlanishda ortda qolgan ya'ni tayanch harakatida nuqsoni bo'lган, nutqida va eshitishda kamchiligi bor bo'lган о'smirlarning kopin indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnomalari bergan mulohazalari ya'ni shaxsning hissiy-irodaviy jihatlarini baholaydigan so'rovnomalarning psixotrenenglarni qo'llashga qadar va psixotrenenglarni qo'llagandan so'ng o'zgarishlar ijobjiy ravishda farqli natjalarni aks ettirgan.




**2-rasm. Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari natijalari**

Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lган о'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishga doir so'rovnoma maga ko'ra, jismoniy rivojlanishda ortda qolgan ya'ni tayanch harakatida nuqsoni bo'lган, nutqida va eshitishda kamchiligi bor bo'lган о'smirlarning emotsional intellekt va emotсional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari bo'yicha psixotrenenglarni qo'llash orqali mazkur so'rovnomalardan olingen natijalar testni ikkinchi bora qayta o'tkazganda hamda psixotrenenglarni qo'llash oqibatida har bir shkalalar ko'rsatkichlari ijobjiy darajaga o'zgarganligi ma'lum bo'ldi.

Shaxsning ko'p omilli xususiyatlarini baholashga qaratilgan so'rovnomaning psixotrenenglarni qo'llashdan oldin va keyingi natijalari psixotrenenglarni qo'llash orqali ijobjiy o'zgarishlarga erishilgan. Hissiy-irodaviy sifatlar avvalo kishining o'zini qo'lga ola bilishi, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini

bosa bilishi demakdir. Hissiy-irodaviy sifatlar kishining o‘z- o‘zini idora qila olishi, o‘z xulqi va faoliyatini anglab, bilib tartibga solish va boshqara olish qobiliyati demakdir.



**3-rasm. Shaxsning ko’p omilli so’rovnomasi natijalari**

Kishining ichki to’siqlarni yenga olish, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odatda ichki iroda deb yuritiladi. Kishi hissiy-irodaviy zo‘r berish yo‘li bilan tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydigan tashqi to’siqlarni yengishi zarur bo‘ladi. Kishi o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotgan to‘sinqinliklarni yengib o‘tadi, voqelikni o‘z maqsadiga muvofiq ravishda o‘zgartiradi va uni o‘z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Mazkur modelning asosiy mazmuni jismoniy rivojanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning hissiy-irodaviy sifatlari diagnostikasi va uni tuzatuvchi bloklarning o‘zaro bog‘lanishini o‘z ichiga oladi. Ularning har biri, shaxsning keyingi o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun muhim, tarkibiy qismlarga (kognitiv, xulq-atvor va psixofiziologik komponentlar) ega bo‘lgan mustaqil psixologik birlik sifatida qaraladi. Ayrim komponentlar inkluziv ta’lim sharoitida eshitish, ko‘rish qobiliyati zaif, jismoniy harakatlari cheklangan o‘quvchilarning hissiy-irodaviy shakllanishiga keng hissa qo’shami. Quyida modelda aks etgan tarkibiy komponentlarning mazmunini yoritishga harakat qilamiz.


1. Kognitiv komponent. His-tuyg‘ular ma'lum ma'lumotlarning kognitiv o‘zgarishi natijasidir. Bu ma'lumotni qidirishda, maqsadga erishish uchun shaxsiy resurslarni parallelashtirish, vaziyatlarni taqqoslash va ularning holatini baholash zarur bo‘ladi. Muayyan shaxsdagi subyektiv e’tiqodlar, orzu qilingan rejalar va maqsadlarni baholash, hissiyotlarni kognitiv anglash va tushunish orqali kichadi. Hissiy holatning kognitiv komponenti, bir tomonidan, tuyg‘ularni his qilish va tushunish fenomeni va ularning sabablarini aks ettirsa, ikkinchi tomonidan esa, hissiy-kommunikativ faoliyat, hissiyotlarning darajasi sifatida belgilanadi. Ya’ni his-tuyg‘ularni tan olish va ularni qabul qilish, shaxs ichki dunyosining o‘ziga xosligi va murakkabligi, hissiy tajriba, boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tusuna olish kabilarni tan oladi.

Shu bois ham, kognitiv komponent sifatida biz belgilagan birinchi bosqich o‘z-o‘zini bilish, his-tuyg‘ularning hajmi, chuqurligi va yo‘nalishi bilan tavsiflanadi, bu komponentning muhim tarkibiy qismi, jismoniy rivojanishida nuqsoni bor bolalarning shaxslararo munosabatga kirishga intilishuvining muhim ko‘rsatkichidir. Mazkur ko‘rsatgich mezonini sifatida quyidagi omillar aniqlangan:

- A) O‘z-o‘zini baholash, hissiy onglilik – o‘z ichki his-tuyg‘ulari bilan “uyg‘unlikda” yashash qobiliyati, his-tuyg‘ularning ta’lim olsh va munosabatlardagi rolini yaxshi tushunish;
- B) Hissiy fazilatlarni anglash va adekvat aks ettirish – o‘z ichki dunyosini tushunish, “o‘z pozitsiyasidan” fikr yuritish orqali boshqalarni tushunish;
- V) O‘rganish istagi, qiziqish, kasbiy bilimlarni egallash va muhim kasbiy fazilatlarni shakllantirish istagi.

2. Xulq-atvor komponenti – bu hissiyotlarning ifodaliligi, odamning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlari majmudir. Emotsional holatning xulq-atvor komponentida shaxs, o‘z xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularni tartibga solish orqali amalga oshiriladi va boshqalarning hissiy holatiga konstruktiv ta’sir etadi. Bu jarayon asosan imo-ishoralar, pantomima va ovoz ohangi orqali sodir bo‘ladi. Har bir tuyg‘u o‘ziga xos mimik va pantomima mazmunga ega.

**Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishning psixokorreksion modeli**



Eshitishda va ko'rishda, nutqida, tayanch harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning xulq-atvorida, his-tuyg'ularning ifodalanishi insonning boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini (yorqin, muloqotga kirishuvchan, xushmuomala yoki vazmin, sovuqqon, befarq, yolg'izlik), shuningdek, insonning xulq-atvor reaksiyalarida, his-tuyg'ularni nazorat qilish qobiliyatini tasvirlaydi.

Shaxsning mavjud yoki kutilayotgan real vaziyatlarni subyektiv baholashi:

- Ijobiy his-tuyg'ular - quvonch, zavq, hayrat, quvonch, ishonch, g'urur, yoqtirish, ishonch, sevgi, hayrat, hayajon, hurmat, yengillik;
- Neytral his-tuyg'ular - qiziqish, ehtiros, ajablanish;
- Salbiy his-tuyg'ular - qo'rquiv, nafrat, g'azab, ayb, qo'rquiv, g'azab orqali ifodalanadi, jamiyatga ta'sir qiladi.

Ushbu ko’nikmaning o’lchov mezoni sifatida quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

1. His-tuyg’ularini nazorat qilish qobiliyati, munosabatlarni saqlab qolish va o’rnata olish qobiliyati, hissiy moslashuvchanlik;

2. Turli vaziyatlarda turli insonlar bilan umumiyl til topish qobiliyati, ijtimoiy munosabatlar o’rnata olish tajribasi.

3. Psixofiziologik komponent. Uchbu komponentda jismoniy nuqsoni bor o‘quvchilar o’z organizmini nevropsik va jismoniy faoliyatga moslashtirishga, sog’ligini saqlashga, ekzistensial hayotiy qadriyatlarini anglashga va o’z fiziologik holatini normal rivojlanish resursi sifatida, tiklashga harakat qilishlari bilan xarakterlanadi. Demak, shaxsda emotsional kechinmalarining paydo bo’lishini holatini imo-ishoralar, pantomimika, fiziologik o’zgarishlar, asab tizimining faollashuvi va hissiy tajribani keltirib chiqaradigan vegetativ o’zgarishlarning natijasi bilan baholash mumkin. Psixofiziologik o’zgarishlardan foydalanib, biz inkluziv ta’ilmdagi o’quvchilarning tajriba vaziyatining quyidagi jihatlari ajratib o’tiladi:

- Asab tizimining funksional holati;
- Harakatni faollashtirish;
- Subyektiv tashvishdagi o’zgarishlar ko’rsatkichlari (charchoq, ishyoqning kamayishi, zerikish hissi).

**Xulosa** qilib aytganda, ushbu dastur doirasida amalga oshirilgan va ishlab chiqilgan uslubiy vositalar orqali, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan ya’ni eshitish, tayanch harakat qilish sohasida nuqsoni bor o’smirlar shaxsida, shaxslararo munosabatlarga va hayotiy moslashuvchanlikka imkon beradigan ko’nikmalar hamda o’z ekzestensial qadriyatlarini anglashga bo’lgan tajriba kabilarni shakllantirishga erishiladi.

Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o’quvchilarda aqliy funksiyaning to’g’ri ishlashini ta’minlaydigan markaziy funksiyalar emas, balki subyektning dunyo bilan o’zaro ta’siri, uning predmetli-amaliy faoliyatni tashkil eta olish tajribasi ta’minlaydi. Agarda jismoniy nuqsoni bor o’smirlar o’zining qobiliyatsizligidan aziyat chekmasa, doim o’zi natijalarga erishishga harakat qilsa, qulay hayotni kutmasa, unda bunday yoshlar yashashga bo’lgan o’z hayotiy tajribaga ega bo’lib boradilar. Shu bilan birga, ular o’zlarining asosiy shaxsiy fazilatlari, ma’naviyati, fuqarolik mas’uliyati, tashabbuskorligi, tartib-intizomiligi, o’z-o’zini ijodiy ko’rsata olish qobiliyatlarini, sog’lom turmush tarzi va madaniy qadriyatlarini takomillashtirishni va saqlashni o’z shaxsida rivojlantiradilar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. -СПб.: Питер:- 2009. – 368 с.
2. Sattarova G.I.“Jismoniy rivojanishida nuqsoni bo’lgan bolalar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi” – Monografiya. - “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti”. - Qarshi sh. 2023 160 b.
3. Селиванов В.И. Избранные психологические произведения (воля, ее развитие и самовоспитание). РПИ, Рязань:- 1992 - 575 с.
4. Сергиенко, Хлевная, Киселева: Эмоциональный интеллект ребенка и здравый смысл его родителей Малыш, 2021 г.ISBN: 978-5-17-122021-1 Страниц: 256
5. Смирнова Е.О. Психология и педагогика игры. Учебное пособие для СПО. – Москва: «Юрайт». - 2019. - 224 с.



**Turdiyeva Muhayyo Sohibjon qizi,**  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasasi o'qituvchisi  
[turdiyevamuxayyo47@mail.ru](mailto:turdiyevamuxayyo47@mail.ru)

## МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi og'il va qizlarda xavotirlanishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, ushbu sohada olib borilgan izlanishlar asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda, ilmiy mushohada yuritilgan bo'lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o'rtaсидagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o'rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo'yicha xulosa beriladi.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy xavotirlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, xavotirlik, reaktiv xavotirlik, hissiyot, emotsiya, psixologik qarashlar.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Аннотация.** В данной статье научно рассмотрены социально-психологические особенности тревожности у мальчиков и девочек дошкольного возраста, основываясь на данных, собранных на основе исследований, проводимых в этой области, преимущественно между психологическими взглядами зарубежных психологов на этот счёт. Проанализирована взаимосвязь, дан вывод на основе результатов, полученных на основе исследовательского метода изучения проблемы.

**Ключевые слова:** личностная тревожность, социально-психологические характеристики, тревожность, реактивная тревога, чувство, эмоция, психологические взгляды

## SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ANXIETY IN PRESCHOOL CHILDREN

**Abstract.** In this article, the socio-psychological features of anxiety in boys and girls of preschool age are scientifically observed, based on the data collected on the basis of research conducted in this field, mainly between the psychological views of foreign psychologists in this regard relationship is analyzed, a conclusion is given based on the results obtained on the basis of the research method of studying the problem.

**Keywords:** personal anxiety, social psychological characteristics, anxiety, reactive anxiety, feeling, emotion, psychological views.

**Kirish.** Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsni subyektiv kechinmalarining aks ettirilishidir. Shaxs tirik mavjudod bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, yaqqahol (individual) inson sifatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarini xolisona (obyektiv) aks ettiradi, in'ikos qiladi. Aks ettirish jarayoni favqulodda o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) shaxsnинг ehtiyojini qondirish imkoniyatiga egalikni; b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishni; c) uni harakat qildiruvchi, bilishga intiltiruvchi munosabatlarini va hokazo. Subyektiv munosabatlarning inson miyasida his-tuyg'ular, emotsiyalar holatlari, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyot va emotsiyani yuzaga keltiradi.

Emotsiyalar tashqi ko'rinishga xosligi bilan, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o'tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos, chunki empatik (hamdardlik) his-tuyg'ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko'tarilishiga kafolat negizidir. SHaxsdagi xavotirlilik holatlari orqali insonda turli hissiy kechinmalar namoyon bo'lishi mumkin hamda bu holat shaxs kamolotiga ta'sir etishi mumkin. Bu boradagi g'oyalari sharq allomalari tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, shaxsning his-kechinmalari, Xavotirlanish kabi tuyg'ularning namoyon bo'lish holatlari haqidagi fikrlarini o'z asarlarida bayon etganlar.

**Adabiyotlar tahlili.** Xavotirlanish darajasining shaxs suitsidal xulq omili sifatidagi muammo psixolog olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar davomida o'rganilib kelinmoqda. Jumladan o'zbek psixologlari M. G. Davletshin, G. Sog'inov, B. Umarov , N. Usmanovlar ilmiy tadqiqotlarida ushbu muammoning ijtimoiy psixologik jihatlari tadqiqi etiladi. Shaxsning o'z joniga qasd qilish muammosi fadim zamonlardan buyon jamiyatimiz tomonidan qoralanib kelingan. Muqaddas Islom dinida birovni o'ldirish qanchalik yomon hisoblansa, o'zini o'zi o'ldirish ham shunchalik yomondir. Alloh taolo Niso surasida shunday deb marhamat qiladi: «Va o'zingizni o'zingiz o'ldirmang. Albatta, Alloh sizlarga rahmlidir. Kim buni tajovuzkorlik va zulm ila qilsa, uni albatta do'zaxga kiriturmiz. Bu esa Alloha osondir» (29–30-oyatlar). O'z joniga qasd qilish Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflarida ham qattiq qoralangan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Kim tog'dan tashlab, o'zini o'zi o'ldirsa, u jahannam otashida abadul-abad o'zini tog'dan tashlab turadi. Kim zahar ichib, o'zini o'zi o'ldirgan bo'lsa, u jahannam otashida zaharini qo'lida tutgan holida abadul-abad (zahar) ichib turadi. Kim o'zini o'zi temir narsa bilan o'ldirgan bo'lsa, jahannam otashida o'sha temirni qo'lida tutgan holida abadul-abad o'sha(temir)ni qorniga sanchib turadi», – dedilar. SHarq allomalari asarlarida shaxs shakllanishi masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jarayonida ro'y beradigan psixikkismoni o'zgarishlar muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turishi borasida qator fikrlar ilgari suriladi. SHarqning qomusiy olimlaridan Abu Rayhon Beruniy insondagi axloqiy sifatlarning tarkib topishida ulardagi , xavotirlanish holatlarini muhim sanaydi. Abu Ali ibn Sino esa o'zining keng doiradagi psixonevrologik amaliyotida obyektiv kuzatish metodiga juda katta e'tibor beradi. SHunga ko'ra turli emotsiyalar organizmda, yurakda, qon tomirlarida, nafas olish organlarida har xil o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, nerv iztiroblari, kechinmalar va xavotirlanish organizmning madorsizlanish holatiga olib kelishi mumkinligini isbotlaydi. Shunday qilib, ibn Sino fiziologik hodisalar bilan ruhiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanish borligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. U ruhiy kasalliklar jismoniy betoblik natijasi, deb hisoblaydi. Ibn Sino o'z faoliyati davomida markaziy nerv sistemasining yetakchilik roliga qayta ahamiyat berib, asab buzilishi (Xavotirlanish, asabiylik, iztiroblanish) butun organizmning darmonsizlanishi va susayishiga olib keladi, deb ko'rsatgan edi. YUqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda shaxs xavotirliligi va Xavotirlanish holatlariga ham alovida ahamiyat berilgan. Xavotirlanishni shaxs xususiyati sifatida baholash juda ham muhim. Chunki, aynan mana shu sifat ko'p hollarda o'smir xulq-atvorini belgilaydi. Xavotirlanish ko'rsatkichining ma'lum darajasi– bu shaxs faol faoliyatining tabiiy va majburiy xususiyatidir. SHunga ko'ra, har bir o'smirda foydali xavotirlanish deb nomlanuvchi o'zining optimal yoki istalgan xavotirlanish ko'rinishi darajasi mayjud. Insonning o'z holatini baholashi,o'zo'-zini nazorat qilishi va o'zini tarbiyalashning ahamiyatli tarkibiy qismi hisoblanadi.SHaxs xavotirlanishi ostida subyektning xavotirlanishga moyilligini aks ettiruvchi va unda keng doiradagi vaziyatlarni xavfli sifatida qabul qilish tendensiyasi ehtimoli mavjudligi nazarda tutuvchi hamda ularning har biriga nisbatan ma'lum bir javob reaksiyasini namoyon etuvchi barqaror individuallik tavsifi yotadi. Shaxsning xavotirlanishga moyilligi uning o'zini-o'zi baholashi uchun xavfli hisoblangan ma'lum bir qo'zg'atuvchilarni qabul qilish negizida faollashadi. Vaziyatli yoki reaktiv xavotirlanish holati quyidagi subyektiv emotsiyalar bilan tafsiflanadi: a) tanglik, zo'riqishlik; b) notinchlik; v) xavotirlik; g) asabiylik. Bu holat stressli vaziyatga emotsiyonal reaksiya tarzida yuzaga keladi, intensivligi va dinamikligiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. O'ta xavotirlanuvchilar toifasiga (kategoriyasiga) kiritiluvchi o'smirlar o'z-o'zini baholash va hayot faoliyatiga nisbatan xavfni keng qamrovdagi vaziyatlarni qabul qilish hamda unga kuchli ifodalangan xavotirlanish holati bilan javob berishga moyildirlar. Ayni ushbu ko'rsatkich o'smirlardagi suitsidal faollikning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar o'smir shaxsida xavotirlanishining yuqori ko'rsatkichi aniqlansa bu unda turli vaziyatlarda, ayniqsa, uning salohiyati va mavqeini baholashga kelganda xavotirlanish holatining paydo bo'lishini taxmin qilish ehtimoli uchun asos bo'ladi Xavotirlanish emotsiyasi xavf solayotgan stimulga nisbatan javob reaksiyasi sifatida yuzaga keladi deb tasavvur etish mumkin. Xavfni tushunish, uni anglash hayotiy tajriba va shaxslararo munosabat jarayonida shakllanib boradi. Lekin o'smir uchun ba'zi indefferent qo'zg'atuvchilar asta- sekin xavfli ta'sirlar xarakteriga ega bo'ladi.

**Empirik tadqiqot natijalari.** Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti 300 nafar tarbiyalanuvchilari, 90 nafar pedagog-tarbiyachilari, 120 nafar ota-onalar va 14 nafar psixologlari jalg qilinib jami 224 nafar respondentlar jalg qilindi.

Tadqiqotda A.M. Prixojanning "Bolalar xavotirlanishi shkalasi", R.Templ, V.Amin, M.Dorkilarning "Kerakli yuzni tanla" proaktiv metodikasi, A.Ya.Vargava V.V.Stolinlarning "Ota-onalik munosabati" test-anketasi, hamda matematik statistika metodlari (Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koefitsiyentini hisoblash metodlari)dan tadqiqotda olingan empirik materiallarni qayta ishslash va ularning statistik ahamiyatilik darajasini aniqlash uchun foydalanildi.

Tadqiqotimizning empirik natijalarning tahliliga o'tamiz. Quyidagi jadvalda maktabgacha yoshdag'i bolalarning xavotirlanish darajasi, metodikani bolalar bilan individual tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan olingan anketa-so'rovnomasini asosida ulardag'i xavotirlanishning shaxsiy va vaziyatga oid darajalari aniqlandi (1-jadvalda berilgan)

**1-jadval.**

**Maktabgacha yoshdag'i bolalarda shaxsiy hamda vaziyatga doir xavotirlanishni namoyon bo'lishi**

<b>Sinaluvchilar</b>	<b>Shaxsiy xavotirlanish</b>			
	juda yuqori	yuqori	o'rta	past
Eksperimental guruhi	30,6%	46,8%	14,4%	8,2%
Nazorat guruhi	34,6%	38,3%	18,7%	8,4%
<b>Sinaluvchilar</b>	<b>Vaziyatga doir xavotirlanish</b>			
	juda yuqori	yuqori	o'rta	past
Eksperimental guruhi	29,7%	45,9%	15,3%)	9,1%
Nazorat guruhi	28,1%	44,8%	18,7%)	8,4%

Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxsiy xavotirlanish darajalari tajriba guruhidagi 111 nafar katta maktabgacha yoshdag'i bolalar xavotirlanishining o'rta ko'rsatkichi 14,4 % ni tashkil qildi. Xavotirlanish juda yuqori va yuqori bo'lgan bolalar ko'rsatkichi 77,5 % ni, xavotirlanishi past bo'lgan bolalar esa 8,1 % ni tashkil qildi. Yuqori va past darajadagi xavotirlanishning oldini olish bo'yicha ish olib borish kerakligi aniqlandi. Nazorat guruhida bo'lgan 107 nafar tarbiyalanuvchilarda shaxsga doir xavotirlanishning o'rta ko'rsatkichi 18,7 %, yuqori shakllanganlar ko'rsatkichi 72,9 % ni, 8,4 % past ekanligi aniqlandi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning "xavotirlanish" darajasi gender xususiyatiga ko'ra qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, xavotirlanishning mazkur mezoni o'g'il bolalarda 42,3 % qizlarda esa 35,2 % kabi ko'rsatkichlar qayd etildi. Demak, biz jinslar orasidagi tafovutlarning holatini quyidagicha asoslashimiz mumkin, bu yosh davrida o'g'il bolalarning yosh xusuiytlari hamda individual xarakter xususiyatlari qiz bolalarga nisbatan "o'g'il bola qo'rqmas, jasur, kuchli bo'lishi kerak" degan motivatsion turtkiga nisbatan ishonchszlikning pastligi bilan izohlashimiz mumkin.

**2-jadval.**

**R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar "Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasidan olingan natijalar farqi (Styudent t-mezoni)**

<b>Shkalalar</b>	<b>Guruhi</b>	<b>n</b>	<b>O'rtacha qiymat</b>	<b>Dispersiya</b>	<b>t</b>
Shaxsga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	111	3	0,78	0,07
	Nazorat guruh	107	2,99	0,88	
Vaziyatga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	111	2,96	0,81	0,31
	Nazorat guruh	107	2,92	0,80	

Tadqiqotimizning birinchi qismida R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning "Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash" metodini tajriba va nazorat guruhida o'tkazdik. Tadqiqotda olingan natijalarni 2-jadvalda ko'rshimiz mumkin. Ushbu jadvaldan ko'rshimiz mumkinki, dastalab o'tkazgan tajribamizda tajriba guruhida sinaluvchilar soni 111 nafar bo'lib, "Shaxsiy xavotirlanish" shkalasi bo'yicha natijalarning o'rtacha qiymati 3 ballni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida 107 nafar sinaluvchilar qatnashgan bo'lib, "Shaxsiy xavotirlanish" shkalasi bo'yicha ulardan olingan natijalarning o'rtacha qiymati 2,99 ballni tashkil qilganligini ko'rshimiz mumkin. Ular o'rtasidagi statistik farqni o'rganish maqsadida Styudent t mezoni orqali tahlil qilganimizda "Shaxsiy xavotirlanish" shkalasi bo'yicha ularning natijalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi( $p>0,05$ ;  $t=0,07$ ). "Vaziyatga doir xavotirlanish" shkalasi bo'yicha tadqiqotda olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 2,96 ballni, nazorat guruhida esa 2,92 ballni tashkil qildi. Ushbu natijalar bo'yicha ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi( $p>0,05$ ;  $t=0,31$ ).

Tadqiqotning navbatdagi usuli, T.D.Martsinkovskaya "Zina" proyektiv metodikasi bolani "Men"ini baholashning statistik ma'lumotlarining umumiyyatiga o'tamiz (3-jadvalga qarang)

Yuqorida jadvalda bolaning "Men"ini baholash uch mezon bo'yicha o'rganilib, eksperimental guruhidagi bolalar orasida o'z-o'zini qadrlash darajasi 23,4 %da juda past, 52,3 % past, 16,2 % o'rta va 8,1 %da me'yordan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Ikkinchchi shkala bo'yicha o'z-o'zini hurmat qilish darajasi juda past darajasi 25,2 %, 44,1 % past, 21,6 % o'rta va 9 %da yuqori ko'rsatkich aniqlandi. Uchinchi shkala

o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi 26,1 % juda yuqori, 51,4 % past, 13,5 % o‘rta va 9 %da yuqori ko‘rsatkich ifodalandi.

**3-jadval.**

**T.D.Martsinkovskayaning “Zina” proyektiv metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar**

<b>Mezon</b>	<b>Eksperimental guruuh n=111</b>			
	juda past	past	o‘rta	yuqori
O‘z-o‘zini qadrlash darajasi	23,4	52,3	16,2	8,1
O‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi	25,2	44,1	21,6	9,0
O‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi	26,1	51,4	13,5	9,0
<b>Mezon</b>	<b>Nazorat guruuh n=107</b>			
	juda past	past	o‘rta	yuqori
O‘z-o‘zini qadrlash darajasi	22,4	50,5	18,7	8,4
O‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi	24,3	40,2	27,1	8,4
O‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi	28,0	44,9	18,7	8,4

Nazorat guruhidagi bolalar orasida o‘z-o‘zini qadrlash darajasi 22,4 %da juda past, 50,5 % past, 18,7 % o‘rta va 8,4 %da me‘yordan yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Ikkinch shkala bo‘yicha o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi juda past darajasi 24,3 %, 40,2 % past, 27,1 % o‘rta va 8,4 %da yuqori ko‘rsatkich aniqlandi. Uchinchi shkala o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi 28 % juda yuqori, 44,9 % past, 17,7 % o‘rta va 8,4 %da yuqori ko‘rsatkich aniqlandi.

“Zina” metodikasi bizga bolaning “Men”ini baholash imkonini berdi. Bolaga yetti pog‘onali qog‘ozga chizilgan zina ko‘rsatiladi, bu yerda o‘rta pog‘ona maydonchaga o‘xshaydi va vazifa tushuntiriladi.

Tadqiqot davomida deyarli xavotirlanishi yuqori bo‘lgan bolalarga maktabagcha ta’lim tashkiloti tarbiyachi, oila a’zolari (ota-onasi yoki boshqa yaqinlari), sening fikringcha, seni zinaning qaysi qismiga joyashtirgan bo‘lar edi, degan savolimizga bolalarning aksariyati zinani past qismini ko‘rsatdilar. Endi menga ayt-chi, sen o‘zingni shu zinapoyaning qaysi zinasiga qoya olasan, degan savolimizga bolalar yaqinlari tomonidan berilgan bahoga mutanosib ravishda javob berdilar.

4-jadvalda bolalarda T.D.Martsinkovskayaning “Zina” proyektiv metodikasi asosida bolalarning o‘zini qadrlash, o‘zini hurmat qilish hamda o‘ziga bo‘lgan ishonch darajalari tahlil qilindi.

**4-jadval.**

**T.D.Martsinkovskayaning “Zina” proyektiv metodikasidan olingan natijalar farqlari (Styudent t mezoni)**

<b>Shkalalar</b>	<b>Guruuh</b>	<b>n</b>	<b>O‘rtacha qiymat</b>	<b>Dispersiya</b>	<b>t</b>
O‘z-o‘zini qadrlash darajasi	Tajriba guruhi	111	2,95	0,73	0,74
	Nazorat guruhi	107	2,86	0,74	
O‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi	Tajriba guruhi	111	2,85	0,815	0,42
	Nazorat guruhi	107	2,80	0,82	
O‘ziga bo‘lgan ijonch darajasi	Tajriba guruhi	111	2,95	0,76	0,17
	Nazorat guruhi	107	2,93	0,81	

Tadqiqotimizning ikkinchi qismida bolalarning o‘zini-o‘zi qadrlash darajasini aniqlash maqsadida T.D.Martsinkovskayaning “Zina” proyektiv metodikasi tajriba va nazorat guruhida o‘tkazdik. Tadqiqotda olingan natjalarni 2.3.5-jadvalda ko‘rshimiz mumkin. Dastalab o‘tkazgan tajribamizda tajriba guruhida sinaluvchilar soni 111 nafar bo‘lib, nazorat guruhida 107 nafar sinaluvchilar qatnashdi. “O‘z-o‘zini qadrlash darajasi” shkalasi bo‘yicha tajriba guruhining o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 2,95 ballni, nazorat guruhida esa 2,86 ballni tashkil qildi. Ular o‘rtasidagi statistik farqni o‘rganish maqsadida Styudent t mezoni orqali tahlil qilganimizda ularning natjalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi( $p>0,05$ ;  $t=0,74$ ). “O‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi” shkalasi bo‘yicha tadqiqotda olingan natjalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tajriba guruhida to‘plangan ballarning o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 2,85 ballni, nazorat guruhida esa 2,80 ballni tashkil qildi. Ushbu natjalalar bo‘yicha ular o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi( $p>0,05$ ;  $t=0,42$ ). “O‘ziga bo‘lgan ijonch darajasi” shkalasi bo‘yicha tajriba guruhida to‘plangan ballarning o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 2,95 ballni, nazorat guruhida esa 2,93 ballni tashkil qilgan bo‘lsa, ular o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ( $p>0,05$ ;  $t=0,17$ ).

Navbatdagi tadqiqotimiz davomidagi G.Xomentauskasning “Oila rasmi” proyektiv metodikasi bo‘lib, bunda biz asosan bolalarning oilaviy vaziyatlarda o‘zini boshqarish, oilaviy munosabatlarda xavotir

darajalarini aniqladik. Metodika orqali qo‘lga kiritilgan dastlabki empirik natijalarga quyidagi ko‘rsatkichlar qayd qilindi (5-jadval)

**5-jadval.**

**G.Xomentauskasning “Oila rasmi” proyektiv metodi  
bo‘yicha aniqlangan dastlabki empirik natijalari**

<b>Mezon</b>	<b>Eksperimental guruh n=111</b>			
	<b>juda past</b>	<b>past</b>	<b>o‘rta</b>	<b>yuqori</b>
Xavotir	22.5	46.8	21.6	9.1
Oiladagi nizolar	7.2	46.8	21.6	11.7
Oilada bolaning rad etilishi	21.6	30.6	38.7	9.01
Tortinchoqlik	12.6	46.8	27.1	13.5

Birinchi shkalaga ko‘ra, xavotirning juda yuqori darajasi 22.5 ga teng bunga ko‘ra, tarbiyalanuvchi bolalarda xavotir me‘yordan ortiq ekanligi, 46.8 foizida yuqori xavotir oilada ota-onaga bolaning munosabati rasm ustidagi chiziq, kuchli bosilmagan chiziq, o‘sirish va ortiqcha narsalarning ko‘pligi bilan ifodalangan, o‘rta darajasi 21.6 ga teng bo‘lib, ota-onsa va bola munosabatlari narmal ekanligini oila a’zolarining bir-birlariga yaqin yoki qo‘llarini ushlagan holda chizilgan, bolalarning 9.1 foizida oila muhitida xavotirlanishning past ko‘rsatgichi ayrim rasmlarda o‘zini otasi va onasidan katta qilib chizganligidan ham ko‘rshimiz mumkin.

Ikkinci shkala bo‘yicha bolalarning nizolar yuqori darajasi 7.2 ga teng bo‘lib, bunda ayrim bolalar tajovuz yoki yolg‘izlikni aks ettirgan, yuqori darajasi esa 46.8 ga teng bo‘lib, buni bolalar oila a’zolarini to‘liq chizmaganligi, ko‘p hollarda aka, uka yoki opa-singlisini chizishni unutganligi bilan ifodalash mumkin. Ushbu shkala bo‘yicha normal ko‘rsatkich 21.6 foizga tengligini oila a’zolarining to‘liq ekanligi, bir-birlariga yaqin va to‘g‘ri joylashtirganligida va bolalar bilan suxbat jarayonida aniqlandi, 11.7 foiz bolalarda bu mezon bo‘yicha past ko‘rsatkich namoyon bo‘ldi.

Uchinchi shkala bo‘yicha oilada bolaning rad etilishi juda yuqori darajasi 21.6 %ga teng bunda rasm muallifi nomutanosib ravishda juda kichikligi yoki umuman yo‘qligi, 30.6 % bolalarda yuqori ko‘rsatkich varaqning quyi qismidan foydalilaniganligi, o‘zini ajratib alohida chizganligi yoki ko‘p o‘sirilgan uzuq yuluq va zaif chizilgan chiziqlarda namoyon bo‘lib, bunday bolalar bilan suxbat jarayonida esa ularning tortinchoq va shaxslararo munosabatlarda erkin emasligi aniqlandi, 38.7 % ga teng nisbat bilan o‘rta darajani, ya’ni uchinchi shkala bo‘yicha bolalarning yoshiga mutanosib ravishda me‘yorda ifodalangan desak bo‘ladi. Sinaluvchilar orasida 9.1 % bolalar oilada o‘zlarini me‘yordan ortiq ravishda yuqori baholashlari ularning rasmlarda o‘zlarini boshqalarga nisbatan katta, turli bezaklar bilan ifodalashi yoki o‘zlarini markazda chizishlari bilan ifodalangan.

To‘rtinchi shkala tortinchoqlik bo‘yicha olingen ma’lumotlar asosan bolalarning chizgan rasmlari borasida birgalikda suxbat jarayonida aniqlandi. Bunga ko‘ra, 12.6 % bolalarda juda yuqori ko‘rsatkich odamovilik va o‘zining reaksiyalaridan haddan tashqari tashvishlanishi, yuqori darajasi 46.8 %ga tengligi esa fikrlarini bayon qilishda, muloqatda, dovushining past ekanligi, hatto pichirlash holatlari kuzatildi, 27.1 % bolalarda ushbu shkala bo‘yicha normal holat ularning erkinligi, ijobjiy kechinmalari shodligiga sabab bo‘lishi, fikrlarini shoshmasdan ravon ba’zi so‘zlarni badiiy bayon qilishdi. Ushbu tortinchoqlikning past mezoni 13.5 %ga teng bo‘lib, nutqining haddan ziyod balandligi, o‘zini tutishi va aggressivlik hissi kuchayib borganligi bilan izohlanadi.

Yuqorida bayon qilingan metodika bo‘yicha endi respondentlarimizning nazorat guruhidan olingen natijalari tahliliga o‘tamiz. (6-jadvalga qarang)

**6-jadval.**

**G.Xomentauskasning “Oila rasmi” proyektiv metodi  
bo‘yicha aniqlangan dastlabki empirik natijalari**

<b>Mezon</b>	<b>Nazorat guruh n=107</b>			
	<b>juda past</b>	<b>past</b>	<b>o‘rta</b>	<b>yuqori</b>
Xavotir	23.4	43	25.2	8.4
Oiladagi nizolar	7.5	41.1	42.1	9.3
Oilada bolani rad etish	17.7	31.7	40.1	10.2
Tortinchoqlik	17.7	40.1	30.8	11.2

Birinchi shkalaga ko‘ra, xavotirning juda yuqori darajasi 23.5 %ga, yuqori darajasi esa 43 % ekanligi rasmlarni tartibsiz, xotirjam chizmaganligi, ayrim chiziqlar yoki shakllar yorqin ifoda etilmagan, o‘rta darajasi 25.2 %ga teng bo‘lib, buni oilada psixologik sog‘lom muhit barqaror ekanligi bilan ifodalash

mumkin. Xavotirlanishning past darajasi 8.4 %ga teng ekanligini rasmlarda tajovuz ko‘rinishi yoki o‘zini boshqa oila a’zolaridan o‘zgacha chizganligidan ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinci shkala bo‘yicha oiladagi nizolarning eng yuqori darajasi 7.5 %ga teng bo‘lib, rasmlarda oilaviy birlik aks etmagan, yuqori darajasi esa 41.1 %ga teng bo‘lib, buni aka, uka yoki opa-singlisini chizishni unutganligi yoki o‘zini varaqning boshqa tarafiga chizganligi bilan ifodalash mumkin. Ushbu shkala bo‘yicha normal ko‘rsatkich 42.1 %ga tengligini bola oila to‘g‘risida tushunchaga egaligi rasmni mutanosib ravishda to‘g‘ri chizganligi aniqlandi, 9.3 % bolalarda bu mezon bo‘yicha past ko‘rsatkich namoyon bo‘ldi.

Uchinchi shkala bo‘yicha oilada bolani rad etishning juda yuqori hamda yuqori darajasi 49.4 %ga teng bo‘lib bunda chizishni varaqning past qismidan foydalanganligi, rasm muallifi nomutanosib ravishda juda kichikligi yoki umuman yo‘qligi, bolalar bilan suhbatga kirishganimizda qaysar, tortinchoqligi namoyon bo‘ldi, 40.1 % bolalar o‘rtasi darajani qamrab olib, ular o‘zlarining oilaviy vaziyatlarida erkin, xotirjam. Sinaluvchilar orasida oilada o‘zlarini me’yordan ortiq yuqori baholaydigan bolalar 10.2 %ga teng bo‘lib, ularning rasmlarida o‘zlarini boshqalarga nisbatan katta yoki o‘zlarini rasmning markazida ifodalagan.

To‘rtinch shkalada bolalarning tortinchoqligi asosan og‘zaki suhbat va eksperiment davomida kuzatish orqali aniqlandi. Ushbu mezon bo‘yicha eng yuqori daraja 17.7 %ga teng, yuqori darajasi esa 40.1 %ga tengligini qulay vaziyatlarda ham uyalish, tortinosh holatlari kuzatildi, nutqi sekin va kuchsiz ko‘proq noverbal xatti-harakatlardan, imo-ishoralardan foydalinishi qulay ekanligi namoyon bo‘ldi. Ushbu shkala bo‘yicha o‘rtacha holat 30.8 %ga teng bo‘lib, bolalar fikrlarini erkin ifodalashi bilan izohlash mumkin. Tortinchoqlikning past mezoni 11.2 %ga teng bo‘lib, intonatsiya boy nutqi, o‘zini tutishi bilan izohlanadi.

Xavotirlanish darajasining juda yuqori va yuqori ko‘rsatkichlarini aniqlashda quyidagi holatlar inobatga olindi. Chiziqlarning aniq emasligi, ko‘p o‘chirilganligi, barcha oila a’zolariga nisbatan o‘zini juda kichkina tasvirlagani yoki umuman o‘zini chizmagani, rasmni varaqning qaysi qismidan boshlab chizganligi. Bunday tasvirlangan rasmlar bolaning ruhiy tushkunligi, uning o‘ziga bo‘lan ishonchining pastligini ifodalaydi.

Ayrim rasmlarda odamlar emas balki, uylarning o‘zi ustunlik qilgan. Shuningdek, u bolaning oilaviy ahvoliga salbiy munosabatni aks ettiradi. U oila a’zolarining rasmini o‘rniga hissiy ahamiyatga ega bo‘lmas narsalarni chizgan.

Barcha oila a’zolari to‘liq bo‘lgan rasmlar ham tajribamizda kuzatildi. Hattoki oila a’zolarini ketma-ketlikda joylashtirishda ham ijobjiy natija ko‘rsatdi.

Shuni ta’kidlash joizki, sinaluvchilar orasida xavotirlanish hamda oilaviy vaziyatda o‘zining rad etilishi baholash mezonlarining yuqori ko‘rsatkichi bo‘yicha deyarli bir xil natijalar qayd etildi.

Demak, maktabgacha yoshdagagi bolalar xavotirlanish darajasining yuqoriligi quyidagi omillar bilan farqlanadi; oila muhitida sog‘lom psixologik muhitning yo‘qligi, onalarning bolaga me’yordan ortiq ravishda g‘amxo‘rligi, noto‘liq oilalar va oiladagi turli ijtimoiy tahdidlar va boshqalardir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda yuqoridagi mezonlarning namoyon bo‘lishida oila muhitining bevosita ta’siri mavjud, oilaning to‘liq bo‘lishi, ya’ni unda ota-onaning tinchlik xotirjamlikda yashashlari va unda sog‘lom ma’naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, psixologik sog‘lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo‘lib yetishishiga imkon beradi.

**Xulosalar.** «Maktabgacha yoshdagagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalash» mavzusida o’tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha tarbiya yoshdagagi bolalardagi xavotirlanishning darajaviy ifodalanishida emotsional holatlarni indifferent idrok etilishining hissiy o‘zini-o‘zi qabul qilishga identifikatsiyasi tufayli shaxsiy va vaziyatga oid omillarning integrativ namoyon bo‘lishi aniqlanib, shuningdek bolalardagi tortinchoqlik, komunikativ axborot almashuvini sustligi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik, ishonchsizlik, muammoni yechish, ixtiyoriy diqqatning mustahkamlanishi va irodaviy sifatlarni reflektorlanishi kabi psixologik xususiyatlarni rivojlantirish orqali xavotirlanishning oldini olish korreksion dastur samaradorligiga erishish orqali ta’mindan.

2. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda xavotirlanish darajasini baholashda oilada rad etilishning tortinchoqlik hissiga bog‘liq ravishda o‘z-o‘zini qadrlash o‘zga xususiyatlar bilan intensiv namoyon bo‘lishi sababli o‘z-o‘ziga beradigan bahoning hissiy komponenti yetakchi mezon ekanligini olib borilgan eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlandi.

3. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda irodaviy sifatlarni shakllanishining psixologik xususiyatlari ijtimoiy, individual-psixologik tuzulmaga ega bo‘lgan shaxs tiplari, xususiyatlari hamda bolaning muloqotchanlik darajasi, irodaviy-sifatlarining barqarorligi, o‘ziga xosligi va subyektiv lokal nazoratning yo‘nalganligiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi va rivojlanishi dalillandi.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning oldini olishning individual-psixologik ko‘rsatkishlari “komunikativ axborot almashuvining sustligi”, “ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik”, “muammoni yechich”, “o‘z-o‘ziga ishonch”, “muloqotchanlik”, “qat’iyatlilik” kabi shaxs sifatlarining namoyon etilishi, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun onadagi xavotirlarni bolaga transformatsiyalashuvi tufayli ona-bola munosabatlarini o‘yin texnologilariga integratsiyalash orqali ta’sir etishning zarurati psixodiagnostik va psixokorreksion yo‘nalishlarda muqobil yechimlari topilishi tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model yordamida aniqlandi.

Keltirilgan xulosalar asosida quyidagi **amaliy tavsiyalarni** berish maqsadga muvofiq:

- bolani tarbiyalashda qo‘rqitish usulidan foydalanmaslik; og‘zaki tushuntirish va o‘rnak bo‘lish orqali yondashish usulining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida bolaga haddan tashqari ko‘p talab qo‘ymaslik, bolani mumkin bo‘lgan xatolari uchun tanqid qilmaslik, balki ijobjiy taraflarini ko‘proq sifatlash;
- bola qiyinchilikka duch kelganda, ularni ruhan qo‘llab quvvatlash, rag‘batlantirish, bolani boshqa muvaffaqiyatli tengdoshlari bilan doimiy ravishda yoqimsiz solishtirmaslik, tanqid qilmaslik va shaxslararo munosabatlarda bolani erkin fikrlashini rivojlantirish;
- bolalarning xavotirlanish holatlari bilan ishslashda ularning jins va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘ziga bo‘lgan ishonch, irodaviy sifatlarning rivojlanishini ta’minlovchi muallif tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi trening dasturdan foydalanish;
- bolalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini intensiv rivojlantirishga qaratilgan metodika va so‘rovnomalarni takomillashtirib, bolalarni intellektual qobiliyatlarini va individual psixologik xususiyatlarini aniqlab borish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda ota-onalar hamkorlikda bolalarning xavotirlanish muammolarini aniqlash orqali, bolalarda uyatchanlik, tortinchoqlik, odamovilik yoki befarqlik kabi salbiy xislatlarni bartaraf etish.

#### **Adabiyotlar:**

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – T.: 2010. - 544 b.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2010. - 283 b.
3. Karimova V.M. Psixologiya. - T.: 2000. - 200 b.
4. Сафаев Н.С. Духовность и национальное самосознание личности. Монография.- Т.: Фан, 2004. - 211 с.
5. Nishanova Z.T, va boshq. Psixologik xizmat. – T.: 2014. - 424 b.
6. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami // Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma. - T.: O‘zM, 2003. — 169 b.
7. Самаров Р.С. Девиантное поведение: характеристика форм и мотивов. – Ташкент.: ВШСАП. 2004. - 30 с.

*Xudoyqulova Nazokat Rajab qizi,  
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli  
kadrlar tayyorlash instituti Ijtimoiy psixologiya  
etnopsixologiya yónalishi 2-bosqich tayanch doktoranti*

## “OILA AJRIMLARI” TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATINI O‘RGANISHGA DOIR NAZARIYALAR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oiladagi er-xotin munosabatlarining turli ijtimoiy-psixologik jihatlari va “oila ajrimlari” tushunchasi va uning mohiyatini o‘rganishga doir nazariyalar oila nikoh an’analari va qadriyatlariga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish omillari, an’anaviy, milliy, oilaviy turmush tarzi, yo‘l-yo‘riqlar, yosh er-xotinlar munosabatlariga ota-onalarning aralashuvi, oilada rollar taqsimoti hamda bularga oid olimlarning nazariyalari haqida bayon qiladi.

**Kalit so’zlar:** oila, nikoh, tenglik, oilaviy munosabatlar, mehr-muruvvat, oila g’ururi, sabr, xiyonat, ajrim, iqtisodiy yetishmaslik.

### ТЕОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СУЩНОСТИ ПОНЯТИЯ «СЕМЕЙНЫЕ РАЗВОДЫ»

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены различные социально-психологические аспекты брачных отношений в семье и теории, связанные с изучением понятия «семейные разводы» и его сущности, факторов разумного отношения к семейным брачным традициям и ценностям, традиционным, национальным, семейный образ жизни, описывается участие родителей в отношениях молодых пар, распределение ролей в семье, а также теории учёных, связанные с этим.

**Ключевые слова:** семья, брак, равенство, семейные отношения, привязанность, семейная гордость, терпение, неверность, развод, экономический дефицит.

### THEORIES OF STUDYING THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF “FAMILY DIVORCE”

**Abstract.** This article considers various socio-psychological aspects of marital relations in the family and theories related to the study of the concept of “family divorce” and its essence, factors of reasonable attitude to family marital traditions and values, traditional, national, family lifestyle, describes the participation of parents in the relationship of young couples, the distribution of roles in the family, as well as theories of scientists related to this.

**Keywords:** family, marriage, equality, family relationships, attachment, family pride, patience, infidelity, divorce, economic deficit.

**Kirish.** O‘zbek olimlari tomonidan oiladagi er-xotin munosabatlarining turli ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. Jumladan, Y.A.Yakubov tomonidan o‘zbek oilalaridagi er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganilgan dastlabki tadqiqotlardan biri bo‘lgan. Muallif o‘zining olib borgan tadqiqot obyekti sifatida nikohlar mustahkamligiga qarab yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan er-xotinlar hamda ajralish arafasida turgan juftliklardan iborat guruhlarda ham er-xotinlarning oiladagi funksiyalarini bajarishlarida bir-birlarini hissiy qo‘llab-quvvatlashlari, oilaviy qadriyatlarga yondashishlari va oilaviy rollarga nisbatan bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlari o‘rtasidagi tafovut farqlari borligi ta’kidlangan. Olim o‘zining tadqiqotlaridan kelib chiqib o‘zbek oilalarida farzandlarning borligi va ularning soni nikoh mustahkamligini ta’minlovchi yana bir muhim omillardan biri hisoblanishini qayd etib o‘tgan. Shu bilan birga, an’anaviy, milliy, oilaviy turmush tarzi, yo‘l-yo‘riqlar, yosh er-xotinlar munosabatlariga ota-onalarning aralashuvi, oilada rollar taqsimoti va ularning er-xotin tomonidan idrok qilinishi kabi xususiyatlarni bir tomonlama, salbiy omillar sifatida sanab o‘tgan bo‘lsa, ayollarning mavqeyi, ularning ijtimoiy faolligini ortishini esa ijobjiy tomondan baholab o‘tgan.

**Adabiyotlar tahlili.** M.V.Moskalenko tomonidan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar bilan kasallangan 90 nafar er va xotin o‘rganilgan. Ular kompleks (klinik, patopsixologik, psixopatologiya) tekshirilgan. Unga ko‘ra, 69 nafar juftlik bu kasallikni yuqtirib olishiga ijtimoiy omillar sabab qilib ko‘rsatilgan bo‘lsa, 21 nafar juftlikda jinsiy munosabatlarning o‘zini sabab qilib ko‘rsatgan.

Birinchi omilda, er va xotinning bir-biriga mos kelmaydigan shaxsiy xarakterlari, noto‘g‘ri munosabatlari, tez-tez bo‘ladigan kelishmovchiliklar va ulardan chiqib ketish yo‘lini bilmaslikda, deb hisoblaydi.

Ikkinci holatda, er va xotin o'rtasidagi jinsiy bilim darajasining past ekanligi va mos kelmasligi, jinsiy munosabat haqida tasavvurlari noto'g'ri talqin qilinayotganligi natijasida oilada jinsiy munosabatning ibtidoi va liberal turlari yuzaga keladi.

Yuqoridagi ikki holat ham oila buzilishiga olib keladi va bunga sabab turmush o'rtog'inining axloqiy, psixologik, estetik munosabatlar darajasi past ekanligidan dalolat beradi.

Xalqimizda milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib, o'zbek oilasiga xos bo'lgan bunday etnik xususiyatlar nikoh mustahkamligining ta'sirini yanada ortib borishiga turtki bo'lmoqda.

U.S. Saribayevaning “Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta'siri” nomli ishida bizning tadqiqotimiz mavzusidaga oid masalalar bayon etilgan. Mazkur ishda o'zbek oilalarida er-xotinlarning jinsiy-psixologik mutanosibligi oila barqarorligiga ta'siri hamda nomutanosiblik sabablari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Er-xotinlarda o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik va o'zaro hurmat qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jinsiy-psixologik mutanosibliklari to'kis bo'lishi va oila barqarorligi kuzatilgan. Oila barqarorligini ta'minlashda, er-xotinning jinsiy mutanosiblikka erishishi uchun ularda o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik va o'zaro hurmat darajasini oshirish lozimligi to'g'risida muhim xulosaga kelingan.

Darhaqiqat, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, o'zaro ishonch, ehtirom, mehr-muhabbat, hamfikrlilik, sadoqat va munosabatlarning samimiyligi oila mustahkamligini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek oilalarida er-xotin munosabatlari oilaviy turmush stajiga bog'liq ravishda o'zgarib borishining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xarakter jihatdan o'rganilgan tadqiqotlardan biri G.Niyazmetova tomonidan amalga oshirilgan. Er va xotin o'rtasidagi nikohdan qoniqqanlik darajasi, bir-birini tushunish, emotsiyonal intilish, o'zaro hurmat oilaviy turmush jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradigan dinamik jarayon ekanligi ifodalangan.

G.Niyazmetova o'z tadqiqotlarida o'zbek oilalarida er-xotin munosabatlarining shakllanishi va namoyon bo'lish dinamikasi oila-nikoh munosabatlardagi etnik an'analarni aks ettiruvchi o'ziga xos psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi qayd etilgan bo'lib, er-xotinlarning birligidagi hayoti davomida shakllanadigan va namoyon bo'ladigan nikohdan qoniqqanlik, o'zaro tushunish, emotsiyonal intilish, o'zaro hurmat, er-xotin o'rtasida oilaviy rollar taqsimoti xarakteri, bu taqsimotning er va xotin tomonidan baholanishi va shu kabilar oilaviy turmushning turli bosqichlarida o'zgarib borish kabi omillar sifatida ko'rsatib o'tgan.

Shuningdek, er-xotinning nikohdan qoniqish darajasi o'zaro hurmat, o'zaro tushunish hamda hissiy munosabat bilan bog'liqligi keltirib o'tilgan.


**Muhokama va natijalar.** Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda oilaning keng qamrovli turli jihatlari o'z aksini topib kelmoqda. Jumladan, X.Abdusamatovning “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida oilalarda nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi “o'zgani sevib qolish”, “moddiy ehtiyojni qondirish”, “jinsiy aloqaga majburiyat sifatida qarash” hamda “turmush o'rtog'idan jinsiy qoniqmaslik” kabi ijtimoiy-psixologik masalalar tadqiq etilgan. Mazkur ishda, nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi quyidagi sabablar keltirib o'tilgan:

- turmush o'rtog'i bilan bo'lgan jinsiy hayotdan qoniqmaslik;
- turmush o'rtog'iga nisbatan muhabbat hislari (simpatiya yoki umumiy qarama qarshi jinsga nisbatan bo'ladigan ijobiy hislar)ning mavjud emasligi;
- ayollarda erkaklarga nisbatan hissiy yaqinlik ustunlik qilishi;
- oilaviy turmush stoji bo'yicha farqlar mavjudligi;
- er-xotinlar orasidagi nizoli vaziyatlar;
- jinsiy savodsizlik;
- psixologik inqirozlar;
- jinsiy munosabatlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalar o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi;
- ehtiyojlarning mos kelmasligi;
- moddiy va iqtisodiy motiv asosida qurilgan oilalar;
- sovchilik asosida shoshilinch qurilgan oilalar;
- spirtli ichimlik ta'sirida ro'y beradigan nikohdan tashqari munosabatlar;
- ayollardagi frigidlik;
- boshqa jins vakilini sevib qolishi;
- er-xotinlarda diniy ma'lumotlar deyarli mavjud emasligi;
- oiladagi surunkali janjallar.

Bundan tashqari, tadqiqotchi oiladagi er-xotinning emotsiyonal munosabatlarini yanada keng ko'lamda aniqlash maqsadida olingan natijalar A.N. Volkovaning PEA metodikasi asosida 1990-yilda N.A.Sog'inov,

2010-yilda G.I.Niyazmetova va 2019-yilda X.U.Abdusamatovlar tomonidan solishtirib chiqildi. Metodikaning o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish, hissiy intilish omillari N.A. Sog‘inov tomonidan qishloq va shaharning muvaffaqiyatli oilalar ko‘rsatkichlariga, G.I.Niyazmetova tomonidan oilalarni to‘rt guruhga hamda X.U.Abdusamatov tomonidan oilalarni uch turdag'i turmush stajiga ega oilalar natijalari ajratib ko‘rsatib o‘tildi.

Rossiya ijtimoiy fikr markazi – VSIOM bilan hamkorlikda sosiolog E.Tarasova tomonidan 2018-yil may-iyun oylarida Perm shahrida talabalar o‘rtasida sosiologik so‘rov o‘tkazilgan. Respondentlarning beshdan birining fikricha, 21 % respondentlar ajrimlarning sababi juftliklar bir-birining kamchiligini qabul qila olmasliklari, 19% oilada muhabbatning yo‘qligida degan javobni tanlashgan. Mazkur fikr bildirgancharning 25,2 % erkaklar, 15,2 % ayollardir. Ajrimlarga sabab alkogolizm va narkomaniya deb hisoblovchilar – 17,1 % bo‘lib, ularning 18,1 % erkaklar hamda 16,4 % ayollar tashkil etishi aniqlangan. Oilaviy ajrimlarning asosiy sababini xiyonat deb hisoblovchilar 17,6 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu sababni asosan ayollar ko‘rsatgan bo‘lib bu 20,6 % ni, erkaklar esa 12,8 % ni tashkil etadi. Ayollarga nisbatan erkaklar xiyonatni kechira olmasliklari ayon bo‘ldi. O‘tkazilgan mazkur so‘rovda respondentlar oilaviy ajrimlarning asosiy sabablari qatoriga oiladagi moliyaviy ahvolning nochorligi holatini ham ko‘rsatganlar, bu ko‘rsatkich 7,1 % ni tashkil etgan. 2,6 % respondentlar esa bir uydagi bir necha oilanening yashashi ham ajrim



sabablari bo‘la olishini yoqlaganlar. Juftliklar o‘rtasida o‘zaro hurmatning yo‘qligi ham ajrimlar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lishini ijtimoiy so‘rovda ishtirok etgan talabalarning 15,7 % ko‘rsatganlar. ( 1-jadval)

#### 1-jadval.

#### Oila ajrimlarining asosiy sabablari nima? mavzusida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalari

Sizningcha oilaviy ajrimlarning asosiy sabablari nimada?	Jinsi		Жами
	Erkak	Ayol	
Oilada muhabbatning yo‘qligi	25,2	15,2	19,0
Oiladagi moliyaviy ahvolning nochorligi	7,7	6,7	7,1
Bir uydagi bir necha oilanening yashashi	3,4	2,1	2,6
Alkogolizm va narkomaniya	18,1	16,4	17,1
O‘zaro hurmat yo‘qligi	12,8	17,5	15,7
Bir–bir kamchiligini kechira olmaslik	20,1	21,5	21,0
Xiyonat	8	20,6	17,6

Tadqiqot natijalaridan aniqlanishicha, ajrimlarni taqiqlash ikki xil negativ holatga olib kelishi mumkin. Birinchidan, nikohdan o‘tmay yashash holatini ko‘paytirishi mumkin, ikkinchidan, o‘z oilaviy turmushidan qoniqmaydigan, yangidan oila qurish imkoniyati yo‘q «baxtsiz» juftliklar paydo bo‘ladi.

A.L.Sinsarning fikricha, hozirgi zamonda oilanening yangi turi – “vaqtincha ajralgan” yoki “distant oilalar” paydo bo‘lgan. Bunday oilalar so‘nggi yillarda ko‘p uchrab, ular oilanening muqobil shakliga ham aylanib bormoqda. Uning fikricha, distant oila – bu ota-onalardan biri oilanening sharoitini yaxshilash maqsadida uzoq davrga boshqa shahar, mamlakatlarga ketib ishlayotgan oilalar hisoblanadi. Distant oiladagi ota-onaning farzandlari bilan muloqoti doimiy bo‘lmay, bu o‘sminning shaxs sohasi rivojlanishidagi buzilishlarga va o‘zini anglashi sohasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

To'liq bo'limgan oilalarning paydo bo'lishining yana bir muhim sharti - bu ayollarning emansipatsiyasi tufayli yuzaga keladigan "o'zi uchun" bolalarning tug'ilishi. To'liq bo'limgan oilalar munosabatlar turiga ko'ra farqlanadi, ularning to'rttasi bor:

1. Ona ota haqida gapirmaydi, u hech qachon bo'limgandek ko'rindi.
2. Ona otaning qadr-qimmatini pasaytirishga, uni bolalarning ko'z o'ngida yomon ko'rinishga solishga harakat qiladi.
3. Ona ota haqida o'zining kuchli va zaif tomonlari bilan oddiy odam sifatida gapiradi.
4. Agar otasi ketmasa, lekin vafot etgan bo'lsa, unda uning qiyofasini idealizatsiya qilish ko'proq uchraydi.

Eng yaxshi variant - bolalarga hamma narsani qanday bo'lsa, shunday qilib aytib berishdir. Ularga o'tgan turmush o'rtog'ingizga bo'lgan munosabatingizni, vaziyatga qarashingiz va tushunishingizni yuklashning hojati yo'q. Bolalar ulg'ayib, o'zlarini xulosa chiqaradilar. To'liq bo'limgan oilalar quyidagi muammolarga duch kelishadi:

- ❖ Kam daromad. Bitta daromad manbai yoki bola parvarishi bo'yicha nafaqa va boshqa davlat to'lovleri (vaziyatga qarab) har doim ham barcha oila a'zolarining asosiy ehtiyojlarini qondira olmaydi.
- ❖ Ish bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar. Bu narsa ko'p jihatdan bolaning yoshiga bog'liq, lekin, qoida tariqasida, ota-onaga uyga yaqin ish, yuqori maosh, moslashuvchan ish soatlari, tungi smenalar va ish safarlari kerak emas.
- ❖ Bolaning e'tiborsizligi. Ushbu tavsifga mos keladigan ish topish oson emas, bu esa to'liq bo'limgan oilalarning uchinchi muammosi - bolalarning qarovsizligiga olib keladi.
- ❖ Farzandlar va ota-onalarda pastlik, zulm hissi.
- ❖ Maktabda, bolalar bog'chasida, ko'chada tengdoshlar tomonidan zo'ravonlik.
- ❖ Haddan tashqari himoyalanishga aylanadigan ota-onaning aybi va bolalarning aybi, agar ular o'zlarini oilaning buzilishiga sababchi deb bilishsa.

Shunday qilib, to'liq bo'limgan oilalar ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va pedagogik muammolarga duch kelishadi. Agar oila a'zolaridan birining sog'lig'i yoki nogironligi bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi.

To'liq bo'limgan oilalar muammolarini nafaqat umumiyligi, balki bolalarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan va ota-onan pozitsiyasidan ham alohida ko'rib chiqish mumkin. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan har beshinchi rus oilasi to'liq emas. Bolalar to'liq bo'limgan oilada tarbiyalanishning oqibatlarini boshdan kechiradilar:

- ❖ gender identifikatori bilan bog'liq muammolar;
- ❖ og'ishlar;
- ❖ o'gay onasi yoki o'gay otasi bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar;
- ❖ og'liq muammolar.

To'liq bo'limgan oilalardagi bolalarning asosiy muammosi - bu jinsnani aniqlash va jinsiy orientatsiya qilishdagi qiyinchilik. Ota-onalarning munosabatlari erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning namunasidir. Kelajakda, o'z munosabatlarida, bolalar ushbu misolni boshqaradilar. To'liq bo'limgan oilalarning bolalari ma'lum bir vaziyatda erkak va ayolning xatti-harakati haqida ozgina g'oyalarga ega. Shu sababli ularning oilalarida ziddiyatlar, tushunmovchiliklar, nizolar, kelishmovchiliklar, ajralishlar kelib chiqadi. Qizlarda ayollik, o'g'il bolalarda jasoratning rivojlanishiga bola hayotining birinchi besh yili ta'sir qiladi. Bu davrda hech qanday namuna bo'lmasa (ota yoki onanining mavjudligi shart emas), oqibatlar shunchalik yomon bo'ladi.

A.G.Svyashyennik o'z tadqiqotlarida xristian diniga mansub kishilarning oilaviy munosabatlari madaniyati haqida alohida to'xtalib, yosh kelin-kuyovning oila qurishga va oilaviy munosabatlarga jismoniy, psixologik va ma'naviy-axloqiy jihatdan muayyan darajada tayyor bo'lmashligi (kuyov yoki kelinning bir-biriga nomuvofiqligi) oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi, ularning kuchayib borishi, oxir-oqibatda oilaning buzilishiga olib kelishi haqida hayotiy misollar va diniy nuqtayi nazardan asosli tahlillar yordamida keng yoritganligini ko'ramiz.

Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo'lsa, oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rnini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. G.Roland esa o'z izlanishlarida yosh er-xotinlar oilasidagi shaxslararo munosabatdan qoniqishlari uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko'rsatgan: 1. Muloqotchanlik. 2. Oilada yuqori darajadagi o'zaro tushunish. 3. Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi. 4. Emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi va ishonch. 5. "Uy"ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash.

Yuqoridagi fikrlarimizga doir dalillarni uzoq chet el psixologlari olib borgan tadqiqotlar natijalaridan ham yaqqol ko‘rshimiz mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarida so‘rov davrida 266 ta oilaviy muammolar bo‘yicha shug‘ullanadigan maslahatchilar (mutaxassislar) o‘rganib ko‘rilganda, ularning e’tirof etishicha, ulardan yordam so‘rab murojaat qilgan har 10 ta oilaning 9 tasida o‘zaro munosabatlarda anchagini qiyinchiliklar sodir bo‘layotganligini aytib bergenlar. Mazkur qiyinchiliklardan: fikr va maslaklarning mos kelmasligi - 86,6% ni, bolalar va ularning tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar - 45,7% ni, jinsiy munosabatlarga doir muammolar - 43,7% ni, moliyaviy yechimsiz muammolar - 37% ni, madaniy muammolar - 37,6% ni, tug‘ishganlar bilan munosabat - 28,4% ni, er-xotin o‘rtasidagi ishonchszilik - 26,6% ni, xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq masalalarda - 16,7% ni, ma’naviy-jismoniy haqoratlash - 15,6% ni tashkil etadi.

Aynan shu kabi muammolarga doir, ya’ni er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning me’yorli kechishini amerikalik tadqiqotchilar V.Metyuza va K.Mixanovichlar o‘rganganlar. Ular baxtli va baxtsiz oilalar (shartli ravishda) orasidagi o‘ndan ortiq zarur farqlarni ko‘rsatib o‘tganlar. Bulardan oilada er-xotin munosabatlaridagi tengsizlik; bir-birini yaxshi tushunmaslik; jahl bilan gapirish; o‘zini tahqirlanganligini sezish; e’tiborsizlik; umidsizlik; ishonchszilik; janjallarni sodir etib turish; bir-birining fikriga qo‘shilmaslik, e’tibor talablik kabilalar oilada baxtsizlik keltiruvchi muhim omillardir.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish joizki, o‘zbek psixolog olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiot natijalariga ko‘ra, oxirgi yillar ichida oilalardagi er-xotinning emotsiyal munosabatlarini tashkil etuvchi ushbu omillarning pasayib borayotganini ko‘rshimiz mumkin. Bunga yana bir omil migratsiya natijasida ham biz oilaning asosiy psixologik xususiyatlarini, masalan, turmush o‘rtoqlarning nikohdan qoniqishi, emotsiyal munosabatlari, oilaviy rollarining tuzilishi, oiladagi nizolari, bolalar va ota-onalar munosabatlari va oilaning psixologik iqlimida o‘zgarishlar ko‘rshimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2004. – 28 b.
2. Saribayeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta’siri. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2007. – 22 b.
3. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: “Shams ASA” 2006, 90 b.
4. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.T.: Shams, 2002. — 25 b. 11.
5. Niyazmetova G. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2010. – 87 b.
6. Abdusamatov X. “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Psixol. fan. nomz. ...diss. –Toshkent, 2019. – 163 b.
7. Jo‘rayev N. Ma’naviyat – inson qalbining sarchashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.
8. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2007. – 282 b.
9. Лидовская Н.Н. Взаимоотношения супругов в незарегистрированном браке. диссертация ... кандидата психологических наук. Санкт-Петербург, 2009. -212 с.
10. Xolturayev A.P. O‘smir o‘quvchilar o‘quv faoliyatida natijaga erishishning psixologik jihatlari // Psixologiya ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2181-5231. № 1. 2023. – B. 32-35. (19.00.00. №5).
11. Xolturayev A.P. O‘quv faoliyatida natijaga erishishda ta’sir etuvchi psixologik omillar // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2181-6883. № 3, 2023. – B. 22-24.(19.00.00. № 11).
12. Xolturayev A.P Психологические характеристики достижений у студентов-подростков // Вестник интегративной психологии. - Ярославль. № 25. - 2023.04.05.- С. 79-82.

Xudoyqulova Shoira Husanova,  
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

## O'SPIRINLAR INTELLEKTUAL YETUKLIGINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada intellektual yetuklik tushunchasi, o'spirinlar intellektual yetukligining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda inson yetukligining birinchi komponenti intellektual yetuklik hisoblanishi va u shaxsnинг fikrlash qobiliyatiga egaligini ifodalovchi tushuncha ekanligi yoritilgan. Shuningdek, ilk o'spirinlik davrida o'quvchining mustaqil fikr yurita olmasligi ularning psixikasidagi jiddiy kamchilik ekanligini hisobga olib, intellektual xususiyatlari rivojlanishini muntazam tashxis qilib borish hamda zaruratga ko'ra rivojlantiruvchi vositalarni qo'llash lozimligi e'tirof etilgan. O'spirinlar intellektual yetukligini aniqlash maqsadida N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsiyentini aniqlash» metodikasidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'spirin, intellekt, intellektual yetuklik, fikrlash qobiliyati, psixika, intellektual rivojlanish, emotsiyal intellekt.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ ПОДРОСТКОВ

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению понятия интеллектуальной зрелости, психологических особенностей интеллектуальной зрелости юношеской, в ней поясняется, что первым компонентом зрелости человека является расчёт интеллектуальной зрелости и что это понятие выражает мыслительную способность человека. Также, учитывая, что неспособность школьника самостоятельно мыслить в период раннего юношества является серьёзным недостатком его психики, рекомендуется принимать во внимание необходимость регулярной диагностики развития интеллектуальных особенностей и использования психологических средств их развития. Для определения интеллектуальной зрелости подростков выделены возможности использования методики «Определение коэффициента эмоционального интеллекта» Н.Холла.

**Ключевые слова:** подросток, интеллект, интеллектуальная зрелость, мыслительные способности, психика, интеллектуальное развитие, эмоциональный интеллект.

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ADOLESCENTS' INTELLECTUAL MATURITY

**Abstract.** This article is devoted to the study of the concept of intellectual maturity, psychological features of intellectual maturity of young men, it explains that the first component of human maturity is the calculation of intellectual maturity and that this concept expresses the thinking ability of a person. Also, considering that the schoolboy's inability to think independently in the period of early adolescence is a serious defect of his psyche, it is recommended to take into account the need for regular diagnosis of the development of intellectual features and the use of psychological tools for their development. To determine the intellectual maturity of adolescents, the possibilities of using the technique 'Determination of emotional intelligence coefficient' by N. Hall are highlighted.

**Keywords:** adolescence, intelligence, intellectual maturity, thinking abilities, psyche, intellectual development, emotional intelligence.

**Kirish.** Jahonda zamон талабларига мос, касби faoliyat учун зарурый сифат ва fazilatlarni egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning psixologik kompetentliliginи takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Chunki, bugun shaxs u qaysi yo'naliш egasi bo'lmasin, ertaga kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalar bilan ish olib boradilar va albatta u yoki bi ma'noda kasbi, shaxsi, olib borayotgan faoliyati bilan keljakka ta'sir ko'rsatadi. Zero, bugun asosiy e'tibor barcha soha xodimlari intellektini rivojlantirishga qaratilmoqda va ta'lif sifatini takomillashtirish, innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etishga zarurat ortmoqda.

Dunyo mamlakatlari aholisi hayotida turli mafkuriy globallashuv muammosi kechayotgan bir paytda, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ana shunday muammolardan asrash, ularni turli garazli yot goyalardan himoya qilish, axborot xuruji orqali ularning tafakkurini egallash hamda vayronkor harakatlarga jalb etmoqchi bo'layotganlarga qarshi immunitet xosil qilishda sog'lom tafakkurga ehtiyoj seziladi. Shuning

uchun ham O’zbekiston yoshlarida sog’lom tafakkurni rivojlantirish davlatning eng dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Sog’lom tafakkurga ega bo’lgan yoshlar jamiyatning kelajagini belgilovchi kuch bo’lib, birinchi navbatda ularning shaxsiy o’sishini, jamiyatning sog’lomligini va albatta, mamlakatimizning barqaror rivojlanishi ta’minalashga xizmat qilish bilan birga xalqimizning ertangi taqdirini ham belgilaydi. Agar, yoshlar sog’lom tafakkurga ega bo’lsa, jamiyatimiz obod bo’ladi. Shu nuqtayi nazaridan barcha davrlarda sog’lom tafakkur psixologiyaning o’rganish obyekti hisoblangan. Jamiyat a’zolarining sog’lom, intellektual jihatdan yyetuk bo’lib rivojlanishi, jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk insonlar bo’lib voyaga etishi, har tomonlama kamol topishi hamda jamiyatda o’z o’rnini topishi va samarali faoliyat olib borishida sog’lom tafakkur alohida ahamiyatga ega. Bularning barchasi shaxsnинг intellektual yetukligiga bog’liqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Inson yetukligining birinchi komponenti intellektual yetuklik hisoblanadi va u shaxsnинг fikrlash qobiliyatiga egaligini ifodalovchi tushuncha bo’lib, shaxs o’zining kognitiv va intellektual qobiliyatlarini qanchalik yaxshi qo’llay oladi, turli mavzularda to’g’ri va mukammal bahs-munozara yuritishi, uning aqliy faoliyati qanchalik rivojlanganligi ko’rsatkichlari bilan bog’liqdir.

Shaxsnинг fikrlash jarayonlari to’g’risida gapirganda, uning operatsional jihatni, asosan shaxsnинг atrofdagi olamni bilishini ta’minalaydigan jarayonlarning mukammalligi nazarida tutiladi. Inson ontogenetik rivojlanishida uning umumiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sifatida intellektual yetuklik shaxsdan doimiy o’qish, bilim olishni talab etadi. Mazkur jarayonda o’qish bilan birgalikda bilish imkoniyatlari sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi ro’y beradi. Tafakkurning rivojlanishi fikr yuritish jarayonlarining taraqqiy etishi bilan bog’liq bo’ladi.

O’spirinlik davrida ayniqsa, mavhum-mantiqiy fikrlash xususiyatlarining faol ravishda rivojlanishi, intellektual taraqqiyotda sezilarli o’sishni ta’minalaydi va o’spirin yoshdagilar mavhumlashtirish kabi aqliy jarayonni intensiv ravishda o’zlashtirib oladi. Katta yoshli aqliy sog’lom odam bilish jarayonlarni o’zlashtirish orqali dunyonи aks ettiradi, undagi muammo va imkoniyatlar, mehribonlik, adolat, go’zallik, yaxshilik va yomonlik kabi mavhum tushunchalar bilan bog’liq vaziyatlar bilan ishlaydi.

Intellektual yetuklik - bu kishining qanchalik ma’lumotlarni egallab olishining ko’rsatkichi bo’lib, ko’pincha odam nimalar haqida o’ylashini, fan, siyosat, axloq, yoshlar, iqtisod haqida fikrlashini va bu jarayonda yosh va jins tafovutlarning o’ziga xoslik darajasiga ega bo’lishligini ko’rish mumkin.

Aql va tafakkur kishini har qanday vaziyatda ham tushkunlikka tushmasdan ertangi kunga ishonch bilan qarashga va faqat oldinga intilib yashashga undaydi hamda bu uning dunyoqarashi, ma’naviyati, madaniyati orqali namoyon bo’ladi. Shaxs intellektual jihatdan qanchalik yetuk bo’lsa, uning ruhiyati, jismi shunchalik sog’lom, faoliyatda yutuqlarga yo’nalgan bo’ladi. Intellektual jihatdan yetuk shaxs zararsiz fikrlaydi va beg’araz bo’ladi. Yaxshi xulq-atvor, to’g’ri e’tiqod asosida tarbiyalangan yoshlar hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, Vatani, oilasi, kasbiga sadoqatli bo’ladi. O’spirinlar tafakkuri sog’lom, bilimli, odobli va g’ayratli bo’lishi kelgusi professional faoliyatiga, shaxsiy, oilaviy yuksalishiga ijobjiy ta’sir ko’rsatishi tabiyidir.

O’spirinlik davrining boshlanishi, ya’ni ilk o’spirinlik yoshi 15-18 yoshdagi davrni o’z ichiga oladi va bu davr hayotda o’z o’rnini topishga intilish, kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo’lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g’ayrat, shijoat, qahramonlik ko’rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo’lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi. Shuningdek, aynan ilk o’spirinlik davrida o’quvchilar o’zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o’quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va mutazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar. Ilk o’spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo’l va vositalari esa ta’lim jarayonida yetakchi rol o’ynay boshlaydi. [6; 173 б.]

Ilk o’spirinlik davrida o’quvchining mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilik hisoblanadi. Bu davrda o’quvchi aqlining tanqidiyligi vaziyatga qarab o’zgaruvchan xarakter kasb etadi. Buning asosiy sabablaridan biri – voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to’g’ri tushunmaslikdir. Shuningdek, o’spirinning «o’z pozitsiyasi»da bo’sh kelmasligi, narsa va hodisalarining asl mohiyatini anglab turib, ba’zan ataylab «o’jarlik» qilishi ham bu holatning bir ko’rinishi hisoblanadi. Psixolog E.G’oziev ta’kidlashicha, «ularda moddiy dunyo to’g’risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlnana boshlaydi. Aqlning tanqidiyligini tarbiyalashda o’qituvchi o’quvchining o’ziga xos tipologik xususiyatlariga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtayi nazariga, o’qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy rivojlanishiga bog’liq. Bola shaxsida salbiy o’zgarishlarni keltirib chiqaruvchi tashqi ta’sirlarning psixologik-pedagogik asoslari faoliyat

operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o’qish ko’nikmasi va malakalariga alohida e’tibor berishi lozim»[1].

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot ishimizda o’spirinlar intellektual yetukligini aniqlash maqsadida N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasidan foydalandik. Mazkur metodikani tanlashimizdan maqsad intellektual yetuklik faqatgina o’spirinlarning aqliy muammolarni hal etishi yoki o’qish faoliyati bilan bog’liq vazifalarni bajarishida emas, balki, ularning hayotiy jarayonlarga hissiy munosabatlarida ham ifodalanadi.

Metodika yordamida o’spirinlarning 30 ta fikrga nisbatan bildiriladigan munosabatini aniqlash imkonи mavjud bo’lib, fikrlar 5 ta shkala doirasida umumlashtiriladi. Metodikani bajarishda respondentlarga quyidagicha ko’rsatma beriladi: “Quyida Sizning hayotingiz va faoliyatizingizga alo?ador bo’lgan ayrim fikrlar havola etiladi. Marhamat qilib, har bir fikrning yoniga o’z munosabatingizni raqamlar xolida qayd etsangiz: to’liq qo’shilaman – (- 3 ball); qo’shilaman, desam bo’ladi - (- 2 ball); qisman qo’shilmayman – (- 1 ball); qisman qo’shilaman – (+1); deyarli qo’shilaman – (+2); to’la qo’shilaman - (+3).”

«Emotsional intellektning koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari quyidagilardan iborat:

“Emotsional bilimdonlik” shkalasi – 1, 2, 4, 17, 19, 25 bandlar.

“O’z emotsiyalarini boshqarish (o’zini bosish, hissiyotlarga berilmaslik) shkalasi – 3, 7, 8, 10, 18, 30 – chi bandlar;


“O’zini o’zi undash qobiliyati (o’zi istaganicha emotsiyalarini boshqara olish)” shkalasi – 5, 6, 13, 14, 16, 22-chi bandlar;

“Empatiya” shkalasi – 9, 11, 20, 21, 23, 28- chi bandlar;

“O’zgalarning emotsiyalarning holatlari. bilish qobiliyati (o’zgalarning hissiyotlariga ta’sir ko’rsata olishi) shkalasi – 12, 15, 24, 26, 27, 29 – chi bandlar.

har bir shkala bo’yicha “+” yoki “-” belgisi qo’ylgan javoblarning ballari yig’indisi hisoblab chiqiladi. “+” belgili ballar yig’indisi ko’p bo’lganiga qarab, emotsiyalarning namoyon bo’lish darajasi aniqlanadi.

O’spirinlar emotsiyalarning intellektini o’rganish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimizda 228 nafar 9-10 sinf o’quvchilarini ishtirok etdilar. Tadqiqot davomida o’quvchilarning psixoemottsional holatlari tashqi kuzatish metodi yordamida kuzatildi. Kuzatishlarimiz o’spirin yoshdagи 9 va 10-sinf o’quvchilarida emotsiyalarning reaksiyalarining ifodalanishi yorqin bo’lib, kattalik hissining yaqqol namoyon bo’lishi bilan xarakterlandi.



**1-rasm. Emotsional intellekt koeffitsiyentini aniqlash» metodikasi ko’satkichlari**

**Xulosa.** «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari bo’yicha o’quvchilarning natijalarini yuqori, o’rtacha va past darajalarda baholandi. Natijalar o’ziga xos bo’lib, aksariyat o’quvchilarning emotsiyalarning intellekti o’rtacha darajada ekanligi kuzatildi. (1-rasm) Ammo, alohida shkalalalar bo’yicha o’quvchilarning emotsiyalarning intellekti yuqori va past darajaga egaligi mazkur psixologik omil bo’yicha psixologik ishlarni tashkil etish zaruratini ko’rsatadi. Jumladan, “O’zini o’zi undash qobiliyati (o’zi istaganicha emotsiyalarini boshqara olish)” shkalasida yuqori ko’rsatkichga ega bo’lganlar 33% ni tashkil etganligi ilk o’spirinlarda o’zini namoyon qilishga moyillikning yuqoriligi, tashkilotchilik, tashabbuskorlik uchun energiyaning ustunligini ko’rsatadi.

“Emotsional bilimdonlik” 30%, “Empatiya” shkalalari bo’yicha esa 33% o’quvchilar past darajani namoyon etganlar. Mazkur metodika shkalalari bo’yicha natijalar o’spirinlarning emotsiyalarning intellekti rivojlanishida ham e’tibor qaratish zarur bo’lgan jihatlar mavjudligini ko’rsatmoqda. Kelgusi

tadqiqotlarimizda o'spirin o'quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish ishlarini amalga oshirishni rejalashtirish belgilandi. Zero, o'spirinlik yoshi mustaqil hayotga qadam qo'yishga tayyorlik, o'zi sevgan kasbni tanlashdek mas'uliyatlari pallada ekanligi alohida tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi.

Yoshlar hayotida erishadigan muvaffaqiyatlar har doim fikrlardan boshlanishini hisobga olib, ularni aqliy rivojlanishidagi to'siqlarni bartaraf etish, ularda tafakkurning yanada tiniqligi va mustahkamligini ta'minlovchi kognitib jarayonlarni faollashtirish, yangi g'oyalarni ixtiro qilish, echimini topish va odamlar bilan samarali aloqa qilish usullariga o'rgatish asosiy mezon bo'lishi lozim.

**Adabiyotlar:**

1. G'oziev E.G'. Ontogenetik psixologiyasi. Nazariy-ekspriment tahlil. Monografiya. "Noshir". Toshkent: 2010
2. Расулов Абдумүмин Ибрагимович. Психодиагностика. Тошкент-2009
- 3.Хасанбоев Ж., Тўракулов Х., Хайдаров М., Хасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли лугат. - Т.:2009 «Фан ва технологиялар».
4. Райгородский Д.Я. “Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Самара: Издательский Дом “Бахрах-М”. С. 26-38.



*Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,  
«Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti  
1-bosqich tayanch doktoranti  
dildorichkayangiboyeva98@gmail.com*

## **KO'P BOLALI OILALARDA OILAVIY HAYOTDAN QONIQISH DARAJASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR**

**Annotatsiya.** Oila o'zida iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va jismoniy xavfsizlik va uning a'zolari uchun murakkab ijtimoiy-madaniy hodisani ifodalaydi. Oilaning o'ziga xosligi shundaki, u inson hayotining deyarli barcha jahbalarini qamrab oladi va ijtimoiy amaliyotning barcha darajalariga etadi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida ko'p bolali oila ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy institut sifatida oilaga nisbatan qadriyat yo'nalishlari va ustuvorliklarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan inqiroz holatida degan qarashlar mayjud. Quyida keltirilgan maqolada ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga ta'sirini empirik tadqiq etuvchi izlanish natijalari qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ko'p bolali oila, shaxslararo munosabatlar, ota-onalik, modernizatsiya, tizimli yondashuv, strukturaviy tahlil, metodologik muammolar.

### **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ УДОВЛЕТВОРЁННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ В МНОГОДЕТНЫХ СЕМЬЯХ**

**Аннотация.** Семья обеспечивает экономическую, социальную, психологическую и физическую безопасность и представляет собой сложное социокультурное явление для её членов. Уникальность семьи состоит в том, что она охватывает практически все стороны жизни человека и достигает всех уровней социальной практики. На современном этапе развития существуют мнения, что многодетная семья находится в состоянии кризиса, вызванного изменением социально-экономических и социальных условий, ценностей и приоритетов по отношению к семье как социальному институту. В статье представлен сравнительный анализ результатов эмпирического исследования влияния межличностных отношений в многодетных семьях на уровень удовлетворённости семейной жизнью.

**Ключевые слова:** многодетная семья, межличностные отношения, родительство, модернизация, системный подход, структурный анализ, методологические проблемы.

### **SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE LEVEL OF SATISFACTION WITH FAMILY LIFE IN THE LARGE FAMILIES**

**Abstract.** The family provides economic, social, psychological and physical security and is a complex socio-cultural phenomenon for its members. The uniqueness of the family is that it encompasses virtually all aspects of human life and reaches all levels of social practice. At the present stage of development there are opinions that the large family is in a state of crisis caused by changes in socio-economic and social conditions, values and priorities in relation to the family as a social institution. The article presents a comparative analysis of the results of the empirical study of the influence of interpersonal relations in large families on the level of satisfaction with family life.

**Keywords:** large family, interpersonal relations, parenting, modernization, systematic approach, structural analysis, methodological problems.

**Kirish.** Ayni paytda jahonda oila instituti ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ushbu jihat so'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar ham asosan shaxs psixologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Jamiyat darajasida oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlar oilaning qadr-qimmatini ma'lum darajada yo'qotishini ifodalovchi ajralishlarning ko'payishi, yetim bolalarning tarqalishi, ixtiyoriy nikohsizlik, to'liqsiz oilalarning vujudga kelishi kabi salbiy hodisalar dinamikasida namoyon bo'ladi. Oila darajasida mazkur o'zgarishlar oilaviy funksiyalarini bajarish tabiatida va oila ichidagi munosabatlarning xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shaxs

darajasida birinchi navbatda, shaxsning oilaga bo'lgan munosabati xususiyatlarida qayd etilishi mumkin. Jamiatni modernizatsiya qilish tendensiyalari XX asrning oxiriga kelib, dunyoning sanoat mamlakatlarida katta oilaning yo'q qilinishiga yordam berishi natijasida oilaviy sivilizatsiya inqirozi boshlandi. Jamiatning agrar ishlab chiqarish turi va oila faoliyati barbos bo'lidi. Mashinalar, asbob-uskunalar, kompyuter texnologiyalari - bularning barchasi zamonaviy sivilizatsiya maydonidan insonni bosh qahramon sifatida, oilani esa aholini ko'paytirishning asosiy mexanizmi sifatida olib tashlaydi. XXI asrda texnologiyaning tez o'sishi kuzatilmogda: robotlashtirish, raqamlashtirish, reproduktiv inkubatorlar, sun'iy intellektning paydo bo'lishi natijasida zamonaviy madaniyat endi odamlarga juda muhtojlik sezmaydi [1]. Ko'p bolali ota-onalarning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'p bolali bo'lishni haddan tashqari yuk, ba'zan esa qabul qilib bo'lmaydigan xato deb hisoblaydigan zamonaviy jamiyat bosimi ostida o'zlarining ota-onalik maqomini intensiv ravishda saqlab qolishga majbur bo'lishni ongli his qilish kabilarni kiritish mumkin. Ko'p bolali oilaga ega bo'lgan shaxslar boshqalarga qaraganda ba'zi jihatlarda kuchliroq va mas'uliyatliroqdir [3].

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar alohida ahamiyatga ega bo'lib, beqarorlik holati oilaning psixologik tarkibiy qismiga ta'sir qiladi. Oila ijtimoiy birlik sifatida ko'plab yangi shartlarga duch keladi, bu esa mavjud asoslarni o'zgartirishni nazarda tutadi. Jamiat tomonidan ilgari surilgan yangi shart-sharoitlarga bog'liqlik, ayniqsa, "ko'p bolali oila" bosqichida keskin namoyon bo'ladi.

Ko'p bolali oila tushunchasini aniqlashda tadqiqotchilar er-xotinning yoshi, birga yashash muddati, oila va nikoh munosabatlarining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar va boshqalarni o'z ichiga olgan bir qator mezonlarga tayanadilar. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining metodologik asosini erkinlik, tenglik va qadr-qimmat nazariyasi tashkil etadi. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining mafkurasi oila farovonligi, oilaviy turmush tarzini mustahkamlash va rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish uchun teng imkoniyatlar, bola manfaatlarining ustuvorligidan iborat. Oila muammosiga nazariy va amaliy qiziqish insoniyat jamiyatni mavjud ekan, mavjud bo'ladi, va bu ajablanarli emas. Oila - bu insonning ijtimoiy faoliyati tizimi, jamiyatning asosiy institutlaridan biri. U harakatda, nafaqat ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta'sirida, balki uning rivojlanishining ichki jarayonlari tufayli ham o'zgaradi. Psixologiya oilani ijtimoiy-psixologik guruh sifatida o'rganar ekan, uning a'zolarining shaxslararo munosabatlariga, ularning turli ijtimoiy va oilaviy vaziyatlardagi o'zaro ta'siriga, oilaviy hayotni tashkil etishga va kichik guruh sifatida oilaning barqarorligi omillariga e'tibor beradi. Shu bilan birga, oila ma'lum bir jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga mos keladigan, birgalikdagi faoliyatda shakllanadigan shaxslararo munosabatlar majmui bilan birlashtirilgan ijtimoiy guruh sifatida talqin etiladi [5].

Psixologiya uchun ko'p bolali oila ichidagi munosabatlarning o'ziga xosligi, shuningdek, uning a'zolarining psixologik xususiyatlarining mavjudligi tufayli alohida qiziqish uyg'otadi. Bu xususiyatlar ko'p jihatdan ko'p bolali oilaning paydo bo'lishini ham, uning keyingi mavjudligi va hayot xususiyatlarini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtida o'n sakkiz yoshga to'Imagan uch va undan ortiq farzandi (shu jumladan asrab olingan bolalar, shuningdek o'gay farzandlari) bo'lgan oila ko'p bolali oila hisoblanadi. E.F.Achildiyevanig tasnifiga ko'ra, ko'p bolali oilalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Ota-onalar farzandlarini yaxshi ko'radigan va ularga ongli ravishda ega bo'lishni xohlagan oilalar. Bunday oilalarda bola hayotdagi qadriyatlardan bira sifatida harakat qiladi va ota-onalar farzandlarining yaxshi hayot kechirishi uchun qo'lidan kelganini qiladilar.

- Ota-onalar ongli ravishda ko'p farzandli bo'lishga intilmagan oilalar. Uchinchi va keyingi bolalar, asosan, oilani rejalashtirishning yo'qligi tufayli ularda paydo bo'lishi mumkin. Bunday yettita egizak yoki uch egizak tug'ilishi natijasida, homiladorlikni to'xtatishdan qo'rqish, shifokorning onanining sog'lig'i sababli abort qilishni taqiqlashi, diniy e'tiqodlarga ko'ra abort va kontratsepsiyan rad etishi natijasida paydo bo'lishi mumkin.

- Ikkita to'liq bo'Imagan oilalarning birlashishi natijasida tashkil etilgan oilalar, bunda ularning har bira allaqachon farzandli bo'lgan bo'ladi.

- Ko'p sonli bolalar tug'ilishi muammoning namoyon bo'lishi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan oilalar. Bu yerda bolalar ko'pincha turli xil imtiyozlar, qo'shimchalar olish vositasidir. Bundan tashqari, aksariyat hollarda bunday oilalarda bolalar tartibsiz jinsiy aloqalar, alkogol yoki giyohvandlik holati natijasida tug'iladi va ota-onalarning tipik psixologik munosabati ularning asosiy vazifasi bolani tarbiyalash ekanligiga ishonishadi [10].

Yu.E. Aleshina nikohdan qoniqishni «har bir turmush o'rtog'ining o'zaro munosabatlarining tabiatini subyektiv baholash» xususiyati sifatida belgilaydi. Bunday holda, oila kichik guruhdagi jarayonlarga o'xshash o'ziga xos dinamik o'zgarishlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi [1]. "Nikohdan qoniqish" tushunchasining mazmunini belgilab, M.S.Matskovskiyning ta'kidlashicha, qoniqish ajralmas xususiyat bo'lib, u har bir turmush o'rtog'ining o'z hayoti va o'zaro munosabatlarining turli tomonlariga bo'lgan

munosabatidan, shuningdek, har bir turmush o'rtog'ining bo'sh vaqt, shart-sharoit, rollarning taqsimlanishi va boshqalardan qoniqishidan iborat. [2].

B.A Sisenkoning fikricha, «oilaviy hayotdan qoniqish juda keng tushuncha bo'lib, shaxsning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasini o'z ichiga oladi. Nikohdagi turmush o'rtoqlarning har biri uchun ehtiyojni qondirishning minimal zarur darajasiga erishish kerak, bundan tashqari allaqachon noqulaylik paydo bo'ladi, salbiy his-tuyg'ular va his-tuyg'ular shakllanadi va mustahkamlanadi. Nikohdan qoniqish bir xil tabiat va bir xil talqina ega bo'lgan tushunchalar ekanligini ta'kidlaymiz. Shunday qilib, munosabatlardan qoniqish yoki nikohda subyektiv farovonlik hissi, o'zaro munosabatlar sifati har bir turmush o'rtoq'iga mos kelganda paydo bo'ladi.

S.I. Golod nikohdan qoniqishning quyidagi konsepsiyasini beradi: «Nikohdan qoniqish, shubhasiz, inson ongida shakllangan oila g'oyasini (timsolini) adekvat hayotga tatbiq etish natijasida rivojlanadi hamda ushbu faoliyat sohasidagi tajribasini (haqiqiy yoki ramziy) oshiriladi». Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, uch yoki undan ortiq farzandi, shu jumladan o'n sakkiz yoshga to'lmagan asrab olingan bolalari bo'lgan oila ko'p bolali oilalar hisoblanishi ma'lum bo'ladi. Ko'p bolali oilalar - ota-onalar ataylab ko'p farzandli bo'lishga qaror qilgan oilalar, ota-onalar ko'p farzandli bo'lishga intilmagan oilalar, ikkita to'liq bo'lmagan oilalarning shakllanishi natijasida ko'p bolali oilalar va bolalar soni noqulaylikning natijasi hisoblangan ko'p bolali oilalar kabi turlarga bo'linadi. Ko'p bolali oilalarda bolalar rivojlanishining omillari uning parametrlari, atrof-muhit sharotlari va a'zolarining shaxsiy xususiyatlari hisoblanadi. Ko'p bolali oilalar ajralishlar va bolalar o'rtasidagi turli xil shaxsiy munosabatlar bilan ajralib turadi. Ko'p bolali oilalarning muammolari - moddiy va maishiy muammolar, ota-onalarning ish bilan ta'minlanishi, uy-joy kabilarga ajratiladi. Ko'p bolali oilalarning psixologik muammolari - ota-onalar tomonidan bolalarga e'tiborning yetishmasligi, ijtimoiy yoshning o'sishi, turmush darjasini va sog'lig'ining pasayishiga olib keladigan psixologik iqlimning murakkabligi kabilalar bilan tavsiflanadi.

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** Ko'p bolali oiladagi ota-onalar odatda kuchli psixologik barqarorlikka ega bo'lishadi. Ular stressga ko'proq bardosh beradilar, qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yanliklari hamda eng qimmatli narsa - farzandlari foydasiga tanlov qilganliklari bois hayot qiyinchiliklarini osonlikcha yengib o'tishadi. Har kim qiladigan ishni qilmaslik, mustaqil qaror qabul qilishda ma'lum bir jasorat ko'rsatishga intilish, ko'p bolali oilalardagi ota-onalar odatiy tusga kirgan.

S.V. Kovalyovning so'zlariga ko'ra, ko'p bolali ota-onalarning ta'lim-tarbiya xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'p bolali oilalarda bolalarni tarbiyalashda ota-onalar asosan sezgi va stereotiplarga tayanadilar, ularning «nodonligi» tufayli kattalar turli xil tug'ilish pozitsiyalaridagi bolalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonini malakali qura olmaydilar;

- bolalarning ko'pligi turli yoshdagagi pozitsiyalarga qarab, katta oilaning har bir farzandiga xos bo'lgan «noyob qobiliyatlarining» namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi;

- ko'p bolali oilada bolalarni tarbiyalash muammolarining asosiy sababi barcha bolaga bir xil «yondashuv» bo'lib, aksariyat ota-onalar ongli yoki ongsiz ravishda ergashadigan yo'nalish bo'yicha bolalarni tarbiyalashadi. Bu barcha bolalarni bir butun sifatida ko'rib va oilada turli yoshdagagi bolalar o'rtasidagi shaxsiy xususiyatlardagi farqlarni sezmaslik istagi bilan tavsiflanadi [14].

Ko'pincha, ko'p bolali ota-onalar turli yoshdagagi bolalarni tarbiyalashning pedagogik strategiyasini tanlashda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmaydilar. Shunga qaramay, ko'p bolali oilalardagi bolalar ham bir-biriga, ham boshqa odamlarga nisbatan sezgir bo'lib o'sadi. Kam bolali oilalar bilan solishtirganda, ko'p bolali oilalarda shaxslararo hamjihatlik yuqoriqoq pozitsiyada namoyon bo'ladi. Psixologiyada mazkur atama (shaxslararo hamjihatlik) atama guruh barcha a'zolarining, bu holda oilaning harakatlari qanchalik muvozanatli, birligida yo'naltirilganligini va oila a'zolarining umumiy qarorni qanchalik tez va malakali qabul qilishini aniqlash uchun ishlataladi. Bundan kelib chiqadiki, bir nechta bolali oilalar har doim do'stona munosabatda bo'lishadi.

Shu bilan birga, Ya.A.Artsimovich, ko'p bolali ota-onalarga xos bo'lgan mas'uliyatsizlik va beparvolik ko'pincha taqdirning rahm-shafqatiga tashlab qo'yilgan bolalarning qarovsiz qolishiga, ko'chada mustaqil ravishda yurishiga olib kelishini ta'kidlab o'tgan (ota-onalar bolaning qanday kompaniya ekanligini nazorat qilmaydilar). Ota-onalarning bunday holatlarga beparvo munosabati tufayli bolalarning xulq-atvorida muammolar, jumladan, jarohatlar, kutilmagan vaziyatlar, bezorilik yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabilalar yuzaga keladi. Ko'p bolali oilalar farzandlari ba'zi hollarda ota-onalaridan qo'rqishgani tufayli, uydan tashqarida munosabatlarni izlaydilar (uydan qochib ketishadi, disfunksiya bo'lib bolalar va turli xil xatti-harakatlari bilan to'plangan guruhlarga kiradilar). Ammo kattalar bolalar va ko'cha bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar ekanligini unutmasliklari lozim. Ota-onalar har doim va hamma joyda farzandlari

uchun mas'uldirlar. Oilani rejalashtirish va yaratish, bir-ikkita emas, balki ko'proq farzand tarbiyalash masalasiga jiddiy va ehtiyyotkorlik bilan yondashish kerak.

K.Vitekning fikricha, ko'p bolali oilalarning bolalari ochiqko'ngil bo'lganliklari bois, ko'proq muvaffaqiyatga, boshqalarga qaraganda hayotda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Ko'p bolali oiladagi ota-onalar bu xususiyatni ataylab rivojlantirishlari shart emas - bu o'z-o'zidan tarbiyalanadi, chunki bolaning muloqot qilish uchun kimdir bor. Bolaligidan u aka-uka va opa-singillar bilan suhbatlashishga, kompyuter o'yinlarini emas, balki rolli o'yinlarni o'ynashga odatlangan va kattalar hayotida muloqot qobiliyatlarini muvaffaqiyatning deyarli asosiy tarkibiy qismidir. Bolalar turmush o'rtoqlarni kuchliroq birlashtiradi, bu ular sevgisining natijasidir. Ko'p bolali oilalarda ajralishlar nisbatan kamroq qayd etilishi ajablanarli holat emas. Har bir keyingi bolaning tug'ilishi nafaqat ota-onalar uchun yangi tashvishlarni, balki bir-birlari bilan munosabatlarning yangi darajasini ham anglatadi. Hissiyotlar kuchayadi, bir-biriga nisbatan mas'uliyat ortadi. Bunday turmush o'rtoqlar ko'pincha qariguncha bir-birlarini sevadilar, bиргаликда yo'qotadigan narsalari borligini, ajralish bиринчи navbatda farzandlariga ta'sir qilishini tushunishadi, shuning uchun har qanday vaziyatda taslim bo'lmaslikni va bir-birlarini qadrlashni bilishadi. Shunday qilib, ko'p bolali ota-onalarning shaxsiy xususiyatlariga ota-onalik maqomini saqlab qolish istagi, stressga yuqori darajadagi psixologik qarshilik, oila a'zolari o'rtasidagi uyg'unlik, ta'lim xususiyatlari (intuitivlik va stereotipik tarbiya), har bir bola uchun tarbiya yo'nalganligining yo'qligi kiradi

Alovida tadqiqot muammosi ota-onalarning reproduktiv munosabatlarining oiladagi bolalar soniga ta'siri bilan bog'liq. Masalan, nigeriyalik olim U.Isuigo-Abaniyning tadqiqotida nigeriyalik oilalarda bolalar soni va oilaning kattaligi haqidagi qaror faqat erkak tomonidan qabul qilinadi [6], degan xulosaga kelinadi. Y.Z.Garipov va I.S.Mavlyautdinovlarning fikricha, katta oilani yaratish uchun har ikkala er-xotinning ham tayyor bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ular ko'p bolali oilalarda farzand ko'rish tashabbusi deyarli teng ulushlarda otaga ham, onaga ham tegishli ekanligini ta'kidlashadi [7].

#### 1-jadval.

«Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikasining tavsiflovchi statistik tahlili

Yo'nalishlar	Min	Max	X	$\sigma$	As	Ekz
Maqsad	7,00	39,00	30,6667	5,40854	-2,757	<b>9,536</b>
Jarayon	8,00	42,00	30,4933	5,61218	-1,726	<b>5,884</b>
Natija	5,00	41,00	28,7333	6,43960	-1,386	<b>3,522</b>
“Men” lokus nazorat	6,00	42,00	28,9067	6,60707	-1,368	<b>3,007</b>
“Hayot” lokus nazorat	8,00	42,00	28,6933	7,72496	-,564	,642

“Hayot mazmuni yo'nalganligi” metodikasining tavsiflovchi statistik tahliliga muvofiq maqsad shkalasi bo'yicha minimal ko'rsatkich 7 ball, maksimal ko'rsatkich 39 ball, o'rtacha qiymat 30,66 ni tashkil etib (Ekz=9,536), ko'p bolali oilalarda hayot mazmunining yo'nalganligida ko'proq maqsadlarga e'tibor berish, oilaviy hayotni to'g'ri rejalashtirish uchun maqsadlarni real hamda konkret qo'yishga bo'lgan intilish ustunligi kuzatildi. Shuningdek, jarayon (ekz=5,884), natija (ekz=3,522), “men” lokus nazorat (3,007) shkalalarida ham yuqori qiymatlar qayd etilib, ushbu natijalarni ko'p bolali oilalardagi hayot mazmuni yo'nalganligi asosan oilaviy jarayonlar samaradorligiga qaratilishi, oiladagi munosabatlarda asosan shaxslarning natijaviy pozitsiyadan bir-biriga yondashishi, shuningdek, interpersonal rakursda o'z “men”ligini namoyon etish ko'proq reguliyativ pozitsiyadan amalga oshirilishi bilan farqlanganligi bilan xarakterlanadi, kabi xulosalar qilishga undaydi.

#### 2-jadval.

«Juftliklar ustanovkasi» metodikasining tavsiflovchi statistik tahlili

Ustanovkalar	Min	Max	X	$\sigma$	As	Ekz
Shaxslarga munosabat	5,00	16,00	11,20	2,60	-,005	-,708
Burch va zavq hissi	3,00	16,00	11,70	2,95	-1,044	<b>1,450</b>
Farzandga munosabat	2,00	16,00	10,94	3,32	-,378	-,336
Bиргалидаги фаoliyat	4,00	16,00	11,33	3,06	-,388	-,493
Ajralishga munosabat	6,00	16,00	10,81	2,22	,271	,327
Romantik turdag'i sevgiga munosabat	5,00	16,00	11,16	2,73	,065	-,655
Jinsiy hayotdagi bahoga munosabat	3,00	16,00	10,77	2,52	-,136	,313
Jinsiy hayotga munosabat	7,00	16,00	11,56	2,26	,145	-,433
Egalitar turdag'i oilaga munosabat	4,00	16,00	11,42	2,51	-,269	-,208
Pulga munosabat	4,00	16,00	10,08	3,22	,088	-,914

Juftliklar ustanovkasi metodikasi bo'yicha olingan tahlillarga ko'ra, farzandga munosabat, burch va zavq hissi hamda jinsiy hayotga munosabat shkalalarida minimal ko'rsatkichlar boshqa qiymat ko'rsatkichlariga qaraganda ozchilikni ( $min=2$ ;  $min=3$ ) tashkil etganini ko'rish mumkin. Bundan xulosaga kelinadiki, farzandlarning ko'p bo'lishi natijasida ota-onada farzandlarga nisbatan individual yondashuv jihatidan zamon hamda makon tezligiga munosabatda bo'lish ko'lami past darajada bo'ladi. Bu esa, farzandlarda ota hamda ona bilan munosabatlarning disfunktional tarzda kechish imkoniyatini oshirishi mumkinligini bilan ham ahamiyatga molikdir. Shuningdek, minimal ballar hisobidan burch va zavq hissi va jinsiy hayotga munosabat ko'rsatkichlarida quyi natijalar qayd etilganini, ko'p bolali oilalardagi mas'uliyat hamda qarashlar xilma-xilligi nuqtayi nazaridan oilaviy burchni va oilaviy hayot, oila an'analaridan rohatlanish, zavqlanish hissining doimiy baqraror tusda emasligi bilan izohlash mumkin bo'lsa, jinsiy hayotga munosabat, unga baho darajasi intim aloqalar rakursida juftliklarning ma'naviy hamda psixologik qoniqishlari yo'lida kamroq miqdorda xizmat qilayotganidan darak beradi.

**3-jadval.**

**«Hayot yo'nalanligi» metodikasining normal taqsimplanish qonuniyatiga mosligini tekshirish**

Yo'nalishlar	Kolmogorov-Smirnov mezoni bo'yicha (Z qiymat)	Ishonchlilik ko'rsatkichi (p)
Maqsad	2,630	<b>0,000**</b>
Jarayon	2,621	<b>0,000**</b>
Natija	1,427	<b>0,034*</b>
“Men” lokus nazorat	1,279	0,076
“Hayot” lokus nazorat	1,206	0,109

*Izoh:* \* -  $p<0.05$ , \*\* -  $p<0.01$

Navbatdagi tahlil tadqiqot natijalarini asosiy mezonlarga saralab, tanlab olishga xizmat qiluvchi normal taqsimplanish qonunu, ya'ni Kolmogorov-Smirnov mezoniga solish orqali amalgalashirilgan natijalar sharhiga bag'ishlanadi. Biz tarafdan olingan psixodiagnostik vosita D.Leontevning “Hayot mazmuni yo'nalanligini o'rghanish” metodikasi bo'lib, uning ko'rsatkichlar bo'yicha tahlili quyidagicha tus oldi: maqsad shkalasi bo'yicha ( $Z=2,630$ ;  $p<0,01$ ), jarayon shkalasi bo'yicha ( $Z=2,621$ ;  $p<0,01$ ), natija shkalasi bo'yicha ( $Z=1,427$ ;  $p<0,05$ ), “Men” lokus nazorati shkalasi bo'yicha ( $Z=1,279$ ;  $p<0,076$ ), “Hayot”lokus nazorati shkalasi bo'yicha ( $Z=1,206$ ;  $p<0,109$ ) natijalar qayd etildi. Mazkur olingan natijalarning 100% i normal taqsimplanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Yuqorida bo'lgani kabi eng ustun ko'rsatkichlar maqsad, jarayon shkalalarida qayd etilib, ko'p bolali oilalarda oiladagi munosabatlar maqsad-jarayon diadasida rivojlanib borishi aniqlandi.

Navbatdagi psixodiagnostik vosita “Juftliklar ustanovkasini aniqlash” metodikasi bo'lib, uning ko'rsatkichlar bo'yicha tahlili quyidagicha tus oldi: shaxslarga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,609$ ;  $p<0,05$ ), burch va zavq hissi shkalasi bo'yicha ( $Z=2,285$ ;  $p<0,01$ ), farzandga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,715$ ;  $p<0,01$ ), birgalikdagi faoliyat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,586$ ;  $p<0,05$ ), ajralishga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,162$ ;  $p<0,135$ ), romantik turdag'i sevgiga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,399$ ;  $p<0,05$ ), jinsiy hayotdagi bahoga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,327$ ;  $p<0,059$ ), jinsiy hayotga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,498$ ;  $p<0,05$ ), egalitar turdag'i oilaga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,397$ ;  $p<0,05$ ), pulga munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=1,402$ ;  $p<0,05$ ) natijalar qayd etildi. Mazkur olingan natijalarning 100% i normal taqsimplanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Yuqorida bo'lgani kabi eng ustun ko'rsatkichlar burch va zavq hissi, farzandga munosabat shkalalarida qayd etilib, ko'p bolali oilalarda er-xotinning bir-birlari hamda farzandlari oldidagi burchlari yuqoriligi real idrok qilinib, bu ularagi ajralishga bo'lgan munosabatning past ko'rsatkichda (1,162) bo'lishiga ham ta'sir etishi mumkinligi ma'lum bo'ladi.

Ko'p bolali oilalarda hayot mazmuni yo'nalanligi hamda juftliklar ustanovkasi o'rtasidagi bog'liqliklarga asosan, ajralishga munosabat hamda maqsad ( $r=-0,237$ ,  $p=0,05$ ), ajralishga munosabat va natija ( $r=-0,248$ ,  $p=0,05$ ), jinsiy hayotga munosabat va man lokus nazorat ( $r=-0,247$ ,  $p=0,05$ ), egalitar turdag'i oilaga munosabat va maqsad ( $r=-0,256$ ,  $p=0,05$ ), jarayon ( $r=-0,273$ ,  $p=0,05$ ), natija ( $r=-0,281$ ,  $p=0,05$ ) shkalalarida teskari, manfiy korrelyatsion bog'liqliklar qayd etildi. Olingan empirik natijalardan ko'p bolali oilalarda ajralishga munosabat kamroq darajada bo'lib, bunday fikr juftliklarda tug'ilgan taqdirda ushbu

qaror ularning hayotiy maqsadlari hamda turmush tarzidagi natijalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ma'lum bo'ladi. Demak, ko'p bolali oilalarda ajralish fenomeni kamroq kuzatilishi mumkin. Shuningdek, jinsiy hayotga munosabatning ko'p bolali oiladagi er va xotinda ehtiyojlar ierarxiyasida ustunlik qayd etishi ularning o'zlarini nazorat qilishi hamda reproduktiv salomatligiga jiddiy ta'sir e'tishiga ham zamin yaratadi.

**4-jadval.****Ko'p bolali oilalarda hayot mazmuni yo'nalgaligi hamda juftliklar ustanovkasi o'rtasidagi bog'liqliklar**

Ko'rsatkichlar	Maqsad	Jarayon	Natija	Men lokus nazorat	Hayot lokus nazorat
Shaxslarga munosabat	-0,183	-0,154	-0,066	0,060	0,167
Burch va zavq hissi	-0,021	0,041	-0,029	0,055	-0,004
Farzandga munosabat	-0,051	-0,004	-0,123	0,044	-0,108
Birgalikdagi faoliyat	-0,060	-0,110	-0,041	0,092	-0,057
Ajralishga munosabat	<b>-0,237*</b>	-0,169	<b>-0,248*</b>	-0,079	-0,067
Romantik turdag'i sevgiga munosabat	-0,088	-0,006	-0,061	0,053	-0,092
Jinsiy hayotdag'i bahoga munosabat	-0,134	-0,130	-0,193	-0,077	-0,142
Jinsiy hayotga munosabat	-0,084	-0,103	-0,185	<b>-0,247*</b>	-0,106
Egalitar turdag'i oilaga munosabat	<b>-0,256*</b>	<b>-0,273*</b>	<b>-0,281*</b>	-0,163	-0,211
Pulga munosabat	-0,089	-0,123	-0,135	-0,015	-0,115

Izoh: \* -  $p < 0.05$

Aniq belgilangan oila boshliqlari bo'lmagan va ota va ona o'rtasidagi hokimiyatning vaziyatga qarab taqsimlanishi ustunlik qiladigan teng huquqli oilalar sifatida tavsiflanuvchi egalitar turdag'i oila bo'lishga nisbatan ustanovkaning ko'p bolali oilalarda kuzatilishi ulardagi oilaviy maqsadlar, rejalar hamda turmush tarsi mobaynida kechadigan jarayonlarning sifatiga teskari ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Bunda oilaviy rollar vaziyat taqozosi bilan o'zgaradi, ro'zg'or yumushlari ham vaziyatning dinamik holatiga bog'liq tarzda kechadi. Oilaviy munosabatlarni yaxshilashda teng huquqli oila baraka va mo'jiza ekanligi aniq ta'kidlanadi. Turmush o'rtoqlar har tomonlama tenglikka erishish juda kam uchraydi. Bunday nikohda hech narsa ikkinchi yarmining "nafasini cheklamaydi", lekin bunday qulay uy dunyosi faqat o'zaro kelishuv asosida, sherikni buzmasdan yoki uni "inqilobiy" g'oyalari ostida raqsga tushishga majburlamasdan yaratilishi kerakligi bilan ham xarakterli jabhalardan biridir [14].

**Xulosa.** Zamonaviy ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishning muhim tendensiyasi bu oilada sodir bo'layotgan jarayonlarning mohiyatini ochib beradigan yangi uslubiy asoslarni izlash hisobanadi. Bu ijtimoiy hayotdag'i o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan bir qator holatlar va shunga mos ravishda oila instituti uchun ziddiyatlari va noaniq oqibatlarni tushunish zarurati bilan bog'liq. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni dinamik ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ishlaydigan o'z-o'zidan rivojlanadigan mikroiijtimoiy tizim sifatida ham tadqiq etiladi. Ko'p bolali oilalarni voqelik sifatida tahlil qilish bizga kamida ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi. Birinchisi, oilaviy munosabatlarni tamoyillar nuqtayi nazaridan oilani o'zini-o'zi rivojlanishirish mexanizmi sifatida tahlil qilish hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi sharoitida oila rivojlanishini optimallashtirishning tashqi mexanizmlarini aniqlash. Ikkinchisi - oilaning mehnat salohiyatini shakllantirish uchun motivatsiya tizimini ochib berishdir.

Nikohdan qoniqish - bu subyektiv bo'lgan va turmush o'rtoqlarning bir-biriga va ularning nikohiga bo'lgan bahosini aks ettiruvchi nikoh munosabatlarining o'ziga xos xususiyati. Ko'pgina omillar nikoh barqarorligiga va qoniqishning oshishiga ta'sir qiladi.

Ko'p bolali oilalarda nikoh munosabatlarini o'rganish doirasida A.Yu.Tavit nikohdan qoniqish omillarining ikki guruhini belgilaydi [9]:

- 1) Nikohdan oldin vujudga kelgan omillar: nikohning psixologik asosi, u kelib chiqishi, shaxsiy xususiyatlari, turmush o'rtog'i va nikoh ideali, nikoh motivlari kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.
- 2) Nikoh davrida yuzaga kelgan omillar: er-xotinning axloqiy va hissiy munosabatlari, er-xotinning psixofiziologik munosabatlari, bolalarni tarbiyalash bo'yicha qarashlarning birligi, uy-ro'zg'or va xo'jalik vazifalarini taqsimlash, bo'sh vaqt va undan foydalinish, turmush o'rtoqlarning ota-onalari va oilalari bilan munosabatlari. Yu.E. Aleshina nikohdan qoniqishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat deb hisoblaydi: birga yashash muddati (nikoh) va oilada birinchi bolaning tug'ilishi, sibling munosabatlari. Birinchi mezon oilaviy rivojlanish siklining uchta davridan biri, ikkinchisi esa o'zgarishlarning asosiy tabiatining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

M.S.Matskovskiy va A.G.Xarchev turmush o'rtoqlarning nikoh motivlari va nikohdan qoniqish o'rtasidagi munosabatlar haqida gapirdi [11]. Ular o'zlarining nikohlarini qoniqarli deb hisoblagan erxotinlar unga quyidagi sabablar bilan kirganligini ta'kidladilar: umumiy manfaatlar va qarashlar, sevgi va boshqalar. Nikohdan norozi bo'lgan turmush o'rtoqlar, birinchi navbatda, bunday motivlarni nomlashdi: moddiy hisob-kitob, imkoniyat, turmush sharoitini yaxshilash istagi, beparvolik, yolg'izlikdan qochish istagi va boshqalar. Nikohdan qoniqish to'g'ridan-to'g'ri tarbiya uslubiga bog'liq va aksincha. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, nikohdan qoniqish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarbiyatagi og'ishlar shunchalik kam bo'ladi, agar nikoh munosabatlaridan qoniqish darajasi past bo'lsa, tarbiyada og'ish va xatolar soni ko'payadi Erning nikohdan qoniqishi qanchalik ko'p bo'lsa, xotinning qoniqishi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, erning nikohdan qoniqishi past bo'lsa, uning xotini ham norozi bo'lish ehtimoli ortadi [12].

Shuningdek, olingen empirik ma'lumotlarga ko'ra nikoh qoniqishiga erkaklar va ayollar uchun har xil bo'lgan ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, oilada rollarning an'anaviy taqsimoti (bu oilada turmush o'rtoqlarga jinsiga qarab ma'lum rollar beriladi - xotin ona va uy bekasi rolini o'ynaydi, er asosan moddiy yordam uchun javobgardir. oila va jinsiy munosabatlar) nikohdan qoniqish hosil qilmaydigan ayollarga, rollarning teng taqsimlanishi esa nikohlarini muvaffaqiyatli deb baholagan ayollarga xosdir. Erkaklarda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlardagi jinsiy rollarning nomuvofiqligi nikohdan qoniqishga salbiy ta'sir qiladi. Ayollar va erkaklar uchun qadriyatlar tizimining o'xshashligi nikohdan qoniqishga ta'sir qiladi. Shunday qilib, nikohdan eng ko'p qoniqish hosil qiladigan oilalar quyidagilardir: 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar (taxminan erta yosh), hayotning barcha sohalarida rollarni taqsimlashda tenglik va ikkala turmush o'rtog'i uchun ularni taqsimlashda izchillik bo'lgan oilalar hamda farzandlari soni ko'p bo'lishiga qaramasdan bir xil funksiyani aralash uddalashga harakat qiladigan ko'p bolali oilalardir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Костюшина Е.В. Проблема конфликтов в подростковом возрасте / Е.В. Костюшина, Н.Н. Парусова // Наука и Образование. – 2018. - Т.1. – № 3- 4. – С. 24.
2. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование М., 1993. 175 с.
3. Кулакова Н.А. Особенности развития общения дошкольников со сверстниками / Н.А. Кулакова, В.Н. Обносов // Наука и Образование. - 2020. - Т. 3. - № 2. - С. 227.
4. Обносов В.Н. Традиции воспитания молодежи в русской истории / В.Н. Обносов // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / сост. Р.С. Леонов. - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 111 – 115.
5. Новгородова А.П. Гендерные различия удовлетворенности браком // Ананьевские чтения-2005: Материалы научно-практической конференции. Спб., 2005. С. 211-212.
6. Гурко Т.А. Влияние добрачного поведения на стабильность молодой семьи // Социологические исследования, 1982. № 2. С. 88-93.
7. Попов А.С. Формирование представления о развитии личности у будущих педагогов / А.С. Попов, Т.И. Попова // Актуальные проблемы образования и воспитания: интеграция теории и практики: сборник материалов Национальной контент-платформы (12 декабря 2019 г.) / под общ. ред. Г.В. Коротковой. – Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 93.
8. Зиммель Г. Большие города и духовная жизнь.
9. Харчев А.Г., Мацковский М.С. Современная семья и её проблемы М., 1993. 224 с.
10. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания. М., 1995.
11. Сысенко В.А. Устойчивость брака: проблемы, факторы и условия. М., 1981. 210 с.
12. Голод С. Стабильность семьи: социологический и демографический аспекты. Л., 1984. 325 с.
13. Солодников В.В. Лонгитюдная стратегия исследований качества и изменений браков: отечественная традиция и зарубежный опыт (обзор теорий, методов и исследований) // Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены, 2016. № 1. С. 3-20.
14. О некоторых перспективах развития психологии семьи // Социальная психология - XXI век. Доклады участников симпозиума. Т.2. Ярославль: ДИА-пресс, 1999. С. 337-338.

*Yo‘ldoshev Javlon Ablanazar o‘g‘li,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi  
yoldoshevjavlon37@gmail.com*

## **QATAG‘ON QURBONLARI MEROSI ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI**

**Annotatsiya.** Jahonda har bir davlat o‘z fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali talabalarda fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash, bag‘rikenglik, adolatparvarlik kabi sifatlarni qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtrish asosida rivojlantrish zarur, degan xulosaga kelindi. Ana shu nuqtayi nazardan talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlashtirish jarayoniga qatag‘on qurbanlari merosini o‘rganish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik darajasini tashxis etish mezonlarini aniqlash va baholash metodikasini ishlab chiqish; tashkiliy-integratsion model asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantrish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** jadidlar, ma’naviy ruh, insonparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalashda jadidlar merosining o‘rni va ahamiyati, fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, shaxs, psixologik portret, milliy ruh, milliy mentalitet.

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ЖЕРТВ РЕПРЕССИЙ**

**Аннотация.** Каждое государство мира определяет своей главной целью найти в своих гражданах качества, соответствующие требованиям времени и ценностям, совместимым с целями общества. Путём ознакомления с опытом стран, стремящихся к устойчивому развитию и совершенству, на основе адаптации к потребностям времени и интересам общества в статье был сделан вывод о том, что необходимо воспитывать у студентов гражданское чувство, формировать чувство социальной ответственности, развивать такие качества, как самосознание, толерантность, справедливость, развивать гражданскую позицию. С этой точки зрения следует изучить наследие жертв репрессий, определить критерии диагностики уровня развития гражданской позиции у студентов и разработать методику её оценки. Важно совершенствовать механизмы развития гражданской позиции студентов на основе организационно-интегративной модели.

**Ключевые слова:** джадиды, моральный дух, гуманизм, роль и значение наследия джадидов в воспитании совершенного поколения, гражданство, гражданская позиция, личность, психологический портрет, национальный дух, национальный менталитет.

## **SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF STUDENTS' CITIZEN POSITION ON THE BASE OF THE HERITAGE OF THE VICTIMS OF REPRESSION**

**Abstract.** Every state in the world defines its main goal as finding in its citizens qualities that meet the requirements of the time and values compatible with the goals of society. By familiarising with the experience of countries striving for sustainable development and excellence, on the basis of adaptation to the needs of the time and interests of society, the article concluded that it is necessary to cultivate students' civic sense, to form a sense of social responsibility, to develop such qualities as self-awareness, tolerance, justice, to develop a civic position. From this point of view, it is necessary to study the heritage of victims of repressions, to determine the criteria for diagnosing the level of development of students' civic position and to develop a methodology for its evaluation. It is important to improve the mechanisms of students' civic position development on the basis of the organisational-integrative model.

**Keywords:** Jadids, spirit, humanitarianism, role and importance of Jadids' heritage in raising a perfect generation, citizenship, civic position, personality, psychological portrait, national spirit, national mentality.

**Kirish.** Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvida demokratik islohotlarni amalga oshirish, yuksak ma'naviyatlari, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, sog'lom e'tiqodli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyat boshqaruvida fuqarolar va jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlash hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning muhim yo'naliishi sifatida yuksak ma'naviyatlari, raqobatbardosh va yuksak kasbiy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lif-tarbiya tizimini hozirgi darajasiga ko'tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, ya'ni pirovard natijada malakali kadr tayyorlashga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyotining asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli, uning ta'lif-tarbiya tizimi qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

*Maqolaning dolzarbliji.* Jahonda har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali talabalardada fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, o'z-o'zini anglash, bag'rikenglik,adolatparvarlik kabi sifatlarni qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur, degan xulosaga kelindi. Ana shu nuqtayi nazardan talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlashtirish jarayoniga qatag'on qurbanlari merosini o'rganish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik darajasini tashxis etish mezonlarini aniqlash va baholash metodikasini ishlab chiqish; tashkiliy-integratsion model asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.

*Tadqiqotning maqsadi.* Qatag'on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga qaratilgan metodikalar tavsifini ishlab chiqish.

*Tadqiqot obyekti.* Tadqiqot ishimiz qatag'on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari bo'lganligi uchun tadqiqotning obyekti sifatida talaba yoshlardan tanlab olindi

*Maqolaning ilmiy yangiligi.* Qatag'on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarining o'ziga xosligi tadqiq etildi. Barkamol avlodni tarbiyalashda tarixiy, madaniy va ma'naviy merosning ahamiyati qanchalar muhim ekanligi ilmiy asoslandi. Qatag'on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy, amaliy va metodologik bilimlar uyg'unligi o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, analitik obzor, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Vatanimiz istiqqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardonha kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mana shu jihatdan olib qarasak har bir yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda qatag'on qurbanlarini namuna qilib, o'rnat qilib ko'rsatsak arziyi.

Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi g'oyani esga oling. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'mni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil kishi o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish va fuqarolik tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari L.Amanbayeva, N.Kritskaya, Ye.Belyaeva, M.Bogomaz, I.Gulyaeva, M.Erxova, T.Juravleva, V.Zolotov, S.Karpushkin, L.Kovalenko, L.Kuznetsovalar tomonidan tadqiq etilgan.

O.Musurmonova, M.Zaripov, S.Nosirxo'jayev, L.Koxonovich, D.Ro'ziyeva, T.A.Suxareva, E.Yusupov, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonovalarning ilmiy ishlarida talabalarni ijtimoiylashtirish omili sifatida o'z-o'zini anglash, ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-siёsiy yetuklik, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, fuqarolik faolligi va mas'uliyati kabi fuqarolik pozitsiyasi negizida aks etuvchi sifatlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

**Muhokama va natijalar.** Hozirgi globallashuv davrida yoshlarimizning ma’naviyati, madaniyatini oshirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Qatag‘on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga oid jahonda aynan shu mavzuda tadqiqotlar olib borilmagan bo‘lsa-da, lekin fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: talabalarni ijtimoiylashtirish omili sifatida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Kolumbiya universiteti); fuqarolik madaniyatini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Sorbonna universiteti); fuqarolik tarbiyasi va global ta’limni uyg‘unlashtirishning amaliy-teknologik tizimi ishlab chiqilgan (Frayburg universiteti); Yevropa davlatlarining integratsiyasi jarayonida fuqarolik tarbiyasini ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirilgan (Ta’lim tadqiqotlari Milliy fondi); guruhiy birdamlik («aydagarasyugi»)ni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Japan Institute of International Affairs); milliy omil ustuvorligi asosida fuqarolik pozitsiyasi va mafkuraning uyg‘unligini ta’minalash mexanizmlari takomillashtirilgan (Seoul of National University); fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir qadriyatlar tizimi ishlab chiqilgan (Chinese Academy of Social Sciences); shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyalari ishlab chiqilgan (Moskva davlat universiteti); milliy g‘oya asosida ozod va erkin fuqaro shaxsini shakllantirishning tashkiliy-teknologik tizimi takomillashtirilgan (Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy Markazi).

Ma’lumki, o‘z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o‘lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan jadidlar harakati o‘lka xalqlari tarixida muhim ro‘l o‘ynagan. Aslida jadid so‘zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma’nosini anglatib, yangi zamонавиy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tatbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat, shu oqim tarafdarlarining umumiyy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr bиринчи choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o‘lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g‘oyasi sifatida shakllandı.

XIX asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyatnomalar – Behbudi, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar.

Fuqarolik pozitsiyasi – har bir insonning jamiyat hayotidagi o‘z ishtirokini anglashidir. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs xususiy hamda umumiy tarzda atrof-muhitga nisbatan o‘z munosabatini namoyon qiladi. Bunday fuqarolar ijtimoiy qadriyatlarini amalga tatbiq etishga yo‘naltirilgan faoliyat tarzini egallab, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlarini bilan uyg‘unlashtira oladilar. Bunday ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yosh mutaxassislar, ayniqsa, talabalar jamiyatda munosib o‘rin egallab, O‘zbekiston fuqarosi, degan sharaflı nomga loyiq bo‘la oladilar. Buning uchun har bir talaba fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi kerak.

Shaxs pozitsiyasi – inson ma’naviyati, uning hayotdagи mavqeini aniqlashiga ko‘ra shaxsning o‘z hayotiy nuqtayi nazarini belgilashi uning madaniyati bilan bog‘liq bo‘lsa, fuqarolik pozitsiyasi uning o‘z fuqarolik nuqtayi nazarini aniqlashi uchun zarur hisoblanadi. Ushbu nisbatan tor tushuncha doirasida ijtimoiy hamda psixologik-pedagogik mohiyat ma’nosini ham uyg‘unlashgan. Mazkur birlikda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish maqsadga muvofiq: shaxsiy yo‘nalganlik; davlat va jamoatchilikka yo‘nalganlik; ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘nalganlik.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimi oldiga yangicha kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Chunki o‘qituvchi har bir o‘quvchiga alohida shaxs sifatida yondashish, ularning individual imkoniyatlarini aniq hisobga olish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozim. Ma’lumki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarga insoniy munosabatda bo‘lish ustuvor o‘rin egallaydi. Buning uchun professor-o‘qituvchilar ham, talabalar ham faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Tadqiqotlar natijasida talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga doir quyidagi kompetentsiyalar tizimi aniqlashtirildi: intellektual, madaniy, ma’naviy, jismoniy, kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lish; tarixiy meros va madaniy an‘analarga nisbatan hurmat-ehtiromda bo‘lishi, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xosliklarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish; tarixiy jarayonni harakatga kelтирувчи omillar va qonuniyatlarni tushunish, jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida inson omilining o‘rnini anglash; milliy va umumbashariy ahamiyatga ega masalalarni tushunishi, tahlil qilishi hamda axloqiy-huquqiy meyorlar va majburiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat’iyat ko‘rsatish; kasbiy faoliyat sohasida chuqr nazariy va amaliy bilimlardan foydalananish hamda zamонавиy axborot texnologiyalari yordamida mustaqil yangi bilim, amaliy ko‘nikmalar va ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lish; yangi g‘oyalarni yaratish, ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini

mustaqil olib borish qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish; faoliyati bo'yicha muloqot vositasi sifatida xorijiy tillardan birini erkin so'zlashuv darajasida bilish, nutq madaniyatini egallah, og'zaki va yozma nutqini asoslangan tarzda aniq bayon qila olish qobiliyatiga ega bo'lish; jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib borayotgan axborot texnologiyalari mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informatsion xavfsizlik, ya'ni davlat sirini himoya qilish talablariga rioya qilish malakasiga ega bo'lish kabilar tashkil etadi.

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o'zini-o'zi anglash, ijtimoiy-g'oyaviy yetuklik, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, fidoyilik sifatlarini shaklantirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yo'naltirilishi lozim. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni talabaga hurmat bilan yondashish, qiziqish, ehtiyojini inobatga olish, hamkorlik, tanlash, ishonch va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, subyektivlik, individual yondashuv prinsiplari asosida tanlanishi kerak.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot natijalariga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va rivojlantirishda quyidagi yo'llardan foydalanish samarali hisoblanadi: talabalar bilan birga darsdan tashqari vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik mavzularidagi tadbirlarni uyushtirish; talaba-yoshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir jahon mamlakatlari tajribasi bilan tanishtirish; yetuk fuqaroni shakllantirish maqsadida turli uchrashuv, tanlov, ko'rik, festival, forum, babs-munozara va davra suhbatlarini tashkil etish kerak bo'ladi.

Bir qancha mezonlar asosida respondent-talabalarda qatag'on qurbanlari merosi asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo'yicha baholash ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri deb topildi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari: yuqori, o'rta, past darajalar bo'yicha baholandi.

#### 1-jadval.

**Talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasi samaradorligi**

Mezonlar	Tajriba guruhi n <sub>1</sub> =300 nafar talabalarda (%)			Nazorat guruhi n <sub>2</sub> =320 nafar talabalarda (%)		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining mohiyatini anglash	18/28	24/45	58/23	20/27	29/44	51/29
Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunish	16/26	22/40	62/34	18/21	32/36	50/43
Fuqarolik pozitsiyasiga doir fazilatlardan xabardorlik	22/32	28/45	50/23	24/33	36/39	40/28
Fuqarolik majburiyati va jamoat topshiriqlarini masu'liyat bilan bajarish	16/24	27/40	57/36	18/20	28/32	54/48
Vatan mustaqilligi, yurt ozodligi, millatlararo totuvlik va tinchlikni asrab-avaylashda jonbozlik ko'rsatish	33/40	40/45	27/15	24/32	33/38	43/30
Vatanparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, fidoyilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, do'stlik, vijdonlilik, insonparvarlik tuyg'ulariga egalik	28/35	32/45	40/20	22/27	34/47	44/26
Bag'rikenglik, mas'uliyatlilik, intizomlilik sifatlariga egalik	25/37	35/41	40/22	26/28	28/31	46/41
Tirishqoqlik, qat'iyatlilik, jur'atlilik, sabrlilik, matonatlilik, turli vaziyatlarda o'zini tuta bilish, o'zini o'zi nazorat qila olish, faollik, dovyuraklik ko'rsata olish	24/36	29/42	47/22	23/27	23/29	54/44
Vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri baholash	16/19	18/38	66/43	17/27	20/60	63/13
Milliy meros va an'analarga aksiologik munosabatda bo'lish	14/18	19/47	67/35	15/25	19/56	66/19
Ta'lim muassasasi yoshlar ittifoqi va nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etish	26/35	39/49	35/16	20/27	26/32	54/41

Tabiat va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish	27/33	35/47	38/20	21/28	25/32	54/40
Axloqiy va huquqiy me’yorlarga to‘liq rioya qilish	24/27	29/37	47/36	19/22	23/29	58/49
Pedagogik kompentetlik va shaxsiy-kasbiy qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish	11/14	22/32	67/54	14/21	27/57	59/22


Jadvalga asosan tajriba va nazorat guruhi o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi N1 gipoteza va unga zid bo‘lgan N0 gipoteza tanlandi.

### 2-jadval.

#### Talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasi samaradorligi natijalari

Tajriba-sinov o‘tkazilgan vaqt	Guruhan	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajasi		
			Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba boshida	Tajriba	300	58	81	161
	Nazorat	320	62	98	160
Tajriba yakunida	Tajriba	300	131	116	53
	Nazorat	320	72	103	145

Bu ko‘rsatkichlarga mos diagrammalar quyidagicha ko‘rinish oldi:



1-rasm.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil o‘tkazilib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o‘rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik kriteriysi va ishonchli chetlanishlar aniqlandi.

### 3-jadval.

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S^2_X$	$S^2_Y$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$K$	$X^2_{n,m}$	$\square x$	$\square y$
2,25	1,78	0,5474	0,6316	2	3	7,71	601,67	60,7	0,08	0,09

Natjalarni tajriba va nazorat guruhi uchun Neyman g‘oyasi asosida ishonchli intervallari topildi.

Olingan natjalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori.

Demak, talabalarda qatag‘on qurbanlari merosi asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari 24,4% ga samaradorligi oshganligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va rivojlantirishda quyidagi yo‘llardan foydalanish samarali hisoblanadi: talabalar bilan birga darsdan tashqari vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik mavzularidagi tadbirlarni uyushtirish; talaba-eshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir jahon mamlakatlari tajribasi bilan tanishtirish; yetuk fuqaroni shakllantirish maqsadida turli uch rashuv, tanlov, ko‘rik, festival, forum, babs-munozara va davra suhbatlarini tashkil etish.

Tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga erishish maqsadida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga oid maxsus dastur va ma’nnaviy-ma’rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yaxlit pedagogik jarayonning asosini tashkil etib, mazkur jarayonda shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Qatag‘on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish har bir talabani kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Tajriba-sinov ishlari davrida tashkil etilgan amaliy faoliyat asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasi negizida aks etadigan mustaqil fikr lash, shaxsiy mulohazalarini erkin bayon etish, bildirilgan fikrni dalillar bilan asoslash, kongruentlik, liderlik kabi sifatlarni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga egaligini tasdiqladi.

### Adabiyotlar:

1. Bo’riyev M.R. Ajodolarimiz milliy-ma’naviy taraqqiyot va demokratik rivojlanishi haqida. Maqola. T: 2016. B 2.
2. Jumanazarov Y. “Yosh davrlar psixologiyasi” Namangan 2013. – B.75.;
3. Ahmedov S. Mustaqillik yillarda tarixiy adolatning tiklanishi. Toshkent 2012. B 81.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilarini ma’nnaviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ...diss. – T.,1993. – 364 b.
5. Nabiyev M.J. Demokratik jamiyat rivojida ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarning o’rni. Toshkent-2016. B-369.
6. Кохонович Л.И., Рябов Л. Гуманизм – нравственная основа формирования личности студента // Ж. Система воспитания в высшей школе. Вып. 7. – М.: 1993. – С. 28;
7. Захарова Е. Дидактические материалы к курсу — Человек и общество. – М., 1998.
8. Shodmonova Sh. Oliy o‘quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta’limi yo’nalishi misolida) Ped.fan.dok diss. – T.,2010. – 340 b.
9. Старшинина И.В. Феномен подростковой тревожности // Преподаватель XXI. 2007. № 1. . – B.113.;
- 10.Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002. – B.68-78.
- 11.Saidmurodov.Sh, Azizov.S Jadidlar faoliyatida ma’rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. Maqola.B 2-3.
- 12.Yusupov E. Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo’llari. - T.: O‘qituvchi, 1996. – B. 187.

*Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna,  
Farg’ona davlat universiteti,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD  
Saminjonova Zulayho Ibrohimjon qizi,  
Amaliy psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

## **YOLG‘IZLIK HISSINI TALQIN QILISH BORASIDAGI NAZARIY MUSHOHADALAR**

**Annotatsiya.** *Yolg‘izlik hissi mazmun jihatdan serqirra hodisa bo‘lib, barchada turli shakl va ko‘rinishlarda his qilingan holda inson psixikasi tomonidan majoziy tarzda idrok qilinadi. Bu esa o‘z navbatida mazkur muammoning ilmiy jihatdan anglanilishini qiyinlashtiradi. Turli sivilizatsiya tizimlari yolg‘izlik hissining tarixan shakllangan ijtimoiy-psixologik ko‘rinislari va ularning his qilinish usullarini yaratib kelgan, bu esa o‘z navbatida “yolg‘izlik” atamasiga yagona ta’rif berishning murakkabligini ifodalaydi. Mazkur maqola yolg‘izlik hissining psixologik hodisa sifatida aniq ifodalananadigan mezoniy chegaralarga ega ekanligi hamda individual aks ettiriladigan kechinma sifatida namoyon bo‘lishi masalalarini yoritishga bag‘ishlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *yolg‘izlik, yakkalanish, tanholik, psixodinamik konsepsiya, kognitiv konsepsiya, fenomenologik konsepsiya.*

### **ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА**

**Аннотация.** Чувство одиночества многообразное по содержанию явление, образно воспринимаемое человеческой психикой, ощущаемое всеми в различных формах и проявлениях. Это, в свою очередь, затрудняет научное осмысление данной проблемы. Различные цивилизационные системы создавали исторически сложившиеся социально-психологические проявления чувства одиночества и способы их ощущения, что, в свою очередь, выражает сложность единого определения термина “одиночество”. Данная статья посвящена освещению вопроса о том, что одиночество как психологическое явление имеет чётко выраженные критические границы, а также индивидуально отражаемое переживание.

**Ключевые слова:** одиночество, изоляция, уединение, психодинамическая концепция, когнитивная концепция, феноменологическая концепция.

### **A THEORETICAL REVIEW OF THE INTERPRETATION OF LONELINESS**

**Abstract.** *The feeling of loneliness is a phenomenon of diverse content, figuratively perceived by the human psyche, felt by everyone in various forms and manifestations. This, in turn, complicates the scientific understanding of this problem. Various civilizational systems have created historically developed socio-psychological manifestations of loneliness and ways of feeling them, which, in turn, expresses the complexity of a single definition of the term “loneliness”. This article is devoted to highlighting the issue that loneliness as a psychological phenomenon has clearly defined critical boundaries, as well as an individually reflected experience.*

**Keywords:** *loneliness, isolation, solitude, psychodynamic concept, cognitive concept, phenomenological concept.*

**Kirish.** Ma’lumki, yolg‘izlik hissining o‘rganilishi tarixiy jihatdan keng ifodalishga ega bo‘lgan muammo hisoblanadi. Aynan XX asrga kelib yolg‘izlik hissini tadqiq etish ilmiy nuqtayi nazardan amalgalashirila boshlandi. Rus psixologi Yu.M.Shvalb “...yolg‘izlik psixologik bo‘yoqqa ega bo‘la boshladi. U, avvalambor, insonning shaxsiy sifatlarini ifodalashi e’tiborga olina boshladi” degan fikri bunga yaqqol dalildir [4].

XX asrdan boshlab shaxs taraqqiyotida jamiyatning nufuzi e’tirof etila boshlanishida asosiy ahamiyat individning o‘zini jamiyatda qanday o‘rinda idrok qilishi kabi masalalarga qaratildi. Shu o‘rinda rus psixologi Yu.P.Koshelyovaning fikrlariga e’tiborni qaratamiz: “Yolg‘izlik hissining psixologik tabiatini yoritish muammosi, bir tomonidan, insonda o‘z-o‘zini anglash jarayonining rivojlanishi bilan, boshqa tomonidan, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda amalgalashirilishi lozim” [4].

**Nazariy-metodologik sharh.** Yolg‘izlik haqida fikr yuritish va o‘rganish o‘ziga xos qadimiy an’analarga ega bo‘lsa-da, uning tabiatini hamda namoyon bo‘lishi haqidagi nazariyalarda hozirga qadar

qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Shu sababli jahon psixologiya fanida yolg‘izlik hissini o‘rganish borasidagi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

Inson yolg‘izligi muammosini birinchilardan bo‘lib Zigmund Freyd maktabining psixoanalitiklari ishlab chiqqanlar. Ularning nuqtayi nazaricha, yolg‘izlik shaxsdagi narsissizm, takabburlik va aggressivlikning aksi natijasidir. Mazkur shaxs qirralari tug‘ma yoki o‘zlashtirilgan bo‘lib, asta-sekinlik bilan yolg‘izlik tushunchasida mujassamlashadi. Freydning shogirdi va izdoshi K.Xorni asabiy shaxslarni toifalashni tavsiflash natijasida ularning har birida ko‘ngilchan, o‘zini chetga olgan, aggressiv xarakterda ifodalananadigan yolg‘izlik hissiga izoh beradi. Yolg‘izlikni tushuntirishda psixodinamik yondashuv namoyandalaridan D.Zilburg, G.Sullivan, A.Barton, J.Ferreyra, Dj.Rubens, P.Xerbert Liderman kabilar o‘z izlanishlarida diqqat-e’tiborni shaxsiy xarakter xislatlарining qay biri yolg‘izlik hissini kechirishga olib kelishini aniqlashga qaratganlar. Ular qisman yoki umuman tashqi omillarni e’tibordan chetda qoldirganlar.

1938-yilda D.Zilburg birinchi marta yolg‘izlikning psixologik tahlilini ilmiy asoslab berishga hamda “yolg‘izlik” va “yakkalanish” tushunchalari o‘rtasidagi farqni olib berishga urindi. Bunda u “yolg‘izlik” tushunchasini kimsasizlik sifatida, “tanhолик”ni esa kayfiyatga bog‘liq ravishda yuzaga keladigan me’yoriy holat, deb talqin qiladi. D.Zilburgning fikricha, “tanhолик” insonning aniq bir shaxs bilan muloqotga ehtiyoj sezishi natijasida vujudga keladi. “Yolg‘izlik” esa aksincha doimiylik ko‘rinishiga xos bo‘lib, yengib bo‘lmas hissiyot hisoblanadi [10].

Yolg‘izlik hissiga oid konseptual asoslar Frida Fromm-Reyxmanning fikrlarida batafsil bayon qilingan. Uning yolg‘izlik hissiga oid qarashlari ruhiy kasallarni klinik tadqiq qilish natijasida ishlab chiqilgan. Shu sababli muallif yolg‘izlikni ikki tomonlama tushuntirishni ilgari suradi. Bunda yolg‘izlik, bir tomonidan, ruhiy ojiz insonlarni “hissiy falajlangan va yordamga muhtoj odamlarga aylantirishi” va ikkinchi tomonidan, “sog‘lom insonlardagi konstruktiv yolg‘izlik” hissini vujudga keltirishini aniqlaydi. Ruhan ojiz insonlarni yolg‘izlik axloqsiz odamga aylantiradiki, bu uning ruhiy buzilishiga olib kelishi muqarrar. Olimaning ta’kidlashicha, yolg‘izlikning shakllanishiga ona mehridan mahrum bo‘lish holati ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda Frida Fromm-Reyxman yolg‘izlik muammosini to‘lig‘icha o‘rganish murakkab hodisa ekanligini ham uqtiradi. Olima “yolg‘izlik” va “tanhолик” tushunchalarini insonning xarakterologik sifatlariga bog‘laydi. Uning fikricha, “tanhолик” me’yordagi o‘tib turuvchi aqliy yo‘nalish bo‘lib, u individning ixtiyoriy tarzda his qilinadigan yoki inkor etiladigan, ulug‘lik vasvasasi vositasida namoyon bo‘ladigan, shaxsiy kuch-qudratlilik his-tuyg‘usini saqlab qolishga intilishidir [3].

Frida Fromm-Reyxmanning 1959-yilda nashr qilingan esse-maqolasida yolg‘izlik haqida fikr-mulohazalarning kamligi, bu muammo haqida hali yetarlicha ma’lumotlar ishlab chiqilmaganligidan dalolat berishi ta’kidlanadi. Muallifning esse-maqolasida konstruktiv yolg‘izlik tushunchasi shunday tavsiflanadi: “... men yuqorida berilgan fikrlarimda ijodiylikka yo‘g‘rilgan yolg‘izlik haqida aytayotganim yo‘q. Insonlarning ruhiyatida shunday ixtiyoriy tarzda tanlanadigan yohud inkor etiladigan yolg‘izlik kechinmasi ham mavjudki, u orqali ham badiyi, ham ilmiy sohalarga taalluqli bo‘lgan barcha noyob ijodiy namunalar yaratiladi. Men bu yolg‘izlikni konstruktiv ko‘rinishdagi yolg‘izlik, deb atayman” [3].

Neofreydizmnning zamonaviy vakillaridan biri, aniqrog‘i, gumanistik psixoanaliz asoschisi Erik Fromm inson tabiatini o‘rganar ekan, undagi yakkalanish va yolg‘izlanishni tadqiq qilish bilan chegaralanmaydi. E.Fromm, insonning muloqotga ehtiyoji, odamlar orasida bo‘lish va o‘z-o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan intilish kabi holatlarining mavjudligi yolg‘izlikni inkor qilishga olib keladi, deb yozadi [4].

Sotsiologik yondashuvdagi yolg‘izlikka oid mashhur konsepsiyanı D.Rismen o‘z hamkasblari bilan ishlab chiqqan. Bu konsepsiya uning “Yolg‘iz olomon” nomli monografiyasida o‘z ifodasini topgan. D.Rismenning yolg‘izlikni o‘rganish borasidagi taddiqotlari metodologik asoslanishi bilan ajralib turadi. Amerikaliklarning siyosiy xatti-harakatlarini tahlil qilar ekan, D.Rismen va R.Sleyter yolg‘izlikni o‘rganish bo‘yicha taddiqotlarini “Amerika xarakteri” bilan bog‘laydilar. Bu bilan bir vaqtida ular jamiyat a’zolari ehtiyojlarining qanday qondirilishi masalasini ham tahlil qilishga urinadilar [4].

Sotsiologik yondashuvning yana bir vakili K.Boumen, yolg‘izlik – jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy o‘zgarishlarning salbiy natijasidir, deb yozadi. Olim yolg‘izlikni inson mavjudligining tabiiy holati, deb talqin qilsa-da, uning og‘riqli kechinma ekanligini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. K.Boumenning fikricha, ijtimoiy institutlarning har qanday o‘zgarishi “to‘ntarishlar” va shaxslararo munosabatlarning uzilishlariga olib keladi, bu esa yolg‘izlikka zamin yaratadi. K.Boumen sotsiologik yondashuvning boshqa barcha vakillari singari yolg‘izlikning sabablari insondan tashqarida mavjudligini uqtiradi [1].

R.Sleyter yolg‘izlikning manbai shaxsiy individualizm, ya’ni shaxsiyatparastlikda, deb hisoblaydi. Har bir inson birga bo‘lishga va muloqot qilishga intiladi. Lekin “Har kim o‘zi uchun” degan nuqtayi nazarning mavjudligi natijasida ulardagи muloqotga ehtiyoj qoniqarsiz tus oladi [4]. Olimning fikricha, mana shu holat yolg‘izlanishga olib keladi.

T.I. Golman “ijtimoiy yolg‘izlik” atamasini ham ajratib, unda ijtimoiy faollik va o‘zaro hamkorlik omillarining mavjud emasligini ta’kidlagan holda quyidagicha ta’rif beradi: “Ijtimoiy yolg‘izlik bu jamiyatda birligida ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadigan va hamkorlikda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan guruhlararo, individlararo o‘zaro ijobi yunusabatlarning mavjud emasligini ifodalaydigan, obyektiv va subyektiv omillarni namoyon qiladigan holat” [5].

Kognitiv yondashuvga ko‘ra, inson o‘z yolg‘izligini nafaqat his qilishi, balki ongli tarzda anglashi lozim. Kognitivistlar yolg‘izlikning vujudga kelish sabablarini yoritishda keng yondashuvga asoslanadilar. Ular bunda shaxs taraqqiyotidagi o‘tmish va hozirgi kun tajribalarining ta’sirini e’tibordan chetda qoldirmaydilar. Kognitiv yondashuvning yirik namoyandalari amerikalik ijtimoiy psixologlar Enn Peplo va Deniel Perlmanlar empirik tadqiqotlari orqali yolg‘izlik kechinmasi va o‘z-o‘zini past baholash o‘rtasidagi aloqani olib berganlar. Yolg‘izlikni tushuntirishda E.Peplo “Attributsiya” (ya’ni o‘ziga xos xususiyat, belgi, alomat) nazariyasini ilgari surgan. Agar individ o‘zini “yolg‘iz insonman” degan aniq atributsiyaga yo‘naltirsa, undagi yolg‘izlik hissi ko‘payadi va mustahkamlanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsiy yolg‘izligini anglash va yolg‘izlikka oid ichki kechinmalarni faollashtirish (samoatributsiya – o‘z-o‘zida belgilarni shakllantirish) inson hayotida mazkur hodisaning mavjudligiga olib keladi [4].

Karen Ruk va Enn Peplolar yolg‘izlikni tashxis qilishning uch qirrasini ajratib ko‘rsatganlar [4]. Ular: affektiv, bixevoiral va kognitiv tushuntirishdir. Yolg‘izlik hissining shakllanishida kognitivistlar o‘z-o‘ziga past baho berishni birlamchi, deb hisoblaydilar. Amerikalik psixoterapevt Jeffri Yang yolg‘izlik va tushkunlikning kognitiv terapiyasini taklif qildi. Uning fikricha, psixikaning ikkala hodisasi ham bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. J.Yang qisqa muddatda o‘tib ketuvchi, vaziyatga mos ravishda yuzaga keluvchi va doimiy kechiriluvchi yolg‘izlik hislarini o‘rgangan va ular o‘rtasidagi farqli jihatlarni ishlab chiqqan. Bu farqlar inson yolg‘izligining his qilinish davomiyligini aks ettirgan. J.Yang klinik tajribalari asosida ong xulq-atvor va emotsiyalarning ustakovkalarini tizimlashtirib ularni klasterlarga birlashtirgan. Uning klasterlari insonning yolg‘izlikka moyillagini aniqlashga yordam bergen. Olimning qarashlari kognitiv-bixevoiristik qarashlar deb ataladi [10].

Interaksionistik yondashuv vakillari yolg‘izlikning vaziyatli va shaxsiy qirralariga e’tiborni qaratadilar. Bir tomonidan ba’zi insonlar yolg‘izlikka nisbatan subyektiv moyillikka ega bo‘lsalar, boshqa tomonidan muayyan ijtimoiy vaziyatlar yolg‘izlikning namoyon bo‘lishini faollashtiradi. Ikkala qirraning namoyon bo‘lishi shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Bu yondashuvning yirik vakili R.Veys yolg‘izlikni shaxsiy va vaziyat omillarining birligidan kelib chiqadi, deydi. Yolg‘izlik ikkala omilning interaksiyasidir. R.Veys fikricha, individning hayotida uchraydigan yolg‘izlik ikki toifaga bo‘linadi: ijtimoiy va emotsiyal; ular o‘z o‘rnida turli ko‘rinishlar va affektiv ta’sirlarni namoyon qiladi [4]. Ijtimoiy yolg‘izlik muloqot, do‘stona munosabatlar yetishmaslidan, emotsiyal yolg‘izlik esa muayyan insonga nisbatan yaqin bog‘liqlikning yo‘qligidan kelib chiqadi. Emotsional yolg‘izlik ichki ruhiy bo‘shliq, xavotirlanish, g‘am-anduh kabi holatlar orqali ifodalanadi. Ijtimoiy yolg‘izlik shaxsiy marginallikning o‘sishi orqali ifodalanadi. Ularning o‘rtasidagi farqlarni aniqlash birmuncha murakkab, chunki ular bir-biriga o‘tib, o‘rin almashinib turadi. Yolg‘izlikni o‘rganish bo‘yicha interaksionistik yondashuvning yana bir vakili kanadalik ijtimoiy psixolog Vello Serma hisoblanadi. U yolg‘izlikni shaxsiy inqiroz sababli yuzaga keladigan ruhiy kechinma sifatida tahlil qiladi. Xususan, V.Serma o‘smirlar va o‘spirin-yoshlar o‘rtasidagi suisidlarning asosida “kuchli va tushuntirib bo‘lmaydigan yolg‘izlik hissi yotadi”, deydi [9].

Yolg‘izlikni ilmiy hodisa sifatida talqin qilish barobarida tadqiqotchilar uning turlari, ko‘rinishlari, toifalari va shakllarini turli mezonlar asosida ta’riflash interaksionistik yondashuv vakillaridan R.S. Veys ishlarida o‘z ifodasini topgan. Olim yolg‘izlikni “yakkalanish” atamasi bilan bog‘lagan holda uning ikkita toifasini ajratgan: ijtimoiy yakkalanish (ijtimoiy muloqotning yetishmasligi) va emotsiyal yakkalanish (muayyan insonga bog‘liqlikning yetishmasligi). Ijtimoiy yakkalanish muallif tomonidan insonning subyektiv ravishda shaxsiy yakkalanishiga munosabatini bildiradi. Ikkala toifa shaxsiy va vaziyatbop omillarning o‘zaro munosabatlari doirasida ishlab chiqilgan [4].

Fenomenologik yondashuv modeli K.Rojersga taalluqli. Uning asosida shaxsning “Men” nazariyasiga qarama-qarshi ichki “Men” va ijtimoiy tasavvurdagi “Men” tuzilmasi yotadi. Ularning o‘rtasidagi kurash natijasida esa yolg‘izlik holati kelib chiqadi. Inson o‘z-o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlarini kashf qilishi uchun ham yolg‘iz bo‘lishga intiladi. “Haqiqiy Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi tafovut yolg‘izlik deb atalgan himoya mexanizmiga olib keladi, deb yozadi K.Rojers [10].

Psixodinamik yondashuv namoyandalari qarashlaridan farqli ravishda K.Rojers yolg‘izlikning ildizlarini shaxsning yoshga xos bo‘lgan xususiyatlarida emas, balki shaxsga ta’sir qiladigan omillarda ko‘radi. Uning qarashlarida yolg‘izlik o‘zining muayyan joylashuviga ega emas, u insonni to‘lig‘icha qamrab oladi. Mazkur yondashuv vakillaridan Uilyam Sadler va Tomas Djonsonlar yolg‘izlikni zamonaviy

jamiyatdagi universal hodisa, deb atashadi. Mualliflar, yolg‘izlik insonning bu olamda kim ekanligini anglashga yordam beradi, deb ta’kidlaydilar [4].

Intim yondashuv modeliga ko‘ra, inson erishilgan va xohish-istiklarda mavjud harakatlardagi muvozanatga intiladi. Amerikalik tadqiqotchilardan Valerian Derlega va Stefan Margulis “intim” va “o‘zini oshkor qilish” atamalaridan foydalanadilar. Shu yerda e’tiborga olish lozimki, inglizcha “privacy” so‘zi “yolg‘izlanish, yakkalanish” deb tarjima qilinadi. Mazkur yondashuvning nomlanishi ham shu atamadan kelib chiqqan bo‘lib, uning vakillari asosiy e’tiborlarini yolg‘izlikni his qilishda yakkalanishning egallagan o‘rniga qaratadilar. Bunda muloqotning miqdoriy va sifatiy ahamiyatiga katta e’tibor beriladi. Valerian Derlega va Stefan Margulislardan muloqotdagi intimlik, ya’ni yolg‘izlikni his qilishga asoslangan yaqinlik darajasining shkalali modelini ishlab chiqqanlar. Olimlarning fikricha, yolg‘izlikning his qilinishiga ichki hamda tashqi omillar teng darajada ta’sir qildi [4].

Ekzistensial yondashuvga ko‘ra, barcha inson mohiyatan yolg‘izdir. Faqatgina ushbu kechinma individlarda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Yakkalanish va muloqotga intilmaslik insonga xos bo‘lgan tabiiylikni ifodalaydi. Ekzistensialistlar yolg‘izlikni psixik holat sifatida ongga taalluqli hodisa, deb hisoblaydilar. Inson psixikasida shaxsiy yakkalanishning ongli anglanishi ro‘y beradi va uni individ shaxsiy tabiatidan chiqarib tashlashi yoki inkor etishi mumkin emas. Yolg‘izlik insonning tabiatiga xos bo‘lgan individual holatdir, bu holat bilan kelishib yashash lozim. O‘z tabiatini anglash va his qilishgina insonni inson darajasiga olib chiqadi. Rus tadqiqotchilaridan L.I.Starovoytovaning fikricha, yolg‘izlik insonning ichki yakkalanishi bo‘lib, u individual mayjudlik asosidir. Agar inson muloqot jarayonida suhbatsoshi tomonidan hissiy qo‘llab-quvvatlash ehtiyojini qondirmasa, u yolg‘izlikni afzal ko‘radi [4].

Yolg‘izlik muammosini tadqiq qilgan zamonaviy ekzistensial psixologlardan Klark Mustakas va Irvin Yalomlarning ishlarini ham ta’kidlash o‘rinli. K.Mustakasning konsepsiysi asosida behalovat yolg‘izlik va sof ekzistensial yolg‘izlik o‘rtasida farq mavjud. Yolg‘izlik hissini kechirish xavotiri insonda himoyaviy harakatlar tizimini ishlab chiqishga undaydi. Natijada inson ko‘proq muloqot doirasida qolishga intiladi. Bu esa uning shaxsiy mavjudligidan qochish bilan izohlanadi. Sof ekzistensial yolg‘izlik esa insonning o‘lim, hayotiy murakkab vaziyatlarga duch kelishi bilan izohlanadi. Bunda tashqi omillar ikkilamchi o‘ringa tushib qoladi. K.Mustakas va I.Yalom yolg‘izlikning kelib chiqishiga e’tibor bermagan holda uni inson mavjudligi bilan bog‘lashadi. K.Mustakas yolg‘izlikning ijobiliyagini ta’kidlagan holda shunday deydi: “Yolg‘izlik insonning ijodiy kuchlarini faollashtiradi va yangiliklar yaratish uchun zamin hozirlaydi. U orqali inson shaxsiy faoliyatdagi unumdarlikning yuqori darajasiga ko‘tariladi. Yolg‘izlikning kechirilishi insonga haqiqiy, tom ma’nodagi o‘z-o‘zini anglashiga olib keladi” [7].

Yana bir ekzistensialist olim Ben Miyuskovich [2] yolg‘izlikni tahlil qilishda inson tabiatidagi motivatsiyalar nazariyasiga tayanadi. Inson mavjudligi yolg‘izlik kechinmasi mavjudligidan dalolat beradi, deydi olim. Inson o‘zining fiziologik va biologik ehtiyojlarini qondirganidan so‘ng o‘z yolg‘izligini yengillatishga harakat qiladi. Yolg‘iz inson tabiatan o‘z “Men”ini kashf qilishga intiladi. Yolg‘izlik muammosini o‘rganar ekan, B.Miyuskovich “o‘lim” tushunchasiga to‘xtalib o‘tadi. Uning yozishicha, “inson o‘limdan qo‘rqmaydi, balki unda yuz beradigan yolg‘izlanishdan qo‘rqadi... Chunki o‘limdagи qo‘rqinchli holat bu yolg‘izlikda qolishdir”.

Gumanistik yondashuv bo‘yicha inson yolg‘izligi muammosi A.Maslou ishlarida yaqqol ifodalangan. Uning fikricha, o‘z-o‘zini takomillashtiradigan shaxs yolg‘izlikka ehtiyoj sezadi va uning mohiyati o‘z-o‘zini anglash, takomillashtirish jarayonidagi me’yoriy ko‘rsatkich deb baholanadi. “Motivatsiya va shaxs” nomli kitobining “O‘zini o‘zi takomillashtiradigan insonlar psixologik salomatligini o‘rganish” nomli 11-bobida A.Maslou tomonidan shunday fikr-mulohazalar berilgan: “O‘z-o‘zini takomillashtirishga ehtiyoj sezadigan insonlarda yolg‘izlikka moyillik kuchli bo‘ladi. Albatta, bunday yolg‘izlik pozitiv ijobiliyikni, inson uchun mahsuldarlik xarakterini namoyon qiladi. Haqiqiy o‘zini anglash yolg‘izlikdan ayro holda bo‘lmaydi. Bunda mazkur holatning qanday kechirilishi muhim ahamiyatga ega”. A.Maslou o‘zini aktuallashtirishga intilgan shaxs o‘z hissiyotlari, fikrlari, kechinmalari va qadriyatlari tizimini ham takomillashtiradi, deydi [6].

Biologik yondashuv muallifi ingliz biologi va etnolog Dj.Relf Odi hisoblanadi. U XX asrning 60-yillarda “Inson – yolg‘iz mavjudot: yolg‘izlikning biologik ildizlari” nomli maqolasini yozadi. Olim yolg‘izlikning biologik ildizlari muammosi haqidagi munozarada ushbu mavzuga oid adabiyotlarning sanoqli ekanligi mazkur muammoning o‘rganilishi qanchalik muhimligini ko‘rsatib turibdi, deydi. Dj.Relf Odi yolg‘izlikni tushuntirishda bir nechta hodisalarga o‘z munosabatini bildiradi. Tanholik, majburiy yakkalanish, shaxsiy yolg‘izlanish, o‘z-o‘zi bilan yakka qolish, qo‘msash, quvg‘inlik, g‘am-anduh, siqilish, zerikish, odamovilik, yashashdan maqsadning yo‘qligi, tushkunlik kabilalar shular jumlasidandir. “Yolg‘izlik odamlar qurshovida bo‘lsangiz ham his qilinishi mumkin. Qo‘rquv, quvg‘inlikdan xavotirlanish yolg‘izlik hissini kuchaytiradi”, deb yozadi olim [8].

Umumtizimli yondashuv Dj.Flanders tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, unda yolg‘izlikni shaxslararo munosabatlarni me’yorlashtirib turadigan qaytar aloqaning buzilishi, deb aytilgan. Dj.Flanders umumtizim maktabining yorqin vakili sifatida yolg‘izlikni insonlarni muloqotdagi tanqisligi holatidan olib chiqib ketadigan va ijtimoiy munosabatlarning me’yoriy holatiga olib kiradigan mexanizm, deb hisoblaydi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida olim yolg‘izlikni patologik holat deb ham ataydi. Shuningdek, yolg‘izlik insonning ijtimoiy-psixologik noxush holatining o‘ziga xos indikatori sifatida talqin qilinadi.

**Muhokama va natijalar.** Freyd va uning izdoshlari yolg‘izlikni bola shaxsi taraqqiyotidagi ilk taassurotlar natijasida vujudga keladi, deb hisoblashgan. Yolg‘izlik muammosi bilan shug‘ullangan psixoanalizning barcha vakillari fanga “yolg‘izlik sindromi” tushunchasini kiritib, uning shakllanishida individning ilk bolalik davridagi rivojlanishining ahamiyatini ko‘rsatib bergenlar. Bola qurshovidagi insonlarning unga nisbatan mehr-muhabbati va maqtovlari kelajakda unda shaxsiy takabburlik va o‘rnini hech kim bosa olmaydiganlik hissi o‘zgalarning undan izzattalab obyektga aylanib qolishiga sabab bo‘ladi. Natijada o‘z shaxsining qadr-qimmatini oshirish insonda muloqotning yetishmasligi va dushmanlik holatlarini namoyon qiladi hamda yolg‘iz qolishga olib keladi. Psixodinamik an’analarning namoyandalari yolg‘izlikning vujudga kelishi va ifodalanishida ichki shaxsiy omillarning ta’siri ustuvor, degan xulosaga kelganlar. Ularning fikricha, ilk bolalik davrining hayotiy tajribasi ko‘pincha bolaning kelgusi hayotida shaxsiy yolg‘izlik hissining qay darajada ifodalanishini belgilaydi. Katta yoshdagilarning yolg‘izligi ularning bolalik davridagi taassurotlari manbaiga borib taqaladi hamda shaxsga salbiy ta’sir qiladigan patologik hodisa, deb baholanadi.

Sotsiologik maktab namoyandalari yolg‘izlikni turli pozitsiyalar, holatlar, munosabatlar, jarayonlar natijasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilishadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, yolg‘izlik holat sifatida jismoniy, ijtimoiy-psixologik va jamiyatdan ijtimoiy jihatdan begonalashish hamda insonning ehtiyojlari va shaxsiy qiziqishlarini inkor etadigan hissiyot. Yolg‘izlik munosabat sifatida o‘zgalar bilan muloqotga kirishish va xatti-harakatlarni amalga oshirishdan begonalashish, hech kimga o‘xshamasligini anglash. Yolg‘izlik jarayon sifatida jamiyatda yoki guruvida umume’tirof etilgan an’analar, me’yorlar va qadriyatlarning qabul qilinmasligidir. Yolg‘izlik natija sifatida shaxs ijtimoiy mavqeining ongli yoki majburiy tanlovi, o‘z dunyoqarashiga bog‘liq ravishda ijtimoiy guruhning boshqa a’zolari bilan muloqot va shaxsiy dunyoqarashi darajasida aynan bir xil deb qarashdan bosh tortishdir

Kognitiv yondashuv vakillarining fikricha, yolg‘iz odamlar muloqot jarayonida asosan o‘zları haqida gapiradilar, kam savol beradilar, suhbat mavzusini tez-tez o‘zgartirib turadilar. Shaxslararo munosabatlardagi ishonchsizlik, suhbatdoshining mavqeini past baholash, odobsizlik kabi omillar yolg‘izlikni his qilishni mustahkamlaydi. Uzoq muddat yolg‘izlikni his qilgan insonlarda o‘zining holati, kechinma va munosabatlarini idrok qilish standarti o‘zgaradi. Do’stlik va oilaviy hayot haqidagi haqqoniy bo‘lmagan tasavvurlar qo‘srimcha qiyinchiliklarni vujudga keltirishi natijasida yolg‘izlik noaniq va noto‘g‘ri ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga moyillikni orttiradi. Lekin shuni aytish joizki, yolg‘iz insonlar ham o‘zlarining baxtsizligi sababini tushuntirib berishni xohlaydilar. Mazkur fojeaviy holatning sabablarini aniqlash, yolg‘izlik muammosini hal qilishga qo‘ylgan birinchi qadam hisoblanadi. Yolg‘iz kishilar uchun “Yolg‘iz bo‘lishimda men qanchalik aybdorman?” – degan savol muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Fenomenologik yondashuv namoyandalari inson tasavvuridagi shaxslararo munosabatlar fenomenologik ideallar hamda real muloqot tuzilmasi o‘rtasidagi tafovutdan iborat, deydarlar. Xuddi ana shu tafovut yolg‘izlik hissini vujudga keltiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Inson to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga intiladi va bu jamiyatdagi ideal munosabat deb yuritiladi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, jamiyat individni shaxsiy individual xususiyatlari, tasavvurlari, qiziqishlari, xohish-istiklariga zid ravishda harakat qilishga undaydi. Natijada inson o‘zining fenomenologik ideallari mavjud bo‘lmagan qirralarini anglagan holda jamiyatdan o‘zgalarga o‘xshamagan o‘zining noqis tomonlarini ko‘ra boshlaydi. Bu esa unga og‘riqli holat sifatida yolg‘izlikni boshdan kechirishga olib keladi. Yolg‘izlikning yuzaga kelish sabablar esa individning ichki “shaxsiy Men”ida mujassamlashadi. Uning yorqin ifodasi insonning o‘z-o‘ziga, ichki olamiga g‘arq bo‘lishidir, deb aytadilar. Ba’zan yolg‘izlik ijodkorlik, yaratuvchanlik holatini ham ifodalaydi. Bunda inson uchun o‘z g‘oyalarini kashf etishida yolg‘izlikni his qilishi muhim o‘rin egallaydi. Yolg‘izlikni qabul qilish o‘ziga yarasha qat’iyat va matonatni talab qiladi. Ijodkor inson o‘ziga mos suhbatdoshni topadi, lekin jamiyatga nisbatan ular baribir yolg‘izdirlar.

Intim yondashuvda sifatiy muloqotning yaqinlik chuqurligi degan tushuncha borki, u shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun xizmat qiladi. Intimlikning qarama-qarshi ko‘rinishi muloqotning rasmiy tuzilishini belgilaydi. Intimlik va rasmiy muloqot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi yolg‘izlik hissini vujudga keltiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunonchi, shaxsning psixik salomatligida intimlik va rasmiylik o‘rtasidagi muvozanat muhim sanaladi. O‘ta yaqin munosabatlar o‘z chegarasiga ega bo‘lishi

lozim, uning chegaradan oshib ketishi inson hayoti uchun buzg‘unchi xarakterga ega bo‘lib qoladi. Natijada shaxsdagi psixologik himoya mexanizmlarining ta’siri pasayib ketadi.

Yolg‘izlik zamonaviy jamiyatda shaxsdagi psixologik muvozanatdan og‘ishlikni ko‘rsatadi. Intim yondashuvning asosida, individ kutilayotgan va erishilgan ijtimoiy aloqalarning darajasi o‘rtasida muvozanatni saqlashga intiladi, degan taxmin yotadi. Bu yondashuv vakillari ijtimoiy aloqalar majmui sharoitida individ mazkur muvozanatni saqlab qolishiga uning shaxsiy sifatlari qanday ta’sir etishi mumkinligi masalasini tadqiq etishgan. Ularga xos nazariy g‘oyalarning asosiy manbaini klinik amaliyot ham, empirik tadqiqot ham emas, balki kognitiv nazariyalar tashkil etadi.

Ekzistensial yondashuvning barcha vakillari shaxsni yolg‘izlikda mayjud bo‘lgan imkoniyatlari ko‘lami orqali tadqiq qiladilar. Ular shaxsnинг jamoadagi taraqqiyotini inkor qiladilar. Ya’ni inson faqatgina yolg‘izlikda nimalargadir qodir, jamiyat ichida u hech kimga aylanmaydi, degan g‘oyani ilgari suradilar. Ekzistensialistlar tasavvurida inson yoshlik va yetuklik davri bosqichida shaxsiy, noyob, qaytarilmas mavjudligini namoyon qiladi. Shaxsnинг yolg‘izlikni kechira olishga bo‘lgan qodirligi esa ana shu mavjudlikni shakllantiradi va rivojlantiradi. Shu o‘rinda N.A.Berdyayevning quyidagi fikrini eslash o‘rinli: ”... Inson yolg‘iz qolish huquqiga ega, modomiki, yolg‘izlikni his qilish asnosida shaxsiy kamolot, o‘z-o‘zini anglash, “Men”ning qaytarilmas va yagona qirralari kashf etiladi” [4]. Ya’ni yolg‘izlik insonga o‘z ichki olamini ochib borishga va shaxs sifatidagi takomillashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gumanistik yondoshuv Pozitiv yoki negativ tarzda yolg‘izlikni idrok qilish muayyan shaxsnинг ushbu kechinmani qanday his qilishiga bog‘liq. O‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni insonning butun hayoti davomida ro‘y bergani tufayli yolg‘izlik hissi ham individning umri davomida ifodalanib boradi. Shu o‘rinda rus olimi L.G.Grimakning quyidagi fikrini o‘rinli deb topdik: “Inson psixikasi va organizmining me’yoriy taraqqiy etishi uchun vaqtı-vaqtı bilan yolg‘izlikda qolib turish muhim” [4].

Biologik yondashuvning vakili Odi yolg‘izlik kechinmasini tahlil qilar ekan, avvalambor o‘z qalbiga culoq soladi va yolg‘izlikni his qilishning shaxsiy tajribalariga asoslanadi. Olim o‘z nazariy tahlillarida “tanholic – yakkalanish – yolg‘izlik” tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Odi ushbu tushunchalarni aniq ta’riflamasa-da, ular o‘rtasidagi farqli jihatlarni yoritib berishga urinadi. Dj.Relf Odi, yolg‘izlik bu tushuncha emas, balki yolg‘izlikni anglashdir, deydi.

Modomiki, inson o‘z g‘oyalarini amalgalashga urinar ekan, u intellektual, moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy asosga ega bo‘lmagan holda xatti-harakatlarni amalgalashga urinadi. Odatda insonning bunday xatti-harakatlari noadekvatlilik tizimidan iborat bo‘lib, u o‘zi anglamagan holda bir qator murakkabliklarga duch keladi. Natijada individ frustratsiya va ehtiyojlar deprivatsiyasiga tushib qoladi. Bu esa yolg‘izlik hissining yuzaga kelishi bilan bog‘lanib ketadi. Inson o‘z atrofidagilari tomonidan qabul qilinmaganligi, tan olinmaganligi va tushunilmasligi holatlarini his qiladi. Tashqi olam bilan munosabatlardagi nomutanosiblik yolg‘izlik hissining kuchli salbiy ko‘rinishda kechirilishiga olib keladi.

**Xulosa.** Yolg‘izlik muammosi jahon psixologiyasida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiylar, yondashuvlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Yuqorida tahlil qilib o‘tilgan yolg‘izlikni o‘rganish bo‘yicha har bir yondashuv bir-biridan masalaning chuqur tadqiq qilinganligi va nazariy tahlili bilan farq qiladi. Ko‘rib chiqilgan yondashuvlarning har biri yolg‘izlik hissining psixologik xususiyatlarini diqqat markaziga qo‘yadi. Bu esa o‘z o‘rnida mazkur kechinmaning inson tomonidan yaxlit idrok qilinish ining masalalarini ochib berish muhim ekanligi masalasini ochib bermoqqa.

Nazariy yondashuvlar tahlilidan kelib chiqqan holda, yolg‘izlik hissining determinantlari turli-tumanlikni kashf etadi. Xususan, psixodinamik yondashuv vakillari asosiy e’tiborni ko‘ngilchanlik, o‘zini chetga olish, aggressivlik, takabburlik, nartsissizm, kayfiyat o‘zgaruvchanligi kabi subyektiv determinantlarga qaratganlar. Obyektiv determinantlarning o‘rnini e’tibordan chetda qolgan. Yana bir tomoni mazkur yondashuv namoyandalari yolg‘izlikni yengib bo‘lmaydigan kechinma deb hisoblaganlar va uning ildizlarini shaxsnинг yoshga xos bo‘lgan xususiyatlarida deb bilganlar. Sotsiologik yondashuvga ko‘ra, yolg‘izlikni his qilish faqat obyektiv determinantlarga bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Interaksionistik yondashuvda yolg‘izlik hissining namoyon bo‘lishida vaziyatga bog‘liq determinantlar va subyektiv determinantlar farqlanadi. Ularning o‘rtasidagi farqlarni aniqlash birmuncha murakkab, chunki ular bir-biriga o‘tib turadi yohud o‘rin almashinib turadi. Fenomenologik yondashuv vakillari yolg‘izlikni insonning himoya mexanizmi deb qabul qiladilar va uning ildizlarini individga ta’sir qiladigan ichki omillarda ko‘radilar. Intim yondashuvga ko‘ra, subyektiv hamda obyektiv determinantlar teng darajada yolg‘izlikni his qilishga olib keladi. Shubhasiz, ular yolg‘izlikni – rivojlanayotgan jamiyatdagi me’yoriy tajriba sifatida baholashadi. Kutilayotgan va erishilgan ijtimoiy aloqa darajasi o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turishning uzluksiz jarayoni shaxs yolg‘izligining determinantini hisoblanadi. Ekzistensial yondashuvda individning mavjudligi insonda o‘z-o‘zi bilan ruhan yaqinlashuvni yuzaga keltiradi va inson mavjudligi avvaldanoq

yolg‘izlik bilan hamnafas ekanligi uqtiriladi. Shu sababli ham ekzistensionalistlar, yolg‘izlikdan qochish yoki undan qutulish yo‘llarini emas, balki undan oqilona foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish lozim, deb hisoblaydilar. Umumtizimli yondashuvga ko‘ra, yolg‘izlik hissining yuzaga kelishi subyektiv determinantlar bilan bog‘lansa, biologik yondashuvda psixofiziologik va nasliy determinantlarning ustunligi ta’kidlanadi. Intim yondashuv vakillari yolg‘izlik hissiga tashqi determinantlarning ta’siri kuchli ekanligi masalasiga to‘xtaladilar. Gumanistik yondashuvda ilgari surilgan fikr-mulohazalarda yolg‘izlik hissining namoyon bo‘lishida ichki determinantlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Kognitiv yondashuv namoyandalari esa yolg‘izlikka olib keluvchi bixeorial, kognitiv va affektiv determinantlar ustuvorligiga urg‘u berishgan.

Yondashuvlar doirasida olib borilgan ko‘plab tasavvurlar va xulosalar klinik kuzatishlar hamda empirik tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, yolg‘izlik hissini ilmiy yo‘nalishda zamonaviy fan nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etish lozimligini ko‘rsatib turibdi. Yolg‘izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari masalasi o‘z murakkabligi va serqirraligi bilan ajralib turadi hamda tadqiqotchidan individual jihatdan muammoning anglanganligini talab qiladi. Yolg‘izlik hissining ro‘y berishi tashqi va ichki, vaziyat va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga bog‘liq obyektiv determinantlarini o‘rganish jihatidan muhim metodologik asoslangan tadqiqotlar bosqichini talab qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Bowman, C.C. Loneliness and social change / C.C. Bowman // American Journal of Psychiatry. — 1955. — № 112. - P. 194-198
2. Ben Lazare Mijuskovic. Loneliness in Philosophy, Psychology, and Literature: Third Edition Paperback / iUniverse. - 2012. P. 306
3. Fromm-Reichmann // Notable American Women: The Modern Period : a Biographical Dictionary / edited by Barbara Sicherman, Carol Hurd Green, with Ilene Kantrov, Harriette Walker. — Cambridge, Mass.: Belknap Press of Harvard University Press, 1980. 252-254.
4. Yuldasheva M.B. Talabalarda yolg‘izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 19.00.05 / Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna. – Toshkent, 2022. – 121 b.
5. Гольман, Т.И. Социальное одиночество студенческой молодежи в транзитивном обществе: управлеченческий аспект: дис. ... канд. соц. наук: 22.00.08 / Гольман Татьяна Ивановна. - Новосибирск, 2008. – с. 190
6. Маслоу А.Г., Мотивация и личность. / 3-е издание. СПб.: Питер, 2008. – с. 352
7. Мустакас, К. (2004). Одиночество, творчество и любовь: пробуждая смысл жизни. Филадельфия, Пенсильвания: XLibris. Википедия site:livepcwiki.ru
8. Оди Дж Рэлф Одиночество животных и людей. / Перевод Елены Егоровой. Электронная библиотека. 2015. С.6
9. Серма Велло. Одиночество студента - тип личности. / Из книги “Лабиринты одиночества”. Перевод Е.Н. Егоровой. 2007. С. 15
10. Юлдашева, М. Б. (2022). Талабалардаги ёлғизлик ҳисси ва ҳаётга бардошлилигининг ўзаро муносабати: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.043> // Образование и инновационные исследования, - международный научно-методический журнал, (8), 300-306.

*Мундарижса/Содержание/Contents*

№		<i>bet</i>
		<i>cmp</i>
		<i>page</i>
1	<i>Miralimov Mirjamol Yuldashevich</i>	<b>3</b>
	<i>Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar</i>	
	<b>Психологические факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних</b>	
	<b>Psychological factors affecting the formation of criminal motives in minors</b>	
2	<i>Abdug'aniyeva Diyora Abdurashid qizi</i>	<b>9</b>
	<i>Destruktiv emotsional holatdagi shaxslarda shaxs xususiyatlarining o'ziga xosligi</i>	
	<b>Личностные характеристики лиц в деструктивном эмоциональном состоянии</b>	
	<b>Personality characteristics of persons in a destructive emotional state</b>	
3	<i>Abdullayeva Zuxro Ismoilovna</i>	<b>15</b>
	<i>Iqtidorli bolalar qobiliyati va muloqoti</i>	
	<b>Способности и общение одаренных детей</b>	
	<b>Ability and communication of gifted children</b>	
4	<i>Alimova Nargiza Usmanovna</i>	<b>19</b>
	<i>Ota-oná va farzand munosabatlari asosida bolalarda farovonlik tuyg'usini shakllantirish</i>	
	<b>Формирование чувства благополучия у детей на основе родительско-детских отношений</b>	
	<b>Formation of a sense of well-being in children based on parent-children relationships</b>	
5	<i>Ataboyev Navro'zbek Ilhombek o'g'li</i>	<b>23</b>
	<i>Yolg'izlikning shaxs shakllanishiga bo'lgan ta'siri</i>	
	<b>Влияние одиночества на формирование личности</b>	
	<b>Influence of loneliness on personal formation</b>	
6	<i>Baratova Dilafro'z Olimjanovna</i>	<b>28</b>
	<i>Noto'liq oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari</i>	
	<b>Социально-психологические проблемы неполной семьи</b>	
	<b>Social and psychological problems of single-parent family</b>	
7	<i>Bekmirov Tolib Rashidovich</i>	<b>35</b>
	<i>Ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatning o'ziga xosligi</i>	
	<b>Характеристика социально-психологических отношений между матерью и ребёнком</b>	
	<b>Characteristics of social-psychological relationship between mother and child</b>	
8	<i>Djumabayeva Manzura Bagibekovna</i>	<b>39</b>
	<i>O'smirlik davrida suitsidal xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari</i>	

	<b>Особенности суициального поведения в подростковом возрасте</b>	
	<b>Characteristic features of suicidal behavior in adolescence</b>	
<b>9</b>	<i>Elov Ziyodullo Sattorovich, Kodirjonova Nafisahon</i>	<b>43</b>
	<b>Noto‘liq oilalarda o‘smirlar rivojlanishining psixologik muammolari</b>	
	<b>Психологические проблемы развития подростков в неполных семьях</b>	
	<b>Psychological problems of adolescent development in faulty families</b>	
<b>10</b>	<i>Imonova Maftuna Baxtiyor qizi</i>	<b>47</b>
	<b>Sibling maqomini oila munosabatlarida empirik o‘rganish metodologiyasi</b>	
	<b>Методология эмпирического изучения статуса sibling в семейных отношениях</b>	
	<b>Methodology of empirical study of sibling status in family relations</b>	
<b>11</b>	<i>Isabayeva Dilfuza Komiljonovna</i>	<b>51</b>
	<b>Problems of identifying and developing knowledgeable, skilled and talented students</b>	
	<b>Bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talabalarni aniqlash va rivojlantirish muammolari</b>	
	<b>Проблемы выявления и развития эрудированных, способных и талантливых студентов</b>	
<b>12</b>	<i>Jabbor Alisher Musirmon o’g’li</i>	<b>55</b>
	<b>Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda tushunish fenomeniga doir tahliliy izlanishlar</b>	
	<b>Аналитическое исследование феномена понимания в современных психологических исследованиях</b>	
	<b>Analytical research on the phenomenon of understanding in modern psychological research</b>	
<b>13</b>	<i>Jalolova Mohigul Odiljon qizi</i>	<b>59</b>
	<b>Harbiy hamda harbiy bo‘limgan oilalarda rollar taqsimotining spetsifik xususiyatlari</b>	
	<b>Специфические особенности распределения ролей в военных и невоенных семьях</b>	
	<b>Specific features of the distribution of roles in military and non-military families</b>	
<b>14</b>	<i>Jurayev Xaydarjon Odilboyevich</i>	<b>63</b>
	<b>Shaxslararo munosabatlarda o’smirlar o’rtasida turli xildagi xarakter aksentuatsiyasining o’zaro ta’siri</b>	
	<b>Взаимодействие различных акцентуаций характера между подростками в межличностных отношениях</b>	
	<b>The interaction of different character accentuations between adolescents in interpersonal relationships</b>	
<b>15</b>	<i>Kayumova Go’zal Narzullayevna</i>	<b>68</b>
	<b>Yoshlarda nikoh motivlarining namoyon bo’lishi</b>	
	<b>Проявление брачных мотивов у молодых людей</b>	
	<b>Appearance of marriage motives in young people</b>	

	<i>Mamajonova Shaxzodaxon Yoqubjon qizi</i>	72
	<i>Psiyodiagnostika metodikalarini psixometrik mezonlariga muvofiqlashtirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari</i>	
16	<b>Преимущества использования информационных технологий в процессе согласования методов психодиагностики с психометрическими критериями</b>	
	<b>Advantages of using information technologies in the process of aligning psychodiagnostic methods with psychometric criteria</b>	
	<i>Mullabaeva Nozima Makhmudjanovna, Abdunazarova (Yusupova)</i>	78
	<i>Shokhroza Shamsiddin qizi, Mardiyeva Feruza Hasanovna</i>	
17	<b>Social-psychological features of self-esteem in teenagers</b>	
	<b>Социально-психологические особенности самооценки подростков</b>	
	<b>O'smirlarda o'zini-o'zi qadrlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</b>	
	<i>Maturazova Zulfiya Matiyazovna</i>	86
	<b>Talaba yoshlarning etnik o'zlikni anglashining tarkibiy komponentlari</b>	
18	<b>Структурные компоненты осознания студентами этнической идентичности</b>	
	<b>Structural components of students' understanding of ethnic identity</b>	
	<i>Normuminova Dilafro'z Erkinovna</i>	90
	<b>Shaxs emotsional holatlarini o'rghanish usuli</b>	
19	<b>Метод изучения эмоциональных состояний личности</b>	
	<b>Method of studying emotional states of personality</b>	
	<i>Orziqu洛ova Charos Raxmatovna</i>	94
	<b>O'smirlik davrida o'z-o'ziga munosabat omillari bo'yicha tadqiqot natijalari tahlili</b>	
20	<b>Анализ результатов исследования факторов самоотношения в подростковом периоде</b>	
	<b>Analysis of research results on self-attitude factors in adolescent period</b>	
	<i>Otamuratov Rustam Uskanovich, Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna, Ustin Pavel Nikolayevich</i>	101
	<b>Internet foydalanuvchilari hissiy intellektining psixologik xususiyatlari</b>	
21	<b>Психологические характеристики эмоционального интеллекта пользователей интернета</b>	
	<b>Psychological characteristics of emotional intelligence of internet users</b>	
	<i>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o'g'li</i>	107
	<b>O'smirlarda kreativlik darajasining jinsga xos xususiyatlari</b>	
22	<b>Гендерные особенности уровня креативности у подростков</b>	
	<b>Gender characteristics of the level of creativity in adolescents</b>	
	<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	111
	<b>Globallashuv sharoitida talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoyalashning ijtimoiy-psixologik omillari</b>	
23	<b>Социально-психологические факторы защиты студентов от манипулятивных воздействий в условиях глобализации</b>	
	<b>Socio-psychological factors of protecting students from manipulative influences in the context of globalization</b>	


	<i>Quliyev Yorqin Karimovich</i>	<b>116</b>
24	<b>Korrupsiya va korrupsiyaviv xulq-atvor fenomenining psixologik talqini</b> <b>Психологическая интерпретация феномена коррупции и коррупционного поведения</b>	
	<b>Psychological interpretation of the phenomenon of corruption and corruptive behavior</b>	
	<i>Qulmamatova Fazilat Qarshiyevna</i>	<b>123</b>
25	<b>Yoshlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishining etnopsixologik xususiyatlari</b> <b>Этнопсихологические особенности формирования у молодёжи деструктивного поведения</b>	
	<b>Ethnopsychological characteristics of destructive behavior formation in youth</b>	
26	<i>Ramazonov Zuxriddin Orif o'g'li</i> <b>Kursantlarda irodaviy sifatlarni shakllanishiga shaxs individual psixologik xususiyatlarining ta'siri</b> <b>Влияние индивидуальных психологических особенностей личности на формирование волевых качеств у курсантов</b>	<b>127</b>
	<b>Influence of individual psychological characteristics of the individual on the formation of volitional qualities in cadets</b>	
27	<i>Ro'ziyev Umar Muzafarovich</i> <b>O'spirinlik davridagi ijtimoiy fobiya holatining psixologik determinantlari</b> <b>Психологические детерминанты состояния социальной фобии в подростковом возрасте</b>	<b>131</b>
	<b>Psychological determinants of social phobia in adolescence</b>	
28	<i>Rustamova Shaxzoda Maripovna</i> <b>Noto'liq oila qizlarida ota shaxsiga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari</b> <b>Особенности отношения к отцу девочек из неполных семей</b>	<b>135</b>
	<b>Specific characteristics of the relationship to the father in daughter from incomplete families</b>	
29	<i>Sa'dullayev Aziz Akmal o'g'li</i> <b>O'smir kurashchilarda xavortirlanish hissi shakllanishining psixodiagnostikasi</b> <b>Психодиагностика формирования тревожности у подростков-борцов</b>	<b>139</b>
	<b>Psychodiagnostics of anxiety formation in adolescent wrestlers</b>	
30	<i>Saidova Yulduzxon Akbarjon qizi</i> <b>O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</b> <b>Чувство доверия у подростков и его социально-психологические характеристики</b>	<b>145</b>
	<b>Adolescents' sense of trust and its socio-psychological peculiarities</b>	

	<i>Sattarova Gulgona Ikromovna</i>	<b>149</b>
	<i>Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixokorreksion dasturi samaradorligi</i>	
31	Эффективность психокоррекционной программы формирования эмоционально-волевых качеств подростков с отклонениями в физическом развитии	
	The effectiveness of the psychocorrection program of forming emotional and volitional qualities in adolescents with defects in physical development	
	<i>Turdiyeva Muhayyo Sohibjon qizi</i>	<b>158</b>
	<i>Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari</i>	
32	Социально-психологическая характеристика тревожности у детей дошкольного возраста	
	<i>Social psychological characteristics of anxiety in preschool children</i>	
	<i>Xudoqulova Nazokat Rajab qizi</i>	<b>165</b>
	<i>"Oila ajrimlari" tushunchasi va uning mohiyatini o'rganishga doir nazariyalar</i>	
33	Теории изучения сущности понятия «семейные разводы»	
	<i>Theories of studying the essence of the concept of "family divorce"</i>	
	<i>Xudoqulova Shoira Husanova</i>	<b>170</b>
	<i>O'spirinlar intellektual yetukligining psixologik jihatlari</i>	
34	Психологические аспекты интеллектуальной зрелости подростков	
	<i>Psychological aspects of adolescents' intellectual maturity</i>	
	<i>Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi</i>	<b>174</b>
	<i>Ko'p bolali oilalarda oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar</i>	
35	Социально-психологические факторы, влияющие на уровень удовлетворённости семейной жизнью в многодетных семьях	
	<i>Social-psychological factors affecting the level of satisfaction with family life in the large families</i>	
	<i>Yo'ldoshev Jaylon Ablanazar o'g'li</i>	<b>181</b>
	<i>Qatag'on qurbanlari merosi asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari</i>	
36	Социально-психологические факторы формирования гражданской позиции студентов на основе наследия жертв репрессий	
	<i>Social-psychological factors of the formation of students' citizen position on the base of the heritage of the victims of repression</i>	
	<i>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna, Saminjonova Zulayho Ibrohimjon qizi</i>	<b>187</b>
	<i>Yolg'izlik hissini talqin qilish borasidagi nazariy mushohadalar</i>	
37	Теоретический обзор интерпретации чувства одиночества	
	<i>A theoretical review of the interpretation of loneliness</i>	



*Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring  
BUXDU.UZ*

Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab olishingiz mumkin



<b>PSIXOLOGIYA</b> ilmiy jurnal 2-son (58) Buxoro – 2024. 198 b.	Jurnal O'zbekiston psixologlarining BuxDU muassisligidagi nashri hisoblanadi.  <b>Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.</b>  OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi  Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shatrli bosma tabog'i - 28 Buyurtma №123. Adadi – 50 Bahosi kelishilgan narxda. "BUKHARAHAMD PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili:Buxoro sh. Q. Murtazoyev ko'chasi 344-uy.
---	---	---

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK  
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi  
201/3-sonli qarori bilan psixologiya  
fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari  
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy  
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan  
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291



9 772181 529113

11